

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

M. OCHILOV, N. OCHILOVA

OLY MAKTAB PEDAGOGIKASI

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan**

TOSHKENT–2008

M.Ochilov, N.Ochilova. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik. –T., «Aloqachi», 2008, 304 bet.

Darslik O'zbekistonda Oliy ta'limni isloh qilish sohasidagi tajribalarga tayanib, milliy va umuminsoniy pedagogik qadriyatlar asosida yaratildi.

Kitob magistratura ta'limining pedagogik mutaxassislik talabalari uchun darslik sifatida tayyorlangan, ayni paytda undan oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi amaliyotchi pedagoglari, pedagogika institutlari, pedagogik kollejlilar, pedagogik xodimlar malakasini oshirish tizimida ham, shuningdek, oliy ta'lim pedagogikasi masalalari bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

Учебник подготовлен на основе достижений современной педагогической науки и опыта перестройки высшего образования в Республике Узбекистан, опираясь на национальные и общечеловеческие педагогические ценности.

Книга написана как учебник для педагогических специальностей магистратуры, в то же время ею может пользоваться педагоги – практики высших, средних специальных педагогических учебных заведений, в системах педагогических институтов, педагогических колледжей, повышения квалификации педагогических кадров.

The textbook is prepared according to the requirements of the National program on a professional training and the Law on formation (1997); on the basis of achievements of a modern pedagogical science and experience of reorganization of higher education in the Republic of Uzbekistan; leaning on national and universal pedagogical values.

The book is written as the textbook for pedagogical specialties of a master degree, at the same time it can be used by – practice of the maximum, average special pedagogical educational institutions; in systems of pedagogical institutes, pedagogical colleges; improvements of professional skill of the pedagogical staff.

Taqrizchilar: **A.Ch. Choriyev** – pedagogika fanlari doktori;
R.D. Shodiyev – pedagogika fanlari doktori.

ISBN 978-9943-326-21-7

© «ALOQACHI» nashriyoti, 2008

MUQADDIMA

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarishning uchinchi bosqichi (2005 va undan keyingi yillar)da uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarini «ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlash» vazifasi belgilangan. O'quv yurtlari amaliyotida ta'limning yangi pedagogik texnologiyalari va interfaol usullarini qo'llash shu kunning dolzarb muammosiga aylandi.

Ma'lumki, pedagogik texnologiya **tizimli, texnologik yondashuvlarga** asoslanadi. Tizim atamasi bo'laklardan tuzilgan yaxlit bir narsa yoki hodisa degan ma'noni bildiradi. Pedagogik tizim – pedagogik texnologiyaning asosi, zamini hisoblanadi. «Ta'lim», «tarbiya», «o'quv jarayoni», «o'quv material», «o'quv axboroti» kabi mavhum ijtimoiy hodisalar ham qismlardan, bo'laklardan tuzilgan yaxlit, bir butun pedagogik tizimlardir.

Ta'lim jarayoniga **texnologik yondashuv** – talabaning bilim o'zlashtirishini qulaylashtirish maqsadida, avvalo, o'quv materialini (axborotni) bir-biri bilan o'zaro bog'liq qismlarga, bo'laklar (o'quv elementlari)ga ajratishni; so'ngra ta'limdan mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan o'quv-biluv faoliyatini (harakatlarni, amallarni) ketma-ket, bosqichma-bosqich, izchil amalga oshirishni; loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini birdek bajarishni talab etadi. Bu, pedagogika fanining **qonuniyatlaridan biridir**, ta'lim texnologiyasini qo'llash uchun unga amal qilish zarur.

Demak, ta'lim muassasalari amaliyotida pedagogik texnologiyani qo'llash uchun, avvalo, darslik va o'quv qo'llanmalarini pedagogikaning ana shu talabi (qonuniyati) asosida qayta ishlab chiqish kerak. Oliy maktab pedagogikasi o'quv kursi ikki qism, o'n yetti bobdan iborat qilib tuzildi,

matnlar ta'limning yuqorida keltirilgan qonuniyatiga amal qilgan holda ishlab chiqildi. Talabalar har bir bobning mazmunini o'qib, tezroq va osonroq o'zlashtirishlari uchun bobning boshlanishida asosiy (kalit) tushunchalar, bobning muhim masalalari (paragraflari), shuningdek, foydalanilgan adabiyotlar va mustaqil ishlash uchun topshiriqlar keltirildi. Mavzuning mazmuni bir-biri bilan o'zaro mantiqan bog'liq o'quv elementlari (bo'laklari)ga ajratilib, tartib raqami bilan belgilandi. Bobning oxirida nazorat uchun savollar keltirildi. Savollar yordamida talaba o'z-o'zini nazorat qilishi mumkin, shuningdek, ularni nazorat testlariga aylantirib, o'qituvchi yoki ekspert talabani shu bob bo'yicha bilim o'zlashtirish sifatini baholashi osonlashadi.

Qarshi davlat universitetining magistratura bo'limi talabalari bilan o'quv mashg'ulotlarini biz shu matnlardan foydalanib tashkil etdik. Talabalar mavzuning mazmunini tashkil etgan va tartib raqamlari bilan belgilanib, mantiqan izchil joylashtirilgan o'quv elementlari (bo'laklari)dan, avval, birinchisini o'qib, anglab, o'zlashtirib oladi, so'ngra ikkinchisini, uchinchisini... o'rganadi. Mavzularni bunday usulda o'rganish natijasida ta'limning samaradorligi sezilarli darajada ortdi.

I QISM. OLIY TA'LIM DIDAKTIKASI

1 - bob. OLIY MAKTAB PEDAGOGIKASIGA KIRISH

I. Asosiy tushunchalar: oliy ta'limning maqsadi, oliy maktab pedagogikasining predmeti, obykti, qonuniyatlari, prinsiplari, ilmiy tadqiqot metodlari, manbalari; oliy ta'lim sohasida O'zbekiston davlati siyosatining asosiy prinsiplari, ikki bosqichli oliy ta'lim, bakalavriat, magistratura.

II. Mavzuning muhim masalalari

1. Oliy maktab pedagogikasi – pedagogika fanining bir tarmog'i.

2. O'zbekistonda oliy ta'limning isloh qilinishi.

III. Manbalar, adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997.

2. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T. 1997.

3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent, 2001-yil.

4. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha me'yoriy hujjatlar. 1 - qism, Toshkent, 1998; 2 - qism, Toshkent, 1999.

5. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limning me'yoriy hujjatlari. Toshkent, 2001- yil.

6. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar. 2002-yil 16-avgustda tasdiqlangan.

7. Педагогика высшей школы. Цикл лекций.

Воронеж, 1989.

8. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, «Nasaf» nashriyoti, 2000-yil.

9. Ochilov M. Muallim - qalb me'mori. Saylanma. Toshkent, 2001-yil.

IY. Mustaqil o'qish uchun topshiriqlar:

1. O'zbekiston Respublikasining oliy ta'limga doir me'yoriy hujjatlarini o'qib, matnlashtiring.

I. Oliy maktab pedagogikasi - pedagogika fanining bir tarmog'i.

1. Pedagogik adabiyotlarda oliy maktab pedagogikasi atamasiga berilgan ta'riflar:

– Oliy maktab pedagogikasi – talabalarni o'qitish va tarbiyalash, yuqori malakali mutaxassis shaxsini shakllantirish haqidagi fan.

– Oliy maktab pedagogikasi – oliy ta'lim muassasasida talaba va professor-o'qituvchining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishga doir ilmlar majmui.

– Oliy maktab pedagogikasi – oliy o'quv yurtlarida o'qish - o'qitish, kasbiy bilim, malaka, ko'nikmalarni egallash, talabalarda yuksak ma'naviy - axloqiy sifatlarni tarbiyalashning mazmuni, shakl - usullari, qonuniyatlari haqidagi pedagogik fandır.

Bu ta'riflarning har birida ma'lum ilmiy haqiqat aks ettirilgan, ya'ni oliy maktab pedagogikasi tushunchasiga xos ayrim muhim xususiyatlar va belgilar keltirilgan.

2. Oliy maktab pedagogikasining **predmeti** – oliy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonlari, oliy maktabda ta'lim - tarbiyaning mazmuni, shakl - usullari.

3. Oliy maktab pedagogikasining **obyekti** – oliy ta'lim muassasalari faoliyati, professor - o'qituvchilar bilan talabalarining hamkorlikdagi faoliyati, hamkorlik faoliyatining turlari, shakllari.

4. Oliy maktab pedagogikasi pedagogika fanining bir

tarmog'i sifatida pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda aniqlangan " va ifodalangan umumiy pedagogik qonuniyatlar va prinsiplarga asoslanadi.

5. Oliy maktab pedagogikasining **umumiy qonunlarini** quyidagicha ifodalash mumkin:

– oliy ta'lim muassasasidagi ta'lim - tarbiyaning xarakteri, mazmuni, shakllari ijtimoiy taraqqiyotning har bir bosqichida shu jamiyatda mavjud bo'lgan ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan belgilanadi va davlat hujjatlarida ijtimoiy buyurtma sifatida ifodalanadi;

– oliy ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl- usullarining birligi.

6. Pedagogika fanida aniqlangan va qo'llanib kelinayotgan ta'limning umumiy prinsiplariga oliy ta'lim jarayonida ham amal qilinadi.

Bular:

– o'quv dasturlari, darsliklardagi bilimlarni ongli o'zlashtirish prinsipi;

– faollik prinsipi, talabaning faoliyatiga tayanib o'qitish prinsipi;

– oliy ta'limning mazmuni, shakl-usullari talabaning yosh xususiyatlariga mosligi;

– bilimlarni o'zlashtirish va malakalarni egallashda izchillik va tizimlilikka rioya qilish;

– ta'limning amaliyot bilan, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'liqligi;

– ko'rsatmalilik, axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish prinsipi.

7. Oliy maktab pedagogikasining **ilmiy tadqiqot** metodlari. Oliy maktab pedagogikasi yo'nalishidagi muammolarni tadqiq etishda, odatda, quyidagi pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari ko'proq qo'llaniladi:

– nazariy, falsafiy, badiiy, metodik adabiyotlar va manbalarni o'rganib, tahlil qilish metodi;

- ma’lum bir maqsad bilan kuzatish metodi;
- sotsiologik metodlar: savol - javob, anketa so’rovlari, intervyu olish;
- pedagogik ilmiy - tajriba (eksperiment);
- matematik - statistik tahlil;
- reyting metodi;
- biografiyalarni o’rganish metodi.

8. Oliy maktab pedagogikasining **manbalari** sirasiga quyidagilar kiradi:

- O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992), Ta’lim to’g’risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997);

- O’zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, ma’ruzalari, nutqlari, savol-javoblari;

- Oliy Majlis va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining me’yoriy hujjatlari;

- Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan allomalarning pedagogik g’oyalari, jahon pedagoglarining mumtoz asarlari;

- O’zbek xalq pedagogikasi asarlari, milliy-madaniy, axloqiy qadriyatlar, an’analar, urf-odatlar;

- pedagogikaga doir ilmiy, metodik adabiyotlar, darsliklar, o’quv rejaları, dasturlar, oliy ta’limning davlat standarti;

- badiiy - pedagogik asarlar;

- oliy ta’lim muassasalarining ish tajribalari (O’zbekiston va xorijiy mamlakatlarda);

- Avesto, Qur’oni Karim, Hadislar va boshqa ilmiy adabiyotlar.

II. O’zbekiston Respublikasida oliy ta’limning isloh etilishi.

1. O’zbekiston Respublikasida oliy ta’lim 1997-yilda qabul qilingan Ta’lim to’g’risidagi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida isloh etiladi. Ta’lim to’g’risidagi qonunda: «Oliy ta’lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta’minlaydi. Oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlash universitetlar, akademiyalar, institutlar va boshqa oliy ta’lim muassasalarida o’rta maxsus, kasb - hunar ta’limi negizida

amalga oshiriladi», - deyilgan.

2. Oliy ta'lim sohasida O'zbekiston Respublikasi amalga oshirayotgan **davlat siyosatining asosiy prinsiplarini** quyidagicha ifodalash mumkin:


- oliy maktabda ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi, izchilligi;
- oliy ta'limning maqsadi va mazmuni dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari asosida oliy ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- oliy ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalash-tirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- oliy ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi.

3. **Oliy ta'limning maqsadi** obyektiv xarakterga ega bo'lib, O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyatini qurish, mamlakatimizni bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida rivojlangan davlatga aylantirish ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Bu ehtiyojlar davlat buyurtmasi sifatida Ta'lim to'g'risidagi qonun (1997) va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida, Prezidentimizning asarlari, nutqlarida ifodalanadi.

O'zbekistonda oliy ta'limni **isloh qilish maqsadi** - oliy ta'limning tuzilishi, mazmuni, shakl va usullarini tubdan o'zgartirish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlardan to'la xalos etish asosida, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

4. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim **ikki bosqichli** qilib tashkil etiladi. Birinchi bosqichi - bakalavriat (kamida 4 yillik), ikkinchi bosqichi - magistratura (kamida 2 yillik) shaklida isloh etiladi. Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari va pullik - shartnomaviy asosda amalga oshiriladi. Fuqarolar ikkinchi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olish huquqiga ega.

OLIV TA'LIM SOHASIDA:



I-rasm. Oliy ta'lim prinsiplari.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Oliy maktab pedagogikasi tushunchasining ta'rifini ayting.
2. Oliy maktab pedagogikasining predmeti, obyektida deganda nimalar tushuniladi?
3. Oliy maktab pedagogikasining umumiy qonunlarini ayting.
4. Oliy ta'lim jarayonida qaysi prinsiplarga amal qilinadi?
5. Oliy maktab pedagogikasiga oid tadqiqotlarda qaysi metodlar qo'llaniladi?
6. Oliy maktab pedagogikasining manbalarini ayting.
7. O'zbekistonda oliy ta'lim nimalar asosida isloh etiladi?
8. Oliy ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplarini ayting.
9. Oliy maktablarni isloh qilishdan asosiy maqsad nima?
10. Ikki bosqichli oliy ta'lim, bakalavriyat, magistratura deganda nimalar tushuniladi?

2 - bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA‘LIMNING MAQSADI, VAZIFALARI

I. Asosiy tushunchalar: ta‘limning mazmuni, o‘quv rejasi, o‘quv fani, o‘quv semestri, o‘quv yili, o‘quv fani dasturi.

II. Mavzuning muhim masalalari.

1. Atamalarining ma‘nosi, oliy ta‘limning asosiy vazifalari.

2. Oliy ta‘limning tashkiliy masalalari.

III. Manbalar, adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taqqiyotining poydevori. T.: 1997, 11 – 12 - betlar.

2. Oliy ta‘lim haqida nizom (1998). Me‘yoriy hujjatlar. T.: 1998, 1-qism, 82 – 89 - betlar.

3. Ochilov M. Oliy maktabda axloqiy tarbiya tizimi. «Muallim qalb me‘mori» kitobi, T.: 2001, 127 –143 - betlar.

IV. Mustaqil ishlash uchun topshiriq:

1. Oliy ta‘lim haqida nizomni, tavsiya etilgan adabiyotlarni o‘qish, matn tayyorlash.

I. Oliy ta‘limga doir atamalarining ma‘nosi, oliy ta‘limning asosiy vazifalari.

1. Oliy ta‘limning atamalari:

– **oliy ta‘limning mazmuni** – davlat ta‘lim standarti talablari asosida belgilanadi, o‘quv rejasi, o‘quv fani, dasturi, darslikda ifodalanadi;

– **o‘quv rejasi** – oliy ta‘limning muayyan yo‘nalishi yoki mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv fanlari turlari, kurslarining tarkibi, ularni o‘rganish izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan me‘yoriy hujjat;

– **o‘quv fani** – ta‘lim muassasasida o‘rganish uchun fan, texnika, san‘at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan

sohasidan saralab olingan bilimlar, malaka va ko'nikmalar tizimi;

– **o'quv semestri** – oliy ta'lim muassasasida o'quv yilining yarmini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan fanlarning majmuini o'zlashtirishga mo'ljallangan va yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi;

– **o'quv fani dasturi** – ta'lim mazmuni, uni talabalar o'zlashtirishining eng muqobil usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan me'yoriy hujjat;

– **o'quv yili** – oliy ta'lim muassasasida bir ta'lim kursini yakunlashga mo'ljallangan o'quv faoliyati davri, u ikki kalendar yili bilan (2001–2002) belgilanadi.

2. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limning asosiy vazifalari:

– davlat ta'lim standartlariga muvofiq ilg'or, zamonaviy ta'lim va kasb-hunar dasturlari asosida ta'limni tashkil etish;

– O'zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanish istiqbollari, demokratik jamiyat qurish talablariga binoan fan, texnika, ilg'or texnologiyalar, iqtisodiyot va madaniyatning zamonaviy yutuqlari asosida kadrlarni o'qitish va tarbiyalash usullarini muntazam takomillashtirish;

– talaba yoshlarni mustaqillik mafkurasi, milliy istiqloq g'oyasi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni egallashi asosida vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash;

– o'quv amaliyotiga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini kiritish, ta'limni individuallashtirish, masofaviy ta'lim vositalari bilan ta'minlash;

– ta'lim, fan va ishlab chiqarish birlashuvining amaliy tizimlarini ishlab chiqish va amaliyotga kiritish;

– ilmiy-pedagogik kadrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy-ijodiy faoliyatlari orqali fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish;

– davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish asosida ta'lim xizmatlari bozorida raqobatli muhitni yaratish;

– oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish, ular mustaqilligini kengaytirish; ta'sisshilar, vasiylar, jamoat kuzatuv nazorati shaklida yangi jamoat boshqaruvini

shakllantirish;


– oliy ta'lim sohasida rivojlangan mamlakatlar bilan foydali xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

3. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalarining uchta turi joriy etilgan: universitet, akademiya, institut.

4. Universitet: a) ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha oliy va undan keyingi ta'lim turlari dasturlarini amalga oshiradi; b) kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish amaliyotini bajaradi; d) fanlar bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni bajaradi; e) bilimlarning tegishli sohalar bo'yicha ilmiy va uslubiy markaz vazifasini bajaradi.

5. Akademiya: a) muayyan bilim sohasi va kadrlar tayyorlash yo'nalishi bo'yicha oliy va undan keyingi ta'limlarning kasbiy dasturlarini amalga oshiradi; b) ma'lum sohalar uchun oliy ma'lumotli kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanadi; d) fan, madaniyat, san'at sohalar bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni bajaradi; g) o'z faoliyati sohasida yetakchi ilmiy va uslubiy markaz bo'ladi.

6. Institut: a) odatda, ta'limning bir sohasi doirasida oliy va undan keyingi ta'limning kasbiy ta'lim dasturlarini amalga oshiradi; b) xalq xo'jaligining ma'lum sohasi uchun mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etadi; d) amaliy va fundamental ilmiy tadqiqotlar olib boradi.



2-rasm.

II. Oliy ta'limning tashkiliy masalalari

1. Oliy maktabda o'quv - tarbiyaviy ishlar O'zbekiston davlatining me'yoriy hujjatlari asosida tashkil etiladi.

2. Oliy ta'lim muassasasida o'quv mashg'ulotlarining quyidagi turlari joriy qilingan: ma'ruza, maslahat, seminar, amaliy mashg'ulot, mustaqil ish, amaliyot, kurs ishi (loyihasi), malakaviy bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash.

3. Auditoriya mashg'ulotlarining barcha turlari uchun 45 minutlik (tanaffussiz juft ma'ruzalar uchun 40 minutlik) akademik soat joriy etilgan.

4. Oliy maktabda o'quv yili, odatda, ikki semestrga bo'linadi, ulardan har biri talabalar o'zlashtirishi natijalari yakunlanishi bilan tugallanadi.

5. Talabalarning fanlarni o'zlashtirishi «a'lo», «yaxshi», «qoniqarli», «qoniqarsiz» baholarda joriy, oraliq, yakuniy nazorat ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi. Oliy o'quv yurtini bitirish vakolatli davlat idorasi tasdiqlagan nizomga binoan yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanadi. Malakaviy amaliyotning barcha turlari davlat va nodavlat korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda ular bilan oliy ta'lim muassasasi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan o'quv rejalari va malakaviy amaliyot haqidagi namunaviy nizomga muvofiq o'tkaziladi.

6. Oliy ta'lim dasturlarini kunduzgi, sirtqi, eksternat va masofaviy ta'lim olish shakllarida o'zlashtirish mumkin. To'lov - kontrakt asosida o'zga shaklda ikkinchi tur ta'lim olishga ham yo'l qo'yiladi.

7. **Eksternat** — oliy ta'limning tanlangan yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha kasbiy ta'limga muvofiq fanlarni mustaqil o'zlashtirish va ta'lim muassasasida davriy (joriy va yakuniy) attestatsiyadan o'tishdir.

8. **Masofaviy ta'lim** — oliy ta'limning kasbiy ta'lim dasturlarini, asosiy faoliyatdan ajralmagan holda, ta'lim muassasasidan uzoqda o'zlashtirish. U zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalari, texnik vositalaridan foydalanishga asoslanadi. Eksternat va masofaviy ta'lim vakolatli davlat idorasi tasdiqlagan nizomga binoan amalga oshiriladi.

9. Oliy ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan o'zaro bog'lanishi amaldagi qonunlarga muvofiq turli shakllarda

amalga oshiriladi.

10. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy - axloqiy tarbiyasi va dunyoqarashi milliy istiqlol g'oyasi; ta'limning insonparvarlik mazmunida bo'lishi; ilg'or milliy madaniy urf-odatlar, an'analar, umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantiriladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Oliy ta'limga doir atamalarning nomini va ma'nosini ayting.

2. O'zbekistonda oliy ta'limning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

3. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining qaysi turlari joriy etilgan?

4. Universitet, akademiya, institut atamaları nimalarni anglatadi?

5. Oliy maktabda o'quv mashg'ulotlarining qanday turlari, shakllari qo'llaniladi?

6. Talabalarning bilimi qanday shaklda baholanadi?

7. Eksternat tushunchasi nimani anglatadi?

8. Masofaviy ta'lim nimaligini ayting.

9. Bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy-axloqiy sifatlari nimalar asosida shakllantiriladi?

3 - bob. OLIY TA'LIMNING DAVLAT TA'LIM STANDARTI

I. Asosiy tushunchalar: oliy ta'lim, bakalavr, magistr, oliy ma'lumot, oliy ma'lumot haqida davlat hujjati (diplom), oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori, oliy ta'limning davlat ta'lim standarti, malaka talablari, ta'lim dasturi, o'quv fanlari bloki, o'quv fani dasturi, malaka amaliyoti, yakunlovchi davlat attestatsiyasi, ta'lim sifatini nazorat qilish, oliy ta'lim muassasasi attestatsiyasi, oliy ta'lim muassasasi akkreditatsiyasi.

II. Mavzuning muhim masalalari:

1. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti (asosiy qoidalar) haqida umumiy tushuncha.

2. Oliy ta'limning yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori haqida umumiy tushuncha.

III. Manbalar, adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limining me'yoriy hujjatlari. Toshkent, 2001, 137-bet.

2. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti, asosiy qoidalar. O'sha kitobda.

3. Oliy ta'limning yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori. O'sha kitobda.

IV. Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta'limning davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 2002-yil 16-avgust 343-son qarorini o'qib chiqing. «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limining me'yoriy hujjatlari». Toshkent, 2001 y. 4, 5-betlar.

2. Standartda qo'llanilgan atamalar ta'riflarini ko'chirib oling. O'sha kitob, 9-10 - betlar.

3. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari ta'lim dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablarni

matnga aylantiring. O'sha kitob. 1 – 13 - betlar.

4. Bitiruvchilarning tayyorgarligiga nisbatan umumiy malaka talablarini ko'chirib oling. O'sha kitob, 14–15 - betlar.

5. Magistratura ta'limining pedagogika mutaxassisligi bo'yicha davlat ta'lim standartini o'rganib chiqing.

1. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti haqida umumiy tushuncha

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi qarori bilan «Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti (asosiy qoidalar)» tasdiqlandi. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti (OTDTS) – bakalavriat yo'nalishi va magistratura ixtisosligiga qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmuni, bakalavr va magistr tayyorgarligining zaruriy darajasini, sifatini belgilaydigan me'yoriy hujjatdir. Ushbu me'yoriy hujjat Ta'lim to'g'risidagi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Prezidentimizning xalq ta'limi sohasida 1997–1998-yillardagi farmonlari asosida, shuningdek, YUNESKO tomonidan 1997-yilda qabul qilingan ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi prinsiplari asosida ishlab chiqilgan.

2. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti (asosiy qoidalar) quyidagilarni belgilaydi:

– kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga quyiladigan umumiy talablarni;

– ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarli bilim darajasini va bitiruvchilarga qo'yiladigan umumiy malakaviy talablarni;

– o'quv yuklamasining hajmini;

– oliy ta'lim muassasasi faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibi va mexanizmini.

3. OTDTS asosida tegishli davlat idoralari o'quv jarayonini, ta'lim muassasalari faoliyatini, kadrlar tayyorlash, darslik, o'quv qo'llanmalari yaratish sifatini baholashni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni - bakalavriat yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari uchun DTS, o'quv rejaları, dasturlari va boshqalarni ishlab chiqadi.

4. OTDTS O‘zbekiston Respublikasidagi barcha ta‘lim muassasalari uchun majburiydir.

5. To‘plangan tajribalar hamda mamlakatimiz taraqqiyoti istiqbollarini hisobga olgan holda OTDTS ga zarur tuzatish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

6. Oliy ta‘limning birinchi bosqichi — **bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi** bo‘yicha fundamental bilim beradigan tayanch oliy ta‘lim quyidagi majburiy fanlar bloklarini o‘zlashtirishni nazarda tutadi:

- gumanitar va ijtimoiy - iqtisodiy fanlar;
- matematik va tabiiy - ilmiy fanlar;
- umumkasbiy fanlar;
- ixtisoslik fanlari;
- qo‘shimcha fanlar.

7. Bitiruvchilar kasb faoliyati ko‘nikmalarini egallashlari uchun malakaviy amaliyotni o‘tishlari nazarda tutiladi. O‘quv dasturlari rejasi majburiy fanlar bilan bir qatorda talabalar tanlaydigan fanlarni ham o‘z ichiga oladi. Bakalavriat yo‘nalishlari yakunlovchi davlat attestatsiyasi bilan tugallanadi.

8. Bakalavr — ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma‘lumotli shaxslar egallashi lozim bo‘lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga tayyorlanadi. Shuningdek, tanlangan mutaxassislik bo‘yicha magistraturada o‘qishni davom ettirishi, qayta tayyorlash, malaka oshirish tizimida qo‘shimcha kasb ta‘limi olishi ham mumkin.

9. Bakalavriat o‘quv fanlari bloklari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Gumanitar va ijtimoiy fanlar bloki:

– o‘rta maktabda olingan bilimlarni to‘ldirish, rivojlantirish; milliy istiqloq g‘oyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma‘naviyat va demokratik madaniyatga doir bilimlarni egallash;

– ta‘limning tarix, falsafa, xalq an‘analari, urf-odatlarini bilan uzviy birligi, o‘zbek xalqi madaniyatini asrash va boyitish, boshqa xalqlar tarixi va madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga doir bilimlarni o‘zlashtirish;

– insonparvarlik va baynalmilalchilik ruhini rivojlantirish;

– ta’lim - tarbiya jarayoni mustaqil fikrlaydigan, qarorlar qabul qila oladigan barkamol shaxsni shakllantirishga yo’naltirilganligini ta’minlashi lozim.

Matematik va tabiiy fanlar bloki:

– bilishning matematik usullari, informatika hamda axborot to’plash, ularni qayta ishlash va uzatish usullari, ularning jamiyatdagi o’rni va ahamiyati haqidagi bilimlarni egallashni;

– koinotning tabiiy obyekt ekanligi va evolutsiyasi, tabiiy fanlarning o’zaro fundamental birligi; tabiatdan oqilona foydalanish va inson faoliyatining ekologik tamoyillari; tabiatga putur yetkazmaydigan texnologiyalar yaratish istiqbollari haqida ilmiy tasavvurlarni hosil qilishni;

– muayyan bilim sohasi uchun zarur bo’lgan fundamental fanlarni chuqur o’rganishni nazarda tutadi.

Umumkasbiy fanlar bloki:

– matematik, tabiiy-ilmiy fanlar bilan maxsus fanlar o’rtasidagi ilmiy - nazariy bog’liqlikni anglashga;

– maxsus fanlarni chuqur egallash uchun zarur bo’lgan fundamental umumkasbiy bilimlar hosil qilishga;

– modelli tasavvurlarni, tajriba usullari va olingan natijalarni qayta ishlash yo’l - yo’riqlariga oid bilimlarni o’zlashtirishni nazarda tutadi.

Maxsus fanlar bloki:

– bakalavriat yo’nalishi bo’yicha kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar haqida tasavvur hosil qilishni;

– tegishli bakalavriat yo’nalishi bo’yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko’nikma va malakalarini egallashni;

– magistratura mutaxassisligi bo’yicha kelgusida ta’limni davom ettirishni nazarda tutadi.

Qo’shimcha fanlar bloki:

– talabaning bakalavriat ta’lim fanlari bo’yicha qo’shimcha, chuqur bilim olishiga bo’lgan ehtiyojini qondirishi;

– ta’lim sifatiga qo’yilayotgan talablar va mehnat bozori konyunkturasi tez o’zgarayotgan sharoitda bakalavriat ta’lim dasturlarining moslashuvchan bo’lishini ta’minlashi lozim.

10. Bakalavriatni bitiruvchining kasb tayyorgarligiga qo’yiladigan **umumiy malaka talablari** quyidagilarni o’z ichiga oladi:

– dunyoqarash bilan bog’liq tizimli bilimlarni, gumanitar va ijtimoiy fanlar asoslarini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini, ijtimoiy jarayon muammolarini mustaqil tahlil eta olish malakasini hosil qilish;

– Vatan tarixi, milliy va umuminsoniy ma’naviy qadriyatlar masalasi yuzasidan o’z fikrini ilmiy asoslay bilish malakasiga, milliy istiqlof g’oyasiga asoslangan hayotiy nuqtai nazarga ega bo’lish malakasi;

– tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi zamonaviy ilmiy bilimlardan o’z kasb faoliyatida foydalana olish ko’nikmasi;

– boshqalarga, jamiyatga, atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy, ma’naviy mezonlarni bilish va kasb faoliyatida qo’llay olish malakasi;

– axborotlarni yig’ish, saqlash, qayta ishlash usullarini kasb faoliyatida qo’llay olish, mustaqil qarorlar qabul qilish malakasi;

– bakalavriat yo’nalishi bo’yicha raqobatbardosh umum-kasbiy tayyorgarlik malakasiga ega bo’lishi;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay olish ko’nikmasiga, mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish malakasi;

– sog’lom turmush tarzi malakasiga, amal qilish o’zini jismoniy chiniqtirish ko’nikmalariga ega bo’lishi lozim.

11. Magistratura – bakalavriat negizida o’qish muddati kamida ikki yil bo’lgan aniq mutaxassislik bo’yicha oliy ta’lim bo’lib, quyidagi majburiy (zaruriy) fan bloklarini o’zlashtirishni nazarda tutadi:

– umummetodologik fanlar bloki;

– mutaxassislik fanlari bloki;

– ilmiy faoliyat bloki.

12. Magistratura o’quv rejalari majburiy o’quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlaydigan fanlarni ham o’z

ichiga oladi, talabalarning mustaqil bilim olishlarini nazarda tutadi. Magistratura yakunlovchi davlat attestatsiyasi, magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan tugallanadi.

13. Magistrlar tanlangan mutaxassislik bo'yicha mustaqil ilmiy tadqiqot, ilmiy- pedagogik va kasbga doir boshqaruv faoliyati bilan shug'ullanadi. Aspiranturada o'qishni davom ettirishi mumkin. Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limini egallashi ham mumkin.

Magistratura talabalari egallashi zarur bilimlar sirasiga quyidagilar kiradi. Umummetodologik fanlar sohasida:

– milliy istiqlol g'oyasi va gumanitar, texnik, tabiiy fanlarning falsafiy masalalari;

– insoniyatning global muammolari, ma'naviy hayot, shaxs va jamiyat ehtiyojlari, zamonaviy sivilizatsiya va uning taraqqiyot yo'nalishlari, axborot tizimlariga doir bilimlar;

– ilmiy va ilmiy-texnik axborotlar bilan ishlash usullarini bilish;

– ilmiy ijod metodologiyasi, empirik va nazariy tadqiqot usullari, qonunlar va qoidalar mantig'i, asoslash va inkor etish yo'llariga doir bilimlar;

– pedagogik texnologiyalar, menejment va iqtisodiyot haqidagi bilimlarni egallashi talab etiladi.

Mutaxassislik fanlari sohasida:

– muayyan mutaxassislik bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni egallash;

– mutaxassislik bo'yicha bilimlar bazasini jamlash, yaratish;

– mutaxassislik bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish usullari, modellashtirish va tizimli yondashishga doir bilimlarni egallash.

Ilmiy faoliyat sohasida ilmiy tadqiqot va ilmiy - pedagogik ishlarni bajarish nazarda tutiladi.

Ilmiy tadqiqot ishlari:

– mustaqil tadqiqotchilik ko'nikmalarini hosil qilish;

– axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish; tadqiqot natijalarini

tahlil qilish va ifodalash; ilmiy maqolalar tayyorlash ko'nikmasi; •

– fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga doir axborotlarni to'plash va ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanishni bilish talab etiladi.

Ilmiy -pedagogik ishlar sohasida:

– zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, ta'lim-tarbiyaning interfaol usullaridan pedagogik amaliyotda foydalanish;

– o'quv jarayonini ilmiy - uslubiy jihatdan samarali tashkil etishni bilish talab etiladi.

Magistraturaning bitiruvchisi quyidagi malaka va ko'nikmalarni egallashi zarur:

– tanlangan mutaxassislik bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni bajara olish malakasini, shuningdek, fan, texnika, texnologiya, iqtisodiyot va san'atning zamonaviy yutuqlarini amaliyotda joriy etish malakasini;


– mutaxassislikka oid ilmiy muammolar bilan bog'liq vazifalarni ifodalash va hal etish ko'nikmasi, qarorlar qabul qilish, zarur bilimlar bazasini yaratish va undan kasb faoliyatida foydalanish malakasi;

– tadqiqot natijalarini tahlil qilish va qayta ishlash metodikasini ishlab chiqish va qo'llay olish; ilmiy tadqiqot natijalaridan amaliyotda foydalanishga doir tavsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish malakasiga ega bo'lishi;

– kasb vazifalarini avtomatlashtirish va kompyuterda modellashtirish metodlarini, eng maqbul yechimlar topish usullarini egallagan bo'lishi;

– bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va ilmiy-pedagogik jamoalarni boshqarishni ilmiy asosda tashkil eta olish malakasi;

– zamonaviy axborot tizimlaridan foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni qo'llay olish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi.



3-rasm. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti.

II. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori haqida umumiy tushuncha

1. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari **klassifikatori** — oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'limi yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidan iborat.

2. Mavjud klassifikator Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgust qarori bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasining axborotlarni kodlash va tasniflash yagona tizimi (KTYAT)ning tarkibiy qismi bo'lib, YUNESKO tomonidan 1997-yilda qabul qilingan ta'limning xalqaro standart klassifikatsiya (TXSK)si prinsiplari asosida tuzilgan.

3. Mazkur standart mutaxassis kadrlar tayyorlashning amaldagi va istiqboldagi ehtiyojlariga muvofiq ravishda oliy ta'limning O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan yo'nalishlari va mutaxassisliklarini tartibga soladi. U O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti tarmoqlarini boshqarishda, davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari amaliyotida, axborotlarni avtomatlashtirilgan qayta ishlash, ayriboshlash jarayonida qo'llaniladi. Shuningdek, o'qishga qabul qilish, mutaxassislar tayyorlashni boshqarish, statistik hisobotlar kabilarda foydalanishga mo'ljallangan.

4. O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorida sakkizta bilim sohasi nazarda tutilgan. Ular quyidagilardan iborat: ta'lim; gumanitar fanlar va san'at; ijtimoiy fanlar, biznes va huquq; fan; muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari; qishloq xo'jaligi; sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot; xizmatlar.

5. Klassifikatorda ta'lim bosqichlari, bilim va ta'lim sohalari, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari yettita raqamdan iborat kod bilan belgilangan.

Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi (tasnifi)ga binoan bakalavriat yo'nalishlari - 5 raqami; magistratura mutaxassisliklari - 5A (raqam va harf) bilan belgilangan. Masalan, bakalavrlar kodi: 5140100; 5211300; 5520400 va hokazo. Magistrlar kodi: 5A140101; 5A211301; 5A520403 kabilar.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Oliy ta'limning davlat standartlariga oid asosiy tushunchalarni ayting.

2. Oliy ta'limning davlat standarti nima?

3. Standart nimalarni belgilaydi?

4. Bakalavriat yo'nalishi qanday majburiy fan bloklarini nazarda tutadi?

5. Bakalavr nimalarni bajarishga tayyorlanadi?

6. Bakalavriat o'quv fanlari bloklariga qo'yiladigan

talablar, bakalavrlar egallashi lozim bo'lgan bilimlar nimalardan iborat?

7. Bakalavriatni bitiruvchiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari nimalarni o'z ichiga oladi?

8. Magistratura nima, u qaysi majburiy bloklarni o'zlashtirishni nazarda tutadi?

9. Magistratura talabasi egallashi zarur bo'lgan bilimlar nimalardan iborat?

10. Magistratura talabalarining ilmiy faoliyati nimalarni o'z ichiga oladi?

11. Magistratura bitiruvchisining kasb tayyorgarligiga qo'yiladigan malaka talablarini ayting.

12. Magistrantlar nimalarni bajarishga tayyorlanadi?

13. Klassifikatorda oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari nechta bilim sohasini o'z ichiga oladi? Ular nimalardan iborat?

4- bob. OLIY TA'LIM MUASSASASI

I. Tayanch tushunchalar: oliy maktab, universitet, akademiya, institut, fakultet, kafedra, rektor, dekan, kafedra mudiri, ilmiy kengash, vasiylik kengashi.

II. Mavzuning muhim masalalari:

1. Oliy ta'lim muassasasi haqida umumiy tushuncha.
2. Oliy o'quv yurtining fakulteti.
3. Oliy maktabning kafedrasi.

III. Manbalar, adabiyotlar.

1. Davlat oliy o'quv yurtining namunaviy ustavi (1999). «Oliy ta'lim». Me'yoriy hujjatlar to'plami. T., 2001, 327–349- betlar.
2. Fakultet to'g'risida nizom (1998). O'sha kitob, 290 – 293 – betlar.
3. Kafedra to'g'risida nizom (1998). O'sha kitob, 294–298- betlar.

IV. Mustaqil ishlash uchun topshiriq:

1. Oliy o'quv yurtining fakulteti va kafedrasi to'g'risidagi nizomlarni o'qib, matnlashtiring.

I. Oliy ta'lim muassasasi haqida umumiy tushuncha

1. Oliy ta'lim haqidagi nizom (1998)ga binoan O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasasi – universitet, akademiya, institut shaklida tashkil etiladi.

Universitet – bilim sohalari va ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklari bo'yicha oliy va undan keyingi ta'lim turlari dasturlarini amalga oshiradi; oliy ta'lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylarning pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish amaliyotini bajaradi; fanlar bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar olib boradi; bilimlarning tegishli sohalari bo'yicha ilmiy va uslubiy markaz bo'ladi.

Akademiya – muayyan bilim sohalari va kadrlar tayyorlash yo‘nalishlari bo‘yicha oliy va undan keyingi ta‘limning kasbiy ta‘lim dasturlarini amalga oshiradi; ma‘lum sohalar uchun oliy malakali kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug‘ullanadi; fan, madaniyat, san‘at sohalari bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni bajaradi; o‘z faoliyati sohasida yetakchi ilmiy va uslubiy markaz bo‘ladi.

Institut – odatda, bilimlarning bir sohasida oliy va undan keyingi ta‘limlarning kasbiy ta‘lim dasturlarini amalga oshiradi; xalq xo‘jaligining ma‘lum sohasi uchun mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshiradi; amaliy va fundamental ilmiy tadqiqotlar olib boradi.

2. Oliy maktablarning **maqsadi** – oliy ta‘limning asosiy va qo‘shimcha kasbiy dasturlarini ruyobga chiqarish orqali talaba yoshlarni yuqori malakali, yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarga ega, raqobatbardosh mutaxassislar qilib yetishtirishdan iborat.

3. Oliy maktablarning **vazifalari**:

– talabalar shaxsining intellektual, madaniy, ma‘naviy-axloqiy kamol topishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish;

– talaba yoshlar shaxsini - mamlakatimiz fuqarosini Vatan, xalq, jamiyat va oila oldidagi o‘z mas‘uliyatini his qiluvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, xalq an‘analarini boyituvchi va mustahkamlovchi, Vatanimiz kelajagi uchun vijdonan va halol mehnat qiluvchi etib shakllantirish;

– mamlakatimizda ilm-fanni taraqqiy ettirish, ilmiy tadqiqotlar natijalari, tavsiyalaridan ta‘lim jarayonida foydalanish;

– jamiyatimizning, xalqimizning axloqiy, madaniy va ilmiy qadriyatlarini saqlash va ko‘paytirish;

– aholi o‘rtasida ilmiy bilimlarni keng tarqatish, xalqning madaniy va bilim darajasini ko‘tarish.

4. Oliy ta'lim muassasalari o'quv - ilmiy-uslubiy majmualar shaklida tuziladi. Oliy o'quv yurtining tarkibida fakultetlar, kafedralar bilan bir qatorda akademik litsey, kasb-hunar kolleji, qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlari (institutlari), biznes maktabi, kompyuter markazi, axborot texnologiyalari, masofaviy ta'lim, pedagogik texnologiyalar markazlari, ilmiy tadqiqot laboratoriyalari, konstruktorlik buyurolari kabi bo'linmalar ham bo'lishi mumkin.

Masalan, Qarshi Davlat universiteti tarkibida fizika-matematika, kimyo, geografiya, biologiya, tuproqshunoslik, kasbiy ta'lim, o'zbek filologiyasi, xorijiy tillar, tarix, pedagogika va psixologiya, musiqa, iqtisodiyot, jismoniy madaniyat, sirtqi ta'lim fakultetlari mavjud. Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi, akademik litsey, litsey - internat, gimnaziya, biznes maktabi, xalqaro biznes maktabi faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, universitet tarkibida kompyuter markazi, O'zbekiston tarixini o'rganish markazi, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, bir nechta ilmiy tadqiqot laboratoriyalari, konstitutsiyani o'rganish markazi, ma'naviyat va ma'rifat bo'limlari ishlab turibdi.


5. Oliy maktabni boshqarish — **yakka rahbarlik** va oliy o'quv yurtining homiyilar kengashi orqali **jamoatchilik boshqaruvini** uyg'unlashtirish prinsipi asosida amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtini bevosita boshqarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tayinlagan rektor tomonidan amalga oshiriladi.

6. Oliy ta'lim to'g'risidagi nizomga muvofiq oliy o'quv yurti faoliyatining asosiy masalalarini ko'rish uchun **ilmiy kengash** tashkil etiladi. Ilmiy kengashga rektor raislik qiladi, kengash tarkibiga, shuningdek, prorektorlar, fakultet dekanlari, bitiruvchi kafedralarning mudirlari, kasaba qo'mitasi vakillari kiradi. Ilmiy kengashning boshqa a'zolari fakultetlarning yig'ilishlarida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi, ularning sonini rektor belgilaydi. Ilmiy kengash

nizomga binoan faoliyat ko'rsatadi.

7. Oliy o'quv yurtini boshqaruvchi jamoatchi organ sifatida **homiylar kengashi** tuziladi. Uning tarkibiga muassis vazirlik, mahalliy hokimiyat, ishbilarmon doiralar, jamoatchilik tashkilotlari, jamg'arma va homiylar, boshqa ta'lim muassasalarning vakillari kiradi. Uning faoliyati homiylar kengashi to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi.

8. Oliy o'quv yurtida kasaba uyushmalari va boshqa jamoatchilik tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi. Ular talabalar va xodimlar manfaatlarini himoya qiladi. Ularning huquq va burchlari oliy o'quv yurtining nizomida ko'rsatiladi. Rektorat va ilmiy kengash oliy o'quv yurti jamoatchilik tashkilotlarining tavsiyalarini ko'rib chiqadi va o'z faoliyatida ularni hisobga oladi.



4-rasm. Boshqaruv sxemasi.

II. Oliy o‘quv yurtining fakulteti

1. Fakultet oliy o‘quv yurtining o‘quv, ilmiy va ma‘muriy tarmog‘i bo‘lib, tegishli ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha talaba, aspirant va doktorantlarni o‘qitish hamda iqtisod, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va madaniyatga tegishli sohalarning rahbar xodimlari va mutaxassislari malakasini oshirish, qayta tayyorlash, shuningdek, kafedralarning ilmiy tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish bilan shug‘ullanadi.

2. Oliy o‘quv yurtining fakulteti ta‘lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashtirish maqsadida yirik korxonalar va muassasalar qoshida ham belgilangan tartibda tuzilishi mumkin. Fakultet mutaxassislar tayyorlashni ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda amalga oshiradi. Fakultet tarkibida bo‘limlar tashkil etilishi ham mumkin.

3. Fakultet, odatda, o‘z tarkibiga kiritilgan bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga taalluqli kafedra va laboratoriyalarni, shuningdek, oliy o‘quv yurti tarkibidagi boshqa kafedralarni birlashtiradi. Fakultet oliy o‘quv yurti ilmiy kengashining qarori asosida rektorning buyrug‘i bilan tashkil etiladi va tugatiladi. Fakultet ishiga rahbarlikni dekan amalga oshiradi. Fakultet dekani vazirlik bilan kelishilgan holda tajribali professor yoki dotsentlar orasidan tayinlanadi.

4. Fakultet dekanining vazifalari:

– fakultetda o‘quv, ilmiy, ma‘naviy - ma‘rifiy va ilmiy-uslubiy ishlarga bevosita rahbarlik qiladi;

– oliy o‘quv yurti ilmiy kengashi va fakultet kengashi qarorlarining bajarilishini, o‘quv tarbiyaviy jarayon, talabalarning malakaviy ishlari, amaliyotlari bajarilishini nazorat qiladi. O‘quv mashg‘ulotlari jadvalini tuzish va bajarilishini, talabalar davomatini ta‘minlaydi;

– talabalarning mustaqil ishlari, ular bilimni reyting asosida baholash ustidan nazoratni tashkil etadi; talabalarni kursdan-kursga o‘tkazish, stipendiya tayinlash to‘g‘risida buyruq loyihasini tayyorlaydi; ularni davlat attestatsiyasiga, malakaviy bitiruv ishlarini himoya qilishga kiritadi;

– iqtidorli talabalarni izlash, ular bilan ishlash, «Ulugʻbek», «Umid» jamgʻarmalari, Prezident va boshqa nomli stepindiyalar, olimpiada tanlovlarda ishtirok etishga tayyorlashni tashkil etadi. Aspirantlarni tayyorlash, professor-oʻqituvchilar malakasini oshirish ishlarini muvofiqlashtiradi, alohida oʻrnak koʻrsatganlarni turli tanlovlarda ishtirok etishlari uchun tavsiya beradi;

– kafedralarning fanlar boʻyicha darslik, oʻquv uslubiy qoʻllanmalar tayyorlash ishlariga rahbarlik qiladi, kompyuter savodxonligi boʻyicha mashgʻulotlar tashkil etadi. Fakultet kengashiga rahbarlik qiladi, kafedralararo yigʻilishlar, ilmiy-nazariy, ilmiy - uslubiy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etadi;

– oliy oʻquv yurtini marketing xizmati boʻlimi bilan hamkorlikda korxon va muassasalarning malakali kadrlarga boʻlgan ehtiyojini oʻrganadi, shuningdek, pedagog kadrlar, talabalar, ilmiy axborotlarni oʻzaro almashish uchun boshqa taʼlim muassasalari bilan aloqalar oʻrnatadi. Taʼlim xizmatlarini tashkil etish, budjetdan tashqari mablagʻlar topish va ulardan oʻquv maqsadlarida foydalanish yoʻllarini qidiradi;

– maʼnaviy - maʼrifiy ishlarni tashkil etadi, fakultetni tamomlaganlar bilan aloqa oʻrnatadi, fakultet ixtisosligi boʻyicha oliy maʼlumotli mutaxassislarining malakasini oshirish, qayta tayyorlash ishlarini tashkil etadi;

– oʻz vakolatlari doirasida fakultetning barcha xodimlari, talabalari uchun majburiy boʻlgan farmoyish va koʻrsatmalarni chiqaradi.

III. Oliy maktabning kafedrası

1. Kafedra oliy oʻquv yurti (fakultet) tuzilishidagi bir yoki bir necha turdosh fanlar boʻyicha oʻquv, ilmiy va uslubiy ishlarni amalga oshiruvchi, talabalar orasida maʼnaviy - maʼrifiy ishlarni olib boruvchi, shuningdek, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlovchi hamda ularning malakasini oshiruvchi asosiy tarmoq (boʻgʻin) hisoblanadi. Kafedra fakultet dekaniga yoki bevosita rektorga buysunadi.

2. Kafedra kamida beshta oʻqituvchi mavjud boʻlganda,

ulardan bittasi fan doktori yoki professor darajasiga va kamida ikkitasi fan nomzodi yoki dotsent unvoniga ega bo'lganda tuziladi. Jismoniy tarbiya, chet tillari, grafika va chizmachilik, rasm hamda musiqa kafedralari, odatda, kamida ikkita o'qituvchi ilmiy daraja yoki unvonga ega bo'lganda tuziladi. Kafedra o'quv - tarbiyaviy va ilmiy jarayonni ta'minlovchi o'quv, ilmiy laboratoriyalarga, kabinetlarga, markazlarga va boshqa tarmoqlarga ega bo'lishi mumkin.

3. Kafedrani, odatda, professor yoki fan doktori darajasiga ega bo'lgan, tanlov asosida saylangan kafedra mudiri boshqaradi. Kafedra tarkibiga professorlar, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi, assistentlar, katta va kichik ilmiy xodimlar, doktorant va aspirantlar, shuningdek, stajyorlar, muhandis - texnik va o'quv-yordamchi xodimlar kiradi.

4. Kafedraning faoliyati uchun shaxsiy mas'uliyat kafedra mudiriga yuklatiladi. Kafedra mudiri oliy o'quv yurtining barcha tarmoqlarida kafedra faoliyatiga tegishli masalalarni muhokama va hal etilishida ishtirok etadi; kafedraning, o'qituvchilarning, xodimlarning shaxsiy ish rejasini tasdiqlaydi; kafedra a'zolariga pedagogik yuklamalarni bo'ladi, vazifalarini belgilaydi va bajarilishini nazorat etadi; kafedraga ishga olish, ishdan bo'shatish, yangi vazifalarga tayinlash, rag'batlantirish, intizomiy choralar ko'rish to'g'risida belgilangan tartibda takliflar kiritadi; zarur shart-sharoit yaratishni talab etadi.

5. Kafedra faoliyati o'quv, ilmiy-uslubiy, ma'naviy - ma'rifiy, tadqiqot va boshqa ish turlarini qamrab olgan istiqbolli hamda joriy (yillik) rejalarga muvofiq amalga oshiriladi, rejalarning bajarilishi kafedra yig'ilishida muhokama etiladi.

6. Kafedraning vazifalari:

— oliy ta'limning davlat ta'lim standarti asosida belgilangan o'quv mashg'ulotlarini yuksak nazariy, ilmiy-uslubiy darajada o'tkazish; talabalarning malakaviy amaliyoti, bitiruv ishlari, mustaqil ishlarga rahbarlik qilish, reyting nazoratini joriy etish;

– kafedra fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, tasdiqlashga taqdim etish, turdosh kafedralarning dasturlariga taqriz va xulosalar tayyorlash, darslik, o‘quv, usulibiy ko‘rgazmali qo‘llanmalar tayyorlash;

– iqtidorli talabalar bilan ishlash, ularni olimpiada va tanlovlarda ishtirok etishga tayyorlash, talabalarning mustaqil ta‘lim olish shakl - usullarini takomillashtirish;

– ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish, natijalarini tatbiq etish, talabalar, aspirantlar, doktorantlarning ilmiy ishlariga rahbarlik qilish, tugallangan ishlarni muhokama etish;

– kafedra xodimlarining shaxsiy rejalari bajarilishini ta‘minlash, ilg‘or tajribalarni umumlashtirish, yangi pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish. Masofaviy ta‘lim tizimini, xorijiy oliy o‘quv yurtlari tajribasini o‘rganish, joriy etish, ta‘lim xizmatlari tizimini rivojlantirish;

– budjetdan tashqari mablag‘lar jalb etish, korxonalar, xo‘jaliklar, muassasalar bilan aloqa o‘rnatish;

– oliy o‘quv yurtini bitirganlar bilan aloqa o‘rnatish. Xorijiy hamkorlar, ilmiy va ta‘lim muassasalari bilan xalqaro aloqalar o‘rnatish.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Oliy o‘quv yurtlari O‘zbekistonda qanday shakllarda tuziladi?

2. Universitetning faoliyat yo‘nalishlarini ayting.

3. Akademiyaning faoliyati yo‘nalishlariga nimalar kiradi?

4. Institut, odatda, qanday ishlarni bajaradi?

5. Oliy maktabning maqsadi nima?

6. Oliy maktabning vazifalari nimalardan iborat?

7. Oliy ta‘lim muassasasi tarkibiga nimalar kiradi?

8. Oliy maktabni boshqarish tartibini ayting.

9. Ilmiy kengash nima? Uning tarkibi qanday tuziladi?

10. Homiylik kengashi nima? Uning tarkibi qanday tuziladi?

11. Oliy o'quv yurtining jamoat tashkilotlari, uyushmalari qanday tuziladi, ularning vazifalari nimalardan iborat?
12. Fakultet nima, uni kim boshqaradi?
13. Fakultet qayerlarda tuziladi?
14. Fakultet tarkibiga nimalar kiradi?
15. Fakultet dekanining vazifalari nimalardan iborat?
16. Kafedra nima?
17. Kafedra qanday tuzilishini ayting.
18. Kafedrani kim boshqaradi?
19. Kafedra mudirining vazifalari nimalardan iborat?
20. Kafedraning vazifalari sirasiga nimalar kiradi?

5-bob. OLIY MAKTABNING TALABASI VA PROFESSOR- O'QITUVCHISI

I. Asosiy tushunchalar: o'quv jarayoni, talaba, professor, dotsent, ilmiy daraja, ilmiy unvon.

II. Mavzuning muhim masalalari:

1. Oliy maktabda ta'limning maqsadi, xususiyatlari.
2. Oliy o'quv yurtining talabasi.
3. Oliy maktabning professor - o'qituvchisi.

III. Manbalar, adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997, 39 — 40 - betlar.

2. Oliy ta'lim haqida nizom. «Me'yoriy hujjatlar». 1-qism. Toshkent, 1998, 89 — 93 - betlar.

3. Ochilov M., va boshqalar. Bo'lajak o'qituvchi. («Budushiy uchitel»). Qarshi, 1983-yil.

4. Очилов М. Нравственное формирование будущего учителя. Тошкент, 1979, 150 — 165 - стр.

5. Ochilov M., N.Ochilova. O'qituvchi odobi. Toshkent, 1997, 83 — 96 - betlar.

6. Педагогика высшей школы. Воронеж, 1989, 115 — 129- стр.

IY. Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

1. I.A.Karimovning «Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» ma'ruzasini o'qib, matn tuzing.

2. Oliy ta'lim haqida nizomning 4—5 - «Oliy ta'lim muassasalari talabalari», «Oliy ta'lim muassasasi xodimlari» bo'limlarini o'qib, matnlashtiring.

I. Oliy maktabda ta'limning maqsadi, xususiyatlari

1. Ta'lim jarayoni oliy o'quv yurtida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning asosiy qismi hisoblanadi. Zamonaviy pedagogika fanida o'quv jarayoni talaba bilan professor - o'qituvchining hamkorligidagi faoliyatidir. Talaba o'quv jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'qish, bilim o'zlashtirish faoliyati orqali ijtimoiy-gumanitar, matematik-tabiiy, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini, kasb faoliyatining asosiy g'oyalarini o'zlashtirib oladi, shu asosda uning dunyoqarashi shakllanadi; ishlab chiqarish, pedagogik amaliyotni o'tash natijasida bo'lajak mutaxassisda tanlangan kasbga doir ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

2. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limning maqsadi – Vatanimizni rivojlangan demokratik mamlakatlar darajasida ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga hissa qo'sha oladigan, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar yetishtirishdan iborat.

II. Oliy o'quv yurtining talabasi

1. Oliy o'quv yurtining talabasi belgilangan tartibda oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ta'lim sohasining biror yo'nalishi yoki muayyan mutaxassislik bo'yicha o'qishga qabul qilingan kishidir. O'qishga kirgan yigit, qizga rasmiy nusxadagi talabalik guvohnomasi va reyting daftarchasi topshiriladi. U shu o'quv yurti talabalari jamoasining a'zosi hisoblanadi va «Oliy ta'lim haqida nizom» (1998)da belgilangan huquq va burchlarga amal qiladi.

2. **Talabaniing maqsadi** – mamlakatda mavjud oliy ta'limning maqsadi, vazifalariga mos bo'lib, oliy ma'lumot olish, barkamol shaxs, yuksak ma'naviy- axloqiy fazilatlarga ega yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishdan iborat.

3. Talabanning me'yoriy hujjatlarda belgilangan huquqlari, jumladan, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– oliy ta'limning davlat ta'lim standartida belgilangan bilimlarni fan, texnika va madaniyatning zamonaviy rivojlanish darajasida egallash;

– o'quv rejasida ko'rsatilgan qo'shimcha kurslarni tanlash;

– ta'lim muassasasi faoliyatining muhim masalalarini muhokama qilish va hal etishda qatnashish;

– kutubxona, axborotlar fondi, kompyuter markazi, o'quv, ilmiy, tibbiy va boshqa bo'linmalar xizmatidan tekin foydalanish;

– ilmiy tadqiqot ishlari, anjumanlar, simpoziumlarda ishtirok etish, o'z ilmiy ishlarini chop ettirish kabilar.

4. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti talablari darajasida bilimlar, kasbiy ko'nikma va malakalarni egallash; ko'rsatilgan muddatlarda o'quv rejaları va dasturlarida ko'zda tutilgan barcha topshiriqlarni bajarish, ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalari, axloq-odob normalariga rioya qilish; jamoat tashkilotlari faoliyatida faol qatnashish talabalik burchi hisoblanadi.

5. Oliy o'quv yurtining talabasi balog'at (yetuklik) yoshidagi inson. U o'rta umumiy ta'lim maktabi, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida fan asoslarini o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti darajasida o'zlashtirgan, muayyan o'qish tajribasiga ega. Oliy ta'lim muassasasida u, maktabdagidan keskin farq qiladigan shart - sharoitlarga duch keladi va bu yangi tartib-qoidalarni bilib olishi, ularga ko'nikma (adaptatsiya) hosil qilishi zarur.

6. Talabanning oliy o'quv yurtida o'qish davri, asosan, 18–25 yoshlarga (yoshlik davriga) to'g'ri keladi. Bu davr ruhiy jihatdan bir qancha muhim xususiyatlarga ega bo'lib, ayrim

ziddiyatlarni ham o'z ichiga oladi.

O'rta fa'lim muassasalari o'quvchilarda aqliy faoliyatining barcha tomonlarini izchil ravishda o'stirib, ularni oliy maktabda ta'limni davom ettirishga tayyorlaydi. Mustaqil fikrlashning tahlil va sintez qilish, mavhumlash va umumlashtirish sifatlari o'rta maktabda shakllana boshlaydi, oliy o'quv yurtida esa ular o'sib kamolatga erishadi.

Oliy o'quv yurti talabasida tanqidiy mulohaza yuritish qobiliyati kuchli bo'ladi. Bu yosh davri o'z-o'zini tahlil qilish va o'zini baholash davridir. Oliy o'quv yurtiga kirish va o'qishning dastlabki oylarida mavjud bo'lgan umid, ko'tarinki ruh, ba'zan, o'quv tartibi va professor-o'qituvchilardan ayrimlariga ishonchsizlik munosabati bilan almashinadi.


7. Yoshlik davri kishi hayotida aqliy o'sish, intellektual rivojlanish uchun eng qulay, samarali yillar hisoblanadi. Bu davrda talabalarning **qiziqishlari** doirasi kengayadi, ular faqat o'qish bilangina cheklanib qolmay, san'at, sport, jamoat ishlari, shaxsiy turmush masalalari bilan ham shug'ullanadilar. Bu davrda kishi muayyan bir kasb yo'nalishi, mutaxassislikni tanlab o'z hayot yo'lini belgilaydi, kasb egallaydi, turli sohalarda o'z kuch- qobiliyatini sinab ko'radi. U o'z e'tiqodi, fikri va harakatlarini faol quvvatlaydi. Bu davrda egallangan bilimlarni, ma'lum hayotiy tajribani, o'zining mustaqil fikri, xatti-harakatlarini umumlashtirish asosida kishida dunyoqarash, axloqiy va estetik did shakllanadi. Muhabbat, nikoh, oila kabi bir qancha tushunchalar nazariy tasavvurlardan amaliy faoliyat sohasiga aylanadi.

8. Talabalik davrining muhim xususiyatlaridan biri—shaxsiy turmush tarzi va ijtimoiy faoliyatida mustaqillikning kuchayishidir. Endi u turmush tarzi bilan bog'liq bir qancha hayotiy masalalarni amalda o'zi mustaqil hal etishiga to'g'ri

keladi. Ko'pchilik talabalar boshqa shaharga borib, oiladan uzoqda talabalar turar joylarida, qarindoshlarinikida yoki shaxsiy kvartiralarni ijaraga olib yashaydi, o'zining turmush ehtiyojlarini mustaqil qondiradi. Tanlagan kasbiga doir bilimlarni egallash masalasida ham mustaqil ishlar, mustaqil ta'limning salmog'i va ahamiyati keskin ortadi.

9. Talabalik yillarida yoshlarda barkamol shaxsga xos fazilatlar, ayniqsa, professional axloq, kasb odobiga oid sifatlar jadal shakllanadi. Talabalik davrida yoshlarning turli xil axloqiy, estetik, ijtimoiy-siyosiy masalalarga qiziqishlari, ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarga tanqidiy munosabati kuchayadi, yoshlarning fikri, qarashlari adolatli bo'lishi ham, ba'zan yuzaki bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun bu davrda ma'naviy-axloqiy tarbiya, mustaqillik mafkurasi, milliy istiqlol g'oyasini egallashning ahamiyati nihoyatda ortadi.

10. Talabalik davrida yoshlar **jismoniy** jihatdan balog'atga erishadi, estetik shakllanishi nihoyatda kuchayadi. Yoshlarning fizkultura va sport sohasida erishadigan jahonshumul yutuqlari, ko'pincha, shu yosh davriga to'g'ri keladi. Bu davrda yoshlarning jismoniy va aqliy rivojlanish imkoniyatlari eng yuqori darajada bo'ladi, ta'lim - tarbiya jarayonida bu ruhiy xususiyatlar, albatta, e'tiborga olinishi lozim.



5-rasm. Talabalik maqomi.

III. Oliy maktabning professor-o'qituvchisi

1. Oliy maktabning professor - o'qituvchilari tarkibiga professor, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi, assistent lavozimlari kiradi.

2. «Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Pedagogik xodimlarni oliy o'quv yurtlariga ishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan nizomga muvofiq tanlov

asosida amalga oshiriladi». (Ta'lim to'g'risidagi qonun, 5-modda).

Ilmiy-pedagogik xodimlarni tayyorlash, odatda, oliy ta'lim muassasalari magistraturasi, aspiranturasi, doktoranturasida hamda tadqiqotchilik yo'li bilan amalga oshiriladi.

3. O'zbekiston Respublikasida **professor, dotsent, katta ilmiy xodim** ilmiy unvonlari joriy etilgan. Mamlakatimizda ilmiy unvonlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi beradi.

4. Professor ilmiy unvoni, odatda, fan doktorlariga beriladi. Ular pedagogik amaliyotda foydalanilayotgan, matbuotda e'lon qilingan ilmiy va o'quv-metodik ishlar chiqargan; oliy o'quv yurtlarida yuksak metodik va ilmiy saviyada ma'ruzalar kursini o'qigan, kamida besh yillik pedagogik ish stajiga ega hamda ilmiy daraja olgan yuqori malakali mutaxassis tayyorlagan bo'lishlari shart.

Professor ilmiy unvoni, shuningdek, oliy o'quv yurtining kafedra mudiri yoki professor lavozimiga tanlov bo'yicha saylanib, tegishli oliy ma'lumotga, dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan hamda yakka mualliflikda oliy o'quv yurti uchun o'quv - metodik qo'llanma yaratgan va «Nizom»da belgilangan boshqa talablarga mos keladigan kishilarga ham beriladi.

5. Dotsent ilmiy unvoni - Oliy attestatsiya komissiyasi nizomida belgilangan tartibda, odatda, fan doktorlari va fan nomzodlariga beriladi.

Dotsent ilmiy unvoni, shuningdek, oliy o'quv yurtida kamida besh yillik pedagogik ish stajiga ega, darsliklar yoki o'quv qo'llanmalari yaratgan va «Nizom»da belgilangan tartibda, oliy ma'lumotli yuqori malakali mutaxassislarga ham beriladi.

6. Oliy o'quv yurti professor - o'qituvchilari (ilmiy-pedagogik xodimlar)ning vazifalari, huquq va burchlari davlatimizning me'yoriy hujjatlarida belgilanadi. Har bir professor - o'qituvchidan o'zining huquq va burchlarini bilish, ularga amal qilish talab etiladi.

7. Ilmiy-pedagogik xodimlarning me'yoriy hujjatlarda belgilangan huquqlari asosan quyidagilar:

– oliy ta'lim muassasasi (fakultet) ilmiy kengashiga saylash va saylanish;

– ta'lim muassasasi faoliyatiga tegishli masalalarni muhokama qilish va hal etishda qatnashish;

– kutubxonalar, axborot fondlari, o'quv va ilmiy bo'linmalar, ijtimoiy-maishiy, tibbiy va boshqa bo'linmalar xizmatlaridan tekin foydalanish;

– o'quv kurslari mazmunini oliy ta'limning davlat ta'lim standartlariga muvofiq aniqlash;

– o'quv jarayoni sifatini yuqori darajada ta'minlash maqsadida ta'lim usullari va vositalarini tanlash;

– qonunda belgilangan tartibda ta'lim muassasasi buyruqlari va farmoyishlariga norozilik bildirish;

– o'z kasbiy faoliyatining tashkiliy va moddiy - texnikaviy ta'minlanishini talab qilish kabilardan iborat.

8. Ilmiy-pedagogik xodimlarning **burchlari, vazifalari** sirasiga, jumladan, quyidagilar kiradi:

– belgilangan o'quv yuklamasini bajarish;

– professor-o'qituvchilar aspirantlar, doktorantlar, iqtidorli talabalarni jalb qilgan holda ilmiy kengashning mavzu - rejasi, korxon va tashkilotlar buyurtmasi hamda davlat grantlari bo'yicha ilmiy tadqiqot, ilmiy - uslubiy ishlarni bajarish;

– talabalar bilan tarbiyaviy ishlarni bajarish;

– pedagogik va ilmiy ishlarning samaradorligini ta'minlash;

– ta'lim muassasasi nizomiga, ichki tartib - qoidalariga amal qilish;

– ta'lim oluvchilarda tanlangan yo'nalish (mutaxassisligi)ga doir kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, fuqarolik nuqtai nazarini shakllantirish;

– ta'lim oluvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish;

– muntazam ravishda o'z malakasini oshirish kabilar.

9. O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida

mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida milliy istiqlol g'oyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida talabalarning kasbiy ta'lim va tarbiya olishlarini ta'minlay oladigan professor - o'qituvchilar tarkibi shakllandi. Ular orasida fan doktorlari va nomzodlari, professor va dotsentlar soni yil sayin ortib bormoqda. Oliy o'quv yurtlarida ishlayotgan professor-o'qituvchilarning ko'pchiligi ma'ruzalarni yuqori ilmiy-nazariy darajada o'qiyotgan, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish amaliyotiga mohirona rahbarlik qilayotgan, bo'lajak yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash ishini uddaburonlik bilan bajarayotgan, el-urtning hurmatiga sazovor, obro'li kishilardir.

10. **Pedagogik faoliyat** — ma'lum bir sharoit (vaziyat)da ijtimoiy qimmatli motivlarga ko'ra ta'lim-tarbiya maqsadi sari yo'naltirilgan o'ziga xos vositalar asosida mo'ljallangan pedagogik natija bilan yakunlanadigan xatti-harakatlar tizimidir. Professor - o'qituvchining pedagogik faoliyati sonsanoqsiz o'quv - tarbiya vazifa (masala)larini talabalar bilan birga yechishdan iborat. Ulardan eng muhimi ta'lim - tarbiyaning maqsadini oydinlashtirib, talabalar bilan hamkorlikda ro'yobga chiqarishdir. Bu vazifa talabalarni o'qitish ishini o'z-o'zini o'qitishga, ularning xatti-harakatlarini boshqarishni o'z-o'zini boshqarishga aylantirish, talabalarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, ilmiy tadqiqot, o'quv - tadqiqot ishlariga jalb etish yo'li bilan hal etiladi.

11. Professor-o'qituvchining bilimi, ko'nikma va malakalari pedagogik faoliyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Mustaqillik mafkurasi, milliy istiqlol g'oyasiga doir, shuningdek, ixtisoslik sohasi, pedagogik, psixologik, metodik va boshqa bilimlar shular jumlasiga kiradi.

12. Yigit va qizlar professor-o'qituvchi siymosida o'zlari orzu qilgan axloqiy ideal namunasini ko'rishlari lozim. Professor - o'qituvchining ibrat namunasi kasbiy faoliyatning tarkibiy qismi sifatida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar jarayonida ham, o'qishdan tashqari jamoat ishlari va shaxsiy hayotda ham muhim rol o'ynaydi.

Professor-o'qituvchi o'zining ilmiy-pedagogik va ijtimoiy faoliyati jarayonida talabalarga kasbiy va ma'naviy-axloqiy tushunchalar tizimini, axloq qoidalariga doir bilimlarni o'rgatadi. U avvalo, o'zi dars berayotgan fanning mazmunini milliy istiqlol g'oyasi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan boyitib, ijtimoiy-gumanitar, psixologik-edagogik, umumkasbiy va ixtisoslik fanlariga doir bilimlarni o'rgatish yo'li bilan talabalarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi. Shu bilan birga professor-o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida huquq va xulq normalari, axloq prinsiplari, axloqiy ideallar, qarashlar, his - tuyg'ular va ma'naviy - axloqiy e'tiqodni o'zida mujassamlantirgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

13. Talabalarga ijobiy, samarali tarbiyaviy ta'sir o'tkazish uchun, avvalo professor - o'qituvchining shaxsi, ilmiy - pedagogik faoliyati ma'lum talablarga javob berishi lozim. U yuksak g'oyaviylik, ishchanlik, ilmiy-ijodkorlik va axloqiy sifatlarni o'zida mujassamlantirishi talab etiladi.

Talaba o'zining sevimli professor-o'qituvchisiga o'xshashni istaydi, unga ergashadi, shogird bo'lishga intiladi. Professor-o'qituvchi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar jarayonida aytgan fikr-mulohazalarigina emas, balki uning kim ekanligi, hayotda, turmushda o'zini qanday tutishi, ilm-fan sohasida nimalarga qobil ekanligi ham katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega. Professor - o'qituvchi shaxsining yetukligi, uning g'oyaviy va fuqarolik qiyofasi, chuqur bilimi, ilmiy salohiyati barcha ta'lim-tarbiya ishlarida o'chmas iz qoldiradi. Shuning uchun ham mamlakatimizda professor - o'qituvchilarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishiga jiddiy e'tibor berilmoqda.

14. Professor-o'qituvchi qaysi fan mutaxassisi bo'lishidan qat'i nazar, mustaqillik maskurasi, milliy - istiqlol g'oyasi sohasidagi bilimlarini muntazam oshirib borishi, fan metodologiyasini doimiy ravishda o'rgana borish lozim. Oliy o'quv yurtlarining barcha fakultetlarida ilm-fanning falsafiy muammolari, fanlarning metodologik masalalari, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari bo'yicha tashkil etiladigan nazariy seminarlar, ilmiy -

metodik kengashlar shu maqsadda xizmat qiladi. Odatda, bunday seminarlar butun o'quv yili davomida ishlaydi va barcha ilmiy - pedagogik xodimlar jalb etiladi. Chuqur nazariy bilimlar O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari va istiqbollari, ixtisoslik fanlariga doir muammolarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

15. Mamlakatimizda professor- o'qituvchining ilmiy-malakaviy darajasi ilmiy darajalar (fan doktori, fan nomzodi) va ilmiy unvonlar (professor, dotsent, katta ilmiy xodim) bilan belgilanadi. Ilmiy daraja va unvonlarga ega bo'lgan va boshqa professor - o'qituvchilarning ma'naviy qiyofasida ularning bilimdonligi (eruditsiyasi), faqat o'zi dars beradigan fanni chuqur bilishigina emas, balki ijtimoiy - siyosiy hodisa - voqealar, adabiyot, san'at, sport kabilardan xabardorligi, hayotiy tajribasi, mustaqil nuqtai nazari, fikr - mulohazalari muhim ahamiyat kasb etadi. Haqiqiy ustoz o'zi dars beradigan, ilmiy tadqiqot olib boradigan fanning biror sohasi bilangina cheklanib qola olmaydi. U ko'proq bilishga, ko'p narsalarni tushunish va his etishga, ilm-fanda, texnologiyalar sohasida yangi kashfiyotlar qilishga intiladi. Bo'lajak mutaxassislar bu fazilatlarni undan o'rganadilar.

16. Oliy maktabda o'quv jarayoni ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, uning samaradorligi professor-o'qituvchi bilan talabaning o'zaro muomala-munosabatlariga ko'p jihatdan bog'liq. Professor - o'qituvchi ham, talaba ham ta'lim-tarbiya jarayonining subyektlaridir, ularning faoliyati o'zaro chambarchas bog'liq va nisbatan mustaqillik xususiyatiga ega. Chunki ularning maqsadi bir, ya'ni umumiy ishni birga bajaradilar. Agar ular o'rtasidagi birlik yo'qolsa, munosabatlar taranglashsa yoki aloqa uzilsa, pedagogik jarayonga putur yetadi. Bu obyektiv qonuniyat professor - o'qituvchi bilan talabaning bevosita aloqasida ham, bivosita munosabatlarida ham mavjuddir.

Talabalar birgalikdagi faoliyat jarayonida professor - o'qituvchining nimalarga qodir ekanini, ilm-fanga qo'shgan hissasini, bilimdonligi va ma'naviy-axloqiy qiyofani tezda payqab oladilar va shunga qarab muomala - munosabatda

bo'ladilar. Ular o'qituvchini, faqat ma'ruzani yaxshi o'qigani uchungina emas, balki shaxsiy - insoniy va ma'naviy-axloqiy fazilatlari uchun ham hurmatlaydilar. Va aksincha, talabalar bilimi sayoz o'qituvchini xush ko'rmaydilar.

17. Professor-o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi muomala - munosabatlar juda murakkab xususiyatlarga ega. Chunki u eng oddiy ruhiy (psixik) va ijtimoiy bog'lanishlardan tortib doimiy xarakterga (tavsifga) ega bo'lgan eng murakkab ijtimoiy harakatlar va o'zaro munosabatlargacha bo'lgan ijtimoiy aloqalar tizimidan iborat. Professor - o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi muomala-munosabatlar obyektiv ravishda vujudga keladi va oliy maktabda ta'limning maqsadi hamda vazifalari nuqtai nazaridan ongli ravishda tartibga solinadi, boshqariladi. Chunki oliy o'quv yurti oldida turgan maqsad, vazifalarni professor - o'qituvchi ham, talaba ham ongli ravishda qabul qiladi va bajaradi.

18. Talabalar bilan muomala - munosabatda professor-o'qituvchi tarbiyachi, ustoz sifatida namoyon bo'ladi. U O'zbekiston davlatining ta'lim, kadrlar tayyorlash sohasidagi milliy dasturini amalga oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonini boshqaruvchi kishidir. Talabalar bilan muomala - munosabatlarda u yetakchilik qiladi, ko'proq tashabbus ko'rsatadi. Professor-o'qituvchining dunyoqarashi, e'tiqodi, his - tuyg'ulari, eng muhimi uning xatti- harakatlari (xulqi) ular o'rtasida vujudga keladigan muomala - munosabatlarga hal qiluvchi darajada ta'sir etadi. Professor-o'qituvchining professional (kasbiy) burchi va mas'uliyati bu munosabatlarni ongli ravishda tartibga solish, yaxshilash va rivojlantirishni talab etadi. Mabodo professor - o'qituvchi bilan talaba yoki talabalar jamoasi o'rtasidagi munosabatlar buzilsa, yomonlashsa, buning uchun professor - o'qituvchi javobgar deb qaraladi. Chunki professor - o'qituvchi bu muomala-munosabatlarning tasodifiy ishtirokchisi emas, balki uni oqilona uyushtiruvchi, ongli ravishda tashkil etuvchi, boshqaruvchidir.

19. Professor-o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi muomala munosabatlar pedagogik jarayon uchun muhim bo'lgan bir

qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Avvalo bu munosabatlar ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiruvchi shartlardan biridir. Ular tarbiyaviy ta'sir jarayonini yaxshilashi, kuchaytirishi yoki unga to'sqinlik qilishi mumkin. Talaba muallimning gaplarini tinglayotganda, u ko'rsatgan yo'l-yo'riqlarga amal qilayotganida professor-o'qituvchi fan va texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlarini aytayotganiga, uning talablari adolatli ekaniga ishonchi komil bo'mog'i lozim. Mabodo talabani qalbida muallimga nisbatan adovat vujudga kelsa, u aytayotgan g'oyalar, gaplarning barchasini talaba yoqtirmasligi, yomon ko'rishi mumkin. Bunday vaziyatda har qanday pedagogik vositalar ham ijobiy ta'sir o'tkaza olmaydi, kutilgan natija ham boshqacha bo'lib chiqishi ehtimoldan uzoq emas. Va aksincha, professor-o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi xayrxohlik, iliq, yaxshi munosabatlar, xushmuomalalik pedagogik jarayonning sifati va samarasini oshiradi. Professor- o'qituvchining ijobiy ta'siri talabalar qalbida uzoq vaqtlargacha, ba'zan umr buyi saqlanib qoladi. Va aksincha, o'zaro bir - birini tushunmaslik, talabani hurmatlamaslik yoki uning shaxsiga tegish yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.

20. Professor-o'qituvchi talabalar bilan muomala-munosabatlarida ma'lum ma'naviy-axloqiy qoidalar, talablarga rioya qilishi zarur. Ular qatoriga, jumladan, quyilagilar kiradi.

– muallimning muomala-munosabati talabalarga umuminsoniy va milliy - madaniy qadriyatlarni singdirish vositasi bo'lsin;

– muomala-munosabatlarning xarakteri uchun ma'naviy-axloqiy mas'uliyat professor-o'qituvchi zimmasiga tushadi;

– muallim o'z xulqini, his - tuyg'ulari, xatti-harakatlarini muttasil nazorat qilib, boshqarib borishi kerak;

– professor-o'qituvchi barkamol inson sifatida, mutaxassis - olim sifatida o'z obro'yini oshiradigan xatti-harakatlarnigina qilishi, tamagir bo'lmasligi lozim;

– professor - o'qituvchining talabaga munosabati faqat rasmiy (ish yuzasidan) emas, balki do'stona bo'lishi ham lozim;

– talabaga nisbatan xush muomalali bo'lish, uni

hurmatlash, undagi yaxshi sifatlarni o‘stirish; talabaga bo‘lgan hurmatni unga nisbatan qo‘yiladigan adolatli talablar bilan chambarchas bog‘lay olish kerak, buning uchun talabning individual xususiyatlarini o‘rganish, bilish lozim;


– talabalarning xato fikr-mulohazalari, noo‘rin xatti-harakatlariga bardoshli bo‘lish, ta‘na qilmaslik, pedagogik nazokat va odob bilan ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlash zarur.

21. Pedagogik jarayonning muhim shartlaridan biri – professor - o‘qituvchi bilan talabalar o‘rtasidagi farq, uzoq - yaqinlik va do‘stona hamkorlik munosabatlarining birligidir. Odatda, oliy o‘quv yurtlari tajribasida bu sohada ikki xil xatolik ko‘zga tashlanadi. Ba‘zi muallimlar o‘z obro‘cini saqlash yoki oshirish maqsadida, o‘zidagi ayrim shaxsiy nuqson yoki professional kamchilikni yashirish uchun o‘zlarini talabalardan chetroqqa tortib yuradilar. Ayrimlari esa, aksincha, talabalar bilan yaqin, bo‘lib obro‘ qozonish maqsadida ular bilan apoq-chapoq bo‘lib ketadilar, o‘zlarining yetakchilik rollarini ham unutilib qo‘yadilar.

22. Xullas, bu sohada oliy o‘quv yurtlarida o‘tkazilgan, jumladan, biz o‘tkazgan ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning natijalari, uzoq yillik kuzatish va tajriba shuni ko‘rsatib turibdiki, talabalar professor-o‘qituvchida, avvalo, uning chuqur bilimdonligi, ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlarni qiziqarli o‘tishi, yuksak pedagogik mahorati, prinsipialligi, mas‘uliyatni sezishi, adolatliligi, oqilona talabchanligi, xushchaqchaqligi, sofdilligi, talabalarni hurmat qilishi kabi sifat-fazilatlarini qadrlaydilar. Professor-o‘qituvchi yoshlarning ustozlari, chin do‘sti bo‘lmog‘i kerak.

Professor - o‘qituvchi pedagog olim, jonkuyar murabbiy sifatida talabalarning yutug‘idan xursand bo‘lishi, ularning shodligini ham, tashvishlarini ham baham ko‘rishi, noo‘rin xatti-harakatlaridan ranjishni ham bilishi lozim. Professor - o‘qituvchida haqiqiy insoniy his - tuyg‘ularning, tabiiy xatti-harakatlarning namoyon bo‘lishi uni talabalardan uzoqlashtirmaydi, balki yaqinlashtiradi, ular o‘rtasida to‘g‘ri munosabat, yaxshi muomalaning qaror topishiga yordam beradi. Talabalar bilan yaqin munosabatda, yaxshi muomalada bo‘lish ularga tarbiyaviy ta‘sir o‘tkazishning muhim vositasidir.

ILMIY PEDAGOGIK XODIMLARNING



6-rasm. Professor - o'qituvchilik maqomi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Oliy ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyati nimada?
2. «Talaba o'quv jarayonining subyekt» tushunchasi nimani anglatadi?
3. Oliy ta'limning maqsadini ayting.
4. Talaba atamasi nimani bildiradi?
5. Talabaning maqsadi, huquqlari, burchlari nimalarni o'z ichiga oladi?
6. Talabalik (yoshlik) davriga xos ruhiy xususiyatlar nimalardan iborat?
7. Kimlar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega?
8. Ilmiy - pedagogik xodimlar qanday tayyorlanadi?
9. Professor, dotsent ilmiy unvonlari kimlarga beriladi?
10. Ilmiy-pedagogik xodimlarning huquqlari va burchlarini ayting.
11. «Pedagogik faoliyat», «professor-o'qituvchining pedagogik faoliyati» tushunchalari nimalarni anglatadi?
12. Professor-o'qituvchi qanday ma'naviy-axloqiy fazilat-larga ega bo'lishi kerak?
13. Professor-o'qituvchining ilmiy - malakaviy darajasi nimalar bilan belgilanadi?
14. Professor-o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi muomala munosabatlarning xususiyatlarini ayting.
15. Professor - o'qituvchi talabalar bilan muomalada qanday axloqiy me'yorlarga rioya qilishi zarur?
16. «Ustoz» tushunchasi nimani anglatadi?

6-bob. OLIY MAKTABDA TA'LIM ISHLARINI TASHKIL ETISH

I. Tayanch tushunchalar: ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, nazorat ishi, maslahat, kollokvium, mustaqil ish, malakaviy amaliyot, kurs ishi (loyihasi), malakaviy bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyasi, kunduzgi ta'lim, sirtqi ta'lim, eksternat, masofaviy ta'lim.

II. Mavzuning muhim masalari:

1. Oliy maktabda ta'lim ishlarini tashkil etishga me'yoriy talablar.

2. Oliy ta'lim muassasasida ta'limni tashkil etishning shakl - usullari.

III. Manbalar, adabiyotlar

1. Oliy ta'lim haqida nizom (1998). «Oliy ta'lim», me'yoriy hujjatlar to'plami. Toshkent, 2001, 235– 251; 240–242 - betlar.

2. «O'qituvchilik ixtisosiga kirish kursiga metodik ko'rsatmalar». Toshkent 1980, 63–69 - betlar.

3. Oliy o'quv yurtida ta'lim jarayoni va uning xususiyatlari. «Будущий учитель», Qarshi, 1983, 15–23 - betlar.

IY. Mustaqil ishlash uchun topshiriq

1. «Oliy ta'lim» to'plami. 2001, 240–242-betlarni matnlashtirish.

I. Oliy maktabda ta'lim ishlarini tashkil etishga me'yoriy talablar

1. Oliy o'quv yurtida o'quv - tarbiya ishlari O'zbekiston Respublikasida joriy etilgan Oliy ta'limning davlat ta'lim standartini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Auditoriyada mashg'ulotlarining barcha turlari uchun 45 (yoki tanaffussiz juft ma'ruzalar uchun 40) minutlik akademik soat joriy etilgan. Mashg'ulotlar o'rtasidagi

tanaffus, odatda, 10 minutdan kam bo'lmazligi lozim.

2. Oliy maktabda o'quv yili ikki semestrga bo'linadi, o'quv semestri talabalar o'zlashtirishi natijalarini yakunlash bilan tugallanadi. Talabalarning fanlarni o'zlashtirishi «a'lo», «yaxshi», «qoniqarli», «qoniqarsiz» baholarga muqobil reyting ko'rsatkichi - ballar orqali aniqlanadi.

3. Talabalarni kursdan-kursga o'tkazish fakultet dekanining taqdimiga binoan rektorning buyrug'i bilan amalga oshiriladi, shartli ravishda o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Oliy o'quv yurtini bitirish yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallandi.

4. Malakaviy amaliyotning barcha turlari o'quv rejalari va nizomga muvofiq davlat va nodavlat korxonalar, tashkilotlar, muassasalarda shartnomaga binoan o'tkaziladi.

5. Oliy ta'limning kasbiy ta'lim dasturlari: kunduzgi, sirtqi, eksternat va masofaviy ta'lim olish shakllarida o'zlashtirilishi mumkin. To'lov - kontrakt asosida o'zga shaklda ikkinchi tur ta'lim olishga yo'l qo'yiladi.

Eksternat—oliy ta'limning tanlangan yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha kasbiy ta'limga muvofiq fanlarni mustaqil o'zlashtirish va ta'lim muassasasida davriy (joriy, yakuniy) attestatsiyadan o'tishdan iborat.

Masofaviy ta'lim — oliy ta'lim kasbiy ta'lim dasturining ish faoliyatidan ajralmagan holda, ta'lim muassasasidan uzoqda zamonaviy axborot texnologiyalari va teletarmoqlar texnikasi vositasida o'zlashtirishdir.

6. Oliy ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan o'zaro bog'lanishi amaldagi qonunlarga muvofiq o'quv - ilmiy, o'quv — ishlab chiqarish majmualari, birlashmalari, assotsiatsiyalari tuzish yo'li bilan hamda yirik olim va mutaxassislarni o'quv jarayoniga taklif etish va ilmiy tadqiqot institutlari, korxonalar va tashkilotlarda oliy ta'lim muassasasining markazlari, laboratoriyalari, kafedralari va bo'limlarini tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

7. Oliy ta'lim muassasasi talabalar safidan, shuningdek, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va umumiy ta'lim muassasalari o'quvchilari bilan olimpiadalar, konkurslar, test

sinovlari tashkil etib, **iste'dodli yoshlarni tanlash** ishlarini amalga oshiradi, ularga o'z qobiliyatlarini rivojlantirishlari uchun sharoitlarni yaratadi.

8. Oliy maktabda yoshlarning yuksak ma'naviy - axloqiy sifatlarini shakllantirish ta'limni insonparvarlik mazmunida bo'lishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, milliy istiqloq g'oyasi va mustaqillik mafkurasiga asoslanganligi bilan ro'yobga chiqariladi.

II. Oliy maktabda ta'limning shakl - usullari

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan «Nizom»ga binoan oliy maktablarda o'quv mashg'ulotlarining ma'ruza, maslahat, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, nazorat ishi, kollokvium, mustaqil ish, amaliyot, kurs ishi, malakaviy bitiruv ishi, magistirlilik dissertatsiyasini tayyorlash kabi shakl - usullari joriy etilgan.

2. **Ma'ruza** – oliy o'quv yurti ta'lim-tarbiya jarayonida keng qo'llanib kelinayotgan shakl - usullardan biridir. Ma'ruzalarda qatnashish majburiy hisoblanadi, unda talaba kasbiy tayyorgarlik uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallaydi.

Ma'ruzalar mazmunida muayyan fandagi muammolar, nuqtai nazarlar, manbalar, g'oyalarning mazmuni ochib beriladi, umumlashtiriladi. Ma'ruzalarni tinglay bilish, muhim o'rinlari, asosiy g'oyalarni yozib olish maqsadga muvofiq.

3. Ma'ruza jarayonida professor-o'qituvchi bilan talaba o'rtasida bevosita aloqa o'rnatiladi, ma'ruza mazmunida hali darslikka kirmagan yangi fikr va g'oyalar, yangi nuqtai nazarlar bayon qilinadi. Ma'ruza talabaga bilimlar olamiga kirish yo'llarini ko'rsatadi. Ma'ruzachi, odatda, o'quv dasturining butun mazmunini emas, balki muhim, murakkab joylarini aniqlab, uni ochib beradi, fandagi farazlarni keltirib, mustaqil fikr yuritishga undaydi, muammolar qo'yib, uni hal qilish yo'llarini ko'rsatadi.

Ayniqsa, quyi kurslar talabalari uchun ma'ruzalar muhim rol o'ynaydi, chunki ma'ruza talabani fan olamiga olib kirish bilan birga bilimlarni mustaqil egallashning

manbalari, yo'llari, vositalarini ko'rsatadi. Professor - o'qituvchi ma'ruzada qarama-qarshi fikrlar, nuqtai nazarlarni aytadi, talaba manbalar ustida mustaqil ishlash, tanqidiy fikrlash yo'li bilan ilmiy xulosalarga keladi.

4. Oliy maktabda ma'ruza o'qish, odatda yuqori malakali, tajribali domlalar (professor, dotsentlar)ga topshiriladi. Ma'ruzada hozirgi zamon fani — mamlakatimiz va chet el olimlarining erishgan muvaffaqiyatlari haqida ilmiy axborotlar beriladi.

5. Ma'ruzalar kirish, mavzular bo'yicha, umumlashtiruvchi (obzor) turlarga bo'linadi. Har bir fandan o'qiladigan nazariy kurslar **kirish ma'ruzasidan** boshlanadi. Unda ushbu o'quv kursining shu fandagi o'rni, oliy maktabda o'rganiladigan boshqa fanlar bilan aloqasi, bog'liqligi ko'rsatiladi; kurs mazmunida ochib beriladigan asosiy ilmiy muammolar, muhim masalalar qayd etilib, ushbu kursni o'rganishning umumiy maqsadi, obykti, predmeti, vazifalari bayon etiladi. Fanning metodologik asoslari va metodlari, manbalari, o'ziga xos xususiyatlari, amaliy ahamiyati ko'rsatiladi.

6. O'quv fanining **mavzulari bo'yicha ma'ruzalar** o'quv dasturida ko'rsatilgan mavzularga ajratilgan vaqt (soatlar)ga muvofiq o'tkaziladi. Ularda fan taraqqiyotining hozirgi bosqichida erishilgan yutuqlar, isbotlangan nazariyalar, asosiy tushunchalar, qonunlar, mavjud munozarali masalalar, nuqtai nazarlar, masalaning tarixi, erishilgan darajasi, nazariy va amaliy ahamiyati izchil tarzda bayon qilinadi.

7. **Umumlashtiruvchi, yakuniy ma'ruzalar**, odatda, nazariy kursni o'rganishning oxirida, yakuniy davlat attestatsiyasi oldidan o'tkaziladi. Bunda shu o'quv kursi tinglangandan so'ng o'tgan davr ichida ushbu fan olamida sodir bo'lgan o'zgarishlar, erishilgan yutuqlar, kashfiyotlar, chop etilgan asarlar haqida axborot beriladi.

8. **Amaliy mashg'ulotlar** — oliy maktabda ma'ruzalar mazmunidagi muhim masalalarni chuqurroq va puxta o'rganish, talabalarning bilim o'zlashtirishi, mustaqil ishlarining sifatini aniqlash va to'ldirish, mustahkamlash

maqsadida o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotlar, odatda, kichik guruhlarda olib boriladi. Bu mashg'ulotlarni ko'pincha assistentlar, yosh o'qituvchilar olib borishadi. Amaliy mashg'ulotlarga jiddiy tayyorgarlik ko'rish, talabalarning o'z bilimlarini chuqurlashtirishga qaratilgan mustaqil ishlari uning sifatli o'tishini ta'minlaydi. Bu mashg'ulotlar talabalarni mustaqil ishlash malakasini egallashga; kitob va boshqa manbalar bilan ishlash, faktlar, ilmiy axborotlar to'plash, ularni tahlil qilish, tizimlashtirish, umumlashtirishga o'rgatadi.

9. **Seminar mashg'uloti** – oliy maktabda ta'limning amaliy shakli- usullaridan biri bo'lib, dastur materialini jiddiy va chuqur o'zlashtirishga yordam beradi. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartiga binoan bakalavriat yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejalarida seminar va amaliy mashg'ulotlarga ko'proq vaqt (soat) ajratiladi.

Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish talabadan jiddiy e'tiborni talab etadi. Talaba, avvalo, seminar mavzusiga oid ma'ruzani qunt bilan tinglashi, seminar rejasi bilan tanishishi; zarur adabiyotni tanlashi, tavsiya qilingan manbalarni o'rganib, matn tayyorlashi, so'zga chiqib gapirib berish uchun tayyor bo'lishi zarur. Bu ishlar talabadan ko'p vaqt va mehnatni, jiddiy o'quv - biluv faoliyatini talab etadi. Seminar mashg'uloti bahs-munozarali tarzida bo'lishi mumkin, bu seminar mavzusiga, darslikning bor - yo'qligiga, guruhning tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Seminarda faol qatnashish talabanning bilim o'zlashtirish sifatini oshiradi, nutq madaniyatini o'stiradi.

10. **Laboratoriya ishlari** – oliy maktabda egallanadigan ijtimoiy-gumanitar, kasbiy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilishga xizmat etadi. O'rganilgan nazariy bilimni amalda, tajribada sinab ko'rish yo'li bilan uni mustahkamlaydi, kasbni egallashga yo'l ochadi. Laboratoriya ishlari tadqiqot xarakteri (tavsifi)ga ega bo'lib, kuzatish, tajribada sinab ko'rish yo'li bilan masala (muammo)ga doir faktlar to'plash, ularni umumlashtirib,


nazariy xulosalar chiqarishga o'rgatadi.

11. Oliy maktabning o'quv mashg'ulotlari jarayonida barcha talabalarning o'rganilayotgan fan yuzasidan bilim o'zlashtirish darajasini, mustaqil ishlari va tayyorgarliklarining sifatini nazorat qilish va baholash maqsadida ko'p balli reyting tizimi; joriy, oraliq, yakuniy nazorat turlari; baholashning og'zaki, yozma, test shakl - usullari qo'llaniladi.

12. **Malakaviy amaliyot** – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan «Nizom» (1998) asosida o'tkaziladi. Nizomda malakaviy amaliyotni o'tkazish tartibi, shakl- usullari belgilanadi. Bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlashning muhim qismi bo'lgan malakaviy amaliyot ilg'or korxonada, muassasa va tashkilotlarda o'tkaziladi. Malakaviy amaliyot oliy maktabda o'qish jarayonining ishlab chiqarish sharoitida o'tkaziladigan davomi, tarkibiy qismidir. Malakaviy amaliyot davlat ta'lim hujjatlarida ko'zda tutilgan shakllarda tashkil etiladi.

Har bir amaliyotning maqsadi, mazmuni va muddati o'quv rejalari hamda amaliyot dasturlarida belgilanadi. Amaliyot dasturlari tanlangan yo'nalish, mutaxassislikning malakaviy talablari; amaliyot obyektlari – korxonada, muassasa, tashkilotlarning tavsifi hisobga olingan holda o'quv muassasasi tomonidan ishlab chiqiladi, rektor tasdiqlaydi. Malakaviy amaliyotni o'tkazish uchun oliy ta'lim muassasasi yaqinida joylashgan obyektlar tanlanib, shartnoma tuziladi. Malakaviy amaliyot tegishli bitimlar asosida xorijiy davlat korxonada, muassasalarida ham o'tkazilishi mumkin.

13. Amaliyot rahbari tajribali professor, dotsent va o'qituvchilardan tayinlanadi. U zaruriy tayyorgarlik ishlarini bajaradi, talabalarning ichki mehnat tartib-qoidalariga rioya qilishlarini nazorat etadi, talabalarning amaliyot bo'yicha hisobotini ko'rib chiqadi, yozma hisobotni kafedra mudiri va



7-rasm. Oliy maktabda o'quv ishlari.

dekanatga taqdim etadi. Amaliyot obyekti xodimlari shartnomada belgilangan majburiyatlarni bajaradi.

Talaba malakaviy amaliyot jarayonida: amaliyot dasturida ko'zda tutilgan topshiriqlarni to'liq bajarishi; amaliyot obyektining ichki tartib-qoidalarini o'rganishi va bajarishi; bajarilgan ish natijalari uchun javobgarlikni bo'yniga olishi; kundalik daftar yuritishi; amaliyot rahbariga yozma hisobot berishi va amaliyot bo'yicha sinov topshirishi zarur.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ta'lim ishlarini tashkil etashga qo'yiladigan me'yoriy talablarni ayting.

2. O'quv yili, semestri, auditoriya mashg'ulotlari qanday tashkil etiladi?

3. Talabalar bilimni baholash me'yorlari, shakllarini ayting.

4. Kasbiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish shakllari nimalardan iborat?

5. Eksternat nima? Masofaviy ta'lim nima?

6. Oliy ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan bog'lanish shakllarini ayting.

7. Oliy maktabda ta'limning qanday shakl - usullari joriy etilgan?

8. Ma'ruza nima, unga qo'yiladigan pedagogik talablarni ayting.

9. Amaliy mashg'ulotlar qanday tashkil etiladi?

10. Seminar mashg'uloti qanday tashkil etiladi?

11. Laboratoriya ishlari nima?

12. Talabalarning malakaviy amaliyoti qanday tashkil etiladi?

7-bob. OLIY MAKTABDA O'QUV JARAYONI

I. Asosiy tushunchalar: didaktik (o'quv) jarayoni, o'qish motivlari, o'quv-biluv (bilim o'zlashtirish) faoliyati, o'quv-biluv faoliyatini boshqarish, boshqarish nazariyalari.

II. Mavzuning muhim masalalari:

1. O'quv jarayonining mohiyati, komponentlari.
2. Talabaning o'qish motivlari.
3. Talabaning o'quv-biluv faoliyati.
4. O'quv- biluv faoliyatini boshqarish nazariyalari.

III. Manbalar, adabiyotlar

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, 2000, 23–32-betlar.

2. Беспалко В.П. Слагаемые педагогическое технологии. М. 1989, 96–110-стр.

3. Фарберман Б.Л. Прогрессивные педагогические технологии. Ташкент, 1999.

IV. Mustaqil o'qish uchun topshiriq

1. Tavsiya etilgan adabiyotlarni o'qib, referat yozing.
2. Universitetda o'quv mashg'ulotlarini kuzating.

I. O'quv jarayonining mohiyati, komponentlari

1. Oliy maktabda **o'quv jarayonining mohiyati** davlat ta'lim standarti fan bloklarida ko'rsatilgan bilimlarni yuqori darajada o'zlashtirib olish, zarur malaka, ko'nikmalarni egallashdan iborat. Talaba bilimlarni o'qib, tushunib, anglab esda saqlashi, gapirib (yozib) bera olishi, ularni tahlil qila olishi, boshqa o'quv topshiriqlarini bajarishda va amaliyotda qo'llay olish malakalarini ham egallashi zarur.

O'quv jarayonining muhim vazifalaridan biri yoshlardagi aqliy qobiliyatni o'stirish, tug'ma iqtidor (iste'dod) kurtaklarini rivojlantirish, ularni barkamol shaxs, raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishdan iborat .

Inson hayotida o'qish-o'rganish jarayoni umr bo'yi

davom etadigan ijtimoiy - pedagogik hodisa. Demak, oliy o'quv yurtida ta'lim olish davrida talaba o'z bilimlarini muntazam oshira borishga tayyorlanishi, mustaqil o'qib-o'rganish malaka va ko'nikmalarini hosil qilishi lozim. Oliy maktabda o'quv jarayoni — talaba bilan professor-o'qituvchining hamkorlik faoliyatidir. Talaba — o'quv jarayonining subyekti, professor-o'qituvchi ta'lim jarayonining boshqaruvchisi (menejeri) hisoblanadi.

2. Pedagogika, psixologiya fanlari erishgan zamonaviy yutuqlarga binoan istalgan o'quv (didaktik) jarayoni, jumladan, oliy ta'lim muassasasidagi o'quv jarayoni ham, to'rtta bir-biri bilan uzviy bog'liq qism (komponent)dan tuzilgan yaxlit pedagogik jarayondir: 1-motiv-maqсад (M.M.); 2-talabanning o'quv-biluv faoliyati (O'.F); 3-o'zlash-tirish faoliyatini boshqarish (B); 4-ta'limning natijasi (N).

Demak, oliy maktabda o'quv jarayoni (O'.J)ni matematika tilida quyidagicha ifodalash mumkin: $O'.J = M.M + O'.F + B + N$.

3. O'quv jarayoni qismlaridan har birida qanday maqsad (o'quv vazifasi)ni bajarish nazarda tutilganiga qarab, ta'lim-tarbiya jarayonining turli texnologiyalari hosil bo'ladi. Bunday texnologiyalar soni juda ko'p bo'lishi mumkin. Ta'lim-tarbiya vazifasini bajarish qulay bo'lishi uchun mavjud texnologiyalardan qaysi birini tanlash ma'lum mezonlar asosida amalga oshiriladi. Shuni esda tutish lozimki, ta'limning maqsadi (o'quv-biluv vazifasi) va o'quv jarayoni o'zaro bir-biriga aynan mos bo'lishi kerak, ya'ni har bir didaktik maqsadga ma'lum bir ta'lim-tarbiya jarayonida (darsda) erishish mumkin bo'lgan o'quv vazifasi qo'yilishi zarur.

4. Pedagogik texnologiyani amaliyotda qo'llash paytida moslik va jadallik prinsiplariga rioya qilinadi.

Moslik prinsipi — ta'lim-tarbiya jarayoni talabanning bilim o'zlashtirish qobiliyati, xotirasi va aqliy kuchlari o'sishiga mos kelishini nazarda tutadi. Bilim oluvchining o'qishga bo'lgan xohish va qiziqishi moslik prinsipining ko'rsatkichi hisoblanadi.

Jadallik prinsipi — o‘quv-biluv vazifasini tezroq va yuqoriroq darajada ro‘yobga chiqarishni, oz vaqt va kam kuch sarflab, ko‘proq samaraga erishishni nazarda tutadi. Talabanning bilim o‘zlashtirish tezligi jadallik prinsipining ko‘rsatkichi hisoblanadi.

II. Talabanning o‘qish motivlari

1. Motiv — kishini biror ish-harakatni bajarishga undovchi ichki ruhiy kuch, da‘vat, turtki hisoblanadi. Motiv atamasi ehtiyoj, intilish, mayl, qiziqish kabi ma‘nolarni ham anglatadi. Pedagogik, psixologik adabiyotlarda ta‘kidlanganidek, agar o‘quv ishi (o‘quv-biluv vazifasi) talaba uchun biror shaxsiy va ijtimoiy qimmatga ega bo‘lsagina, kishida unga qiziqish, motiv uyg‘onishi va ta‘limning maqsadi talabanning o‘z ehtiyojiga aylanishi mumkin. Professor-o‘qituvchilar talabada o‘qishga motiv hosil qilishga intilishlari, ta‘lim jarayonini mavjud motivlarni hisobga olib va rivojlantirib tashkil etishlari, boshqarishlari zurur.

2. Biror ish-harakatga, faoliyatga motiv hosil qilish — murakkab ruhiy jarayon. Motivlarni shakllantirish malakasi individual-shaxsiy xususiyatga ega bo‘lib, ta‘limning maqsadi, shart-sharoiti, vaziyati bilan o‘qishni tashkil etish shakllari, usullari mutanosibligini taqozo qiladi.

3. Talabada bilim egallashga intilish (motiv) uyg‘otish — ilg‘or, ijodkor o‘qituvchilarga xos xususiyatdir. Kishida o‘qishga motiv hosil bo‘lgani (mavjudligi)ni ko‘rsatuvchi muhim belgilardan biri — o‘quv topshirig‘ini bajarishga tezda va astoydil kirishib ketishi, o‘qishga bo‘lgan qiziqishining barqarorligidir. Talabanning bilim olish motivlari kuchli yoki kuchsiz bo‘lishi mumkin. Motivlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lavermaydi. Motiv hosil qilishning turli yo‘llari, usullari mavjud.

4. Motiv hosil qilishning oddiy usullaridan biri — o‘quv mashg‘uloti yoki darslikdagi matnning qiziqarligidir. «Qiziqarli fizika», «qiziqarli kimyo», «mo‘jizasiz mo‘jiza» kabilar bunga misol bo‘la oladi. Demak, talabada shu fanni o‘rganishga motiv hosil bo‘lishi uchun professor-o‘qituvchi, avvalo, o‘quv mashg‘ulotini qiziqarli, faol shakl-usullarda

tashkil eta bilmog' i lozim.

5. O'quv mashg'ulotlari jarayonida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish yoki shu fanni, mavzuni o'rganishda talaba uchun shaxsiy qimmatli, ahamiyatli o'quv-biluv vazifalarini qo'ya bilish — motiv hosil qilish yo'llaridan biridir.

Talaba o'zi tanlagan kasbini chuqurroq, puxtaroq egallashi, kelajakda raqobatbardosh mutaxassis, jamiyatda obro'li kishi bo'lishi uchun bu predmetni yaxshi, mukammal egallashi zarurligini anglashi ham motiv hosil qilishning muhim usullaridan hisoblanadi.

6. Ta'limning maqsadi real, aniq va diagnostik bo'lishi — motiv hosil qilishning muhim omillaridan hisoblanadi. O'qitish va bilim o'zlashtirishning maqsadi mavhum, noaniq bo'lsa, talaba o'qishga, bilim egallashga qiziqmay qo'yadi. Domlalar, ota-onalar uning o'qigisi kelmaydi deb nolib yuradilar. Aslida bu, talabada motiv hosil bo'lish darajasi bo'shligidan dalolatdir. Bunday vaziyatda talaba professor-o'qituvchining talablarini to'g'ri tushunmay, o'quv topshiriqlarini hafsalasiz, nomigagina bajarib yuradi.

III. Talabani o'quv - biluv faoliyati

1. **Faoliyat** — ijtimoiy va shaxsiy qimmatli motivlarga ko'ra biror maqsad sari yo'naltirilgan, o'ziga xos usul — vositalar asosida ma'lum natija bilan yakunlanadigan xatti-harakatlar tizimidir.

Pedagogik faoliyat — bu, ijtimoiy va shaxsiy qimmatli motivga ko'ra ta'lim-tarbiyaning aniq bir maqsadiga (o'quv-biluv vazifasiga) yo'naltirilgan ma'lum vaziyat (shart-sharoit)da tegishli usul — vositalar yordamida ta'lim-tarbiyadan kutilgan natija bilan yakunlanadigan xatti-harakatlar tizimidir.

Talabani o'quv-biluv faoliyati — bu, shaxsiy va ijtimoiy qimmatli motivga ko'ra ta'lim-tarbiyaning aniq bir maqsadini (vazifasini) tegishli shakl-usul, vositalar yordamida bilib olishi (o'zlashtirishi)ga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya natijasi bilan yakunlanadigan xatti-harakatlari majmuidir.

2. Bilim o'zlashtirish talabani o'quv-biluv faoliyati

bilan uzviy bog'liqligi **pedagogik qonuniyatlardan** biridir.

Ma'lumki eski maktablarda bola bilimni faqat o'qituvchidan eshitib o'rganardi. Bunday ta'lim usuli samarasiz bo'lib, uning o'rnini ko'rsatmali o'qitish usuli egalladi. Lekin ko'rsatmali o'qitish ham optimal emasligi ma'lum bo'ldi va bilim olishda talabning o'quv-biluv faoliyatiga asoslanib o'qitish usuliga o'tildi.

3. **Faoliyatli yondashuv** ta'lim jarayonini tashkil etishning xilma-xil usullarini vujudga keltirdi. Bilim olish uchun motiv, maqsad aniq bo'lishi bilan birga talaba o'quv materialini tushunib o'zlashtirib olishiga imkon beradigan o'quv-biluv harakatlarini ham bajarishi zarur. Professor-o'qituvchining vazifasi bilim olishning qulay yo'lini ko'rsatib, talabalarga uni bajartirishdan iborat.

4. Talaba o'quv vazifasini (faoliyatni) shu ishni bajarish usuli haqida oldin o'zlashtirilgan (bilib olingan) axborotlar asosida bajaradi. Oldin bilib olingan axborotlarga bevosita tayanmay bajarish ta'lim - tarbiya ishi uchun to'g'ri kelmaydi. Faoliyatni bajarish usuliga (qanday bajarishga) doir oldin o'zlashtirilgan axborotlarni ishlata bilish esa ayrim o'quv elementlari (bo'laklari) va butun o'quv predmeti mazmunini o'zlashtirish sifatiga ta'sir etadi. Bunda qanday harakat qilishning oldin bilib olingan mo'ljal asosi – yo aynan oldin bajarilganidek yoki faoliyatning shart-sharoiti (vaziyati)ga qarab o'zgartirilgan holda ishlatilishi ham mumkin.

5. Oldin bilib olingan axborotlardan foydalanish usuliga ko'ra o'quv-biluv faoliyati reproduktiv (nomahsul) va mahsuldor (produktiv) turlarga ajratiladi. Reproductiv faoliyat mahsuldor faoliyatdan oldin keladi (bajariladi) va mahsuldor faoliyat uchun zamin bo'lib xizmat qiladi. Mahsuldor faoliyat reproduktiv faoliyatga asoslanadi, undan o'sib chiqadi.

6. **Reproduktiv faoliyatda** harakat qilishning oldin bilib olingan mo'ljal asosi, uning algoritmlari va qoidalari har xil ko'rinishlarda aynan qayta ishlab chiqiladi (ta'limda aynan qayta gapirib berishdan tortib, o'xshash vaziyatlarda biroq

o'zgartirib aytishgacha). O'quv predmetida dastlab bilib olingan ma'lumotlarga talaba faoliyati davomida biror yangi axborot qo'shmaydi. Algoritmik harakatlar, ya'ni yaxshi tanish, sharoitlarda va aniq ko'rsatilgan qoidalarga bifoan harakat qilish reproduktiv faoliyat hisoblanadi. Masalan, talaba ijtimoiy-gumanitar, ixtisoslik va boshqa o'quv predmetlari bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmasidagi barcha masalalar (o'quv-biluv vazifalari)ni ilgari bilib olingan qoidalar va algoritmlarga binoan bajaradi. Bu talabaning reproduktiv faoliyatidir.


7. Mahsuldor faoliyat jarayonida talaba o'quv predmetida ilgari o'zlashtirib olinganiga nisbatan yangi harakatni yaratadi (bajaradi), ya'ni u, darslik, o'quv qo'llanmasining mazmunidan farq qiladigan yangi axborotni yuzaga keltiradi. Yangi axborotni yaratish — izlovchilik, tadqiqotchilik faoliyati bo'lib, u ham, albatta, oldingi tajribaga tayanadi, asoslanadi.

8. Reproductiv va mahsuldor faoliyatlar o'zaro bog'langan bo'lib, bilim egallashda shu ikki bosqichga mos yaxlit bir tuzilmani hosil qiladi. Talaba reproduktiv va mahsuldor faoliyatlarga doir har bir harakatni **masalani** (o'quv-biluv vazifasini) yechish jarayonining elementi (bir qismi) sifatida bajaradi.

9. Pedagogika fanida masala (o'quv vazifasi) deganda ma'lum bir vaziyatda (shart-sharoitda) harakat yordamida bajarish mumkin bo'lgan ma'lum bir maqsad (o'quv vazifasi) tushuniladi. Shunday qilib, **maqsad, vaziyat va harakat** masalaning komponentlari (qismlari) hisoblanadi. Reproductiv yoki mahsuldor faoliyatni qo'llash masala variantida ko'rsatilgan komponentlarga bog'liq bo'ladi.

10. Pedagogik adabiyotlarda (masalan, V.P.Bespalkoning «Слагвемие педагогический технологии» kitobida) inson faoliyatining mumkin bo'lgan barcha tuzilmasini, turli masalalarni yechish qobiliyati sifatida, quyidagi to'rtta izchil o'zlashtirish darajalari (a) shaklida taqdim etish mumkin: a-I; a-II; a-III; a-IV darajalari. Bu darajalar ta'lim jarayonida shu predmetdan talabaning bilim saviyasi o'sib-yuksalib

borish pillapoyalari (darajalari)ni ifodalaydi.



8A-rasm. Talabalarning bilim o'zlashtirish darajalari chizmasi.
(O-boshlanish nuqtasi; A- yuqorilab borish darajalari; t-vaqtni bildiradi.)


11. Yuqorida keltirilgan nazariyaga binoan talaba o'quv-biluv faoliyatining quyidagi to'rtta darajasini ifodalash mumkin:

a). Agar ta'limning maqsadi o'quv materialini eng quyi reproduktiv darajada (a-I darajasida) o'rganish bo'lsa, o'qish talabani reproduktiv faoliyati darajasida tashkil etiladi. Reproditiv ta'limda talabani o'quv-biluv faoliyati professor-o'qituvchining so'zlarini diqqat bilan tinglash yoki darslik bilan ishlashdan, yoki o'rganilayotgan obyektlarni kuzatishdan, ko'rsatmaga binoan biror amaliy harakatni tajriba tariqasida bajarishdan iborat bo'ladi. Bu ish-harakatni barcha o'quv elementlarini bilib olish uchun uni bir necha marta bajarish (takrorlash) — uni zarur, yuqoriroq koeffitsiyent (K-I) darajasida o'zlashtirishga olib keladi. O'zlashtirish koeffitsiyenti 0,7 ($K - I = 0,7$) bo'lsa, ya'ni talaba test vazifalari (topshiriqlari)ni 70 foizini to'g'ri bajarsa, ta'lim tugallangan (ta'limdan kutilgan natijaga erishilgan) hisoblanadi, shunda talaba ta'lim olishni davom ettirishi mumkin, chunki talabani bilim o'zlashtirish bo'yicha bundan keyingi faoliyati K-I darajadan yuqorilasha boradi.

b). Ta'limning maqsadi o'zlashtirishning yuqoriroq — ikkinchi darajasida (a-II) bo'lsa, talabanning o'quv-biluv faoliyati mahsuldor shaklda bo'lishi, ya'ni faoliyat, (ish-harakat)ning asosiy algoritmlarini ongli va mustahkam esda qoldirishni ta'minlashi lozim. Bu darajada talaba o'quv materialini qayta ifodalay olishi (masalan, matematika tilida qayta ifodalashi), tanqidiy mushohada yuritishi, o'quv topshirig'ini bajarish variantlaridan ratsional usulni tanlay bilishi kerak. Ta'limning bu darajasida talabaga o'quv materialidan matn, referat tayyorlash, munozarada so'zga chiqish, ma'ruza, doklad qilish, barcha o'quv elementlariga oid masalalarni yechish, didaktik o'yinlarda qatnashish tavsiya etiladi. Ikkinchi daraja pedagogik test topshiriqlarini bajarish koeffitsiyenti $K-II = 0,7$ bo'lsa, bu darajadagi ta'lim (bilim o'zlashtirish) tugallangan hisoblanadi.

d). Bilim o'zlashtirishning uchinchi darajasi (a-III)ga erishish uchun talabanning o'quv-biluv faoliyati tadqiqiy, evristik shaklda tashkil etiladi. Buning uchun talaba shu predmetdan o'quv materialini avval birinchi (a-I) va so'ngra ikkinchi (a-II) darajalarida o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Ta'limning a-III darajasida talabadan muammoli ta'lim, ish o'yinlari, biror o'quv vazifasini real mo'ljallash (loyihalashtirish) kabi didaktik vazifalarni bajarishi talab etiladi.

e). Ta'limning maqsadi to'rtinchi ijodiy darajada (a-IV) o'zlashtirishni ko'zlaganda, masalan, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashda o'quv jarayoni tadqiqot natijalari va metodikasini tahlil qilish bo'yicha munozaralar, muammoli vazifalarni qo'ya bilish, individual hamda jamoa bo'lib tadqiqot ishlarini bajarish kabi shakllarda tashkil etiladi.



8-rasm. Oliy maktabda o'quv jarayoni.

IV. O'quv- biluv faoliyatini boshqarish nazariyalari

1. Talabning o'quv-biluv faoliyati, bilim o'zlashtirishining sifati quyidagi bir-biri bilan o'zaro bog'liq bosqichlardan iborat:

- o'quv vazifasini to'la idrok etish;
- o'quv vazifasini anglash, o'quv elementlarining muhim belgilari va aloqalarini umumlashtirish;
- o'quv materialini esda saqlash, aytib berish;
- bilimlarini amaliyotda va boshqa o'quv vazifalarini bajarishda qo'llash.

2. O'quv-biluv faoliyatini boshqarish zarurligi insonning bilimni (o'quv-vazifasini) o'zlashtirish xususiyatidan kelib chiqadi. Ayrim talabalar o'quv materialini idrok etishlari

bilanoq, ya'ni o'zlashtirishning quyi darajasida 0,5 koeffitsiyentida ($K-I=0,5$ bo'lganda) yoq «bilib oldim» deb hisoblaydilar, aldanish sodir bo'ladi va bunda talabaning keyingi o'quv-biluv faoliyati samarasiz bo'ladi. Shuning uchun ham mo'ljallangan barcha ish-harakatlarni talaba to'liq bajaraganini, o'zlashtirish sifatini nazorat qilib borish, bajarish amallarida yo'l qo'yilgan xatolarni o'z vaqtida tuzatib borish zarur.

3. Bilim o'zlashtirish jarayonini boshqarishning eng oddiy usuli o'zlashtirish sifatini test savollari (topshiriqlari) vositasida vaqti-vaqti bilan nazorat qilib, tekshirib borishdir: har bir mavzuni o'rganayotganda nazorat vaqti va usuli (test, amaliy ish kabilar) oldindan belgilab qo'yilishi, ya'ni o'quv jarayonining natijasi standartlashtirilishi, shu bilan birga o'qituvchining ijodiy ishlash imkoniyati ham saqlanishi lozim.

4. Bilim o'zlashtirish jarayonida talaba bajaradigan ish-harakatlar turli ta'lim nazariyalariga binoan o'qituvchining tushuntirishi yoki darslikdagi ko'rsatmaga asoslanadi. O'qituvchi qaysi nazariyaga asoslanayotganini, ko'pincha, o'zi aniq ayta olmasligi mumkin. Pedagogika, psixologiya fanlarida quyidagi ta'lim nazariyalari mavjud:

- rivojlantiruvchi ta'lim;
- muammoli ta'lim;
- dasturlashtirilgan ta'lim;
- o'quv faoliyatini faollashtirish nazariyasi;
- aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi;
- bixeviorizm ta'limoti;
- oddiy muloqot nazariyasi va boshqalar.

Zamonaviy ta'lim nazariyalarini tahlil qilish va taqqoslash o'quv-biluv faoliyatining umumiy formulasini aniqlashga imkon beradi.

5. O'quv-biluv faoliyatining umumiy formulasi o'zlashtirishning (ta'limning) turli nazariyalari va faraziyalariga binoan bajariladigan izchil harakatlar tizimidan iborat, ya'ni bo'lak-bo'lak o'quv-biluv harakatlarining izchilligi – shu

nazariya asosida bajarish algoritmini hosil qiladi.

O'quv-biluv harakatlarini bajarish algoritmining har bir qismi o'quv jarayonida o'zlashtirish darajalari bo'yicha qat'iy qoidalarga binoan bajariladigan izchil harakatlardir. Harakatlarning har biri va uning mazmuni bilim o'zlashtirish jarayoni asoslanadigan nazariyaga bog'liq. Bilim o'zlashtirish nazariyasini tanlash usuli va sifat mezonini – o'qituvchining o'qitish faoliyati uchun mo'ljallab bo'lib, uning pedagogik texnologiyasi (mahorati)ni tavsiflaydi.

Quyida ta'lim nazariyalaridan ikkitasini (aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasini va bixeviorizm ta'limotini) algoritmlar shaklida ifodalab keltiramiz.

6. Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasiga ko'ra, bilim o'zlashtirish jarayoni talabning o'quv-biluv faoliyati sifatida qaraladi, aqliy harakatlar (amallar) shaklida ijro etiladi, u har bir mashqda (o'quv vazifasini bajarishda) bitta yoki bir nechta aqliy amallardan iborat bo'lib, ma'lum izchilikda bajariladi:

a). Bilim o'zlashtirish paytida talabning dastlabki mo'ljallab harakati (M.H.) bajariladigan o'quv ishining qoida, usullarini va shu qoidaga binoan o'quv vazifasini bajarishni mo'ljallab olishdan iborat.

Ta'lim nazariyasida o'quv vazifasini bajarish uchun aqliy amallar (harakatlarni) qanday tartibda, qaysi izchilikda bajarish tavsiya etiladi (maxsus kartochka yoki qo'llanmada). Bu kartochkalar (qo'llanmalar) yordamida talaba aqliy amallarni bajarib, o'quv materialini o'zlashtira boradi. Aqliy harakatlarni bu tariqa moddiylashtirish darslikda matn, karta, sxema tarzida berilishi ham mumkin.

b). Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasida talabning ijrochilik faoliyati (I.F.) o'quv-biluv harakati turli shakllarining izchil, bosqichma-bosqich almashinuvi shaklida bo'ladi, ya'ni tashqi moddiy harakatlar (M.H.)dan boshlanib, ichki va tashqi nutq (N.) orqali, aqliy harakatlar (A.H) shaklida tashkil etiladi. Algoritmik harakatlarning bu ko'rinishini matematika ko'rinishda

quyidagicha ifodalash mumkin: $IF = MH + N + AH$.

7. Bixeviorizm ta'limotiga ko'ra bilim o'zlashtirishning umumiy formulasi tubandagicha: $S \rightarrow R \rightarrow P$.

Bunda, S—stimul, harakat qilishga undovchi sabab yoki harakat qilish lozim bo'ladigan vaziyat, ya'ni o'quv vazifasini bajarishning shartlari, savol, signal kabilar stimul bo'lishi mumkin.

R — reaksiya, ya'ni stimulga javob harakati, savolga javob berish, sharti bo'yicha masalani yechish, jismoniy harakat kabilar reaksiya hisoblanadi.

R—javob harakatining to'g'riligini ma'qullash, rag'batlantirish, ish-harakat to'g'ri bajarilganini tasdiqlash, moddiy yoki ma'naviy rag'batlantirish yo'li bilan bildiriladi. Bixevioristlarning fikricha, bolaga ta'lim berayotganda og'zaki ma'qullash, baho (ball) qo'yish; bosh, qo'l, ko'z harakati bilan tasdiqlash kabilar shunga kiradi.

R—ma'qullash, rag'batlantirish bixevioristlar hayvonlar ustida tajriba o'tkazib ishlab chiqqan o'zlashtirish formulasida juda muhim hisoblanadi. Hayvonlarga turli harakatlarni bajarishni o'rgatishda u juda qo'l keladi. Lekin insonga nisbatan bu xulosani absalyutlashtirishga ayrim olimlar shubha bilan qaraydilar. Shunga qaramay bixevioristlarning ta'lim jarayonida har bir amal bajarilishini nazorat qilib va ta'lim etaplarida yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatib borish zarurligi haqidagi xulosalari ta'lim nazariyasi hamda amaliyoti uchun muhimdir. Bu xulosani ular ta'lim prinsipi darajasigacha ko'taradilar. Shu qoida asosida ular dasturlashtirilgan ta'lim metodikasini ishlab chiqdilar. Unga ko'ra har bir o'quv matnini quyidagi qoidaga binoan tuzishni taklif etadilar:

— S — R birikmasi (birligi)da esda qoldirish uchun o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga ajratish;

— o'quv elementlarini faoliyatda (harakatda)gi har xil ko'rinishlarda qarab chiqish, ya'ni shu o'quv matnidagi barcha birikmalarni aniqlash;

— nazorat — tuzatish amali yordamida javob harakati to'g'riligini aniqlab darhol ma'qullash, rag'batlantirish;

– har xil mashqlarni ko‘p bajartirish, takrorlash yo‘li bilan S – R birikmasini talaba o‘zlashtirishning yuqori koeffitsiyenti (kamida $K=0,95$) darjasida egallashiga erishish.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. O‘quv jarayoni tushunchasining mohiyati, vazifasi nimalardan iborat?

2. O‘quv jarayoni qanday qismlardan tuziladi?

3. Motiv, talabanning o‘qish motivlari atamalari nimalarni anglatadi? Motiv hosil qilish yo‘llarini ayting.

4. Faoliyat, pedagogik faoliyat, talabanning o‘quv-biluv faoliyati tushunchalarining ta‘rifini ayting.

5. Bilim o‘zlashtirish talabanning o‘quv-biluv faoliyati bilan uzviy bog‘liqligi qonuniyatini izohlang. Faoliyatli yondashuv nima?

6. Reproduktiv va mahsuldor faoliyat tushunchalari nimani bildiradi?

7. Bilim o‘zlashtirish darajalari deganda, nimalar tushuniladi?

8. Talabanning o‘quv-biluv faoliyati qanday bosqich (etap)lardan iborat?

9. Bilim o‘zlashtirish jarayonini boshqarish nima uchun zarur? Ta‘lim menejeri tushunchasi nimani anglatadi?

10. Bilim o‘zlashtirish jarayonini boshqarish usullarini ayting.

11. Qanday ta‘lim nazariyalari mavjud?

12. O‘quv-biluv harakatlari algoritmi tushunchasi nimani bildiradi?

13. Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasining mohiyatini va algoritmik formulasini ayting.

14. Bixeviorizm ta‘limotiga ko‘ra o‘zlashtirishning umumiy formulasi nimadan iborat? Unga binoan talabanning o‘quv-biluv faoliyati qanday tashkil etiladi?

8- bob. TA'LIMNING ILG'OR TEXNOLOGIYALARI VA INTERFAOL USULLARI

I. Asosiy tushunchalar: pedagogik texnologiya, ta'limning ilg'or texnologiyalari, masofaviy ta'lim, multimedia, faoliyatli yondashuv, interfaol usullar, kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, sinektika, ish o'yinlari.

II. Mavzuning muhim masalalari:

1. Ta'limning ilg'or texnologiyalari.
2. Masofaviy ta'lim, multimedia.
3. Ta'limning interfaol usullari.

III. Manbalar, adabiyotlar.

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent. 1997.
2. Ochilov M. Talabani o'quv-biluv faoliyati. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi 2000, 25 –31-betlar.
3. Choriyev A. Yangi pedagogik texnologiyalar. (Ma'ruza mantlari). Qarshi, 2000, 70-bet.
4. Abduazimov O. Multimedia – noyob ne'mat. «Xalq so'zi» gazetasi, 2002-yil, 28-fevral.
5. Isroilov M. Ta'limda interfaol metodlar. «Ma'rifat» gazetasi, 2002, 14-sentabr.
6. G'afforova T., Qurbonov A., Godfman Ye. Ta'limning ilg'or texnologiyalari. Qarshi, «Nasaf» nashriyoti, 2003, 110-bet

7. Hayitov A., Boymurodov N. Ta'limda noan'anaviy darslar va interfaol usullardan foydalanish. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006, 76-bet.

IV. Mustaqil o'qish uchun topshiriq

1. Yuqorida ko'rsatilgan adabiyotlarni o'qib matnlash-tiring.

I. Oliy ta'limning ilg'or texnologiyalari

1. Pedagog – olimlar pedagogik texnologiya sohasida oliy ta'lim uchun ham talabalar o'quv-biluv faoliyatini tashkil

etishning ilg'or usullarini ishlab chiqmoqdalar. Masalan, amerikalik olim R.Gane va L.Briggslar pedagogik texnologiyada dars o'tishning quyidagi shaklini taklif etganlar:

- talabalar diqqatini jamlash;
- talabalarga dars maqsadini yetkazish;
- kerakli bilimlarni esda qoldirish va amaliy ko'nikmalarni egallash zarurligini uqdirish;
- talabada qiziqish uyg'otib, faoliyatga, harakat qilishga undaydigan o'quv materialini taqdim etish;
- talabaning javob harakatlarini ma'qullab, rag'batlantirib borish;
- talaba o'quv-biluv vazifasini o'zlashtirganidan xabarдор bo'lib borish;
- talabalarning fikrlash faoliyatini boshqarish, bilim va ko'nikmalari mustahkamligini rag'batlantirib borish.

Dars o'tishning bu texnologiyasi juz'iy o'quv maqsadlariga erishishga hamda fikrlashning mahsulдор darajasini rag'batlantirishga xizmat qiladi.

2. Ingliz olimi A.Romeshevskiy pedagogik texnologiya-ning quyidagi variantini tavsiya etadi:

- talabaga kerakli bilimlarnigina yetkazish;
- dastlab reproduktiv darajada bilim va ko'nikmalarni shakllantirish;
- talaba bajaradigan ish- harakatlarni yaxlit holda va qismlarga bo'lib namoyish etish;
- ko'nikma va malaka hosil qilishni soddalashtirish, ya'ni topshiriqni qismlarga ajratib bajartirish;
- talaba o'quv-biluv topshirig'ini mustaqil bajarayotganidan muntazam xabardor bo'lib, uni rag'batlantirib borish;
- o'quv-biluv vazifasini sekin-asta murakkablashtira borib, ta'limning mahsulдор, tadqiqiy bosqichiga o'tish;
- ta'lim jarayonida xilma-xil muammoli vaziyatlarni tashkil etish, nostandart o'quv vazifalarini bajartirish.

3. Amerikalik olim F.S.Keller oliy o'quv yurtlari talabalari uchun pedagogik texnologiyaning individuallashtirish

tirilgan tizimini ishlab chiqdi. Keller usulining muhim belgilari quyidagilar:

- o‘quv materiali mazmunini (oldin o‘tilgan qismining mazmunini ham) talaba to‘liq o‘zlashtirib olishiga erishish;
- har bir talaba o‘zining bilim o‘zlashtirish tezligiga binoan alohida ishlashi kerak;
- ma‘ruzadan talabalarda motiv hosil qilish va umumiy yo‘naltirish uchungina foydalanish;
- o‘quv-biluv axborotlarini bayon qilish uchun nashr etilgan o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanish;
- o‘quv-biluv materialining qismlarini talaba o‘zlashtirib olganini aniqlashda yordamchi – assistent (aspirant, a‘lochi talaba)lar kuchidan foydalanish.

Pedagogik texnologiyaning bu shaklida professor-o‘qituvchi o‘quv kursini bir necha bo‘lim (modul)larga ajratadi, odatda, ularning soni o‘quv materialining hajmiga qarab aniqlanadi, ular darslikdagi boblarga teng bo‘lishi ham mumkin. Har bir talabaga qanday o‘qish uchun qo‘llanma beriladi, unda bo‘lim (mavzu)ni o‘rganish maqsadi ko‘rsatiladi, o‘quv ishining ma‘lum shakl-usullari tavsiya etiladi, nazorat va o‘z-o‘zini nazorat uchun savollar majmui keltirilgan bo‘ladi. Ishlash tartibini, o‘qish-o‘rganish shaklini talabaning o‘zi tanlaydi. O‘zlashtirilgan bo‘lim, mavzu bo‘yicha imtihondan oldin har bir talabani yordamchi – assistent professor-o‘qituvchi ishlab chiqqan aniq talab – mezonlarga binoan «o‘tdi», «o‘tmadi» shaklida sinovdan o‘tkazadi. Sinovdan o‘tmagan talaba yordamchining tavsiyasiga binoan o‘quv materialini qo‘shimcha ishlab chiqadi. Sinovdan o‘tish keyingi bo‘limni o‘rganish uchun o‘ziga xos ruxsatnoma hisoblanadi. Ma‘ruzalar soni juda kam (bir semestrda 6 tadan oshmaydi). Keller texnologiyasi (rejasi) AQSHdagi oliy o‘quv yurtlarida tabiiy-ilmiy fanlarni, shuningdek, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘rganishda keng qo‘llaniladi. Pedagogik tajribalar Keller rejasi an’anaviy ta’lim usuliga nisbatan samarali ekanini ko‘rsatdi.

4. Rossiya Fédératsiyasida V.Guzeyev integral pedagogik texnologiya usulini ishlab chiqdi, uning asosiy qismlari,

umumiy holda, quyidagilardan iborat:

–har bir ixtisoslik bo'yicha ta'limning rejalashtirilgan (loyihalashtirilgan) natijalari ko'p darajali diagnostik va amallar bo'yicha bajariladigan o'quv vazifalari shaklida taqdim etiladi;

– ta'lim jarayonining yirik tuzilmasi darslar bloki shaklida birlashtirilib, ta'lim mazmunining katta birligini tashkil etadi;

– jamoaviy o'qitish guruh faoliyatining monitoringi asosida tashkil etiladi, ta'limning har bir qadami oldingisining natijasiga binoan rejalashtiriladi;

– ta'lim jarayonini boshqarish va o'qitish kompyuterlar vositasida amalga oshiriladi.

5. Oliy ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar majmuidan foydalanish talabalarning bilim o'zlashtirishida yuqori natijalarga olib keladi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish ham shular jumlasiga kiradi. Axborot texnologiyalariga skaner texnikasida, Web sahifalarida ishlash, internet, Net Ware texnologiyalari kiradi. Ularni oliy ta'lim jarayonida qo'llash maqsadga muvofiq.

II. Masofaviy ta'lim, multimedia

1. Rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan masofaviy ta'lim usuli O'zbekiston Respublikasida ham qo'llanilmoqda. Toshkent Davlat texnika universitetida, Toshkent elektrotexnika va aloqa institutida, Toshkent Arxitektura va qurilish institutida, Toshkent Davlat pedagogika universitetida unga katta e'tibor berilib, masofaviy ta'lim markazlari tashkil etilgan.

2. Masofaviy ta'lim maxsus informatsion (axborot) tizimiga asoslanadi, u o'qitishning yangi texnologiyasidir. Ta'limning muddati, joyi, vaqtini talabanning o'zi tanlaydi. Masofaviy ta'limning xarakterli xususiyati modullilik, iqtisodiy samaradorlik, turli xil axborotlardan foydalanish imkoniyati mavjudligidadir. O'quv adabiyotlariga – chop etilgan materiallar, televideniya ko'rsatuvlari, audio va video kasetalar, kompakt disklar, kompyuter materiallari kabilar kiradi. Masofaviy ta'lim, ayniqsa, mutaxassislar malakasini

oshirish tizimida juda qo‘l keladi.

3. Ta‘limning bu yangi texnologiyasi o‘z navbatida axborotni uzatish imkoniyatiga ega bo‘libgina qolmay, balki talabalarning intellektual qobiliyatini hamda amaliy tajribalarini taraqqiy ettirib, ta‘lim jarayonini boshqarishni takomillashtiradi, nazoratning turli shakllarini, jumladan, test nazoratini qo‘llash olingan bilimlarni sifatli bo‘lishini kafolatlaydi.

4. Masofaviy o‘qitish xalq ta‘limi xodimlari malakasini oshirish tizimining muhim muammolarini hal etishda istiqbolli hisoblanadi, bu muammolarga quyidagilar kiradi:

- pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish;
- attestatsiya, sertifikat siya sikllarini o‘tkazishda olib boriladigan ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatish;
- ta‘lim xizmatlari sifati va mukammalligini oshirish;
- o‘qituvchiga o‘zi xohlagan oliy o‘quv yurtiga ishga borishi, «mualliflik kursi» dasturini tanlash imkonini beradigan ta‘lim xizmati bozorini joriy etish kabilar.

5. Hozirgi paytda Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika universitetida viloyatlardagi pedagogika oliy o‘quv yurtlari, litseylar, kollejlardan iborat o‘quv- uslubiy tizim asosida pedagogik kadrlarni masofadan o‘qitish modelini bunyod etish uchun shart-sharoitlar mavjud. Bu yerda ma‘ruza va amaliyot materiallari bankini yaratish uchun pedagogika va psixologiya, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan yetakchi professor-o‘qituvchilarning mualliflik kurslari alohida qiziqish uyg‘otmoqda. Bundan tashqari, xorijiy mamlakatlarning ta‘lim sohasidagi tajribalari bilan tanishish imkoni tug‘ilmoqda. Shu bilan birga oliy o‘quv yurtining buyurtmasi asosida pedagoglar asosiy ish joyidan ajralmagan holda masofadan ta‘lim olishlari mumkin.

6. Masofaviy ta‘lim turli yo‘llar bilan amalga oshiriladi. Har bir usul muayyan harakatlardan iborat bo‘lib, har xil didaktik vositalar yordamida ma‘lum bir maqsadga erishishga xizmat qiladi. Namoyish etish, tushuntirish, hikoya qilish, suhbat, mashq, masala yechish, yozma ish kabilar shular

jumlasidandir.

• Masofaviy ta'limda o'qituvchi va talaba foydalanadigan texnika vositalari yordamida ta'lim mazmunini taqdim etish, talabaning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish va boshqarish vazifalari bajariladi. Ma'lum bir o'quv-biluv faoliyati – bosma material, audio-video material shaklida taqdim etilishi mumkin. Masofaviy ta'lim **vositalari**, jumladan, quyidagilarni o'z ichiga oladi:


- elektron darslik, qo'llanma, spravochniklar;
- kompyuter tarmog'idagi o'quv- metodik materiallar;
- odatdagi va multimedia mahsuloti shaklidagi kompyuter ta'limi tizimlari;
- audio, video o'quv axborot materiallari;
- masofaviy elektron- axborot kutubxonalari, masofaviy bilim va axborot bazalari kabilar.


7. Masofaviy ta'lim **shakllari** qatorida matnli elektron ma'ruzalar; video konferensiya shaklidagi seminar mashg'ulotlari; axborot texnologiyalari (elektron pochta, telefon kabilar) yordamida amalga oshiriladigan konsultatsiya (maslahat)lar; kompyuter tarmoqlari orqali o'tkaziladigan laboratoriya mashg'ulotlari; mustaqil ishlash kabilardan foydalanish mumkin.

8. O'zbekistonda olimlarimizning izlanishlari natijasida zamonaviy texnologiya—**multimedia** yaratildi. Mamlakatimizda multimedia mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi muassasa ham tashkil etilgan. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar fani bo'yicha «O'zbekiston—2000», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda», «Amir Temur», «Ahmad-Farg'oniy va Abu Rayhon Beruniy» kabi mavzularda multimedia dasturlari yaratildi. Multimedia mahsulotida ma'lum bir mavzu bo'yicha kompakt disk, audio va video lavhalari aks ettirilib, unga matn yozuvlar, musiqa ham joylashtiriladi. Masalan, «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» multimedia – almanaxi qomusiy shaklda tuzilgan. Unda 12 ta bo'lim mavjud: mustaqil O'zbekiston, tarix, demokratik yangilanish, islom madaniyati, iqtisodiy islohotlar, yoshlar va ta'lim bo'limlari shular jumlasidan.

«O‘zbekiston – 2000» multimedia – ma’lumotnomasi respublikamizning zamonaviy salohiyati tahliliga bag‘ishlangan. Unda O‘zbekistonning davlat qurilishi, ijtimoiy rivojlanishi, iqtisodiyot, fan, madaniyat, sport sohalariga oid dolzarb ma’lumotlar jamlangan. Mazkur multimedaning tarkibidan 657 ta maqola, 19 ta mumtoz musiqa va 833 ta surat o‘rin olgan. Ushbu multimedia mahsulotining ingliz tilidagi nusxasi Germaniyada o‘tkazilgan «EHRO – 2000» xalqaro ko‘rgazmada namoyish etilib, yuqori baholangan.

9. Multimedia mahsulotlari uzluksiz ta’lim tizimining barcha turlari, bosqichlarida belgilangan soat hajmida o‘quvchi va talabalarga o‘quv qo‘llanmasi sifatida foydalanish uchun tavsiya etilgan. Ta’lim muassasalarini shartnoma asosida multimedia mahsulotlari bilan ta’minlash uchun ma’lum ishlar amalga oshirilmoqda. Oliy o‘quv yurtlari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘quv mashg‘ulotlarini multimedia mahsulotlari asosida tashkil etish texnologiyasi nazarda tutilgan.





9-rasm. Ta'limning zamonaviy texnologiyalari.

10. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo'yicha «Ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida»gi farmoyish ayni muddao bo'ldi. Milliy istiqlol g'oyasi dasturi bo'yicha O'zbekiston Fan va texnika Davlat qo'mitasi muassisligida multimedia mahsulotlari «Kompyuter – Osiyo» ilmiy-texnika parki tomonidan ko'paytirilib tarqatilmoqda. Mazkur noyob texnologiya mahsulotlaridan ta'lim jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq.

III. Ta'limning interfaol usullari

1. Talabaning bilim o'zlashtirishi uning o'quv-biluv faoliyati bilan uzviy bog'liqligiga endi hech kim shubha qilmaydi. Pedagogika tarixidan ma'lumki, ko'p asrlar davomida maktablarda sxolastik, tushunib - tushunmay esda qoldirish usuli hukmron bo'lib, bola o'quv predmetining asosiy mazmunini o'qituvchidan eshitib o'rganardi. Chunki muallimning so'zi yoki darslik o'quvchi uchun bilim olishning yagona manbai bo'lgan.

XVIII asrga kelib, Yevropada sxolastik ta'limning

samaradorligi juda past ekanligi isbotlandi. Sxolastik ta'limning o'rnini ko'rsatmali o'qitish usuli egalladi: «Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal». Lekin ko'p o'tmay ko'rsatmali ta'lim usuli ham optimal emasligi ma'lum bo'ldi va bilim o'zlashtirishda o'quvchi faoliyatini tashkil etish usuliga o'tildi: «Ish-harakat bajarilayotganini yuz marta ko'rgandan, uni bir marta bajarib o'rgangan yaxshi», degan xulosaga kelindi.

2. Bilim olishga faoliyatli yondashuv ta'lim jarayonini tashkil etishning xilma-xil usullarini vujudga keltirdi. Ta'limning **interfaol usullari** ana shular jumlasiga kiradi. Bilimni egallab, o'zlashtirib olish uchun maqsad aniq bo'lishi, motiv hosil qilish bilan birga talaba o'quv materialini o'zlashtirishiga imkon yaratadigan o'quv-biluv harakatlarini ham bajarishi zarur, ya'ni talabaning o'zi faoliyat ko'rsatib o'qimog'i kerak. Muallimning vazifasi — bilim olishning qulay texnologiyasi, shakl - usulini tanlab, talabaga uni qanday bajarish yo'llarini ko'rsatish va o'quvchi faoliyatini boshqarishdan iborat.

3. Ta'limning interfaol usuli atamasi pedagogika fanida va ta'lim amaliyotida keng qo'llanilmoqda. U birgalikdagi harakatlar o'zaro ta'sir o'tkazuvchi faollik usuli degan ma'noni anglatadi. Bu usulda o'quv mashg'ulotini tashkil etish uchun talabalar guruhi, ko'pincha, bir nechta kichik-kichik guruhchalarga ajratiladi. O'quv materialini sifatida tayyor bilimlardangina emas, balki axborotlardan ham foydalaniladi. Bilim bilan axborot o'rtasidagi farq shundan iboratki, narsa va hodisalar haqidagi bilimlar tekshiruvdan o'tgan, isbotlangan bo'lib, haqiqatga to'g'ri keladi. Axborot esa gapirayotgan kishi aytgan ma'lumotdir, odatda, u bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, hatto ziddiyatli fikrlarni ham o'zida aks ettirishi mumkin.

4. Professor-o'qituvchi mashg'ulot jarayonida talabalarni faollikka, izlanishga undar ekan o'quv materialini so'zlab berishgagina emas, balki muallifning fikrini rivojlantirishga ham o'rgatib boradi, talabaning fikrlash faoliyatini jonlantiradi. O'quv-biluv vazifasi, topshirig'ini o'zlashtirib

olishga ishtiyoq, intilish, qiziqish uyg'otish; o'zlashtirish, anglash jarayonidan mamnun bo'lish ta'limning samaradorligini oshiradi.

5. Interfaol usullarning an'anaviy ta'lim usullaridan farqi — talaba bilan o'qituvchining pedagogik muloqoti, aloqasining o'ziga xosligida; pedagogning yuqori mahoratida; talaba shaxsiga nisbatan munosabatning insonparvarlik xarakterida; talabaning individual qobiliyati namoyon bo'lishi, ijodiy mustaqilligi kabilarda ko'zga tashlanadi. Ta'lim bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyati gavdalan-tiriladigan sharoitda olib boriladi, muammoli vaziyatlarni hal qilishga qaratiladi. Bilim, ko'nikma va malakalarni jamoaviy faoliyatda birgalikda o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi. Bunday vaziyatda talaba ta'limning obyektigina emas, subyektiga ham aylanadi, fikrlash faolligi ortadi.

6. Kichik guruhlarda ishlash uchun talabalar 4–5 kishidan iborat jamoalarga bo'linadi. Bundan maqsad o'quv mashg'uloti davomida o'zaro ishonch vaziyatini vujudga keltirish, oshkora fikr bildirishga xalal beradigan ruhiy noxushliklarni bartaraf etishdan iborat. Kichik guruhda ishlash usullari talabaning fikrlash doirasini erkinlashtirib, mavjud noqulayliklarni bartaraf etish, fikrlash faolligini oshirish, o'quv-biluv faoliyatini jadallashtirishga xizmat qiladi. Ularning ahamiyati yangi o'quv axborotlarini ishlab chiqish va bilimni mustahkamlashdan iborat.

Kichik guruhlarda ishlash usulining asosiy maqsadi — talabalarni bahs-munozara, tortishuvga ko'proq jalb qilish va ularning bir-biridan o'rganishiga imkoniyat yaratish, talabalarning o'zlari «o'qituvchi» rolini bajarishlariga erishish.

Kichik guruhlarda ishlash texnologiyasi qatnashchilarga o'z fikrlari, g'oyalari bilan ko'proq, erkin o'rtoqlashish imkoniyatini beradi. Kichik guruhning qatnashchisi katta guruhda aytish mumkin bo'lmagan mulohazalarni ham aytishi mumkin. Ular shunday fikr, g'oyalarni aytishlari mumkinki, bu mavjud bilimlarni kengaytiradi, yondashuvlarni o'zgartiradi. Butun diqqat-e'tibor, faollik o'qituvchidan talabalarga ko'chiriladi. Ularni ta'lim olishda mas'uliyatni o'z zimmlariga yuklashga da'vat etadi.

Kichik guruhlarda ishlashning ayrim kamchiliklari ham mavjud: ko'proq joy va vaqt talab etiladi; qatnashchilarning har biri yetakchilik qilishga o'ta boshlashi, guruh ustidan nazorat qilishni o'z qo'liga olishi mumkin; guruh o'ziga berilgan o'quv-biluv topshirig'idan chalg'ib, yo'l-yo'riqlarga amal qilmasligi yoki topshiriqni noto'g'ri tushunishi ham mumkin.

Kichik guruhlarda o'quv mashg'ulotini tashkil etish uchun ularga rahbarlar belgilanadi. Talaba kichik guruhda ishlaganida boshlovchi yoki ijrochi rovida bo'ladi; bir-birlaridan o'rganish va turli fikr, nuqtai nazarlarni qadrlashga o'rganadi.

Bu usulda ishni tashkil etish uchun shu mashg'ulotda o'rganiladigan o'quv materiali bir-biriga bog'liq bir necha masalalarga (o'quv-biluv topshiriqlariga) ajratiladi; har bir guruhning faoliyat yo'nalishi aniqlanadi; talabalar mazkur muammo haqida ma'lum tushunchaga ega bo'lishlari kerak: talabalarga o'quv-biluv topshirig'ini qanday bajarish uchun aniq yo'l-yo'riqlar beriladi, talabalarning faoliyati yo'naltirilib, qo'llab-quvvatlab, rag'batlantirib boriladi, xato fikrlar tanqid qilinmaydi.

«Aqliy hujum», «sinektika», «ish tariqasidagi o'yinlar», «konkurs» va boshqa ko'plab usullar — interfaol usullar jumlasidandir.

7. O'quv mashg'ulotini **aqliy hujum** usulida tashkil etganda, quyidagi pedagogik talablarga amal qilish lozim; fikr va g'oyalarni ifodalashga, aniqlashga to'siq bo'ladigan biron mulohaza yoki tanqidiy fikrlarni bildirmaslik; yangicha fikrlarni qo'llab - quvvatlash, eng ko'p g'oyalar va takliflar olish; g'oyalarni rivojlantirish va umumlashtirish; dalil - isbotlar keltirmasdan, qisqa fikrlarni bayon etish; guruhni g'oyalar beradigan va ularni ishlab chiqadigan kishilarga bo'lish; g'oya va fikrlarni bildirish uchun vaqtni qat'iy belgilash kabilar.

Mashg'ulotni bu usulda o'tkazish uchun professor-o'qituvchi mavzuni e'lon qiladi. O'quv-biluv topshiriqlarini bajarishda har bir talabaniq ishtirok etishini kuzatib boradi,

javoblarning birortasi ham izohlanmaydi va o'rinsiz deb rad etilmaydi. Guruhda boshqa javob variantlari qolmagandan keyin muhokamaga kirishiladi. Talabalar professor-o'qituvchi bilan birgalikda barcha javob variantlarini faollik bilan muhokama qiladilar va shu o'rinda to'g'ri yoki noto'g'ri javob variantlariga o'z munosabatlarini bildirishlari mumkin. To'g'ri javoblarni yozib olish talabalarga taklif etiladi.

Aqliy hujum usulida o'quv mashg'ulotini tashkil etishning asosiy maqsadi — talabalar shu mavzu bo'yicha nimalarni bilishlarini aniqlash va guruh a'zolaridan qisqa vaqt ichida ko'proq g'oyalarni olishdan iborat. O'quv mashg'uloti jarayonida talabalar tomonidan ta'limiy muammoni hal eta oladigan g'oyalar taklif etilishi, mavzu yuzasidan fikr-mulohaza bildirish uchun imkon yaratilishidir. Bunday ta'lim jarayonida guruh a'zolari bir necha daqiqa davomida mavzu yuzasidan munozara qilib, xilma-xil fikrlarni bayon qiladilar, fikrlar, takliflar doskaga, yon daftarlariga yozib boriladi. Mulohazalar qanchalik noaniq, bema'ni yoki bahsli bo'lishidan qat'i nazar yozilaveradi. Bu paytda taqiqlar bo'lmaydi va hech qanday baho berilmaydi. Qatnashchilarga takliflarni tahlil qilish, fikr birdirish uchun mashg'ulot oxirida imkon beriladi. Agar faollik sust bo'lsa, to'g'ri fikrlar chiqavermasa, professor-o'qituvchi o'z mulohazalarini aytib, ulardan ba'zilarini yozib olishni taklif etadi.

Bu usul talabaning o'z nuqtai nazarini himoya qilishi, isbotlashi, har qanday vaziyatda ham eng ma'qul yechimni topishga; muloqot olib borishga, aytilgan fikrning to'g'riligiga opponentlarni ishontirishga o'rgatadi. Uning tarbiyaviy ahamiti shundaki, talabalarni yakdillikka undaydi, har bir qatnashchiga uning taklifi yozib olishga arzigulik ekanligini his qilish imkoniyatini beradi. Bu esa o'quv muammosi yechimini topishni birgalikda bajariladigan ishga aylantiradi.

8. **Sinektika** usulida o'qitishning o'ziga xos xususiyati shundaki, talabaning ongiga tayyor holdagi bilim, obraz tiqishtirilmaydi, balki u o'quv jarayonida boyitilib faollik bilan shakllantiriladi. Talaba o'z qobilyatini, kuch-g'ayratini

ishga solib, uni fikran rivojlantiradi. Natijada o'quv-biluv materialini ancha tez va mukammal o'zlashtiriladi, xotirada uzoq saqlanib, amaliyotda keng qo'llanilishi mumkin. Bu usulda talaba ancha uquvli, professor-o'qituvchi esa yaxshi yo'l- yo'riq ko'rsatuvchiga aylanadi. Sinektika usuli seminar va amaliy mashg'ulotlarda keng qo'llanilishi mumkin. Nazariy materialni ishlab chiqish va mustahkamlash, uning o'zlashtirilishini nazorat qilish uchun bu usuldan foydalaniladi. U an'anaviy so'rovlar o'rnini bosib, nafaqat javob berayotgan talaba, balki barcha guruh a'zolarining fikrlash jarayonini faollashtiradi.

9. **Ish tariqasidagi o'yinlar** usulida o'quv mashg'ulotini tashkil etishdan maqsad o'rganilayotgan kasb yuzasidan muloqot qilishda va amaliyotda zarur bo'ladigan faoliyat ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Ta'limning bu shakli tanlangan kasbga doir murakkab vaziyatlarni ma'lum obyektga gavdalantirib, amaliyotdagi ishga taqlid qilish yo'li bilan talabalar egallagan bilimlarga doir amaliy ko'nikmalarni hosil qilishga imkon yaratadi.

10. O'quv mashg'ulotini **konkurs** shaklida tashkil etganda professor-o'qituvchi butun guruh bilan ishlaydi. O'quv kursining tugallangan moduli, ya'ni bo'limi bo'yicha mashg'ulotni umumlashtirib, o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashda yoki oraliq nazoratni o'tkazishda qo'llaniladi. Talabalar bilimini aniqlash va baholashda bir emas, balki bir necha pedagog ishtirok etishiga imkon yaratadi. Konkurs usulida mashg'ulot o'tganda talabaning nutqi rivojlanadi, u o'z fikrini bayon qilish, o'z g'oyasini himoya qilish, konkurs qatnashchilarining javoblarini tahlil qilishni o'rganadi.

11. O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining hozirga davri har bir bo'lajak mutaxassisdan faollik bilan mustaqil ishlash, tezkorlik bilan qarorlar qabul qilish, o'zgaruvchan hayot sharoitlariga moslashish, raqobatbardosh bo'lishni talab etadi. Shuning uchun ham oliy o'quv yurtlarida birinchi navbatda dars berish faoliyatiga emas, aksincha, ta'lim olish, o'rganish, bilim egallash faoliyatiga e'tibor qaratilmoqda.

An'anaviy ta'limda o'qituvchi yoki darslik asosiy bilim manbai bo'lgan bo'lsa, zamonaviy shaxsga yo'naltirilgan ta'limda professor-o'qituvchining vazifasi talabalarning faolligini oshirish, mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etish, ularning o'quv-biluv faoliyatini yo'naltirib, boshqarib borishdan iborat. Ta'limning ilg'or texnologiyalari va interfaol usullari ana shu maqsadni ro'yobga chiqarishda xizmat qiladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Rivojlangan mamlakatlarning oliy o'quv yurtlarida pedagogik texnologiyalarning qanday turlari, variantlari qo'llanilmoqda?

2. Integral pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari nimalardan iborat?

3. Masofaviy ta'lim texnologiyasining mohiyatini ayting.

4. Multimedia nima? Oliy ta'lim tizimida undan foydalanish imkoniyatlarini ayting.

5. Ta'lim jarayoniga faoliyatli yondashuv nimani anglatadi?

6. Interfaol so'zi va interfaol usul tushunchalari nimalarni bildiradi?

7. Kichik guruhlarda ishlash qanday tashkil etiladi, uning ahamiyati nimada?

8. Interfaol usullarning shakllari, turlarini ayting.

9- bob. TALABANING MUSTAQIL TA'LIM OLISHI

I. Asosiy tushunchalar: mustaqil ta'lim, mustaqil ishlarning turlari, shakllari, ma'ruza ustida ishlash (tinglash, yozib olish), amaliy ish, seminarlarga tayyorlanish, kitob va manbalar bilan ishlash, mustaqil ta'limni rejalashtirish.

II. Mavzuning muhim masalalari:

1. Mustaqil ta'lim olish malakasi zarurligi.
2. Mustaqil ta'limning turlari.
3. Mustaqil ta'lim olish texnologiyasi.

III. Manbalar, adabiyotlar.

1. Oliy ta'limning me'yoriy hujjatlari. Toshkent, 2001-yil.

2. Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarining mustaqil ishlari. O'qituvchilik ixtisosiga kirish kursiga metodik ko'rsatmalar. Toshkent, 1980, 72 – 84 - betlar.

3. Самостоятельная работа студентов. «Будущей учитель». Qarshi, 1983, 18–29 - стр.

IV. Mustaqil ishlash uchun topshiriq

1. Ko'rsatilgan adabiyotlarni o'qib, matn tuzing.

I. Mustaqil ta'lim olish malakalari zarurligi

1. O'zbekiston Respublikasining oliy ta'limga doir me'yoriy hujjatlarida mustaqil ta'lim, talabalarining mustaqil ishlari o'quv mashg'ulotlarining turlaridan biri, ta'lim olishning muhim shakli, usuli sifatida ko'rsatilgan.

2. Vazirlar Mahkamasi 2001-yil 16-avgustda tasdiqlagan Oliy ta'limning davlat ta'lim standartida oliy ta'lim dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar qatorida **bakalavriat** ta'lim dasturini o'zlashtirishda talabalarining o'quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo'yicha **mustaqil bilim olishi** nazarda tutilgan.

Magistratura ta'lim dasturi mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar qatorida: «magistratura mutaxassisligi

bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko'zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni model-lashtirish va tizimli yondashish borasidagi ilmiy bilimlar, **amaliy mahorat** va ko'nikmalarni ta'minlashi kerak... **mustaqil tadqiqotchilik** faoliyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilish» zarurligi ta'kidlangan. Oliy ta'lim muassasasini bitiruvchilarning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan davlat standarti umumiy malaka talablaridan biri «yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi» (18-bet) hisoblanadi.

3. Davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq bakalavriat va magistratura ta'limi o'quv rejalarida mustaqil ta'lim, mustaqil ishlarga nisbatan ko'proq vaqt (soat) ajratilgan.

4. Oliy ta'limning kasbiy ta'lim dasturlari: kunduzgi, sirtqi, eksternat va masofaviy ta'lim olish shakllarida o'zlashtirilishi mumkinligi nazarda tutilgan (Me'yoriy hujjatlar, 1-qism, Toshkent, 1998, 88-bet). Shuningdek, oliy ta'lim haqidagi nizomda: «Talabalar bilim egallashi, belgilangan muddatlarda o'quv rejaları va ta'lim standartlarida ko'rsatilgan topshiriqlarning hamma turlarini bajarishi shart» (Me'yoriy hujjatlar, 1-qism, Toshkent, 1998, 90-bet) deyilgan.

5. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limni isloh qilishga doir me'yoriy davlat hujjatlaridan keltirilgan ushbu talablar, fikrlar oliy o'quv yurtida **mustaqil ta'lim olishga** katta e'tibor berish, talabalarni mustaqil ishlash metodikasi bilan qurollantirish zarurligidan dalolat beradi.

6. **Mustaqil ta'lim** belgilangan o'quv topshiriqlarini talabalar tomonidan mustaqil va ijodiy (yoki professor - o'qituvchining ko'rsatmasiga muvofiq) bajarish maqsadiga yo'naltirilgan o'quv faoliyatidir. Mustaqil ta'lim negizini ta'lim oluvchining mustaqil ishlari tashkil etadi. Mustaqil ishlar o'quv-biluv faoliyatining bir turi, o'quv faoliyatining tashkiliy shakl - usuli, bilim o'zlashtirish yo'li, vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, talabalarning mustaqil

ishlari didaktik maqsadi, mustaqil o'quv faoliyatining darajasi, yakka kishiga yoki guruhga mo'ljallanganligi, axborot manbai, bilim olish metodlari, shakli va bajarish o'rniga ko'ra ham tasniflanadi, farqlanadi.

7. Oliy maktab talabasida mustaqil ta'lim olish malaka ko'nikmalarini shakllantirish ishlarini rejali va sekin-asta murakkablashib, yuqorilab boradigan bosqichlar (darajalar) shaklida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu jarayon ko'p qavatli binoning yuqori qavatlariga zinapoyalar orqali ketma-ket, izchil chiqib borilgani singari sodir bo'ladi. Talabaning mustaqil ta'lim olishi bosqichli (darajali) tashkil etilganda, masalan, quyi kurslarda — birinchi bosqichda mustaqil ishlar reproduktiv darajada, ya'ni professor-o'qituvchining topshirig'i va ko'rsatmasiga binoan bajariladi; ikkinchi bosqichda — yuqoriroq — mahsuldor darajada, masalan, tanlangan mavzu bo'yicha dars ishlanmasi loyihasini tayyorlash kabi mustaqil ishlar shaklida; uchinchi bosqichda — yana yuqoriroq — mahsuldor, evristik darajada, qisman ijodiy izlanishni talab etadigan mustaqil ishlar darajasida; va nihoyat to'rtinchi — eng yuqori ijodiy xarakterdagi mustaqil ishlar darajasida tashkil etilishi mumkin.

Oliy maktabda talabalarning mustaqil ta'limini rejali va bosqichli tashkil etilishi undan ko'zda tutilgan ta'lim maqsadlarini ro'yobga chiqarishga, bo'lajak mutaxassislarining ijtimoiy-gumanitar va kasbiy tayyorgarligi darajasini yuqori ko'tarishga, ta'lim - tarbiyaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

8. Mustaqil ta'lim barcha o'quv ishlarining yakunlovchi shaklidir. Mustaqil ta'lim jarayonida u yoki bu fan sohasiga doir axborotlarni to'plash, o'zlashtirish, tahlil qilish, umumlashtirish, ularni mustahkam bilimga, barqaror malaka va ko'nikmalarga aylantirish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

9. Ma'ruza tinglash paytida undagi ayrim nazariy masalalarni tushunib olish qiyin bo'lishi mumkin. Ma'ruza jarayonida tushunish qiyin bo'lgan, noaniq joylarini belgilab qo'yish, ma'ruzadan keyin, mustaqil ishlash, kitob o'qish,

alohida suhbatlar, maslahat (konsultatsiya)lar yordamida o'zlashtirishning yuqoriroq darajasida egallash lozim.

II. Mustaqil ta'limning turlari

Mustaqil ta'lim oliy ta'lim muassasasida o'quv jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, u quyidagi sohalarda bajariladi:

1. Ma'ruza mavzusi va materiali bo'yicha mustaqil ishlar: ma'ruzada bayon qilingan asosiy tushunchalar, muhim masalalarni idrok etish va anglab olish uchun ma'ruzadan keyin o'z yozuvlari (konspekti)ni tartibga keltirish, tavsiya etilgan o'quv adabiyotlari, birinchi manbalarni o'rganish bilan o'z yozuvlariga tuzatishlar kiritish va to'ldirish, o'qilgan manbalardan qo'shimcha matnlar olish.

2. Amaliy mashg'ulotlarga, seminar va laboratoriya ishlariga tayyorgarlik sohasida mustaqil ishlash: axborotlarni tartibga keltirish, savollar tuzish, javoblar hozirlash, o'quv mashg'uloti loyihalarini tuzish, savol-javoblarga, muhokamada qatnashishga, amaliy ishlarni bajarishga tayyorlanish.

3. Referatlar, ma'ruzalar, kurs ishlarini yozish bo'yicha o'quv-biluv topshiriqlarini bajarish bo'yicha mustaqil ishlar.

4. Nazorat ishlari (joriy, oraliq, yakuniy nazorat ishlari) sohasida o'quv-biluv topshiriqlarini bajarishga doir mustaqil ishlar.

5. Malakaviy amaliyotlar bilan bog'liq o'quv-biluv topshiriqlarini mustaqil bajarish: pedagogik amaliyot, ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan topshiriqlar shular jumlasiga kiradi.

6. Maxsus kurs va maxsus seminarlarni o'rganish bilan bog'liq mustaqil ishlar: ma'ruza mavzusiga doir adabiyotlarni o'qib, o'rganib, biror masala bo'yicha matn tayyorlash, ma'ruza o'qishga hozirlanish kabilar.

7. Malakaviy bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash sohasida mustaqil ishlar.

III. Mustaqil ta'lim olish texnologiyasi

1. Ma'ruzani tinglay olish. Oliy maktabda ma'ruza jarayonida talabalardan ma'ruzachini diqqat bilan tinglash, fikr yuritish va eshitganlarini yozib borish (matnlashtirish)

talab etiladi. Fikrni bir joyga to'plab, diqqatni ma'ruzachi bayon qilayotgan masalaga safarbar qilish, faollik ko'rsatish bilangina ma'ruza mazmunini to'g'ri tushunish, bilish va anglab o'zlashtirish mumkin.

Talaba o'quv-biluv maqsadini aniq tasavvur etib, ma'ruzaga oldindan tayyorlanib kelsa (oldingi ma'ruzada bayon qilingan masala – materialni ko'rib, darslikdan yangi mavzuni o'qib kelsa), ma'ruzachi bayoniga o'z fikrlarini to'plab, to'la safarbarlik bilan tinglay oladi. Buning uchun talabada ma'ruzani tinglashga kuchli motiv mavjud bo'lishi lozim.

Talaba ma'ruzani tinglash jarayonida asosiy tushunchalar, muhim g'oyalarni o'z daftariga yozib borishi kerak, bunda ham eshitish, ham ko'rish, ham harakat xotirasi ishlaydi, faoliyat asosida bilim o'zlashtiriladi.

2. Ma'ruzani yozib olish. Har bir ma'ruza mazmuni (jarayoni)da quyidagilar bo'ladi: ma'ruzaning asosini tashkil etadigan muhim g'oya; muhim g'oyani asoslash, juz'iy xulosalar; qisqa muddatli pauzalar; ta'riflar, tamoyillar, tushunchalar.

Ma'ruzani matnlashtirayotganida talaba asosiy g'oya, muhim masalalar, asosiy tushunchalar, tamoyillar, ta'riflar, xulosalarni o'z daftarida qayd etib, yozib borishi kerak. Ma'ruza jarayonida professor - o'qituvchi shu xil joylarni ovozini o'zgartirish, nutq tempini kamaytirish bilan ajratib beradi, e'tibor berib tinglansa, zarur joylarni yozib olish imkoni bo'ladi.

Yozib olish paytida ma'lum tartibga amal qilinsa (ma'ruzaning muhim masalalari; fakt, dalil, ta'rif, xulosalar; savol-javoblar, mulohazalar), tinglash jarayonida asosiy narsalarni ajrata olish malakasi hosil bo'ladi.

3. Matnlashtirayotganda quyidagilarga rioya qilish lozim:

- hoshiya qoldirish;
- har bir masalani tartib raqami bilan belgilash va satr boshidan yozish; ravshan yozish, ostiga chizib, ajratish;
- shaxsiy shartli qisqartirishlardan foydalanish: q/q (qarama- qarshilik), kabi;

- sitatalarning hoshiyasini ko‘proq qoldirish;
- imloga, husnixatga rioya qilish, tartibli, toza yozish;
- yozib ulgurmaganlariga joy qoldirib ketish;
- ruchkada yozish;
- yozuvlarni uyda o‘qib chiqib, xatolarini to‘g‘rilash, to‘ldirish, bu ishni iloji boricha o‘sha kuni yoki vaqt ko‘p o‘tmay qilish;
- o‘zingiz qatnashmagan ma‘ruzani o‘rtog‘ingiz matnidan ko‘chirib, kitoblardan o‘qib o‘rganish zarur.

4. **Kitob, manbalar bilan ishlash.** Yuqori malakali mutaxassis bo‘lish, o‘z bilimlarini muntazam oshirib borish uchun talaba kitob bilan, birinchi manbalar bilan ishlash malakasiga ega bo‘lishi zarur. Kitob bilan ishlay olish malakasi nazariy bilimlarni chuqurroq egallashning shartidir.

Birinchi kurs talabalari, odatda, zarur kitobni tanlash, topishga qiynaladilar, kitobni maqsadga muvofiq tarzda qunt bilan o‘qish o‘rniga ayrim joylarinigina o‘zgarishsiz ko‘chirib qo‘ya qoladilar. Vaholanki, talaba kitobni qanday topish va undan qanday foydalanishni bilmog‘i lozim.

5. Talaba mustaqil o‘qib o‘rganishi zarur bo‘lgan kitoblarni professor - o‘qituvchi ma‘ruza, seminar paytida tavsiya qiladi va kerakli maslahatlarni beradi. Oliy o‘quv yurti talabasi DTS ning ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-ilmiy, ixtisoslik va boshqa fan bloklariga doir kitoblar, manbalarni o‘rganishi zarur. U ustozlarining maslahati va ko‘rsatmalariga amal qilishi kerak. Shu tariqa zarur kitoblarni tanlash va mustaqil ta‘lim olish malakalarini egallab oladi.

6. Mustaqil ta‘lim olish uchun talaba bibliografiya qanday bo‘lishi, qanday tuzilishini bilib olishi lozim. Bibliografiyaga doir yozuvlarni alohida daftarga, bloknotga yoki kartochkalarga qayd etib (yozib) borish kerak. Bunda quyidagi tartibga amal qilinadi: avvalo, kitob yoki maqola muallifining familiyasi, ismi - sharifi, kitobning nomi, joy nomi, nashriyot nomi, chiqqan yili, hajmi (necha betligi) ko‘rsatiladi. Masalan: N.Komilov, Tasavvuf yoki komil inson

axloqi. Birinchi kitob, Toshkent, «Yozuvchi» nashriyoti 1996, 272-bet.

Ilmiy jurnal yoki ilmiy to'plamda bosilib chiqarilgan maqola bo'lsa, unda avvalo muallifning familiyasi, ismi - sharifi, so'ngra maqolaning nomi, jurnal (to'plam)ning nomi, joyi, vaqti (yili), soni, so'ngra betlari ko'rsatiladi. Masalan: Sh. Qurbonov va boshqalar. Barkamol avlod orzusi («Xalq ta'limi» jurnali, Toshkent, 1998, 6 - son, 4-18-betlar).

Shu bilan birga talaba kutubxonadan o'ziga kerakli kitobni qanday qidirib topishni ham bilishi lozim. Har bir kutubxonada mavjud kitoblar bibliografiyasi (ro'yxati) shifrlanib, bibliografik kartochkalar shkaflardagi qutichalarga alfavit tartibida hamda mavzular bo'yicha (sistemalashtirilib) joylashtirilgan bo'ladi. Talaba o'ziga kerakli kitobning nomi yozilgan kartochkadan kitobning nomi va shifrini aniqlab, kitob olishga buyurtma berishi mumkin.

7. Darslik, ilmiy asarlar yoki maqolalarni o'qib o'rganish tartibi quyidagicha bo'lishi mumkin. Tavsiya etilgan kitob, risola, darslikning bobi, paragrafi (fasli) avvalo boshdan oxirigacha bir marta o'qib chiqiladi, umumiy tasavvur hosil qilinadi: muallifi, kitobning, maqolaning, bob yoki paragrafning nomi bilib olinadi; kitobning muqaddimasi, asarning boshida yozilgan va shu asarning mazmunini ifodalaydigan sitata, annotatsiya, epigrafi bilan tanishish shu kitobning muhim g'oyasi va yo'nalishi haqida tasavvur beradi.

So'ngra qo'lda qalam (ruchka) bilan jiddiy e'tibor berib, asosiy matn o'qib o'rganiladi, muhim o'rinlari yozib boriladi. Kitobni bobma-bob yoki paragraflar bo'yicha o'rganish va asosiy g'oyalarni qisqa yozib borish maqsadga muvofiq.

Kitob o'qish ijodiy ish bo'lib, o'qish jarayonida fikr yuritish, tanqidiy yondashish, mulohaza qilish, lug'atlar,

ensiklopediyalardan foydalanish lozim. Kitob matnida berilgan tablitsa, rasm, sxema, grafik, ko'rgazmalarni sinchiklab o'rganish, matn mazmuniga solishtirib ko'rish, zarur bo'lsa, ko'chirib olish kerak.

8. O'qib chiqilganlarni yozib borish reja, tezis, sitata, matn kabi shakllarda bo'ladi.

Reja — o'qib chiqilgan mavzuga doir muhim masalalar (savollar)dir, unda javob bo'lmaydi. Reja sodda yoki murakkab bo'ladi. Agar undagi axborotlar yaxshi anglab o'zlashtirilgan bo'lsa, og'zaki javob yoki munozarada qatnashish uchun reja tuzish yetarli bo'ladi.

Tezis — darslik, risola, maqoladagi asosiy masalalarni qayd etish bo'lib, nutq so'zlash paytida u kengaytiriladi va isbot qilinadi. Tezis tuzish uchun avval undagi axborotlarni bilib, tushunib o'rganib chiqish va o'z fikrini og'zaki ifodalay bilish malakasi zarur. Tezislar, odatda, tartib raqami qo'yib tuziladi.

Sitata — asarda qisqa ifodalangan bosh g'oya, asosiy fikr aynan ko'chiriladi, sitatalar qo'shtirnoq ichiga olib yoziladi, oxirida manba aniq ko'rsatiladi. Sitatalardan og'zaki va yozma javoblarda foydalaniladi.

Matnda darslik bobi, paragrafi yoki asarning to'la mazmuni o'zlashtirilib, qisqaroq shaklda ifodalanadi. Matnni har bir talaba o'zi mustaqil tuzishi lozim. Ma'ruza matnida asosiy tushunchalar, mavzuning muhim masalalari ko'rsatiladi. Matnda asarning ma'nosi asosan to'g'ri, ifodasi kitobdagidan boshqacha iboralarda beriladi. Talaba kitobdagi asosiy g'oyalarni, o'z fikrlarini mustaqil ifodalay olishi lozim. Mustaqillik fandagi g'oyalarni anglab chuqur tushunib olish, tafakkur va nutq yordamida o'z fikr - mulohazalarini bayon eta bilishdir. Bu oson ish emas. Unga mutolaa qoidalariga amal qilish, ko'p o'qish va o'rganish, munozara, muhokama, seminarlarda faol qatnashish yo'li bilan erishiladi.

9. Mustaqil ishlashning muvaffaqiyati talabanning vaqtdan

to'g'ri foydalana bilishiga, aqliy mehnat madaniyatini egallash darajasiga, kun'tartibi qoidalariga amal qilishiga ham bog'liq.

Talabaning vaqt budjetida auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ishlar uchun haftasiga 18–24 soat vaqt bo'lishi mumkin. Talabaning bir kunlik ish vaqti 9–10 soat bo'lib, shundan 6 soati auditoriyada; 3–4 soati boshqa joyda mustaqil ishlar shaklida tashkil etiladi.

10. Mustaqil ta'lim oluvchiga ustoz o'g'itlari. O'zbekiston Respublikasining buyuk kelajagini yaratishga bel bog'lagan yoshlar – oliy o'quv yurti talablariga donolarning quyidagi hikmatlarini yodda tutish foydali deb hisoblaymiz.

a). Nazariy va kasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma, malakalarni egallashni ko'zlagan yoshlar, avvalo, ishda sobit qadam, izchil bo'ling. Bilimlarni o'zlashtirishda izchillik, ketma-ketlikka qat'iy amal qilishga o'rganing. Fan cho'qqilariga chiqishga urinishdan avval, uning alifbesini o'rganib oling. Oldingilarini chuqur o'zlashtirib olmasdan turib keyingisiga qo'l urmang.

b). Oliy maktab talaba tafakkurini to'la shakllantiradigan maskan emas. Bu yerda yoshlar mustaqil ishlashga o'rgatiladi. Siz manbalar bilan mustaqil ishlash malakasiga ega bo'lsangiz, kitobni o'qish bilan undagi asosiy g'oyani anglab olsangiz va undagi axborotlarni tahlil qila bilsangiz, mana shuning o'zi siz uchun juda muhim, qolganlarini siz amaliyotda egallay olasiz. Agar oliy maktabda fandagi bilimlarni, g'oyalarni, nazariyalarni anglash, tushunish, uni amaliyotda qo'llay olish usulini o'rganib olgan bo'lsangiz, oliy maktab o'z vazifasini bajargan bo'ladi.

d). Mustaqil ta'lim olish malakasini hosil qilish murakkab ish; oliy maktabda o'qish yillarida buni o'zingiz egallashingiz lozim.

e). Mustaqil ishlash uchun vazifa, topshiriq berilib, manba ko'rsatilgach, paysalga solib, vaqtni (o'tkazmang, iloji

boricha tezroq ishga kirishing.

f). Mustaqil ishlashga istak, ishtiyoq uygʻonishini kutib turmay, irodangizni ishga solib, bunday vaziyatni oʻzingiz yarating.

g). Ish vaqtida diqqatni bir joyga toʻplab eʼtibor bilan oʻqing, faqat shu mavzu haqida fikr yuriting.

h). Sizga qiziqarli boʻlmasa ham, ammo zarur boʻlgan ishga nisbatan oʻzingizda motiv, ehtiyoj uygʻota oling.


i). Kitob ustida ishlashdan oldin maqsadni oydinlashtirib, aniqlab oling: mustahkam esda saqlang, anglab, tushunib oling, ishni oxiriga yetkazing.

j). Kitobdagi, topshiriqdagi murakkab, qiyin joylarga koʻproq eʼtibor bering, chuqurroq tushunishga yordam beradigan usullardan (yozib olish, sxema va rasmlar chizish, aytish, soʻzlab berish, muammo qoʻyish, fikrlab uni yechish kabi) foydalaning.

k). Yangi ish boshlashdan oldin ilgari bajarilgan ishni koʻrib chiqing. Ishni oʻzingiz mustaqil bajara olmasligingizga toʻla ishonch hosil qilmaguningizcha birovdan yordam soʻramang.

l). Bilib, tushunib olingan axborotlarni aynan eslab qolishdan choʻchimang, bilib olinganlarni vaqti-vaqti bilan takrorlab turing, takrorlash oʻqishning onasi, degan hikmatni unutmang.

m). Yozib olgan matningizni oʻqib chiqing, undagi xato va kamchiliklarni bartaraf eting.



10-rasm. Oliy o'quv yurtida mustaqil ta'lim.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. OTDTSda talabalarning mustaqil ta'lim olishlariga doir talablarni ayting.
2. Mustaqil ta'lim tushunchasi nimani anglatadi?
3. Mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malaka shakllanish darajalari nimalardan iborat?
4. Mustaqil ta'limning qanday turlari qo'llaniladi?
5. Mustaqil ta'lim texnologiya atamasi nimani anglatadi?
6. Ma'ruzani qanday tinglash va yozib olish kerak?
7. Mustaqil o'qib o'rganilganlarni matnlashtirishda qanday qoidalarga amal qilinadi?
8. Kitob va manbalarni mustaqil o'qib o'rganish texnologiyasini ayting.
9. Bibliografiya nima, u qanday tuziladi?
10. Darslik, ilmiy asar, maqolalarni o'qib o'rganish tartibini ayting.
11. O'qib chiqilganlarni yozib borish shakllarini (reja, tezis, matn) izohlab bering.

10-bob. TALABALARNING ILMIY TADQIQOT ISHLARI

I. Tayanch tushunchalar: ilmiy faoliyat, ilmiy tadqiqot ishi, ilmiy-pedagogik ish; ilmiy ishlar tizimi, ilmiy tadqiqot konsepsiyasi, faraziyasi; ilmiy ijod metodologiyasi va metodlari, bilishning matematik usullari, asoslash va inkor etish, ilmiy axborotlar to'plash.

II. Mavzuning muhim masalalari

1. Oliy maktabda talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari tizimi.

2. Tadqiqotchilik malakalarini egallash texnologiyasi.

3. Malakaviy bitiruv ishi, magistirlilik dissertatsiyasi, iqtidorli talabalar bilan ishlash.

III. Manbalar, adabiyotlar

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent. 1997. 41–42; 49, 51–52-betlar.

2. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti, asosiy qoidalar. 2001-yil.

3. Oliy o'quv yurtida bitiruv malakaviy ishni bajarishga qo'yiladigan talablar. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami –T.: 2001 yil, 319–322-betlar.

4. Magistratura haqida nizomi (1998-yil). Oliy ta'lim to'plami. –T.: 2001, 221–234-betlar.

5. Magistirlilik dissertatsiyasini tayyorlashning namunaviy tartibi (1999-yil). O'sha to'plam, 555–557-betlar.

6. Iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash va ularni maqsadli tayyorlash to'g'risida nizom (1998-yil). O'sha to'plam, 148–153-betlar.

7. O'qituvchilik ixtisosiga kirish kursiga metodik ko'rsatmalar. –T.: 1980. 85–95 – betlar.

8. Ochilov M., G'afforova T. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari. Qarshi 1990, 32-bet.

9. Ochilov M. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari. «Muallim qalb me'mori» –T.: 2001. 236–240 - betlar.

IV. Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

1. Milliy dasturdan «Kadrlar tayyorlashda fan» bo'limini (51–52-betlar) matnlashtiring.

2. OT.DTSning bakalvriat va magistratura bitiruvchilari tayyorgarligiga talablarni matnlashtiring. (5.1; 5.2 bo'limlari).

3. «Pedagogika ilmiy tadqiqot metodlari» mavzusida referat tayyorlang.

I. Oliy maktabda talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari tizimi

1. O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash **milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri fan** – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash tizimiga ilm-fanning uzviy ravishda kirib borishi uchun quyidagilar zarurligi milliy dasturda belgilangan:

– ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirish yuzasidan maqsadli innovatsion loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish yo'li bilan ilm-fanning ta'lim amaliyoti aloqasini ta'minlash;

– ilg'or axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun eksperimental maydonchalar barpo etish orqali ilmiy tadqiqot natijalarini o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish mexanizmini ro'yobga chiqarish;

– yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, yoshlarning ilmiy ijodiyotini har tomonlama qo'llab - quvvatlash;

– talabalar va yosh olimlarning ilmiy yutuqlari uchun maxsus mukofotlar va sovrinlar, stipendiyalar ta'sis etish, yoshlar ilmiy-texnika ijodiyotining doimiy ishlaydigan ko'rgazma va ekspozitsiyalarini tashkil etish.

2. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartida bakalvriat va magistratura ta'limiga qo'yilgan umumiy malaka talablari qatorida quyidagilar belgilangan:

– o'z ustida mustaqil ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy

asosda tashkil qila olish;

– ilmiy va ilmiy-texnik axborot bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

– ilmiy ijodiyot metodologiyasi, bilishning umumiy usullari, empirik va nazariy tadqiqot usullari, qonunlar, qoidalar mantig‘ini asoslash va inkor etish yo‘llariga doir bilimlarni egallash.

Magistratura ta‘limining ilmiy faoliyat bloki, ilmiy tadqiqotlar metodologiyasini o‘zlashtirishni, ixtisoslashgan ilmiy va ta‘lim muassasalarida talabalar muayyan ilmiy tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlarni bajarishlarini nazarda tutadi.

3. O‘zbekiston ijtimoiy ishlab chiqarish, madaniy-ma‘rifiy sohalarida jahonning rivojlangan mamlakatlari darajasiga erishishi uchun mehnatni ilmiy asosda tashkil etish lozim. Xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari, madaniyat, ma‘naviyat, ta‘lim sohalarida mehnatni ilmiy tashkil etish hayotiy zaruratga aylandi. Shuningdek, pedagogik xodimlar mehnatini ham ilmiy asosda tashkil etish davr talabidir. Bu, avvalo, barcha ishlarni aniq va puxta uyushtirish, ta‘lim-tarbiya ishlarini tashkil etishga ilmiy yondashish demakdir. Bo‘lajak mutaxassislar oliy ta‘lim muassasida o‘qish davrida faqat fan bloklari va kasbiy bilimlarni chuqur egallashlarining o‘zigina kifoya qilmaydi, ulardagi iqtidor va qobiliyatlarni o‘stirish, talablarni ilmiy tadqiqot ishlariga kengroq jalb etib, tadqiqotchilik malaka va ko‘nikmalarini hosil qilish, ilmiy ijod metodologiyasi va usullarini egallab olishlariga erishish zarurligi, yuqorida keltirilganidek, O‘zbekiston Respublikasining me‘yoriy hujjatlarida aniq belgilangan.

4. Oliy ta‘lim muassasasida talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari o‘z navbatida ulardan chuqur, mustahkam bilim egallashni talab qiladi. Mustaqil, puxta bilimlarsiz amaliy ishlarga ijodiy yondoshish, o‘quv tadqiqot, ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish mumkin emas.

5. Oliy maktabda talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari, asosan, kasbga doir pedagogik, o‘quv-tarbiyaviy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Uning asosiy vazifalari quyida-

gilardan iborat:

- talabalarda tadqiqotchilik faoliyatiga, ijodiy izlanishga qiziqishni o‘stirish, o‘quv-tarbiyaviy ishlarga ilmiy yondashish malakasini hosil qilish;

- mutaxassislikka oid va boshqa fanlar bloklarini o‘rganish jarayonida o‘quv tadqiqot ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

- adabiyotlar va boshqa ilmiy manbalarni o‘rganish va tahlil qilish qobiliyati, malakalarini o‘stirish;

- o‘quvchilar bilan olib boriladigan ta‘lim-tarbiya ishlari, shuningdek, mutaxassislik fanlari sohasida muammolarni ko‘ra olish va shu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini bajara olish ko‘nikma va malakalarini egallash;

- ilmiy tadqiqot metodlarini bilib olish va ularni amalda qo‘llay olishni o‘rganish.

6. Talabalar bajaradigan ilmiy tadqiqot ishlari ikki yo‘nalishda tashkil etiladi: birinchisi, o‘quv mashg‘ulotlari bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqot ishlari, ya‘ni o‘quv tadqiqot ishlari; ikkinchisi, kafedralarning ilmiy yo‘nalishlari bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy tadqiqot ishlari.

7. O‘quv mashg‘ulotlari bilan bog‘liq tadqiqot ishlariga quyidagilar kiradi:

- ilmiy adabiyotlar va manbalarni, internet axborotlarini, vatan va chet el olimlarining asarlarini, shuningdek, ilmiy tadqiqot metodologiyasi va metodlariga doir adabiyotlarni o‘rganish va tanqidiy tahlil qilish;

- o‘quv fanlaridan amaliy mashg‘ulotlar uchun tajriba va eksperiment materiallarini to‘plash, tayyorlash;

- laboratoriya mashg‘ulotlariga tayyorlanish va uni bajarish bilan bog‘liq tadqiqot ishlari;

- maxsus kurs va seminarlarni o‘rganish bilan bog‘liq o‘quv tadqiqot ishlari;

- to‘plangan tadqiqot materiallari asosida referat, doklad va ma‘ruza matnlarini tayyorlash;

- pedagogik, ishlab chiqarish va dala amaliyotlari davomida, o‘quv ekspeditsiyalari vaqtida o‘quv topshiriqlari bo‘yicha yakka va jamoaviy tadqiqot ishlari olib borish;

o'quvchilarning qiziqishlari, individual xususiyatlarini o'rganish; jamoada shaxslararo munosabatlar, bir maqsadga qaratilgan pedagogik, psixologik va sotsiologik tadqiqotlar; yoshlar e'tiqodi va ideali, ta'lim-tarbiya usullarini qiyosiy o'rganish; arxeologik-dialektologik, etnografik tadqiqotlar; gerbariyalar to'plash, fenologik va metereologik hodisalarni o'rganish; o'quv ustaxonalarida mehnat ta'limi usullarining samaradorligini tadqiq etish kabilar;

– kurs ishlari, doklad, ilmiy ma'ruzalarni tajriba - tadqiqot yo'nalishida bajarish kabilar.

8. Kafedralarning ilmiy tadqiqot yo'nalishlari bilan bog'liq talabalarning ilmiy tadqiqot ishlariga quyidagilar kiradi:

– talabalarning ilmiy (fan) to'garaklaridagi ishlari. To'garaklarda talabalar mavzu tanlashni, bibliografiya tuzishni, ilmiy bilish metodlari va tadqiqot usullarini o'rganadilar, adabiyotlar, internet va boshqa manbalar asosida ilmiy doklad, ma'ruzalar tayyorlaydilar, o'zlarining tadqiqot ishlari haqida chiqishlar qiladilar, ilmiy muammolarni muhokama qilishda, munozaralarda qatnashish;

– kafedra o'qituvchilari, aspirant, doktorantlar bajaradigan ilmiy ishlarda, shuningdek, korxonalar, xalq ta'limi tizimidagi ilmiy metodik muassasalar tomonidan olib boriladigan tadqiqot ishlarida qatnashish;

– ilmiy tadqiqot muassasalari tomonidan o'tkaziladigan arxeologik, etnografik va boshqa ekspeditsiyalarda ishtirok etish;

– konstruktorlik byurolaridagi ishlarda, grant, shartnoma asosida olib boriladigan tadqiqot ishlarida qatnashish; asboblarni konstruksiya qilish, ta'limning texnik vositalari, ko'rsatmali qurollarni yasash, jamoa xo'jaliklarida, ta'lim muassasalarida mehnatni ilmiy tashkil etishni o'rganish;

– o'zining ilmiy tadqiqot natijalari asosida konkurslar, olimpiadalarda qatnashish;

– malakaviy bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlash, himoya qilish, ilmiy maqolalar, risolalar tayyorlash, chop ettirish va boshqalar.

II. Tadqiqotchilik malakalarini egallash texnologiyasi

1. Ilmiy ishda eng muhim masala, bu har bir talaba o'z qiziqishi, qobiliyati, imkoniyati asosida tadqiqot mavzusini tanlay olishi, o'rganilayotgan muammo, mavzuga doir adabiyotlar va boshqa manbalardan faktlar, axborotlarni tanlab to'play olishi, tizimlashtira olish malakasidir. Tadqiqotchi ilmiy faktlar, axborotlarni erinmay, shoshilmay to'plashi, ularni sinchiklab o'rganishi, taqqoslab, solishtirib ko'rishi katta ahamiyatga ega.

2. Iqtidorli talabalar, odatda, birinchi kursdayoq ustozlar nazariga tushadi, ular kafedralarda olib borilayotgan ilmiy ishlar bilan bog'liq uncha qiyin bo'lmagan vazifalarni bajarishga jalb etiladi. Quyi kurslardan boshlab iqtidorli talabalar bilan alohida ishlash, chet tillari, kompyuter texnikasi, ixtisoslik fanlaridan qo'shimcha o'quv mashg'ulotlari tashkil etish odat tusiga kirib bormoqda. Talabalar kafedra o'qituvchilari rahbarligida o'zi tanlagan ixtisoslik, pedagogika, psixologiya va boshqa fanlardan ta'lim dasturlariga muvofiq o'quv xususiyatiga xos tadqiqot ishlarini bajaradilar. Ular o'qigan, bilganlarini yozma bayon qilishni o'rganadi, ilmiy tushunchalar, qoidalarni o'z tushunchasi bilan solishtiradi. Faktlar, hodisalar orasidagi aloqalar, bog'lanishlarni angelaydi, mustaqil fikrlaydi. Referat, doklad yozish davomida talabalar adabiyotlar, axborot olishning zamonaviy manbalari bilan ishlash malakasini egallaydi, muhim nazariy masalalarni mustaqil hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ilmiy ishlarni rasmiylashtirish qoidalari bilan tanishadi.

3. O'quv yili davomida o'tkaziladigan an'anaviy konferensiyalar ham talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ishning bu shakli referativ ishlarga tayanadi. Ma'ruzachilar muammo yuzasidan eng yaxshi referat, doklad yozgan talabalardan tanlanadi. Ularning seksiya yig'ilishlaridagi chiqishlarini boshqalar to'ldiradilar. Har bir chiqish, ma'ruza muhokama qilinadi, boyitiladi.

4. Quyi kurslarda o'quv amaliyoti jarayonida talabalar maktab o'quvchilarining yosh va individual ruhiy xususiyatlarini o'rganishga jalb etiladi. Bunda ular kuzatish, suhbat va anketalar yordamida yoshlarning qiziqishlari, intilishlari va boshqa xususiyatlarini o'rganadilar, tadqiqotchilik malakalarini egallaydilar.

Ilmiy ishni yozishga kirishishdan oldin mavzuga doir barcha manbalarni atroflicha o'rganib chiqish, ilmiy faktlar, axborotlarni to'plash, ularni tartibga solish, tasniflash, chuqur tahlil qilish muhim. Shundan keyin mavzuning mazmunini yoritadigan reja tuziladi va u taxminiy bo'ladi, yozish paytida rejaga o'zgartirishlar kiritish mumkin. Shu tariqa tadqiqotchilik tajribasi to'planib, ko'nikma va malakalar hosil bo'la boradi.

5. Talabalarda tadqiqotchilik malaka-sifatlarini shakllanishining ikkinchi etapi yuqori kurslarda o'qish davomida bo'ladi. Bu etapda talabalar ilmiy laboratoriyalarda, o'quv va ilmiy ekspeditsiyalarda turli darajadagi tadqiqot ishlarini bajaradilar, ilmiy to'garak va kafedra o'qituvchilari, aspirantlar, doktorantlar tadqiqotlarida qatnashadilar; kurs ishi, malakaviy bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyasini yozish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlarini bajaradilar, ilmiy ishlar konkursi, tanlovlariida ishtirok etadilar.

Bu etapda talabalar o'zlari bajaradigan tadqiqot ishlari bo'yicha mavzuni mustaqil tanlay olish, tadqiqot metodikasini tuza olish, tadqiqotni tashkil eta olish va o'tkazish; tadqiqot natijalarini sifat va son jihatidan tahlil qila olish, o'z xulosalarini ifodalay olish, o'z tadqiqot natijalarini talabalar ilmiy ishlari tanlovlari uchun tayyorlay olish kabi malakalarni egallaydilar.

6. Talabalar kafedrada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar jarayonida faktlar, axborotlarni to'plash va ularni dastlabki ishlab chiqish bilan bog'liq vazifalarni bajarishga jalb etilar ekan, bu ishlarning natijasini mustaqil ilmiy ish sifatida rasmiylashtirish yoki shu sohada ishlayotgan professor-o'qituvchi bilan hammualliflikda nashr ettirishi ham

mumkin.

7. Talabalar tadqiqotchilik malakalarini shakllantirish tizimida kurs ishlari, malakaviy bitiruv ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashning o'рни va ahamiyati benihoyadir. Bu ishlarda hamma talabalar qatnashadi va bu jarayonda tadqiqotchilik faoliyatining barcha komponentlari (ijtimoiy va shaxsiy qimmatli motiv, aniq maqsad, tegishli vositalar, kutilgan natija) mavjud bo'ladi: tanlangan mavzuning rejasini, adabiyotlar ro'yxatini tuzish, mavzusiga oid ilmiy axborotlar, faktlarni to'plash va qayta ishlab chiqish, tartibga keltirish, uni tasvirlash, tasniflash, taqqoslash, umumlashtirish, nazariy xulosalar chiqarish asosida tadqiqotning asosiy natijalarini yozma shaklda rasmiylashtirish malakasi shakllanadi.

8. Talabalar bajargan ilmiy tadqiqot natijalarini rasmiylashtirishda nashr etiladigan qo'lyozmalarga qo'yiladigan talablarga to'liq amal qilish lozim. Har qanday ilmiy ish, jumladan, talabaning ilmiy ishi ham, qat'iy tuzilish shakliga ega bo'ladi. U quyidagicha bo'lishi mumkin:

a). Kirish qismi. Bunda tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslanadi, ilmiy ishning maqsadi, vazifalari, tadqiqot metodlari va manbalari ko'rsatiladi, ishda hal qilinadigan muhim masalalar qayd etilib, ularning fan taraqqiyoti, amaliyot uchun nazariy hamda amaliy ahamiyati ifodalanadi.

b). Ilmiy ishning asosiy qismi ikki yoki uch bobdan, har bir bob ikki yoki uchta paragrafdan iborat bo'lishi mumkin. Odatda, birinchi bobda tanlangan mavzuning nazariy asoslari, shu muammo bo'yicha mazkur fanda erishilgan natijalar, ya'ni tadqiqotning ilmiy zamini, asoslari aniqlanadi (mavjud nazariy-ilmiy manbalar asosida) hamda tadqiq etilishi, ilmiy asoslanishi zarur bo'lgan muammolar belgilanadi. Tadqiqot muammosining amaliyotda mavjud holati tahlil etiladi. Keyingi boblarda tadqiqot jarayonida to'plangan faktlar, axborotlar, materiallar sistemalashtirilib, umumlashtiriladi, ilmiy tahlil etiladi. Tadqiq etilgan masalalarning mazmuni, shakl-usullari, erishilgan asosiy natijalar bayon qilinadi.

d). Ilmiy ishning xulosa qismida tadqiqot boshlanishida qo'yilgan maqsadga erishilganligi, belgilangan farazlar isbotlanganligi yoki rad etilgani, ko'rsatilgan vazifalar qay darajada bajarilgani, tadqiqotning asosiy natijalari, umumiy xulosalar va tavsiyalar ixchamlashtirilib ifodalanadi.

e). Ilmiy ishning xulosa qismidan keyin, ishni bajarish jarayonida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltiriladi. Bunda ilmiy ish muallifining fan olamidan qay darajada xabardorligi, bilimdonligini ko'rsatadi. Ro'yxatga kiritish uchun o'qilgan, o'rganilgan adabiyotlardan eng muhimlari, ishga bevosita aloqadorlarini tanlab o'la bilish ham muhimdir. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, odatda, alfavit tartibida tuziladi. Faqat O'zbekiston Respublikasining me'yoriy hujjatlari, Prezidentning asarlari ro'yxat boshida keltirilib, so'ngra barcha manbalar alfavit tartibida, bibliografiya qoidalari rioya qilingan holda yoziladi.

f). Mundarija ilmiy ishning bosh qismida yoki oxirida, agar ilovalar ham bor bo'lsa, ishning oxirida beriladi.

g). Ilmiy ishning qo'lyozmasi: titul varag'i, kirish qism, asosiy boblar, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalar, mundarija shaklida rasmiylashtiriladi. Titul varag'ida vazirlik, oliy o'quv yurti, kafedraning nomi, so'ngra muallifning ismi-sharifi, mavzuning nomi, ishning holati (bitiruv ishi, dissertatsiya), ilmiy rahbarning ismi-sharifi, ilmiy darajasi, unvoni, ish bajarilgan joy nomi, yili ko'rsatiladi.

h). Ilmiy ishning qo'lyozmasi kompyuterda yoki qo'lda yoziladi, bunda ruchka bilan qog'ozning bir tomoniga yozish lozim. Har bir sahifaga tortib raqami qo'yiladi, qog'oz-sahifaning chap tomonidan 30 mm., pastki va yuqori tomonidan 25 mm. joy qoldiriladi. Qo'lyozma matni satrlari orasi ochiqroq qilib, ikki intervalda, har satrda 56-60 harf belgisi bilan yozilishi shart.

III. Malakaviy bitiruv ishi, magistirlilik dissertatsiyasi, iqtidorli talabalar bilan ishlash

1. Talabaning malakaviy bitiruv ishi bakalavriat ta'limining yakuniy bosqichidir. Malakaviy ishni bajarishdan

maqsad – talabanning ta’lim dasturi bo’yicha egallagan nazariy bilim hamda amaliy ko’nikmalarini mustahkamlash va kengaytirish, olingan bilimlarni amaliyotda muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, ta’lim va boshqa sohalarda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo’llay olishga o’rgatishdir. Malakaviy bitiruv ishining mavzular ro’yxatini ixtisoslik kafedrasini tuzadi, oliy o’quv yurti yoki fakultet ilmiy kengashi tasdiqlaydi. Talabanning malakaviy ishi mavzusi va rahbari rektorning buyrug’i bilan rasmiylashtiriladi.

2. Malakaviy ishga rahbarlar oliy o’quv yurtining professorlari, dotsentlaridan yoki boshqa korxonalar, muassasalarning yuqori malakali mutaxassislaridan tayinlanadi. Malakaviy ishi rahbarining vazifalari – talabaga topshiriq berish; malakaviy ish rejasini tuzishga ko’maklashish; asosiy adabiyotlar, arxiv va boshqa manbalarni tavsiya etish; talabaga maslahatlar berish, malakaviy ishni bajarish jarayonini nazorat qilish; malakaviy ishning sifati va talaba o’zi bajarganiga kafolat berish, mavzuning, ishning aynan qaytarilishi, ko’chirilishiga yo’l qo’ymaslik, zarur hollarda maslahatchilarni taklif etishdan iborat.

3. Ixtisoslik kafedrasini malakaviy ishga qo’yiladigan talablarni, hajmini belgilaydi, ishni bajarish bo’yicha metodik qo’llanmalar ishlab chiqib, talabalarni ta’minlaydi.

4. Malakaviy ishni shaxsan talabanning o’zi bajaradi. Malakaviy ishda, ilgari bajarilgan ishlarning natijalari yoki boshqa mualliflarning ishlari (ilmiy ma’ruza, maqola, hisobgrafik ishlar, kurs ishlari, loyihalari), albatta, manbai ko’rsatilgan holda aks ettirilishi mumkin.

5. Malakaviy bitiruv ishi oliy o’quv yurti belgilagan tartibda bajariladi, ilmiy ishlarga qo’yiladigan talabalar asosida rasmiylashtiriladi. Ish rahbarining tavsiyasi bilan kafedra

mudiriga taqdim etiladi, kafedraning ishni himoya qilishga tavsiya qilish haqidagi qarori va tashqi taqriz bilan himoyaga taqdim etiladi, himoyadan so'ng oliy o'quv yurtida saqlanadi.

6. **Magistrlik dissertatsiyasi** – bitiruv ishi bo'lib, uni himoya qilish ta'lim dasturining yakuniy qismi hisoblanadi. Uni muvaffaqiyatli himoya qilgan talabaga magistr darajasi va diplomi beriladi. Magistrlik dissertatsiyasi ilmiy yoki ilmiy-texnik mazmunli, mantiqiy yaxlitlikka ega, tanlangan mavzu bo'yicha tadqiqot jarayoni va natijalarini aks ettiruvchi malakaviy bitiruv ishidir. Bu ish fan, texnika, texnologiya, iqtisodiyot va madaniyat, ta'lim rivojlanishining zamonaviy darajasiga mos bo'lishi kerak. Uning mavzusi dolzarb bo'lib, mutaxassislik bo'yicha ilmiy-texnik masalani yechishga qaratilgan bo'ladi.

7. Magistrlik dissertatsiyasining **ilmiy saviyasi** ta'lim dasturi talablariga javob berish lozim. Magistrlik dissertatsiyasini bajarish bitiruvchining, ilmiy tadqiqotni bajara olish, kasbiy muammolarni ko'ra olish va ularni yechishning umumiy usullari, yo'llarini o'rganganligini ko'rsatadi. Muallif magistrlik dissertatsiyasidagi **ilmiy masalani** yechish uchun mavzuning dolzarbligini asoslashi, tadqiqotning maqsadi va vazifalarini belgilashi; tadqiqot obyekti, predmeti va metodlarini aniqlashi; tadqiqot natijalariga ishlov berishi, tahlil qilishi; olingan xulosalarni shakllantirishi, natijalarni baholashi; iqtisodiyotning, ma'naviyat-madaniyatning tegishli tarmoqlari uchun aniq tavsiyalarni ifodalashi kerak.

8. Muallif magistrlik dissertatsiyasida **ilmiy-texnik masalani** yechish uchun tanlangan ilmiy-texnik mavzuning dolzarbligini asoslashi; yechilayotgan ilmiy-texnik soha bo'yicha masala holatining tahlilini jamlab berishi; ilmiy-texnik, texnik-iqtisodiy va boshqa talablarni shakllantirishi, qo'yilgan masalani yechish muqobillarini ko'rib chiqishi va

eng samarali muqobil yechimni, ilmiy, konstruktorlik va texnologik yoki texnik-iqtisodiy yechimini asoslab berishi; eng samarali muqobil yechimning potentga loyiqqligi va potent sofligini tadqiq qilishi; ilmiy-texnik masala yechimining natijalari bo'yicha xulosa va takliflarni shakllantirishi hamda iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarida qo'llash sohalarini aniqlashi lozim.

9. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusini maxsus kafedralar aniqlaydi va ilmiy kengash tasdiqlaydi. Dissertatsiyani bajarishga, odatda fan doktori, professor rahbarlik qiladi, maslahatchi sifatida chetdan tegishli mutaxassislar jalb etilishi mumkin. Istisno tariqasida ilmiy kengash ruxsati bilan fan nomzodi, dotsent ham rahbarlikka tayinlanadi.


10. O'qishning ikkinchi semestri boshlanishi bilan talabaga magistrlik dissertatsiyasining mavzusi tayinlanadi, shaxsiy reja tuziladi va ular ilmiy kengashda tasdiqlanadi. Maxsus kafedra ishning hajmini mavzuning xususiyatiga qarab belgilaydi.

11. Magistrlik dissertatsiyasi quyidagi tuzilishda bo'ladi: titul varag'i; mundarija; kirish; asosiy qism (2–3-bob tavsiya etiladi); xulosalar; foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati; ilovalar.

Mundarijada kirish, boblar, paragraflarning nomlari, ularning boshlanish sahifasi raqami keltiriladi.

Kirish qismida – mavzuning dolzarbligi, tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi, faraziyasi, vazifalari, ilmiy tadqiqot metodlari va metodologiyasi, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatiladi.

Birinchi bobda mavzuning umumnazariy muammolari, tadqiqot olib borilgan obyektning qisqacha tavsifi beriladi.



11-rasm. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari.

Ikkinchi (va uchinchi) boblarda dissertatsiyaga oid vazifa qo'yish, ilmiy izlanishlar, amaliyotlar (tajribalar) jarayonida to'plangan materiallar, statistik ma'lumotlar, iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili, uslubiyot, takliflar keltiriladi; erishilgan natijalar, yangiliklar, ixtirolar, me'yoriy ko'rsatkichlar, ilgari surilayotgan g'oya va fikrlar asoslanadi, isbotlanadi.

Xulosa va takliflar qismida dissertatsiya ishi bo'yicha chiqarilgan xulosalar, aniq takliflar, magistrant o'zi erishgan natijalari ko'rsatiladi, qisqa xulosa va tavsiyalar boblar yakunida ham bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida me'yoriy hujjatlar, o'rganilgan manbalar, nashr etilgan asarlar, maqolalar alfavit tartibida keltiriladi. Xorijiy adabiyotlar ro'yxat oxirida beriladi.

Ilovalar qismida dissertatsiya matni uchun tayyorlangan chizmalar, turli ishlanmalar keltirilishi mumkin.

12. Iqtidorli talabalar – O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omildir. Ular maqsadga intiluvchanlik, qat'iylik, mehnat-sevarlik kabi fazilatlarini, ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish ishtiyoqi bilan ajralib turadi. Iqtidorli talabalarni izlash, tanlash va ular bilan ishlashning asosiy maqsadi-mamlakati-mizning ilmiy-ijodiy salohiyatini oshiruvchi noyob iste'dod sohiblarini voyaga yetkazish, ularga madaniyat, san'atning biror sohasi, fanning aniq yo'nalishi bo'yicha o'zlarida mavjud tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirishlariga imkoniyat yaratishdir.

13. Iqtidorli talabalar bilan alohida ishlashning asosiy vazifalari:

- iqtidorli yoshlarning aqliy salohiyati va tabiiy qobiliyatlarini o'stirishga alohida e'tibor berish;
- malakali professor-o'qituvchilarni iqtidorli talabalar bilan yakka ishlashga jalb etish;
- ilm-fan taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari sohasida ilmiy tadqiqot ishlariga iqtidorli talabalarni keng jalb etish;
- maxsus o'quv dasturlari va ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish;
- yuqori malakali, barkamol kadrlarni tayyorlash;

– iqtidorli yoshlar respublika banki va monitoringini shakllantirish kabilardan iborat.

14. Iqtidorli talabalar psixologik va pedagogik testlar o‘tkazish orqali qobiliyatining rivojlanganlik darajasiga qarab aniqlanadi. Ularni maqsadli tayyorlash quyidagilarga yo‘naltiriladi:

- kengaytirilgan o‘quv rejasi bo‘yicha o‘qish va qo‘shimcha malakaga ega bo‘lish (tanlangan yo‘nalish bo‘yicha; chet tilidan tarjimon; EHM dasturchisi va hokazo);
- maqsadli dastur bo‘yicha yakka tartibda o‘qitish;
- chuqurlashtirilgan dastur bo‘yicha o‘qitish (umum kasbiy fanlar, menejment, marketing, audit, ekologiya va boshqa fanlar).

15. Iqtidorli talabalarni maqsadli tayyorlashda quyidagilar nazarda tutiladi:

- fanlarni yuqori darajada o‘zlashtirish;
- kompyuter bilimdonligi hamda dasturlashtirish;
- chet tillardan birini puxta egallash;
- kurs va bitiruv ishlarini, magistrlik dissertatsiyasini yozishda kompyuter va chet tilidan unumli foydalanish;
- ilmiy, ijodiy ishlarni bajarishda mustaqil fikrlash, yangi g‘oya va takliflarni bildirish va amalda tatbiq etish;
- davlatning ichki va tashqi siyosatini to‘g‘ri tushunadigan, vatanparvar, barkamol shaxs sifatida shakllantirish.

16. Iqtidorli talabalarga rahbarlik qilish va dars berishga ilmiy darajali, yetarli bilim-tajribaga ega, reytingi yuqori professor va dotsentlar jalb etiladi. Ilmiy rahbarning asosiy vazifalari:

- maqsadli tayyorlash dasturini tuzish va uni bajarish jarayonini boshqarish;
- pedagogik texnologiya, kompyuter texnologiyasi, audio-

video texnikalarini keng qo'llash;

– dasturni yaxshi bajarayotgan talabalarni moddiy, ma'naviy rag'batlantirish uchun takliflar kiritish.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Kadrlar tayyorlash milliy modelining fan komponenti nimalarni nazarda tutadi?

2. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti (asosiy qoidalar)da bakalavriat va magistratura ta'limi jarayonida ilmiy-faoliyat sohasida qanday bilim va malakalarni egallash talab etilgan?

3. Talabalar ilmiy tadqiqot ishlarining asosiy vazifalarini ayting.

4. Talabalarining ilmiy tadqiqot ishlari tizimi nimalarni o'z ichiga oladi?

5. O'quv mashg'ulotlari bilan bog'liq tadqiqot ishlariga nimalar kiradi?

6. Kafedralarning ilmiy ishlari bilan bog'liq talaba bajaradigan tadqiqot ishlari turlarini ayting.

7. Talabaning tadqiqotchilik malakalarini egallash texnologiyasi nimalardan iborat?

8. Tadqiqotchilik malakalarining shakllanish darajalari deganda, nimalarni tushunasiz?

9. Talabalarining ilmiy ishlari qanday rasmiylashtiriladi? Unga qo'yiladigan talablarni ayting.

10. Malakaviy bitiruv ishi nima?

11. Malakaviy ishning mavzusi va rahbari qanday rasmiylashtiriladi? Rahbarning vazifalariga nimalar kiradi?

12. Malakaviy ishga qo'yiladigan talablarni va uning hajmini kim belgilaydi?

13. Malakaviy bitiruv ishini rasmiylashtirish va himoya qilish tartibini ayting.

14. Magistrlik dissertatsiyasi nima?

15. Magistrlik dissertatsiyadagi ilmiy masalani yechish uchun muallif nimalarni bajarishi talab etiladi? Ilmiy-texnik masalani yechish uchunchi?

16. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusini kim aniqlaydi, unga kimlar rahbarlik qiladi?

17. Magistrlik dissertatsiyasi qanday rasmiylashtiriladi, qanday tartibda himoya qilinadi?

18. Iqtidorli talabalar bilan ishlashdan asosiy maqsad nimaligini ayting.

11- bob. TALABANING BILIM O‘ZLASHTIRISHINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH

I. Tayanch tushunchalar: joriy nazorat, oraliq nazorat, yakuniy nazorat; og‘zaki nazorat, yozma nazorat, test va reyting usullari.

II. Mavzuning muhim masalalari:

1. Nazorat va baholashning turlari, shakl-usullari.
2. Bakalavriatlar bilimini baholashning reyting tizimi.
3. Magistratura talabalari bilimini baholashning reyting tizimi.
4. Pedagogik test – talabalar bilimini obyektiv baholash usuli.

III. Manbalar, adabiyotlar

1. Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risida namunaviy nizom (1998-8.VI.) «Oliy ta‘lim». Me‘yoriy hujjatlar to‘plami, Toshkent. 2001. 449–452 - betlar.
2. Magistratura talabalari bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risida muvaqqat nizom. (1999. 31.XII).
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi «Nasaf» nashriyoti 2000, 49–56; 59–63 - betlar.

IV. Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

1. Reyting tizimi haqidagi namunaviy nizomni o‘qib matnlashtiring.
2. Tavsiya etilgan adabiyotlarni o‘qing.

I. Nazorat qilish va baholashning turlari, shakl-usullari

1. Talabalarining bilim o‘zlashtirishni nazorat qilishning reyting tizimida baholashning uchta turi qo‘llaniladi: joriy baholash (JB), oraliq baholash (OB) va yakuniy baholash (YaB). Joriy nazorat talabani o‘quv materialini izchil o‘zlashtirib borayotganidan xabardor qilib turadi, uning bilim

egallashdagi intilishlari ma'qullanib boriladi, xabardorlik ta'limda yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish va ta'lim maqsadlarini aniqlashga xizmat qiladi. Oraliq nazoratda, fanning bir bo'limi (qismi) bo'yicha mashg'ulotlarda talabani egallagan bilim va malakalari aniqlanib, o'lchab, baholab boriladi. Yakuniy nazoratda fan bo'yicha rejalashtirilgan ta'lim maqsadlariga erishilganligi baholanadi.

2. Talabani fanga doir egallagan bilimlarini baholashning odatda **turli xil shakl usullari** qo'llaniladi: og'zaki baholash, yozma baholash, test usulida va reyting tizimi orqali baholash shular jumlasiga kiradi.

3. **Og'zaki nazorat qilish va baholashning yaxshi jihatlari:** professor-o'qituvchi talaba bilan bevosita, jonli aloqada, muloqotda bo'ladi; talabani bilimni chuqurroq aniqlash uchun qo'shimcha savollar berish imkoniyati tug'iladi; og'zaki javob talabani og'zaki nutqini mashq qilish va faol fikrlashga undaydi. Og'zaki javob berishda yaxshi tayyorlangan talaba o'z bilimdonligini, qo'shimcha o'rganganlarini namoyish eta oladi. Bevosita so'rash paytida talabani bilim o'zlashtirishi masalasida o'qituvchida ilgari tug'ilgan ayrim shubhalar bartaraf etiladi.

4. **Yozma baholashning yaxshi tomonlari:** yozma tarzda berilgan javob-talaba o'quv materialini o'zlashtirib olganiga hujjatli dalil bo'ladi; talaba o'z fikrlarini qog'ozda ifodalashi uchun amaliyotdir; ekspertlar o'tkazgan yozma nazorat talabani bilimiga obyektiv baho qo'yishga imkoniyat yaratadi.

5. **Og'zaki va yozma baholash tizimiga xos jiddiy nuqsonlar:**

– talabani bilimiga qo'yiladigan baholarda **subyektivlik alomatlari ko'proq**, baho ko'pincha boshqa talabalarga nisbatan qo'yiladi, bunda baho kamaytirilishi yoki oshirib qo'yilishi ham mumkin. Imtihon oluvchilar bitta og'zaki javob yoki bitta yozma ishga turlicha baho qo'yishlari mumkin;

– imtihonda talaba biletidagi 3–4 ta savolga javob beradi, baho esa butun o'quv predmeti dasturi mazmunini bilgani

uchun qo'yiladi;

– besh balli baho shkalasi bilim o'zlashtirish darajalari orasidagi tafovutlarni aniq belgilashga imkon bermaydi;

– og'zaki va yozma imtihon olib baholashlar bilim o'zlashtirish sifatini obyektiv, aniq va asosli baholashni ta'minlay olmaydi;

– og'zaki so'rashga, shuningdek, yozma ishlarni tekshirishga vaqt ko'p ketadi;

– og'zaki va yozma nazorat uchun kompyuterni ishlatish qiyin, ularni avtomatlashtirib bo'lmaydi.

6. Pedagogik test vositasida baholashning yaxshi tomonlari:

– yaxshi tuzilgan pedagogik test talabani bilim o'zlashtirish sifati va darajasini aniq o'lchash, obyektiv baholash instrumenti bo'lib, uning natijasi nazorat o'tkazuvchi-baho qo'yuvchi odamga bog'liq bo'lmaydi;

– pedagogik test fan dasturi bo'yicha o'quv materialini mazmunini to'liq qamrab olishi mumkin, ta'lim natijasini test usulida o'lchaganda hamma talabalarga nisbatan bir xil, oldindan belgilangan shkalaga asosan aniq va to'g'ri baho qo'yiladi;

– test yo'li bilan baholashda ta'limning texnik vositalarini ishlatish qulay, bu usul ma'lum o'quv materialini yoki butun bir fanni, nisbatan oz vaqt, kam kuch sarflab, hamma talabalarining bilimini nazorat qilishga imkon beradi;

– pedagogik test usulida baholashni kompyuter vositasida avtomatlashtirish mumkin.

7. Pedagogik test usuli ham nuqsonlardan xoli emas:

– test nazoratining ko'p shakllari talabani og'zaki va yozma javoblarini mustaqil ifodalash imkoniyatidan mahrum etadi;

– talabani ruhiy kechinmalari ham o'qituvchi oldida erkin javob berayotganidagidek namoyon bo'lmaydi; bilimdonligini, shaxsining o'zigagina xos xususiyatlarini ko'rsatish imkoniyati yo'q;

– imtihon topshiruvchi to'g'ri deb hisoblangan javobni tanlashigina mumkin, o'z javoblarini bera olmaydi.

8. Sifatli tuzilgan pedagogik testlar talabaning bilim egallashda faolligini oshiradi va aksincha, yomon tuzilgan testlar o'quv jarayoniga salbiy ta'sir etishi ham mumkin. Xullas, pedagogik testlarni to'g'ri va o'rinli qo'llash o'quv jarayoni hamda uning natijalariga katta ta'sir etadi, o'qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

9. **Reyting** – inglizcha so'z bo'lib, baholash, individual koeffitsiyent ma'nolarini anglatadi. Talabalar bilimi sifatini baholashning o'quv jarayoni va ta'lim natijalarini baholashga bir xil yagona yondashuvni ta'minlaydigan ko'rsatma va qoidalar majmuidir.

10. Reyting tizimini qo'llashning **maqсуди va vazifalari** quyidagi natijalarga erishish uchun sharoit yaratish hisoblanadi:

– talabalar oliy ta'limning davlat ta'lim standartida belgilangan darajada bilim va malakalarni egallashlariga erishish;

– talabalar bilim sifatini baholashda muntazamlilik, izchillik va obyektivlikni ta'minlash;

– talabalarning o'quv-biluv harakatlarini faollashtirish, o'qish-o'rganishga ijobiy motiv hosil qilish, muntazam ravishda mustaqil ishlashlari va musobaqalashishlariga erishish;

– har bir talabaning o'quv sohasida egallagan o'rnini aniqlab, yutuqlari uchun rag'batlantirish;

– ta'lim natijalarini taqqoslashga imkon yaratish va boshqalar.

11. Reyting usulida baholash tizimi quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak:

– uzluksiz ta'lim tizimining har bir turi bosqichining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;

– ko'p balli shkalani qo'llash;

– o'qituvchi qo'yadigan baholar murakkab matematik hisob-kitoblar bilan bog'liq bo'lmasligi lozim. Baholar (ballar) o'quv yurtida qabul qilingan, qo'llanib kelinayotgan mezonlarga binoan qo'yib borilishi kerak;

– baholash natijalari talabalar (o'quvchilar), ota-onalar,

pedagoglar tushunishi uchun qulay, guruh jurnalidan bilib olinadigan bo'lishi lozim. Baho (reyting) ballarini hisoblash, yakuniy ballarni chiqarish tartibi iloji boricha sodda bo'lishi, ballarni nazorat turlari va shakllari bo'yicha taqsimlab hisoblashni talab etmasligi kerak;

– har bir ta'lim muassasasida o'quv (uslubiyot) bo'limi vazirlik ko'rsatmasiga binoan yoki o'zi mustaqil barcha og'zaki, yozma, test nazoratlari (baholashlari)ning minimal miqdorini belgilaydi va shu asosda yakuniy baho chiqariladi;

– uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichida (turida) turli o'quv yurtlari reyting (baholash) natijalari ta'lim natijalarini taqqoslashga imkon berishi kerak.

II. Bakalavriatlar bilimini nazorat qilish, baholashning reyting tizimi

1. Talabalar bilimini reyting tizimi orqali baholashdan maqsad – o'qitilayotgan fanlarni yuqoriroq darajada o'zlashtirish, topshiriqlarga ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash, o'z bilimlarini muntazam ravishda oshirishga intilish kabi xususiyatlarni rivojlantirish orqali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga erishish.

2. Reyting tizimining vazifalari:

– talabalar bilim o'zlashtirishini muntazam nazorat etib borish, o'quv semestri (yil) davomida o'z ustida uzluksiz, faol ishlashlarini ta'minlash;

– talabalar bilimini **haqqoniy, aniq va adolatli** baholash, o'zlashtirish natijalarini ularga muntazam ravishda ma'lum qilish;

– talabalarda mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini o'stirish;

– professor-o'qituvchilarning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rishi, baholash ko'rsatkichlari (savollari, topshiriqlari, vazifalari)ni tuzishda mas'uliyatni oshirish.

3. Fan bo'yicha **maksimal reyting bali** – yuz ball miqdorida belgilanadi. Reyting usulida baholashda, avval talabaning o'zlashtirish ko'rsatkichlari aniqlanib, so'ngra fan bo'yicha reytingni hisoblab chiqiladi.

4. Talabanning fan bo'yicha bilim o'zlashtirishini nazorati semestr (o'quv yili) davomida muntazam olib boriladi, nazoratning quyidagi turlari qo'llaniladi: joriy nazorat, oraliq nazorat, yakuniy nazorat.

Joriy baholashda fanning har bir mavzusi bo'yicha talabanning bilim o'zlashtirish darajasini aniqlab borish nazarda tutiladi va u, odatda, amaliy mashg'ulotlarda ro'yobga chiqariladi. Oraliq baholashda fanning bir necha mavzulari (bo'limi, qismi) bo'yicha nazariy mashg'ulotlarda talabanning nazariy bilimlari aniqlanib baholanadi, talabanning muayyan savol yoki topshiriqni yecha olish malakasi, qobiliyati aniqlanadi. **Yakuniy baholashda** fanning semestr (o'quv yili) davomida o'tilgan hajmi doirasida talabanning bilimi baholanadi. Yakuniy nazoratga ajratilgan ballar maksimal ballning 15 foizi miqdorida belgilanadi.

5. Yakuniy baholash – tayanch tushunchalarga asoslangan yozma ish usulida yoki og'zaki, test, himoya shaklida ham o'tkazilishi mumkin. Yakuniy baholashni yozma ish usulida o'tkazish tartibi nizomda belgilanadi.

6. Baholash har bir fanning xususiyatlariga qarab dars jarayonida og'zaki so'rash, test savollariga javob olish, nazorat ishlarini bajartirish, kollokvium, suhbat va boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin. Semestr davomida o'qitilgan fan bo'yicha maksimal ballning kamida 56 foizini to'plagan talaba **qoniqarli o'qitilayotgan** deb hisoblanadi, undan kam ball to'plagan talaba qoniqarsiz o'qiyotgan hisoblanadi.

Semestr (o'quv yili) davomida fan bo'yicha to'plagan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi: 86–100 foiz - a'lo; 71–85 foiz - yaxshi; 56–70 foiz - qoniqarli; 55–foizdan kami - qoniqarsiz.

Talabanning barcha turdagi amaliyotlardan olgan bilim, ko'nikmalari, kurs ishi, bitiruv ishi, davlat attestatsiyasi natijalari o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi va reyting daftarchasida qayd etiladi.

7. Talabalar bilimini yakuniy baholashning **yo'zma ish usulini qo'llashdan** maqsad-talabalarda mustaqil, ijodiy

fikrlash qobiliyatini, tayanch tushunchalarga asoslangan holda o'z fikrlarini yozma ravishda aniq va lo'nda ifodalay olish malakasini o'stirish, shuningdek, professor-o'qituvchilarning yozma ish savollari, (topshiriqlari, vazifalari)ni tayyorlashda mas'uliyatini oshirishdan iborat.

Yakuniy baholashda yozma ish o'tkaziladigan fanlarning nomi semestr boshida kafedralar va talabalarga yetkaziladi. Kafedralar savollar va ularni yoritishga yordam beradigan tayanch tushunchalarni ishlab chiqadi, yozma ish o'tkazilishidan bir oy oldin talabalarga ma'lum qilinadi.

Yozma ishlarni o'tkazish uchun komissiya tashkil etiladi. Yozma ish savollari (variantlari) dekanat tomonidan yozma ish boshlanishidan bir soat oldin maxsus konvertda komissiyaga taqdim etiladi. Yozma ishni o'tkazishga 3 soat vaqt ajratiladi. Komissiya yozma ishlarni belgilangan tartibda tekshiruvchilarga tarqatadi va natijasini talabalarga ma'lum qiladi. Yozma ishlarni tekshirishga va baholashga malakali professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlarining olimlari, ishlab chiqarishning yetakchi mutaxassisleri jalb etilishi mumkin.

III. Magistratura talabalari bilimni nazorat qilish, baholashning reyting tizimi

1. Magistratura talabalari bilimni nazorat qilish va baholashning **maqsadi** – fanlarni o'rganishda talabaning doimiy faolligini, mustaqil ishlash qobiliyatini oshirish, topshiriqlarga ijodiy yondashish, intiluvchanlik, adabiyotlardan keng foydalanish xususiyatlarini rivojlantirish.

2. Baholash tizimining vazifalari:

– magistratura talabalari bilim o'zlashtirishini muntazam nazorat etib borish, butun o'quv yili davomida o'z ustida uzluksiz, faol ishlab borishlarini ta'minlash;

– talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini o'stirish, chuqur bilim olishga intilishlarini kuchaytirish; bilimni haqqoniy, aniq, adolatli baholash;

– professor-o‘qituvchining ustozlik mas’uliyatini oshirish.

3. Magistratura talabalarining fan bo‘yicha o‘zlashtirishi joriy, oraliq va yakuniy baholash orqali amalga oshiriladi.

Joriy baholash maksimal ballning 50 foizi miqdorida belgilanadi va u quyidagi ishlarga taqsimlanadi:

– talabalarining mashg‘ulotlarda faolligiga;

– amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlariga tayyorgarlik darajasiga;

– fan bo‘yicha asosiy manbalarni matnlashtirishga;

– dolzarb mavzu bo‘yicha referat yozishiga;

– ilmiy tezislarni tayyorlashi, ilmiy anjumanlarda chiqishlar qilishiga;

– ilmiy adabiyotga annotatsiya yozishiga;

– nazorat ishlarini bajarishiga;

– xorijiy adabiyot, manbalarni tarjima qilishiga;

Oraliq nazorat uchun maksimal ballning 35 foizi, yakuniy nazorat uchun 15 foizi ajratiladi. Yakuniy nazorat yozma ish shaklida o‘tkazilganda fan bo‘yicha mas’ul kafedra yozma ish savollari, tayanch tushunchalarni ishlab chiqadi. Yozma ish dekanat tomonidan tasdiqlangan jadvalga muvofiq dastur to‘la bajarilgach, o‘tkaziladi. Yozma ishni o‘tkazish uchun **komissiya** tashkil etiladi. Yozma ish savollari dekanat tomonidan komissiya a‘zolariga yozma ish boshlanishidan oldin, maxsus konvertda taqdim etiladi.

Semestr (o‘quv yili) davomida maksimal ballning 56 foizini to‘plagan talaba qoniqarli o‘qiyotgan deb hisoblanadi.

Semestr (o‘quv yili) davomida **fanlar** bo‘yicha to‘plagan ballar o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari bilan baholanadi.

Magistratura talabasining barcha turdagi amaliyotlardan olgan malaka va ko‘nikmalari, dissertatsiya ishi hamda davlat attestatsiyasi baholanadi va reyting daftarchasida qayd etiladi.

Talabani kursdan-kursga o‘tkazish o‘quv rejasida o‘quv yiliga belgilangan fanlardan talaba to‘plagan reyting ballar

miqdorini hisobga olib, rektorning buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

IV. Pedagogik test-talabalar bilimini obyektiv baholash usuli

1. Pedagogik texnologiyaning muhim belgilaridan biri – ta'limning maqsadini real va diagnostik belgilash hamda talabaning bilim o'zlashtirish obyektiv baholashdir. Pedagogik testlar talabaning bilim o'zlashtirish darajasini aniqlash va obyektiv baholash instrumenti (vositasi, usuli) bo'la oladi. Pedagogik testlar talabaning bilim olish jarayonlarini joriy, oraliq, yakuniy nazorat qilish va baholashda qo'llaniladi.

2. **Test tuzish izchilligi quyidagicha bo'ladi.** Avvalo, mavzu (bo'lim, predmet) mazmunini tashkil etadigan o'quv elementlari (o'quv-biluv vazifalari, topshiriqlari), ya'ni test vazifalari miqdorini belgilash lozim.

Ikkinchidan, ta'limning umumiy va xususiy (juz'iy, oydinlashtirilgan) maqsadlarini aniqlash kerak.

Uchinchidan, mavzuning (predmetning) xususiyatiga binoan testning o'ziga xos xususiyatini aniqlash maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, test vazifasi (savoli, topshirig'i)ni ishlab chiqish, testni tuzish kerak.

Beshinchidan, tuzilgan testni ekspertizadan o'tkazish lozim.

Oltinchidan, ekspertizadan o'tgan test vazifasini tajribada sinovdan o'tkazish kerak.

Yettinchidan, test sifati ko'rsatkichlarini aniqlash talab etiladi.

3. Test tuzishda bunday izchillikka rioya qilishning sabablari bor, albatta. Avvalo, test vazifalari miqdorini aniqlash lozim, chunki u testdan nazarda tutilgan maqsad, o'quv predmeti (mavzu)ga ajratilgan soatlar miqdori, test topshiriqlari soniga, vaqt va boshqalarga bog'liq bo'ladi. So'ngra nazorat etiladigan o'quv predmetining umumiy va

xususiy maqsadlarini aniqlash, shundan keyin testning xususiyatini aniqlash talab etiladi. Testni ekspertizadan o'tkazish undagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etishga imkon yaratadi. Testni tajribada sinab ko'rish, uning sifatini aniqlashga, test topshiriqlarini talabalar qanday idrok etishi, tushunishi bilan bog'liq nuqsonlarni bilib olishga imkon tug'diradi. Shundan keyingina testni mas'uliyatli vaziyatlarda ishlatish yaxshi natija beradi.

4. Talabalar bilimni baholashda professor-o'qituvchi oldida «nimani baholash kerak», degan savol ko'ndalang turadi. Pedagogik texnologiya bu savolga «Predmetni o'qitish va o'rganish maqsadi va vazifalariga erishish darajasini» degan javobni beradi. Bunda umumiy maqsadni o'qituvchi faoliyati bilan bog'lash (o'rgatish, tushuntirish, aytib berish, namoyish etish kabilar), vazifalarni esa talabaning o'quv-biluv faoliyati, ya'ni o'quv vazifasi bilan bog'lab ifodalash lozim. Chunki **o'quv vazifasi** (topshirig'i) talaba ilgari bilmagan narsasini shu mashg'ulotda bilib olishi yoki bajara olishi kerak bo'lgan o'quv elementidir.

5. Talaba oldiga qo'yiladigan o'quv-biluv vazifasi ta'limning **natijasi** bo'ladi, demak, tekshiriladigan, baholanadigan narsa, bu ta'limning natijasi, ya'ni talaba bilib o'zlashtirib olgan o'quv vazifasidir.

6. Test tuzish uchun, avval o'quv-biluv vazifasini aniq, ochiq-oydin ifodalash zarur. O'quv-biluv vazifalarini aniqroq ifodalash-oydinlashtirish uchun quyidagilarga amal qilish talab etiladi:

a). Mavzuning har bir muhim masalasi bo'yicha o'quv-biluv vazifalarini ifodalash.

b). Har bir o'quv-biluv vazifasini tartib raqami bilan belgilash.

d). Har bir o'quv-biluv vazifasini «sanab ko'rsating, tanlang, belgilang, hisoblab chiqing» fe'llari vositasida ifodalash.

e). Har bir vazifa ta'limning aynan bir natijasini nazarda tutsin (bir savolga ikki-uch xil javob berish mumkin bo'lmasin).

f). Har bir vazifani o'zlashtirish natijasini va darajasini, ya'ni maqsadga erishilganligini o'lchash, baholash mumkin bo'lsin.

7. O'quv-biluv vazifalari biror mavzu, bo'lim yoki predmetni o'rganib bo'lgach, talabaniq bilim va ko'nikmalarini obyektiv baholashga (og'zaki, yozma, reyting yoki test usulida) imkon yaratishi lozim.

8. O'quv-biluv vazifalari (oydinlashtirilgan maqsadlar)ni aniqlab ifodalagach, professor-o'qituvchi ta'lim natijasini tekshirish uchun test **nazorati vazifalarini** tuzadi. Nazorat vazifalari og'zaki so'rash, yozma ish olish yoki test o'tkazish uchun mavzuning mazmunini yoritadigan savollar, vazifalar, topshiriqlardan iborat bo'ladi.

9. O'quv-biluv vazifalarini ifodalash uchun fe'l shaklini to'g'ri tanlash muhim, chunki u, talaba shu o'quv vazifasini o'zlashtirgach bajara oldigan harakatni bildirishi zarur. Masalan, og'zaki va yozma nutq sohasida o'quv vazifalarini ifodalash uchun: gapirib bering, yozing, xulosa qiling, o'qing, bo'g'inlarga ajrating kabi.

Agar ta'limdan kutiladigan natija o'quv-biluv vazifasi shaklida ifodalangan bo'lsa, uni pedagogik testga aylantirish osonlashadi va u, o'z navbatida, ta'lim natijasiga erishilganini aniqlash (tekshirish)ga xizmat qiladi.

10. **Pedagogik testning shakllari.** Test topshiriqlarining mazmuniga ko'ra, odatda, pedagogik testlarning to'rt xil shakli ko'proq qo'llaniladi: yopiq test, ochiq test, moslikka va izchilikka oid testlar. Pedagogik testlar boshqa shakllarda: matnli, vaziyatli, zanjirli kabilar ham bo'lishi mumkin.

11. **Yopiq test** – test sharti savol yoki vazifa, topshiriq va qisqa javoblardan iborat tuzilib, ko'pincha javoblardan bittasi to'g'ri, qolganlari to'g'ri javobga o'xshashroq bo'ladi. Yopiq

testda bir necha to'g'ri javob bo'lishi ham mumkin. Yopiq test deb atalishining boisi shundaki, tekshiriluvchi qo'yilgan shartga (savolga) o'z javobini bera olmaydi, u testda keltirilgan javoblardan birini, o'zicha to'g'ri deb hisoblanganini tanlashi, belgilashi mumkin.

Misol. O'quv predmeti bo'yicha test topshiriqlari (pedagogik testlar) soni ko'payishi bilan talabaning bilimni baholash aniqligi qanday o'zgaradi?

a) ortadi; b) kamayadi; d) o'zgarmaydi; e) ahamiyati yo'q. To'g'ri javob: a.

12. **Ochiq test** – talabaga o'z xohishiga ko'ra javob berish imkoniyatini yaratadi. Ochiq testlar, odatda, bitta asosiy so'z (yoki so'zlar) tushirib qoldirilgan jumladir.

Misol. Predmetning belgisini bildirgan so'zlar deyiladi.

To'g'ri javob: sifat.

13. **Moslikka doir testlarning** mohiyati shundan iboratki, har bir narsa (hodisa)ning qismlari, xususiyatlari, belgilari o'ziga mos kelishini aniqlash zarur.

Misol.

I. Bilimni test usulida baholashning kamchiliklari.

II. Bilimni an'anaviy usulda baholashning nuqsonlari.

A. Baholashning subyektivligi.

V. Imtihon oluvchi talaba bilan muloqot qila olmaydi.

D. Bilimlarning bir qismi tanlab nazorat qilindi.

E. Baho shkalasi taxminiyligi.

G. Javoblarni ifodalash imkoniyati cheklangan.

S. O'qituvchining vaqti ko'p ketadi.

N. EHM ni qo'llash qiyinligi.

To'g'ri javob: I-V, G; II-A,D,E,S,N.

14. **Izchillikka doir pedagogik test** topshiriqlari turli harakatlar, fikr yuritishlarda izchillik mavjudligini aniqlash, tekshirish uchun ishlatiladi.

Misol: Pedagogik testni tuzishda harakatlar izchilligi (ketma-ketligi) to'g'riligini aniqlang.

- A. Testning xususiyatini aniqlash.
- V. Test topshiriqlari miqdorini belgilash.
- D. Umumiy va xususiy maqsadlarni aniqlash.
- E. Testni tuzish (ishlab chiqish).
- G. Testni sinov-tajribada tekshirib ko'rish.
- S. Testni ekspertizadan o'tkazish.
- N. Test sifati ko'rsatkichlarini aniqlash.

Javob indeksleri tartib (izchilligi) shaklda bo'ladi.

To'g'ri javob: V,D,A,E,S,G,N.

15. **O'zlashtirishning turli darajalariga doir pedagogik testlar tuzish.** Pedagogika, psixologiya fanlarida talabalarining bilim o'zlashtirish darajalari bir-biridan farqlanadi. Mavzuning tayanch tushunchalari, muhim masalalariga doir axborotlarni esda saqlash, tanish va qayta tiklash bilim o'zlashtirishning dastlabki muhim, zarur bosqichi (darajasi) hisoblanadi. Bilim egallashning undan yuqoriroq darajalari reproduktiv daraja, mahsuldir daraja, ijodiy - tadqiqiy darajalar deb ataladi. Pedagogik testlar o'zlashtirishning turli darajalariga mos qilib tuziladi va ular vositasida talaba o'quv materialini (axborotlarni) o'zlashtirishining turli darajalarini tekshirish, baholash mumkin.

16. **Axborotni anglab, esda saqlash, tanish va qayta tiklash darajasiga** moslab tuzilgan pedagogik test vositasida talabaning xotirasigagina bog'liq bilimlar aniqlanadi.

Misol. Doiraning yuzasi formulasini belgilang.

A. $2R^2$; B. $PR^{2/3}$; D. $PR^{2/4}$; E. PR^2 . To'g'ri javob: PR^2

Bu test topshirig'i talabadan PR^2 formulasini eslashni talab etadi. Uni bajarish uchun bitta aqliy amal - to'rtta formuladan to'g'risini tanlab belgilash kifoya. Bu bilim o'zlashtirishning oddiy, lekin muhim darajasini tekshirishdir, chunki ta'lim jarayoni ko'p axborotlarni: faktlar, voqealar, formula, prinsip, qoida, qonun kabilarni esda saqlash zarurati

bilan bog'liq.

Nazoratning bu turi bilim egallash uchun, ya'ni ta'lim maqsadiga erishish uchun yetarli emas, chunki axborotni esda qoldirgan o'quvchi bunday testni bajarganda yuqori natija ko'rsatishi, lekin uni amalda qo'llashni bilmasligi mumkin. Shuning uchun ham axborotni esda saqlash va qayta tiklashga doir topshiriqlar bilan birga pedagogik testlarda olingan bilimlarni amalda qo'llay olish malakasini tekshirishga doir topshiriqlar ham bo'lishi kerak. O'zlashtirishning yuqoriroq darajasini tekshirishga mo'ljallangan pedagogik testlar shu maqsadda xizmat qiladi.

17. **O'zlashtirishning reproduktiv darajasida** tuzilgan pedagogik test topshiriqlari talabadan oldin o'zlashtirilgan bilimlar asosida shunga o'xshash (tipik) vaziyatlarda ish-harakatni mustaqil bajara olishni talab etadi. Bunda talaba ilgari bilib olingan qoida, algoritmlarni esga keltirib, amalda qo'llashi lozim.

Misol. 2 sm radiusli doiraning yuzasi teng.

Bu pedagogik test topshirig'ini faqat xotiraga binoangina bajarib bo'lmaydi, chunki u hisob-kitobni talab etadi. Bu testni bajarish uchun zarur bo'ladigan aqliy amallarni hisoblab chiqaylik:

– PR^2 formulasini eslash.

– $PR = 3,14$ (verguldan so'ng ikki belgi-raqamigicha aniqlab) ekanligini eslash.

– Radiusning uzunligini kvadratga keltirish: $2^2 = 4$.

– Doiraning yuzasini hisoblash: $3,14 \times 4 = 12,56$.

Aqliy amallar soni - 4.

To'g'ri javob : 12, 56.

O'zlashtirishning reproduktiv darajasiga doir topshiriqlar pedagogik testlarda keng qo'llaniladi. Ular yordamida talaba bilib olgan formula, qonun, prinsip, nazariy qoidalarni aniq vazifalarni bajarishda qo'llay olish malakasi tekshiriladi.

18. Talabaniy bilimini nazorat qilish faqat reproduktiv daraja bilan cheklanib qolinsa, bu talabaniy aqliy rivojlanishida turg'unlikka olib keladi. Shuning uchun pedagogik testlar tarkibiga o'zlashtirishning yanada yuqoriroq darajasiga doir topshiriqlarni qo'shish ham tavsiya etiladi.

Bilim o'zlashtirishning mahsuldor darajasi talabadan notipik vazifa (masala)larni yechish uchun ilgari o'rganilgan bilimni mustaqil qayta o'zgartira olishni talab etadi. Talaba bunda tayyor namuna yoki qoidaga binoan emas, balki o'zi mustaqil tuzgan algoritim bo'yicha harakat qiladi (ishni bajaradi.) Odatda, bunday vaziyatda talaba oldingi bilim va tajribalariga asoslanib, yangi vaziyatda biror masalani mo'ljal bilan mustaqil hal qiladi.

O'zlashtirishning mahsuldor darajasiga oid pedagogik test topshirig'i:

Misol . Doira yuzasining ichkari- dagi doira yuzasiga nisbati	A = 3:1 B = 4:1 D = 6:1 E = 8:1
R = 4; r = 2;	

Bu test vazifasini turli yo'llar bilan yechish mumkin. Yechish usullaridan biri:

– ikkita doira yuzasining nisbati haqidagi teoremani eslash (ular radiuslarining kvadratiga taalluqli);

– katta radiusning kvadratini hisoblash; $R^2=4^2 = 16$;

– ichkaridagi doira radiusining kvadratini hisoblash; $r^2 = 2^2=4$;

– katta doira yuzasidan kichik doira yuzasini ayirish: $16 - 4=12$;

– doira yuzasining ichkaridagi doira yuzasiga nisbatini hisoblash: $12: 4 = 3:1$;


– olingan nisbatni testda ko'rsatilgan nisbatlar bilan solishtirib, to'g'ri javob indeksini aniqlash.


To'g'ri javob - A.

Aqliy amallar soni - 6.

O'zlashtirishning mahsuldor darajasiga doir pedagogik test topshiriqlari hamma vaqt ham murakkab hisob-kitobni o'z ichiga olgan bo'lishi shart emas, Ularning muhim xususiyati bir-biri bilan uzviy bog'liq, mantiqan asoslangan xulosalar zarurligidir.

19. O'quv materialini turli darajalarda o'zlashtirishga doir pedagogik testlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, axborotni esda saqlash va qayta tiklashni tekshirishdan o'zlashtirishning reproduktiv darajasiga, so'ngra mahsuldor fikrlash darajalariga o'taborgan sari nazorat qilinadigan bilimlar hajmi, ularning tizimliliigi, muhim joylarini ajrata olish ko'nikmasi, bilimlarni amalda qo'llay olish malakalari orta boradi.





12-rasm. Talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Talabalar bilimini reyting usulida nazorat qilishdan maqsad nimaligini ayting.
2. Reyting tizimining vazifalari nimalardan iborat?
3. Maksimal ball qanday aniqlanadi?
4. Nazoratning qanday turlari qo'llaniladi? Joriy, oraliq, yakuniy baholash (nazorat)lar nimani anglatadi?
5. Talabalar bilimini baholash yana qanday shakllarda amalga oshiriladi?
6. Qancha ball to'plagan talaba qoniqarli o'qiyotgan hisoblanadi?
7. Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari qanday baholanadi?
8. Yakuniy baholashning yozma ish usuli qanday tashkil etiladi va o'tkaziladi?
9. Magistratura talabalari bilimini nazorat qilish, baholashning maqsadi, vazifalari, xususiyatlarini ayting.
10. Pedagogik testlarni tuzish tartibi va xususiyatlarini ayting.

11. Test tuzish maqsadida o'quv-biluv vazifalarini oydinlashtirish uchun nimalarga amal qilish kerak?
12. Pedagogik testlarning shakllari qanday bo'ladi?
13. O'zlashtirishning turli darajalari uchun tuziladigan pedagogik testlarning xususiyatlarini ayting.

II QISM. OLIY MAKTABDA TARBIYAVIY ISHLAR NAZARIYASI VA METODOLOGIYASI

12- bob. TALABALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH JARAYONI

I. Asosiy tushunchalar: ma'naviy- axloqiy tarbiya, tarbiya jarayoni, tarbiya prinsiplari, milliy-ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, tarbiya vositalari, talabalarning faoliyati, ma'naviy-axloqiy bilimlar, axloqiy tajriba, axloqiy his-tuyg'ular, xulq, odat, iroda, motiv, g'oyaviy-axloqiy e'tiqod.

II. Mavzuning muhim masalalari:

1. Ma'naviy - axloqiy tarbiyaning mohiyati, omillari.
2. Tarbiya vositalari, tarkibiy qismlari.
3. Axloq-odobli bo'lish — hayotiy zarurat

III. Manbalar, adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod—O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent. 1997.
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent 2001.
4. Ochilov M. Talabalarning axloqiy tarbiya jarayoni. «Muallim—qalb me'mori», Toshkent, 2001, 111–126- betlar

IV. Mustaqil o'qish uchun topshiriq

1. Yuqorida ko'rsatilgan adabiyotlarni o'qib matnlashtiring.

I. Ma'naviy - axloqiy tarbiyaning mohiyati, omillari.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992) mamlakatimiz fuqarolariga ilm olish huquqini va ilm olish uchun zarur sharoitlar yaratishni kafolatlaydi. Davlatimiz bu siyosatni izchil amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi o'quv yurtlarida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya

ishlarining barchasi yoshlarni barkamol insonlar qilib shakllantirishga yo'naltirilgan. Ta'lim va tarbiyaning insonparvarligi, demokratikligi, ta'lim-tarbiya oluvchilarni hurmatlash O'zbekistonda ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarida, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida, Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillarda bolalarning qadr-qimmatini hurmatlash, bolada mehnatsevarlik, yaxshilik va muruvvat tuyg'usini, Vatanga, yoshi ulug'larga, davlat tili va ona tiliga, oilaga, milliy tarixiy va madaniy qadriyatlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish tuyg'usini tarbiyalash mas'uliyatli vazifa ekanligi ko'rsatilgan.

2. Bu vazifalarni asosan maktablar va oliy o'quv yurtlarining pedagogik xodimlari, professor-o'qituvchilari bajaradilar. Shuning uchun ham davlat hujjatlarida pedagogik xodimlar o'zlarining kasbiy sha'ni va qadr-qimmatlarini himoya qilishlari: odob-axloq qoidalariga rioya etishlari, bola, o'quvchi va talaba shaxsining qadr-qimmatini hurmatlashlari hamda ularni mehnatga, qonunlarga, ota-ona va xotin-qizlarga hurmat ruhida, atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashlari; o'zlarining butun faoliyatlari va shaxsiy namunalari bilan umuminsoniy axloq qoidalariga: haqiqat, vatanparvarlik, insonparvarlik, yaxshilik va boshqa xayrli xislatlarga nisbatan hurmatni qaror toptirishlari; o'sib-ulg'ayib kelayotgan avlodni bir-birini tushunish, xalqlar o'rtasida, shuningdek barcha elatlar, milliy va diniy guruhlar o'rtasida tinchlik, ahil-inoqlik ruhida tarbiyalashlari lozimligi qayd etilgan.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning chop etilgan asarlarida, Oliy Majlis sessiyalarida so'zlagan nutqlarida O'zbek xalqining ko'p asrlik ma'naviy-milliy, madaniy qadriyatlarini, uning odob axloqini belgilab beruvchi Qur'oni Karim, Hadisi Shariflar; imom Buxoriy, imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, So'fi Olloyor, Sulaymon Boqirg'oniy kabi mutaffakirlarning bebaho merosini; al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, al-Farg'oniy, al-Beruniy, Abu

Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mirzo Ulug'bek, Amir Temur, Bobur, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod kabi allomalarning jahon fani va madaniyati xazinasiga qo'shgan ulug', bebaho hissalarini tadqiq etish, shu asosda yosh avlodni tarbiyalash zarurligi ta'kidlanadi. Bu, o'quv yurtlarida yoshlarga berilayotgan bilimlarning mazmunini yangilashni, tarbiyaning yo'nalishini yoshlarni umuminsoniy va milliy-ma'naviy axloqiy qadriyat-larga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratishni talab etadi. Professor-o'qituvchi butun o'qitish jarayonida, shuningdek, avvalo o'zi dars berayotgan fanning mazmuniga umumin-soniy va milliy-ma'naviy tarbiya vazifalarini singdirish yo'li bilan talabalarga muntazam tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi.

4. O'zbekiston fuqarosining ma'naviy-axloqiy qiyofasini belgilovchi fazilatlar, sifatlari – vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy g'urur, mehnatsevarlik, baynalmilallik kabilar professor-o'qituvchining faol ishtirokida, tarbiyaviy ta'siri ostida shakllanadi. O'qituvchilik faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra axloqiy xarakterga ega.

Pedagogik faoliyatning bunday holati, avvalo, o'qituv-chining o'zi umuminsoniy va milliy-axloqiy qadriyatlarni puxta o'zlashtirib olishi hamda amaliy ishda, ta'lim-tarbiya jarayonida axloqiy kamolot bobida shaxsan ibrat bo'lishini taqozo etadi. Agar o'qituvchining umuminsoniy va milliy axloqiy sohasidagi bilimlari sayoz, tasavvurlari mavhum bo'lsa, uning fikri, so'zi, amaliy ishlari o'rtasida uzilish bo'lsa, O'zbekiston davlati bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan jamiyat qurayotgan hozirgi davrda tarbiya sohasida kun tartibiga qo'yayotgan vazifalarni samarali bajara olmaydi.

Pedagogik faoliyatning bunday xususiyati barcha fan o'qituvchilariga, ustoz-murabbiy, o'quv yurtining rahbarlariga birdek taalluqlidir. Barcha pedagogik xodimlarning har bir so'zi va amaliy xatti-harakatlari tarbiyalanuvchilarga umumin-soniy va milliy axloqni singdirish maqsadiga xizmat qilishi lozim. Bu ish o'z navbatida o'qituvchi va o'quvchilarda axloq nazariyasiga doir bilimlarni egallash, axloqiy tasavvur va

tushunchalar, pedagogik odobga doir bilimlarini muntazam oshirib borishni; muhokama, mulohaza qilib, uning mohiyatini tushunish, magʻzini chaqishni talab etadi. Murakkab axloqiy hodisalarning mohiyatini talabalarga tushuntirish masʼuliyatli ish boʻlib, oʻqituvchi talabalarning yoshi, saviyasiga mos, ular tushunadigan axloqiy faktlar, misollarni izlab topishi, tanlab olishi kerak.

5. Boʻlajak mutaxassislarining maʼnaviy-axloqiy sifatlari professional-kasbiy fazilat boʻlib, oliy maktabda amalga oshirilayotgan pedagogik jarayonda shakllanadi. Bu yagona jarayonda professional tayyorgarlik bilan tarbiyaning barcha tarkibiy qismlari: aqliy taʼlim, mehnat, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, ekologik, jismoniy, estetik va boshqa tarbiyalar uzviy ravishda bogʻlangan holda oʻsib rivojlanadi. Ularning birini ikkinchisidan ajratgan holda rivojlantirib boʻlmaydi. Demak, boʻlajak mataxassislarining professional axloqi umuminsoniy va milliy-maʼnaviy tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida shakllana boradi.

Maʼnaviy-axloqiy tarbiya yoshlarni axloqiy jihatdan rivojlanishiga olib kelishi va unga stimuly boʻlishi lozim. Lekin bunga erishish uchun axloqiy tarbiya berishni tashkil etuvchilar axloqiy taraqqiyotda obyektiv va subyektiv omillarning oʻzaro taʼsir oʻtkazishini eʼtiborga olishlari zarur. Bu oʻzaro taʼsir tarbiyalanuvchidagi ichki qarama-qarshilikni aks ettiradi. Ana shu ichki qarama-qarshiliklar maʼnaviy-axloqiy taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Maʼnaviy-axloqiy rivojlanishning texnologiyasini, mexanizmini uning tarkibiy qismlarini aniqlab chiqqan taqdir-dagina tushunish mumkin. Axloqiy rivojlanish jarayonining asosiy qismlari quyidagilardan iborat: a) tugʻma layoqat va qobiliyat; b) shaxsiy hayot, turmush tarzi jarayonida hosil boʻlgan odatlar; d) maʼnaviy ehtiyojlar.

6. Tarbiya faol jarayon boʻlish bilan birga, u juda murakkab va yaxlit hodisadir. Oliy oʻquv yurtlarida axloqiy tarbiya jarayoni yoshlarga axloqqa doir bilimlar berish, talabalarga oʻqituvchi odobining tushuncha va qoidalarini oʻrgatish, pedagogik axloqiy eʼtiqod, axloqiy hislar, ehtiyoj va

o'qituvchiga xos axloqiy fazilatlarni shakllantirish, xulq-odobga o'rgatish kabilarni o'z ichiga oladi. Oliy o'quv yurtlarida beriladigan axloqiy tarbiya yoshlarni ma'naviy jihatdan rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim-tarbiya ta'sirida shaxs axloqiy jihatdan kamolga yetadi. Axloqiy rivojlanish yaxlit jarayon bo'lib, unda rivojlanayotgan fazilatlar bir-biri bilan uzviy bog'liq hamda o'zaro bir-biriga ta'sir etadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini keng ma'noda oladigan bo'lsak, u yoshlarni ma'naviy jihatdan shakllanishida ijtimoiy muhitning ta'siri, ijtimoiy munosabatlarning turmushga tatbiq etilishi bo'lib, vaqtli matbuot, radio, kino, televideniya, adabiyot, san'atning yoshlarga ta'siridir. Talabalarning axloqiy tarbiyasiga faqat rejali, biron aniq maqsadni ko'zlab uyushtirilgan omillargina emas, balki stixiyali faktorlar — ijtimoiy hayot, turmush tarzi talabalarning faoliyati, aktivligi ham ta'sir o'tkazadi.

Talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini torroq ma'noda oladigan bo'lsak, u oliy o'quv yurtining professor-o'qituvchilar jamoasi, fakultet, guruh jamoalari, jamoat tashkilotlarining biror aniq maqsadni ko'zlab bo'lajak mutaxassislarning axloqiy rivojlanishiga faol ta'sir etishidir. Bo'lajak mutaxassislarning axloqiy tarbiyasi jamiyatning sekin-asta murakkablashib boradigan talablari ta'sirida amalga oshirilib, oliy o'quv yurti rektorati, jamoat tashkilotlari, professor-o'qituvchilarning talablari shaklida turmushga tatbiq etiladi. Talaba shaxsining mutaxassis sifatida sekin-asta izchil ravishda ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllana borishi bu talablarni yildan-yilga, kursdan-kursga o'tgan sayin murakkablashtira borishga imkon beradi.

7. Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoni obyektiv-subyektiv ta'sir va sabab-oqibat bog'lanishlardan iborat bo'lgan ikki tomonlama jarayondir. Sabab-oqibat bog'lanishlarning muhim belgisi shundan iboratki, oqibat o'z navbatida uni vujudga keltirgan sababga ta'sir etadi. Har bir ayni munosabatda sabab bilan oqibat o'zaro ta'sir o'tkazayotgan omilgagina bog'liq bo'lib qolmay, balki tarbiyalanuvchining

shaxsiga ham, uning atrofidagi odamlarga munosabati, intilish va faoliyatining xarakteriga ham bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham tarbiyaviy ta'sir amalga oshirilayotgan, talabalar jalb etilayotgan aniq sharoitlarni, albatta, e'tiborga olish lozim.

Har bir talaba jamoaning, jamiyatning a'zosi. U ma'lum bir ijtimoiy munosabatlar mavjud bo'lgan sharoitda yashaydi, harakat qiladi. Ana shu ijtimoiy munosabatlar qanchalik boy va xilma-xil bo'lsa, kishining ma'naviy dunyosi shunchalik keng va mazmunli bo'ladi. Har turli obyektiv ta'sirlarga nisbatan talaba ma'lum bir subyektiv munosabatda bo'ladi.

Oliy o'quv yurtida amalga oshiriladigan ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida yoshlarning ruhiyatiga, ularning ongiga ta'sir etiladi. Bu umuminsoniy va milliy axloqning prinsiplari va pedagogik odob qoidalarini har bir bo'lajak mutaxassis ongiga yetkazish, singdirish demakdir.

Bo'lajak har bir mutaxassisning axloqiy jihatdan shakllanishi undagi ruhiy sifatlarni, qarashlar, ideallar, intilish, fikr-mulohaza, hissiyot va e'tiqodlarni kamol toptirish, o'stirishni taqozo qiladi. Talabaning boshqa kishilarga, o'qishga va ijtimoiy foydali mehnatga subyektiv munosabati ko'p jihatdan, mehnatni va turmush tarzini qanday uyushtirishga bog'liqdir.

8. Talaba yoshlarning subyektiv munosabatlari ularning atrofdagi kishilar, muhit bilan aloqasi natijasida hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan bu munosabatlar yoshlar axloqining o'sishi, xulqining shakllanishida real omil bo'lib qoladi. Shaxsiy munosabatlar hamma vaqt individual xususiyatga egadir. Shaxsiy munosabatlar bo'lmasa, kishida ma'naviy-axloqiy o'sish ham bo'lmaydi. Axloqiy kamolot, rivojlanish uchun, albatta, boshqa kishilar bilan muloqotda bo'lish lozim. Chunki har qanday ruhiy sifat obyektiv borliqning in'ikosi bo'lish bilan birga, kishining tevarak-atrofidagi muhit bilan ham faol munosabatda bo'lishining mahsuli, odamlar orttirgan tajribani egallab olishning natijasi hamdir. Demak, talabalarni aktiv faoliyatga jalb etish, ularni tevarak-atrofdagi muhitni, ijtimoiy hayotni o'zgartirish sohasidagi ishlarga faol

qatnashtirishning ahamiyati juda katta.

9. Yigit va qizlarning axloqiy rivojlanish jarayoni murakkab va xilma-xil bo'lishidan tashqari, ziddiyatli hamdir. Bo'lajak mutaxassisning axloqiy rivojlanishi bilan tevarak-atrofdagi muhit o'rtasida, shuningdek, uning o'z ruhiy holatida ro'y beradigan qarama-qarshiliklarsiz sodir bo'lmaydi.

Psixolog olimlar bu qarama-qarshiliklarni tahlil qilib, ularni uch guruhga bo'ladi.

Birinchi, turli tashqi omillar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar. Bunga keng ijtimoiy muhit bilan mikro muhit o'rtasidagi, shuningdek, oliy o'quv yurti bilan oila, korxonalar va boshqa jamoalar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar kiradi.

Ikkinchi, tashqi omillar bilan ichki omillar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar. Bunda kishiga qo'yiladigan talablar bilan uning shaxsiy imkoniyatlari, talabning bajarishga qurbi yetishi yoki yetmasligi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar; yangi talablar bilan kishidagi mavjud qarashlar, e'tiqod va xulqiy odatlar o'rtasidagi, shuningdek, tashqi talablar bilan shaxsning o'z-o'ziga bo'lgan talabchanligi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar kiradi.

Uchinchi, turli ichki omillar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar. Bunga ong va hissiyot o'rtasidagi; kishining o'z ijtimoiy shaxsiy qimmatini anglash bilan ijtimoiy va shaxsiy manfaatlari o'rtasidagi; talablar darajasi bilan kishidagi qobiliyat va imkoniyatlar o'rtasidagi; yaxlit hislar, ong elementlari bilan avvaldan qaror topgan xulqiy odatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar kiradi. Shunday ekan, tevarak-atrofdagi muhitning talabiga ta'siri uning faoliyati va xulqiga bo'lgan talablarga hamma vaqt ham mos kelavermaydi. Ichki va tashqi ziddiyatlar kishining faoliyati natijasida, jamoada boshqalar bilan munosabatda bo'lishi natijasida bartaraf etiladi. Tajriba va kuzatishlar ko'rsatib turibdiki, oliy o'quv yurtlarining ko'pgina professor-o'qituvchilari tarbiyaviy ishda talabalarning shaxsiga xos ana shu xususiyatlarni yetarli darajada e'tiborga olmaydilar. Bu ziddiyatlarning obyektiv sabablari va namoyon bo'lish

sharoitlarini yaxshi bilmaslik bo'lajak mutaxassislarni ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirish jarayonini ancha murakkablashtiradi, ayrim talabalar ongida va xulqida mavjud bo'lgan salbiy ma'naviy-axloqiy sifatlarni bartaraf etishga to'sqinlik qiladi.

II. Tarbiyaning vositalari, tarkibiy qismlari

1. Ta'lim ma'naviy-axloqiy tarbiyaning muhim vositasi bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi. Talabalarni ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirishning muhim shartlaridan biri ularni ijtimoiy-gumanitar, psixologik-pedagogik va maxsus fanlarga doir bilimlar bilan chuqur hamda mustahkam qurollantirishdan iborat. Nazariy va professional bilimlarni egallash yoshlarda axloqiy fazilatlarining o'sishiga ta'sir etadi.

Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, shuningdek, auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladigan xilma-xil ishlarda, ijtimoiy faoliyatda, mafkuraviy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Kattalarning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish bu sohada juda muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarning ongida kasb odobining qaror topishi talabalarning pedagogik muhit bilan, maktab va tarbiya muassasalari bilan aloqasining mustahkamligi hamda ta'sirchanligiga, shuningdek, asab sistemasining xususiyatlariga, hayotiy tajriba va maktab ta'limi natijasida hosil bo'lgan individual xususiyatlarga ham bog'liq.

2. Talabalarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifalari faqat professor-o'qituvchilarning ta'lim berishiga, tushuntirishigagina bog'liq bo'lmay, balki oliy o'quv yurtida yoshlarning amaliy faoliyatini uyushtirish va yo'naltirish ham katta ahamiyatga ega. Talabaning turmushi va faoliyatini uyushtirish birinchi navbatda dekanlar, kafedra mudirlari, professor-o'qituvchilar va jamoat tashkilotlari rahbarlarining bilim va mahoratlariga, shuningdek, talabalarda mavjud bo'lgan qobiliyat va intilishlarni hisobga olish, xulq motivlarini kerakli tomonga yo'naltirish, ulardagi kasbiy va aqliy qiziqishlarni e'tiborga olishga ham bog'liq.

Oliy o'quv yurtlarida ba'zan quyidagi holatni uchratish mumkin: rektorat, dekanat, kafedralar, jamoat tashkilotlari tarbiyaviy tadbirlarni juda ko'p rejalashtiradilar va o'tkazadilar ham, lekin talabalarning ma'naviy-axloqiy saviyasi ana shu tarbiyaviy tadbirlarga muvofiq ravishda rivojlanmaydi. Odatda, bunday holatlar tarbiyaviy tadbirni uyushtiruvchilar masalaning bir tomoni, ya'ni tarbiyaviy ta'sir o'tkazuvchi faktorlardan faqat bittasi bilan ish ko'radilar. Yoshlarga axloqiy ta'sir o'tkazuvchi boshqa omillar e'tibordan chetda qoladi. Bunday tarbiya talabalarning ko'p qirrali hayotini o'z ichiga qamrab olmaydi, u real turmushdan, talabaga ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan boshqa obyektiv omillardan ajralib qolgan bo'ladi.

3. Talabalarga singdiriladigan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning samaradorligi tarbiyaning mazmuniga, maqsadi bilan vositalariga, ularning bir-biriga mos kelishi, uyg'unligiga, tarbiyaviy ta'sirlarning izchilligiga, talabalarga qo'yiladigan talablar tizimining aniqligi, so'z bilan ishning bir xil bo'lishiga bog'liq. Xullas, bo'lajak mutaxassisning ma'naviy-axloqiy sifatlari o'quv yurtida amalga oshiriladigan ta'lim vositasida, shuningdek, talabalarning butun hayoti va faoliyati davomida tarbiyalanadi va amaliy pedagogik faoliyatda butun umr takomillasha boradi.

4. Axloqiy tarbiya tadqiqotchilari ta'kidlab o'tganlaridek, ma'naviyat nimaligini, odob-axloq qoidalarini bilib olish kishi xulqini o'z-o'zidan tartibga solavermaydi. Buning uchun axloqiy xatti-harakatlarning zarur ekanligini anglab olish, axloqiy bilim, axloqiy hislar, odatlar va irodani ma'lum darajada rivojlantirish talab etiladi. Ma'naviyatga doir bilimlar kishining qat'iy e'tiqodiga aylangan taqdirdagina uning xulqini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi.

Talabalar ma'naviy - axloqiy bilimlarni ta'lim jarayonida, shuningdek, auditoriyadan tashqarida bajarilayotgan ishlar jarayonida egallab oladilar. Tajriba o'tkazish maqsadida biz Qarshi davlat universitetining pedagogika va psixologiya, o'zbek tili va adabiyoti fakultetlarida guruhlar tanladik va kuzatish olib bordik. Ta'lim-tarbiya ishlarining batafsil

rejasini tuzib chiqdik. Bunda talabalarga umuminsoniy axloq va pedagogik odobga doir bilimlar berish nazarda tutildi. Shu guruhlarda dars olib boradigan professor-o'qituvchilar bilan ham suhbatlashdik. Ularning diqqatini ijtimoiy-gumanitar, ruhiy-pedagogik va maxsus fanlardan dars o'tish jarayonida mavzuning mazmuni bilan bog'liq ravishda ma'naviyatga, axloqqa doir tushunchalarning mazmunini ochish zarurligiga qaratdik. Shu guruhlarning talabalari bilan o'tkaziladigan auditoriyadan tashqari ishlar (kitobxonlar konferensiyasi, dam olish kechalari, munozara, suhbat va boshqalar) ko'proq ma'naviyat, odob, mavzulariga bag'ishlandi. O'qituvchi odobining normalarini va qoidalarini ular ongiga singdirish birinchi galdagi vazifa bo'lib qoldi. Talabalarning axloqqa, o'qituvchi odobiga doir bilim va ko'nikmalarni egallash ishi yuqori kurslarga o'tgan sayin chuqurlashtirib boriladi.

5. Pedagogik axloqning tushunchalari, qoida va talablarini bilib olish ma'naviy-axloqiy tarbiyaning zarur qismi hisoblanadi, lekin bu hali yoshlarda o'qituvchi odobi, kasb-axloqi shakllandi degan gap emas, albatta. O'qituvchi odobi qoidalarini talabalarga o'rgatish lozim. Faqat o'rgatish emas, shu bilan birga bu qoidalarga amal qilish ham bo'lajak mutaxassislarning e'tiqodiga aylanishi kerak. Buning uchun umuminsoniy va milliy axloq, pedagogik odobga doir o'zlashtirilgan bilimlarni talabalarning shaxsiy va ijtimoiy tajribasida sinab ko'rib mustahkamlash maqsadga muvofiq. Axloqiy e'tiqodlar bilimlar majmuidan tashkil topgan bo'lib, ijtimoiy tajribani o'rganish jarayonida hosil bo'ladi. Lekin u bilimlarning oddiy yig'indisidagina iborat emas. Axloqiy e'tiqod bu, axloq prinsiplari to'g'risida umumlashtirilgan tushunchalar, jamiyat a'zolarining axloqiy munosabatlariga ma'lum bir nuqtai nazardan qarashdan iborat bo'lib, ular umuminsoniy ideallar va milliy ma'naviyat asosida hosil bo'ladi va kishining xulqini, odatini, uning tashqi dunyoga, odamlarga, mehnatga munosabatini yo'naltiradi, oldindan belgilaydi. E'tiqodlar qat'iy iroda va odatlarini shakllantirishga yordam beradi. Ular tashqaridan qaraganda, albatta, zaruriyatga o'xshab tuyulmaydi, lekin zaruriyat bilan teng

kuchga ega. E'tiqodi yo'q kishilar hafsalasiz, irodasiz, biror ishni ko'r-ko'rona bajaradigan, ijtimoiy hayotda ham, shuningdek, shaxsiy munosabatlarda ham ishonchsiz bo'ladilar.

Axloqiy prinsiplarni yoshlar o'z tajribasida sinab ko'rib, haqqoniyligiga ishonch hosil qilgandagina ular shaxsiy e'tiqodga aylanadi. Umuminsoniy axloq prinsiplari to'g'ri-sidagi bilim bilan axloqiy e'tiqodlar o'rtasidagi farq shundan iboratki, bilim kishida mavjud bo'lishi, lekin ishlatilmay qolaverishi mumkin, e'tiqod esa kishining xatti-harakatlariga ta'sir etadi. Demak, kishi axloq prinsiplarini bilib olgan va tajribada boshdan kechirgandagina ular e'tiqodga aylanadi.

E'tiqodni inson tafakkuridan ajratish mumkin emas, fikrlash bo'lmasa, e'tiqod ham bo'lmaydi. Tafakkur e'tiqodni shakllantirishda bevosita ishtirok etadi. Axloqiy e'tiqodlar o'zaro chambarchas bog'langan ikki narsa: borliqni anglash va his etishning birlashuvi natijasida hosil bo'ladi. Shuning uchun ham e'tiqod inson xarakterining xususiyati sifatida bilim va hislarning ajralmas birligidan iborat.

6. Hislar inson hayotida, uning xulqida muhim ahamiyatga ega. Insonni faoliyatga undaydigan narsalarning barchasi uning ongi orqali o'tadi: tashqi olamning kishiga ta'siri uning ongida hislar, fikrlar, niyatlar, iroda belgilari shaklida aks etadi. Insonda hissiyot bo'lmasa, haqiqatni izlash ham bo'lmaydi. Bo'lajak mutaxassisda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish jarayoni **axloqiy his-tuyg'ularni** tarbiyalashni ham o'z ichiga oladi. Jamiyatda mavjud bo'lgan axloq prinsiplarini bajarish yoki ularni buzish munosabati bilan kishida vujudga keladigan kechinmalar axloqiy his-tuyg'ular deyiladi. Vatanga muhabbat hissi baynalmilalchilik, insonparvarlik, burch, mas'uliyat, g'ururlanish, qadr-qimmat, vijdon hissi kabilar shular jumlasidandir.

Ruhshunoslarning tadqiqotlari inson hayotida hissiyotning ahamiyati katta ekanligidan dalolat beradi. Lekin tez o'tib ketadigan kuchsiz hissiyotlarga qaraganda kishining maqsadi, intilishlari bilan, uning e'tiqodlari, ideallari, orzu-

umidlari bilan bog'liq kuchli hissiyotlar hayotda juda muhim ahamiyatga ega.

7. Yuksak his-tuyg'ular yuksak onglilik asosida vujudga keladi. O'z navbâtida, hissiyot onga nisbatan passiv rol o'ynamaydi, balki uni kuchaytiradi, chunki hissiyot kishining amaliy harakatida, namoyon bo'ladi. Axloq normalari talabalar xulqining asosiga aylanishi uchun ularni bilib olishning o'zigina yetarli emas, balki ular talabalarning his-tuyg'usiga ta'sir etishi kerak. Axloqiy qarashlar, ya'ni yigit va qizlardagi xulq normalariga doir tasavvurlar va tushunchalar yoshlarning xulqida, xatti-harakatlarida namoyon bo'lishi uchun his-tuyg'uga aylanishi lozim.

8. Ong va hissiyot talabalarning xulqida bir xil rol o'ynamaydi. Ular yigit va qizlarning yoshi va umumiy rivojlanish darajasiga ham bog'liq bo'ladi. Ong hissiyotdan ustun turadi va uni boshqarib boradi. Onglilik talabalarda umuminsoniy va milliy axloqqa zid keladigan salbiy hislarni yo'qotishga va axloqiy talablarga mos keladigan his-tuyg'ularni o'stirishga yordam beradi. Bunga shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni anglash va tushunish, axloq prinsiplari hamda pedagogik-kasbiy odob normalari talaba yoshlarning chuqur e'tiqodiga aylanishi natijasida erishiladi.

Bo'lajak mutaxassislarda ma'naviy-axloqiy hislarni o'stirish turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Jumladan, talabalarga berilayotgan bilimlar ularda emotsionallikni, ta'sirchanlikni vujudga keltirishi va yuksak axloqiy hislarni faollashtirishi, o'stirishi lozim. Buning uchun esa talabalarga berilayotgan bilimlar ta'sirchan, obrazli, emotsional bo'lishi, yetarli faktlar va misollar bilan asoslanishi lozim. Axloqiy hislarni tarbiyalashda kishilari-mizning mehnatda ko'rsatayotgan jasorati va qahramonlik namunalari hikoya qiluvchi kitoblardan, O'zbekiston fani va madaniyati yutuqlarini namoyish etuvchi ma'lumotlardan o'rinli foydalanish katta ahamiyatga ega. Shuningdek, Respublika va viloyatning iqtisodiy yuksalishiga doir faktlar, Qarshi cho'lidagi yerlarni o'zlashtirish va sug'orish, gaz va neft sanoati hamda xalq ta'limi va sog'liqni saqlash

sohasidagi qo'lg'a kiritilayotgan yutuqlar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ta'lim-tarbiya jarayonida jasorat sodir bo'lgan sharoitni talabalar ko'z o'ngida gavdalandirish, e'tiqodning mohiyatini ochib berish yoshlarda yuksak hissiyotni vujudga keltiradi.

Axloqiy hislarning o'sishiga talabalarning professor-o'qituvchilar va boshqa xodimlar jamoasi bilan o'zaro munosabatlari, maktabda pedagogik, ishlab chiqarish amaliyotlarida o'qituvchilar, xodimlar bilan munosabati katta ta'sir o'tkazadi. Talabalarga bo'lgan ishonch, hurmat va adolatli munosabat yuksak ijobiy hislarni vujudga keltiradi. Bu esa o'zlaridagi kuch va qobiliyatdan to'la foydalanib o'qishga, mehnatda duch keladigan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi.

9. Insondagi mavjud ehtiyojlar orasida aqliy va ma'naviy-axloqiy ehtiyojlar alohida o'rin tutadi. Kishining axloqiy ehtiyojlari shaxsning axloqiy yo'nalishini, uning mazmunini belgilaydi. Talabaning shaxsini tushunish uchun uning axloqiy ehtiyojlarini sinchiklab o'rganish lozim. Axloqiy ehtiyojlar ma'naviy-axloqiy yo'nalishdagi istak va intilishlardir. Ular kishining e'tiqodida, ishonchida gavdalanadi, qiziqishi va ideallarida namoyon bo'ladi. Kishidagi ehtiyojlarning undagi e'tiqodni shakllantirishga ta'siri shaxsiy manfaatlarining jamiyat talablariga mos kelish darajasiga bog'liq. Agar kishi jamiyatning talablarini tushunib olsa va bu talablar shaxsning ehtiyojlari bilan qo'shilib ketsa, ular kishi xulqining stimuliga aylanadi.

Talabalarda mavjud bo'lgan axloqiy ehtiyojlar ularning yoshligidan boshlab olgan ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq. Oliy o'quv yurtida ta'lim olish va professional faoliyatga tayyorlanish jarayonida axloqiy ehtiyojlar tobora takomillasha boradi. Ta'lim jarayonida talabalar axloqiy bilimlarni egallash bilan birga olijanob, ibratli ishlarni qilishga intiladigan bo'lib yetishadilar. Talabalarga ta'lim berish, ularning turmushi va faoliyatini uyushtirish natijasida kishilarga yaxshilik qilish istagi va ehtiyoji sekin-asta odatga aylana boradi, bu odat bo'lajak mutaxassislarining bolalarga va boshqa kishilarga munosabatini belgilaydi.

10. Xulqiy odat – bu, biror ishni o‘z-o‘zidan bajarishga moyillik va intilishdan, kishi ongida qaror topgan xulq ko‘rinishidan iborat. Yaxshi odat axloqiy boylikdir, bu boylik muttasil ortib, ko‘payib boradi va kishi umr bo‘yi undan foydalanadi. Inson xulqidagi mavjud odatning roliga baho berganda shuni unutmaslik kerakki, odat kishi vujudining, tanasining tashqi ta‘sirga javobi sifatida vujudga keladi va ong ta‘sirida xulqni yo‘naltiradi.

11. **Odatlar** anglab, tushunib olingan harakatlarni, qiliqlarni ko‘p martalab takrorlash natijasida hosil bo‘ladi. Axloqiy odatlarni shakllantirish uchun talabalarga zarur va foydali harakatlarni, ishlarni bajartirish lozim. Yaxshi odatlar talabalar xulqiga ijobiy ta‘sir etadi va biror ishni, xatti-harakatni bajarishni yengillashtiradi. Shuning uchun ham talabalarda ijobiy odatlarni shakllantirish ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Ma‘lum e‘tiqodlar ta‘sirida hosil bo‘lgan odatlar yoshlarning kundalik xulqida xatti-harakatlarida mustahkamlanib borishi kerak. Odatlar bo‘lajak mutaxassislar ongida, xulqida axloq normalarini mustahkamlaydi. Ijobiy odatlarning hosil bo‘lishi yoshlarda ma‘naviy kamolotning yuksak bosqichi hisoblanadi. Odat ham e‘tiqod singari har bir talabaning individual xususiyati hisoblanadi. Odatni o‘stirishda tevarak-atrofdagi muhitning, shuningdek, talabaning ruhiy dunyosini e‘tiborga olish zarur. Turmush tarzini, har bir talabaning faoliyati va ruhiy olamini e‘tiborga olmasdan turib, uni axloqiy jihatdan tarbiyalab bo‘lmaydi. Tarbiya jarayonida har bir talabaga nisbatan individual munosabatda bo‘lish talab etiladi.

12. Insonning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun **iroda** zarur. Iroda bo‘lmasa, kishi hayotida, amaliy pedagogik faoliyatda uchragan qiyinchiliklarni ham yenga olmaydi, ko‘zlagan maqsadga ham erisha olmaydi. Iroda mehnat qilish uchun ham, ijtimoiy-gumanitar, ixtisoslik va professional - pedagogik bilimlarni egallash uchun ham, yoshlar xulqini tartibga solish uchun ham zarur. Irodasi bo‘sh kishi hayotda, faoliyatda aktivlik va qat‘iyat ko‘rsata olmaydi.

Irodaviy sifatlar kishida mavjud bo'lgan axloqiy fazilatlarni o'stirish va mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. Kishining irodasi kuchli bo'lmasa, unda mavjud bo'lgan boshqa sifatlar so'nib, yo'qolib ketishi ham mumkin. Shuning uchun ham oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya jarayonida talaba yoshlarda maqsadga intiluvchanlik, intizomlilik, jasurlik, botirlik, chidamlilik, o'zini tuta bilish kabi axloqiy-irodaviy sifatlarni o'stirish juda muhimdir. Bo'lajak mutaxassislarda boshqalarga yaxshilik qilish, sezgirlik, odamgarchilik, oddiylik va kamtarlik, xushmuomalalik olijanoblik, haqqoniylik, vijdonlilik, poklik kabi sifatlarni shakllantirish ma'naviy-axloqiy tarbiyada katta rol o'ynaydi.

Kuchli irodani tarbiyalash uchun talabalar oldiga aniq maqsadlar qo'yish va shu maqsadga erishish yo'lida uchraydigan to'siqlar va qiyinchiliklarni yengishga ishonch vujudga kelishi lozim. Talabaning oldida turgan maqsad qanchalik aniq bo'lsa va bu maqsadni amalga oshirish uchun u qanchalik qat'iy intilsa, ana shu jarayonda yoshlarning irodasi shunchalik chiniqadi.

13. Talabalarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, ayniqsa, uning xulqida, xatti-harakatlarida ko'rinadi. Kishining xulqi shaxsning xatti-harakatlaridan iborat bo'lib, u avvalo tevarakatrofdagi muhit bilan, odamlar bilan o'zaro munosabatda namoyon bo'ladi.

Inson xulqida uning butun shaxsiy sifatlari, xarakteri va temperamentning xususiyatlari, uning ehtiyojlari, qarashlari ifodalanadi. Emotsiya va his-tuyg'ular kishi xulqini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Kishida mavjud bo'lgan asab xususiyati ham uning xulqi va faoliyatiga ta'sir o'tkazadi. Umuman olganda, kishi xulqini ijtimoiy turmush sharoitlari, ijtimoiy munosabatlar belgilaydi.

Har bir kishi tashqi muhitning ta'siriga turlicha javob qaytaradi. Shuning uchun ham inson o'ziga xos individual shaklda namoyon bo'ladi. Ba'zan kishining xulqi ma'lum turmush tarzi va tarbiya natijasida shakllangan odat

xarakteriga ham ega bo'ladi. Masalan, qo'pollik va dag'al muomala hamma vaqt ham kishining boshqalarni mensimasligidan dalolat beravermaydi. Xuddi shuningdek, xushmuomalalik har doim kishining yaxshilik qilmoqchi va yaxshi niyatli ekanligini ko'rsatavermaydi. Shuning uchun ham jamiyatga, boshqalarga haqiqiy munosabatdan kelib chiqadigan xulq shakllarinigina shaxsni xarakterlovchi xususiyat deb hisoblash lozim.


14. Talabalarda mavjud bo'lgan xulq ko'rinishlari ularning ijtimoiy turmushi va tarbiyasi jarayonida hosil bo'ladi. Kishi o'z xulqida, faoliyatida, odatda, ma'lum qoidalarga rioya qiladi, axloq prinsiplariga asoslanadi. Axloqiy xatti-harakat — jamiyatda kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi axloqiy qoidalar va prinsiplar bilan belgilanadigan xulqdir. Kishida axloqiy ong, tushunchalar va axloqiy hislarning shakllanishi inson xulqini tarbiyalashning muhim shartidir.

Axloqiy ong va axloqiy tushunchalarning shakllanishi xulqni tarbiyalashga yordam beradi. Shu bilan birga axloqiy xatti-harakatlar axloqiy tushunchalarni bilib olishgagina bog'liq deb tushunmaslik lozim. Shubhasiz, axloqqa doir bilimlar va tushunchalar talabalarda axloqiy ongning o'sishida muhim rol o'ynaydi. Lekin u o'z-o'zidan yoshlarni xush axloq qilib qo'ya qolmaydi. Tajribadan shu narsa ma'lumki, ayrim talabalar axloq normalarini yaxshi bila turib, ba'zan amalda uni buzadilar, xulq qoidaloriga rioya qilmaydilar. Bilim bilan xulq o'rtasidagi bunday uzilishning sababi avvalo yigit va qizlarda qat'iy axloqiy odatlar shakllanmaganidadir. Ta'lim-tarbiya jarayonida shunga erishish zarurki, talabalar ma'lum axloqiy normalarni, qoidalarni ongli ravishda bajarsinlar, bu normalarga amal qilish talaba uchun odatga, hayotiy ehtiyojga aylansin. E'tiqod va bilim kishining qalbidan chuqur joy olgan

taqdirdagina, uning his-tuyg'ulari va irodasi bilan birlashib ketgan taqdirdagina, hatto kishi u haqida o'ylamagan vaqtda ham uning qalbida mavjud bo'lgan taqdirdagina uni haqiqiy e'tiqod deb hisoblash mumkin bo'ladi. Bunday bilim, albatta, kishi harakatlarida namoyon bo'ladi va kishi qanoat hosil qilmaguncha unga tinchlik bermaydi. Demak, talabalar bilan axloqqa doir o'tkaziladigan suhbatlar, shuningdek, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda nima qilish kerakligini tushuntiribgina qolmasdan, yaxshi axloqiy xatti-harakatlarni, odatlarni maxsus ravishda mashq qildirib borish ham zarur.

Axloqiy xatti-harakatlar, ya'ni xulq ichki mazmun va tashqi shaklga ega. Xulqning mazmuni ma'naviy-axloqiy ongda ifodalanadi, uning shakllari esa odobda, xulq madaniyatida namoyon bo'ladi. Xulq o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan va bir-birini taqozo qiladigan xatti-harakatlardan iborat. Kishi bu xatti-harakatlarni bajargach, ularning ahamiyatini tushunib oladi.

Talabalarining xatti-harakatlari hamma vaqt ham ulardagi e'tiqodlarga mos kelavermaydi. Ayrim talabalar umuman tartib-intizomga amal qildilar, ba'zi hollarda axloq qoidalarini buzadilar. Ba'zan yomon xatti-harakatlarga yo'l qo'yadigan talabalar ham xulq qoidalarini yaxshi biladilar, ba'zan buning aksicha ham bo'ladi, ya'ni ayrim talabalar kasb odobi, pedagogik odob normalarini bilmasalar ham o'zlarini odobli tutadilar. O'zining xatti-harakatlarini, xulqini unuminsoniy va milliy axloq talablariga va pedagogik odob qoidalariga bo'ysundira bilgan talabalarnigina axloqiy jihatdan tarbiyalangan deb hisoblash lozim. Bo'lajak mutaxassisning xulqiy qiyofasi uning axloq talablariga mos keladigan butun faoliyatini ifodalaydi.



13-rasm. Talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash.

15. Ayrim talabalarda mavjud bo'lgan fikrlar, qarashlar xulq normalariga to'g'ri kelmaydi. Umuminsoniy va milliy axloq qoidalaridan xabardor bo'lgan ayrim yigit va qizlarning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan bu holni qanday izohlash mumkin?

Bu masalani aniqlash uchun biz axloqiy bilimlari bilan xulqi bir-biriga to'g'ri kelmasligi ma'lum bo'lgan talabalardan bir nechtasini tanlab oldik. O'tkazilgan tajriba, kuzatish, suhbat natijalarini tahlil qilish quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi.

a). Bilimlar bilan xatti-harakatlar o'rtasidagi uzilishning asosiy sabablaridan biri yigit va qizlar o'zlarida mavjud

bo'lgan qarashlar va odatlarni axloqiy e'tiqodga aylantira olmaganliklarida ekan. Axloq qoidalari va kasbiy pedagogik odob normalarini bilish, uni yozib yoki gapirib berishning o'zi kamlik qiladi. Bu qoida va talablar talabalarning qat'iy e'tiqodiga aylanmasa va ularga amal qilish hayotiy ehtiyoj bo'lib qolmasa, so'z bilan ish o'rtasida uzilish bo'lishi uchun imkoniyat saqlanaveradi.

b). Bunday talabalarda odatda ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash, mas'uliyat kabi axloqiy his-tuyg'ular kam rivojlangan va ularning xarakterida odam yoqtirmaslik, o'jarlik kabi salbiy xislatlar bo'lar ekan.

d). Ayrim talabalar jamoada noto'g'ri axloqiy nuqtai nazarda bo'ladilar, ba'zan o'rtoqlari bilan janjallashadilar, boshqalardan ajralib yashashga intiladilar. Ayrim talabalarda ba'zi oilalarning salbiy ta'siri saqlanib qolgan bo'ladi yoki bunday ta'sir davom etayotgan bo'lishi ham mumkin. Bunday talabalar ba'zan nopok do'stlar, yomon ulfatlar davrasiga tushib qoladi va ularning salbiy ta'siriga beriladi.

Kuzatishlar va pedagogik faktlarni tahlil qilish natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, ayrim yigit va qizlarning xatti-harakatlariga yuqoridagi sabablardan bir nechtasi ta'sir o'tkazadi. Odatda, ulardan bittasi hukmron, asosiy bo'ladi. Bo'lajak mutaxassislar bilan olib borilgan ta'lim-tarbiyaviy, individual ishlar jarayonida bu sabablarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish juda muhimdir.

Xullas, ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoni axloqiy motivlar, axloqiy faoliyat, axloqiy tushunchalar, bilimlar, his-tuyg'ular, odat, shuningdek, axloqiy ehtiyoj, g'oyaviy e'tiqod, iroda va qiziqishlarni o'z ichiga oladi. Yigit va qizlarda ana shu sifatarning barchasi mujassamlashgandagina so'z bilan ish o'rtasidagi, bilimlar bilan xatti-harakatlar o'rtasidagi farqni, uzilishni bartaraf etish mumkin.

III. Axloq-odobli bo'lish hayotiy zarurat

1. Pedagogika fanida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni o'rganilgan, axloq-odobli bo'lishning ko'plab usullari ishlab chiqilgan. Axloqiy tarbiya jarayonini milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar bilan

boyitishdek muhim vazifa ham amalga oshirilmoqda, ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida nasihat qilish, namuna ko'rsatish, jazolash, rag'batlantirish kabi usullar qo'llaniladi. Bular yuksak axloqiylikning tashqi jihatlarini tarbiyalashda yaxshi natija beradi, ammo kishidan nafaqat tashqi axloqiylik, balki yuksak onglik, ma'naviy - ruhiy e'tiqodli bo'lish ham talab etiladi. Tarbiya jarayonida o'rgatish, uqtirish, odatlantirish usullaridan keng foydalaniladi, ular yordamida axloqiy malaka, ko'nikmalar hosil qilinadi, ammo bu ko'nikma va malakalar axloqiy e'tiqod darajasiga ko'tarilishi uchun ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini inson ruhiyatiga doir **biologik ilmiy bilimlar** bilan boyitish zarur.

Ma'lumki hozirgi kunda biologiya, bioenergetika, biofizika, tibbiyot fanlari jadal rivojlanib, inson organizmining yaxlitligi va tashqi olam bilan o'zaro chambarchas bog'liqligini o'rganmoqda. Natijada salomatlik psixologiyasi, salomatlik pedagogikasi kabi integratsiyalashgan fan tarmoqlari vujudga kelmoqda. Talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ana shu fanlar erishgan kashfiyotlardan foydalanish lozim. Chunki yuksak axloqiylik nafaqat ijtimoiy talab, balki biologik ilmiy asosga ega bo'lgan **hayotiy zarurat ekanligi** ko'pincha e'tibordan chetda qolmoqda.

2. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunini boyitish maqsadida biologiya, bioenergetika, biofizika kabi fanlarning ruhiyatga oid bilimlarni o'rganish kerak. Ular aynan yuksak axloqiylikning biologik ilmiy asoslarini tushunishga yordam beradi. Bu bilimlar axloq-odobli bo'lishning inson hayotidagi o'rnini anglashga, ezgu fikrlar va ijobiy axloqiy his-tuyg'ularning inson sog'ligiga ta'sirini tushunishga imkon yaratadi. Yuksak axloqiylikning biologik, bioenergetik jihatlarini ochib berish, uning inson salomatligiga, yoshlar taqdiriga ta'sirini anglash talabalarda shaxsiy qiziqish uyg'otadi. Bu ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini to'laqonli bo'lishiga xizmat qiladi, chunki o'zida nafaqat ijtimoiy talab, balki shaxsiy qiziqish, ehtiyojlarni ham mujassamlashtirgan bilimlarga mukammal va katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

3. Bioenergetika masalasi 1966-yili Italiyaning Polinyano shahrida bo'lib o'tgan ilmiy-amaliy simpoziyumdagi kun tartibiga qo'yildi. Tirik organizmlarning quvvat bilan ta'minlanishini o'rganuvchi fan bioenergetika deb ataldi. Tirik organizmlarning bioenergetik xususiyatlari V.P.Skulachev (Рассказы о биоэнергетике. М. 1985), V.Yu. Tatur (Тайны нового мышления. М.1990); P.P.Garyayev (Волновой геном. М. 1994); A.V.Mologin (Генетические структуры как источник и приёмник голографической информации. М.1993.); V.P.Kaznacheev (Феномен человека: космические и земные истоки. Новосибирск, 1991) kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosida tahlil etildi. Jonli va jonsiz obyektlar maydonlarini biolokatsiya operatorlarining tekshirishlari, aylanma tarozilar bilan olib borilgan tajribalar, qattiq jismlar atrofini mikrokvantli tuzilishini fotografiya usuli bilan tekshirish, elektromagnit fantomni qayd etish va tekshirish kabi tajribalar natijasida **jonli va jonsiz obyektlar atrofida alohida fizik maydonlar mavjudligi** aniqlandi. Aksion konsepsiyasi ham to'la tasdiqlandi.

Ilmiy tadqiqotlarda hujayraning axborot gologrammasi, ya'ni bioenergetik maydonning to'liqlari, tirik hujayralarning masofali to'liqlik axborot almashinuvi, ekzogen va endogen bioto'liqlarning boshqaruvchilik xususiyatlari, bioto'liqlar orqali sodir bo'luvchi ekzogen va endogen axborot almashinuvi, bioenergetik maydon xususiyatlari o'rganildi.

M.K.Hoshimovaning tadqiqotlari axloqiy tarbiyaning biologik asoslarini aniqlashga bag'ishlashgan¹, unda bioenergetik maydon o'zida tashqi olam va organizmning ichki muhitidagi, inson ruhiyatidagi barcha axborotlarni mujassamlashtirgani ta'kidlanadi. Demak, nafaqat tashqi muhitning ifloslanishi, balki ichki muhitning — inson ruhiyatining, ruhiy uyg'unlikning buzilishi ham bioenergetik maydonda o'z aksini topadi.

¹ Hoshimova M.K. Axloqiy tarbiyaning biologik asoslari. T.: «O'qituvchi», 2004, 108-bet.

4. Bioenergetik maydon aksion tuzilmalar orqali atrof-olamdagi boshqa energetik maydonlar bilan o'zaro ta'sirlanadi. Bioenergetik maydon inson organizimi singari ochiq tizim bo'lib, barcha jonli va jonsiz obyektlarning maydonlari bilan axborot almashish xususiyatiga ega. Bu insondan atrof-olamga, tabiatga, odamlarga, hayotiy jarayonlarga va o'z shaxsiga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishni talab etadi. Chunki ijobiy axloqiy munosabat bioenergetik maydonda me'yoriy quvvat almashinuvini ta'minlaydi. Axloqiy munosabatlarning buzilishi esa bioenergetik maydonda quvvat almashinuvi buzilishiga va turli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

5. Bioenergetik maydon inson ruhiyatini o'zida aks ettiradi, ruhiyatning o'zgarishi bioenergetik maydonda turli o'zgarishlarni vujudga keltiradi. Bioenergetik maydonni mustahkamlash, quvvatga to'ldirish uchun inson o'z ichki ruhiy olamida uyg'unlikni o'rnatishi lozim. Buning uchun ezgu niyatli, axloq-odobli, yaxshi fikrli bo'lish va ijobiy his-tuyg'ularni rivojlantirish, yuksak axloqiylikka, barkamollikka intilish talab etiladi. Demak, bioenergetik maydonning o'zi ham insonning ongli faoliyatiga bog'liq. Bioenergetik maydon bilan inson tafakkuri o'rtasida, insonning fikrlash va his qilish qobiliyati bilan bioenergetik maydon o'rtasida mustahkam bog'liqlik mavjud. Inson o'z fikrlarini maqsadli yo'naltirish orqali, o'z kayfiyatini boshqarish orqali bioenergetik maydonning barqarorligiga, unda quvvatning to'planishiga yoki aksincha, tarqalib ketishiga ta'sir ko'rsatadi. Inson ezgu fikrlash, ezgu his-tuyg'ular orqali, muntazam ravishda rivojlanishga intilish orqali o'z bioenergetik maydonining quvvatini 50 barobar oshirishi mumkinligi aniqlangan. Buni texnika fanlari doktori G.Sergeyev ixtiro etgan bioplazmograf orqali o'tkazgan tajribalarida tasdiqladi.

6. 1992-yil AQSHda insonning kvant maydonini suratga olish uchun maxsus uskuna— «Aura-kamera-3000» yaratildi, uning yordamida olingan suratlar bioenergetik maydonni chuqurroq o'rganishga yordam berdi. Insonning bioenergetik

maydoni radiusining uzunligi, ya'ni bioenergetik maydonining qalinligi uning sog'lik darajasini belgilovchi ko'rsatkichlardan biri ekanligi ma'lum bo'ldi.

Rossiyada bioenergetik maydonni qalinligi haqida R.V.Martinov tadqiqot o'tkazgan, u salomatlik fizikasi haqidagi fanni targ'ib qiluvchi asarlarning muallifidir. Uning ta'kidlashicha 25sm va undan kichik radiusli biomaydonga ega odamlar bemorlardir. Ular qattiq kasallikka uchragan, yotish rejimidagi odamlar. Sog' odamning bioenergetik maydonining radiusi 40–60 sm ga teng bo'ladi.

Insonning bioenergetik maydoni uning tanasidan chiqayotgan energiyadan tashkil topadi. Bu energiya murakkab va turli zarrachalarga boy. Bioenergetik maydon insonning jismoniy, hissiy va ma'naviy holatini o'zida aks ettiradi. Bioenergetik maydonning rangi, chastotasi va qalinligi insonning salomatligi haqidagi ma'lumotlarni aks etdiradi. Shu sababli **bioenergetik maydon insonning ko'zgusi deb ataladi. Unda muvaffaqiyat, mag'lubiyat, muhabbat va adovat, sog'lik hamda kasallikni ko'rish mumkin.**

7. Inson bioenergetikasining tuzilishi va faoliyati yuksak axloqiylik qoidalariga amal qilishni talab etadi. Masalan, kishi yolg'on so'zlayotganida yoki ikkiyuzlamachilik qilayotganida, o'z ongini ana shu fikrlarga ishontira olgan taqdirda ham, ong ostida real voqiylik aks etadi. Natijada ong osti va ong orasida nomutanosiblik vujudga keladi. Bu esa bioenergetik maydon bilan organizm o'rtasidagi muvozanat buzilishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, yolg'on, gapirayotgan kishining miyasi kamida ikki baravar zo'riqib ishlaydi. Chunki bu holat miyaning bir qancha markazlarini bir vaqtning o'zida qarama-qarshi ish bajarishini talab etadi. Demak, **yuksak axloqiylik qoidalariga amal qilish nafaqat ijtimoiy talab, shu bilan birga biologik zaruriyat ham bo'lib, odob-axloqli, ijobiy his-tuyg'uli, to'g'ri so'z bo'lishni bizdan o'z tanamiz, vujudimiz talab etadi.**

Sog'lom turmush tarzi nafaqat badantarbiya bilan shug'ullanish, zararli odatlarga berilmaslik, to'g'ri ovqatlanish kabilarni, shu bilan birga ruhiy-ma'naviy uyg'unlikka

erishishni ham talab etadi, chunki ruhiy uyg'unlik — salomatlik garovidir.

8. Agar inson axloqiy me'yorlarga amal qilmasa, vijdon va fikr pokligiga, ezgu fikr, ijobiy his-tuyg'ularga ega bo'lmasa, hayotga va o'ziga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lmasa, ruhiy nosozlik kelib chiqadi hamda bioenergetik maydonning quvvati susayadi. Bunday odamning hayotiy quvvati kamaya boradi. Bioenergetik maydondagi salbiy ko'rsatmalarning ko'payib ketishi esa uning turli xil surunkali kasalliklarga uchrashiga sabab bo'ladi. Chunki salbiy ko'rsatmalar mutlaqo boshqa vazifani bajaradi, ya'ni bioenergetik maydon va ma'lum a'zo orasida quvvat almashinuvini buzadi. Salbiy ko'rsatmalar ezgu fikrlarga amal qilmaslik natijasida vujudga keladi. Insonning fikrlari noosferada yig'iladi va ifloslangan noosfera o'z navbatida biosferaga ta'sir o'tkazadi. Biosferada bu to'lqinlar kataklizmalarni vujudga keltiradi. Hozir yer yuzida yiliga kataklizmalarning soni 7 foizga oshib bormoqda.

9. So'z — fikrning shaklidir, shuning uchun ham u bioenergetik quvvatni o'zida mujassamlantiradi. Demak, so'zlar ham fikr singari ma'lum quvvatni saqlovchi manba hisoblanadi. Kvant genetikasi institutida olib borilgan tadqiqotlar tirik organizmlarning hujayralari inson nutqidan qanchalik ta'sirlanishini ko'rsatadi (to'rt daqiqa davom etgan qarg'ish — qirq rentgen nurlanish ta'siriga uchrash bilan barobar ekan).

Ezgu fikr ma'naviy va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o'z o'rniga ega. Ezgu fikrlash odatini tarbiyalash masalasi axloqiy ongni shakllantirish masalasi bilan chambarchas bog'liq. Axloqiy onglikning asosini ezgu fikrlar tashkil etadi, fikrlash jarayoniga ongli yondashishgina yuksak axloqiylikni tarbiyalashga imkon beradi.

10. Inson o'z fikrlarini boshqarishga, farqlashga o'rganishi va o'z fikrlarini maqsadga muvofiq yo'naltira olishi tarbiyaviy ishlarda yangi imkoniyatlar ochadi. Pedagogik ta'lim jarayonida bioenergetikaning inson ruhiyatiga oid bilimlarini o'rganish, ular asosida ezgu fikrlash odatini

shakllantirish maqsadga muvofiq. Buning uchun talabalarni fikr quvvati va turli fikrlarning bioenergetik ta'siri haqidagi bilimlar bilan qurollantirish kerak. Olimlar fikrni bioenergetik quvvatiga ko'ra: birlashtiruvchi, ajratuvchi, konstruktiv, destruktiv fikrlarga ajratadilar.

Tadqiqotchi M.K.Hoshimova o'z ilmiy tajribalarida fikrlarning inson organizmiga va ruhiyatiga turlicha ta'sir etishini tahlil qiladi. Talabalarni Pol Berg, Edvard de Bono, M.Mendeleyevich, D.Berns, V.I.Borotkin kabi olimlarning fikr yuritish va fikrlarni boshqarish haqidagi qarashlari bilan tanishtiradi. Bu bilimlar asosida talabalarda ezgu fikrlash odatini tarbiyalashga, yuksak axloqiy me'yorlar asosida fikr yuritish malakasini hosil qilishga erishadi. Ezgu fikrni rivojlantirish uchun salbiy fikrlarni bartaraf etish va ijobiyilarini o'stirish kerak. Bunday natijaga erishish uchun talabalarga fikr haqidagi yangi ilmiy ma'lumotlar taqdim etiladi va nima uchun ezgu fikr yuritish odatiga amal qilish lozim, degan savol atroflicha muhokama etiladi.

11. Axloqiy qadriyatlar axloqiy hissiyotlar asosida idrok etilgandagina axloqiy ongillikka erishish mumkin. Chunki aynan his-tuyg'ular bilimni chuqur egallashga, anglashga yordam beradi. Axloqiy his-tuyg'ular ijobiy va salbiy hislardan iborat. Salbiy hissiyotlarni ijobiy his-tuyg'ular orqali neytrallashtirish mumkin. Ijobiy axloqiy his-tuyg'ular: mehr-muhabbat, vijdon, faxr, samimiyat, shukronalik, minnatdorlik, vafodorlik, mas'uliyat, qadrlash, hurmat qilish kabilar bioenergetik jihatdan ijobiy omillar bo'lib, ularni o'stirish tarbiyaning muhim vazifasidir. Ijobiy hissiyot talabaning ruhiy uyg'unlikka erishishiga ko'maklashadi, salbiy hissiyotlarni neytrallashtiradi, bioenergetik maydonni ijobiy quvvat bilan boyitadi. Bu jismoniy va ma'naviy salomatlikning asosidir:

12. Tarbiya jarayonida biologik, ruhiy-bioenergetik bilimlardan foydalanishda an'anaviy tarbiya metodlari bilan bir qatorda ilmiy tahlil usulini qo'llash ham maqsadga muvofiq. Bu talabalarda axloqiylikka nisbatan yangicha munosabat uyg'otadi, hissiyotlarini boshqarish usullari bilan tanishtiradi,

talabalar mustaqil va ongli ravishda o'zlarining keyingi rivojini boshqarishlariga; o'zlarida ijobiy his-tuyg'ularni o'stirish, salbiylarini bartaraf etish zarurligini anglab olishlariga yordam beradi.

13. Talabaning o'z shaxsi va hayotga munosabati masalasiga e'tibor berish lozim, chunki talabaning hayotga, o'z shaxsiga bo'lgan munosabati uning ma'naviy-axloqiy shakllanishiga bevosita ta'sir etadi. Talabada hayotga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalash maqsadida evalutsion rivojlanishning yaxlitlik qonuni, sabab-oqibat qonuni, doimiy rivojlanish qonunlaridan foydalanish lozim. Bu qonuniyatlarni o'rganish va tahlil etish jarayonida talabada hayotiy vaziyatlarni to'g'ri baholash, o'z turmush tarzini aniq tashkil etish, xatti-harakatlari uchun javobgarlik kabi xislatlar rivojlanadi.

14. O'z-o'zini tarbiyalashda bioenergetik qonuniyatlarga asoslangan holda talabada o'z shaxsiga nisbatan mehr-muhabbat hissini uyg'otish, o'z shaxsini yaxlit borliqning bir qismi sifatida qabul qilish, o'z shaxsiga rivojlanuvchi tizim sifatida qarashga erishish maqsadga muvofiq. O'z shaxsini hurmat qilish, yaxshi munosabatda bo'lish butun borliqqa ham shunday munosabatda bo'lishga zamin yaratadi. O'zini yaxlit borliqning bir qismi sifatida qabul qilish atrof-muhit bilan quvvat almashinivuni yaxshilaydi. O'z shaxsiga rivojlanuvchi tizim sifatida qarash esa talabani har doim yuksallikka intilishini, o'z-o'zini tarbiyalashini ta'minlaydi.

15. Insonning ichki kechinmalari, axloqiylik darajasi uning hayot yo'lida qanday aks etishini sabab-oqibat va o'zaro bog'liqlik qonunlari asosida tahlil etish lozim. Bu, talabada mas'uliyat va javobgarlik hissini o'stirishga yordam beradi, vaholangki, ko'plab talabalar axloqiy onglilikning asl mohiyatini hayotiy qonuniyatlardan, evalutsion qonuniyatlardan, biologik va bioenergetik qonuniyatlardan bilan bog'lay olmaydilar. Buning natijasida axloqiy onglilikni tor ma'noda tushunadilar.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning biologik jihatlarini ruhiy-bioenergetik bilimlar asosida o'rganish va tahlil etish quyidagi

amaliy natijalarga erishishga yordam beradi: talabning ma'naviyat, axloq haqidagi bilim va tasavvurlari kengayadi; ma'naviy-axloqiy tarbiya nafaqat ijtimoiy talab, balki birinchi navbatda biologik hayotiy ehtiyoj ekanini tushunib oladi, talabning axloqiylikka munosabati tubdan o'zgaradi; talaba ezgu fikrlash odati zarurligini anglaydi va o'z fikrlarini boshqarish yo'llarini bilib oladi; ijobiy his-tuyg'ularni rivojlantirish, boshqarish zarurligiga ishonch hosil qiladi.

Demak, talabalarda yuksak axloqiylikni tarbiyalashda fanlar integratsiyasidan, xususan insonni o'rganuvchi biologiya, bioenergetika fanlarining tarbiya bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy kashfiyotlaridan foydalanish, axloqiylikning biologik jihatlarini o'rganish tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish borasida yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Inson haqidagi biologik bilimlar pedagogik jarayonni boshqarishga, pedagogik vaziyatlarni chuqurroq tahlil etishga va to'g'ri yechimlarni topishga yordam beradi.

16. Tarbiyaning asosiy vazifasi ijtimoiy axloq qoidalari va me'yorlarini har bir shaxsning e'tiqodiga aylantirishdir. Jamiyat tomonidan qabul qilingan umumiy axloqiy qoida va me'yorlar kishiga aniq vaziyatda qanday harakat qilish yo'lini ko'rsatib bera olmaydi. Chunki ular yuqori tamoyil sifatida mavjud. Har bir shaxs ularga suyangan holda o'zi uchun eng to'g'ri yo'lni topa bilishi kerak. Yuksak axloqiylikning biologik jihatlarini bilish va anglash talabalarga ana shunday muammoli vaziyatlarda yaqindan yordam beradi.

Axloqiylikning biologik jihatlarini ruhiy bioenergetik bilimlar asosida o'rganish tarbiya jarayoniga yangicha yondashish imkoniyatini yaratadi. Bu tarbiya jarayoni samaradorligini oshiradi. Fikrlash madaniyatini tarbiyalash jarayonida talabalar bioenergetik bilimlar bilan qurollantiriladi, amaliy xatti-harakatlarni bajarish usullari bilan tanishadilar. Talabalar o'zlarida mavjud bo'lgan salbiy fikrlarni neytrallashga o'rganadilar.

17. Axloqiy his-tuyg'ular juda nozik va sirli bo'lib, uni o'stirish talabdan faollikni talab etadi. Kuzatishlar

talabalarda axloqiy his-tuyg'ular ko'pincha stixiyali ravishda rivojlanishini ko'rsatadi. Bu yoshlarda minnatdorlik hissini, insonni qadrlash hissini, hamdardlik, ezgu niyatga intilish kabilarning sust rivojlanishiga olib keladi. Ijobiy his-tuyg'ularning susayishi va egoistik kayfiyatning rivojlanishi bioenergetik va ruhiy jihatdan organizmga salbiy ta'sir o'tkazadi. Ijobiy hissiyotlar inson hayotida qanday ahamiyatga ega ekanini tahlil etish orqali talabada ijobiy motivlar hosil bo'ladi.

Yuksak axloqiylikning, his-tuyg'ularning inson bioenergetik maydoniga, ruhiyatiga ta'siri haqida, axloqiylikning biologik asoslari haqida bilimga ega bo'lgach, talabalar ruhiy uyg'unlik, bioenergetik maydon va axloqiylik o'rtasida bog'lanishlar mavjudligini; axloq-odobli bo'lish har bir kishi uchun biologik hayotiy zarurat ekanligini anglab oladilar.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Talabalar tarbiyasining prinsiplari, vazifalarini ayting.
2. O'zbekiston davlatining me'yoriy hujjatlarida milliy - madaniy, umuminsoniy qadriyatlarga munosabat qanday ifodalangan?
3. O'zbekiston fuqarosining ma'naviy-axloqiy sifatlarini ayting.
4. Ustoz-murabbiylarning ma'naviy-axloqiy sifatlariga nimalar kiradi?
5. Bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy-axloqiy fazilat-lari nima va u qanday shakllanadi?
6. Talabalarning ma'naviy-axloqiy shakllanish jarayoni qanday omillar ta'sirida amalga oshiriladi?
7. Axloqiy rivojlanish jarayonining ziddiyatlari, qarama-qarshiliklari nimalardan iborat?
8. Tarbiya vositalariga nimalar kiradi?
9. Tarbiyaning samaradorligi nimalarga bog'liq?
10. Axloqiy bilim, xatti-harakatlar, his-tuyg'ular, odatlar va irodaning barkamol shaxsni shakllantirishda o'rni nimalarda namoyon bo'ladi?

11. Talabalar tarbiyasida g'oyaviy e'tiqodning roli qanday?

12. Axloqiy his-tuyg'ularning ahamiyati nimada?

13. Ehtiyojlar (motivlar)ning tarbiyadagi rolini izohlang.

14. Xulqiy odat nima? Uning ahamiyatini ayting.

15. Iroda nima? Uning tarbiyaviy ahamiyati qanday?

16. Xulq nimalarda namoyon bo'ladi?

17. Ayrim talabalar xulqidagi salbiy holatlarning sabablarini izohlang.

18. Axloqiy tarbiyaning biologik asoslari haqida nimalarni bilasiz?

19. «Bioenergetika», «Bioenergetik maydon» tushunchalari nimalarni anglatadi?

20. Bioenergetik maydon bilan yuksak axloqiylik o'rtasida qanday bog'liqlik bor?

21. Bioenergetik maydon bilan inson organizmi o'rtasida muvozanatning buzilishi nimalarga sabab bo'ladi?

4

13-bob. OLIY TA'LIM MUASSASASIDA TARBIYAVIY ISHLARGA YAXLIT, TIZIMLI, TEXNOLOGIK YONDASHUV

I. Asosiy tushunchalar: tarbiyaviy ish, tarbiyaviy tizim, tizimli yondashuv, tarbiyaviy vazifa, tarbiya texnologiyasi, tarbiya omillari, tarbiyaviy faoliyat.

II. Mavzuning muhim masalalari:

1. Tarbiyaviy ishlarga yaxlit, tizimli yondashuv.

2. Tarbiyaga texnologik yondashuv.

III. Manbalar, adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod—O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1997.

2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T.: 1997.

3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: 2001.

4. Ochilov M. Oliy maktabda axloqiy tarbiya tizimi. «Muallim—qalb me'mori», T.: 2001, 127—43- betlar.

IV. Mustaqil o'qish uchun topshiriq

1. Yuqorida ko'rsatilgan adabiyotlarni o'qib matnlashtiring.

I. Tarbiyaviy ishlarga yaxlit, tizimli yondashuv.

1. Bo'lajak mutaxassislarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish ko'p qirrali va murakkab jarayondir. Talabalarning ma'naviy-axloqiy shakllanishi bir-biri bilan uzviy bog'liq va biri ikkinchisini taqozo qiladigan yaxlit ta'lim-tarbiya ishlarini muntazam va izchil ravishda bajarishni talab etadi. Tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning aniq va mukammal **tizimigina**, yaxlit tizimli yondashuvigina tarbiyaning samaradorligini ta'minlaydi. Tarbiyaviy ishda mukammal tizimning mavjudligi bir xil ishni ortiqcha takrorlayvermaslikka, talabaga nisbatan biri ikkinchisiga to'g'ri kelmaydigan qarama-qarshi ta'sirlarning oldini olishga,

bo'lajak mutaxassislarga bir xil talablar qo'yish va yakdillik bilan ta'sir o'tkazishga imkon beradi.

2. Oliy o'quv yurtlarida ma'naviy-tarbiyaviy ishlar, tadbirlar ko'plab o'tkaziladi. Shunga qaramay talabalar orasida axloq-odobga to'g'ri kelmaydigan xatti-harakatlar uchrab turadi, ya'ni oliy o'quv yurtlarida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlar hamma joyda ham kutilganidek natija beryapti deb bo'lmaydi.

Ayrim oliy o'quv yurtlarida tarbiyaviy ishlar universitet, institut miqyosida, shuningdek, fakultet va guruhlarda biri ikkinchisi bilan bog'lanmagan har turli tadbirlarni amalga oshirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Odatda, bunday tarbiyaviy tadbirlarda ko'pincha faolroq talabalar qatnashadilar. Tarbiyaga muhtoj va tarbiyalash zarur bo'lgan ayrim talabalar esa bu ishdan chetda qolaveradi.

Tarbiyaviy ishning ba'zan kam samara berayotganligining sabablaridan yana biri, yoshlarga axloqiy ta'sir o'tkazish usullarining bir tomonlamaligidadir. Oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya ishida so'nggi yillargacha og'zaki bayon qilish usuli ko'proq qo'llanib kelindi, talabalarni amaliy faoliyatga jalb etish usullariga esa juda kam e'tibor beriladi. Shuningdek, axloq-odobga doir suhbatlar, ma'naviyatga doir mavzularda ma'ruza, doklad va munozaralar o'tkazish usuliga ham yetarli darajada e'tibor berilmas edi. Ayrim metodlarga yopishib olish va boshqalarga e'tibor bermaslik oliy o'quv yurtlarida bo'lajak mutaxassislarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish ishiga salbiy ta'sir etadi.

Oliy o'quv yurtlarining ko'pchiligida hanuzgacha kasb odobi masalalari talabalarga deyarli o'rgatilmaydi. Hatto, bitiruvchi kurs talabalarining ko'pchiligi kasb odobi, o'qituvchi odobining normalari va talablariga doir savollarga durustroq javob bera olmaydilar. Bularning barchasi tarbiyaviy ishlarining samarasi va ta'sirchanligini susaytiradi. Natijada oliy o'quv yurtining professor-o'qituvchilari, jamoat tashkilotlari sarflayotgan kuch va g'ayrat yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi sohasida kutilgan natijalarni bermaydi.

3. **Pedagogik** matbuotda tarbiya tizimi haqidagi masalaga borgan sari ko'proq e'tibor berilmoqda. Pedagog olimlarning asarlarida bayon etilgan nazariy qoidalar talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimini ishlab chiqishga imkon beradi. Oliy maktabda bo'lajak mutaxassislarni tarbiyalash tizimini yaratish oliy o'quv yurtida amalga oshirilayotgan barcha tarbiyaviy ishlarning maqsadi, mazmuni, tarbiyaviy jarayon, tarbiyachi va texnik vositalar, tarbiyaning shakl-usullarini belgilashga yordam beradi. Tarbiyaviy ishlar tizimi turli kurslarning talabalari bilan o'tkaziladigan tadbirlarda izchillik va ketma-ketlikni saqlashga yordam beradi. Yoshlarga yagona pedagogik talablar qo'yish, yigit-qizlarning individual xususiyatlarini va axloqiy kamolot darajasini e'tiborga olishni yengillashtiradi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimi nima? Tizim – qismlardan tuzilgan bir butun, ya'ni ma'lum tartibda joylashtirilgan bir-biri bilan bog'liq qismlardan tuzilgan yaxlit bir narsa yoki hodisa degan ma'noni anglatadi.

Oliy maktab talabalarida axloqiy sifatlar qandaydir biror universal shakl, vosita yoki usul yordamida emas, balki aniq maqsad, xilma-xil **shakllar, vositalar va metodlar, har xil faoliyat turlari ta'sirida, ya'ni tarbiya tizimi natijasida shakllanadi.**

4. Tarbiyaviy ishlar tizimi ma'lum vazifani bajaradigan, tuzilish jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan ko'plab qismlarni o'z ichiga oladi. Tarbiyaviy tizim barkamol avlodni, yuksak axloqiy fazilatli mutaxassislarni shakllantirish maqsadiga bo'ysundirilgan, o'zaro bir-biriga bog'liq va mos keladigan shakl, usul va vositalarning yaxlit birligidan iborat. Tizim tarbiya jarayonini boshqarish imkoniyatini ham o'z ichiga oladi. Tizimning qismlari o'zaro bir-biriga ma'lum darajada bog'liq bo'ladi. Bu qismlar biri ikkinchisidan ajralgan holda emas, balki ma'lum bir aloqada mavjud bo'ladi. Masalan, yaxlit pedagogik jarayonda faqat ma'naviy-axloqiy tarbiyagina emas, balki aqliy, huquqiy, iqtisodiy, ekologik, estetik va mehnat tarbiyasi ham amalga oshiriladi. San'at asarlaridan talabalarga axloqiy tarbiya berish maqsadida foydalanish,

yoshlarga estetik jihatdan ta'sir o'tkazish, ularning aqlini o'stirish, mehnatga o'rgatish uchun ham imkoniyatlar yaratadi.

5. Aloqadorlik (bog'lanishlar) — tarbiyaviy maqsad, mazmun, shakllar, vositalar, usullarning o'zaro bir-biriga to'g'ridan iborat bo'lib, buning natijasida tizim hosil bo'ladi. Aloqalar to'ppa-to'g'ri yoki bevosita bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimining qismlari ham o'zaro bir-biri bilan ana shunday aloqada bo'ladi. Masalan, mehnatni biz aqliy tarbiya tizimining tarkibiy qismi deb hisoblaymiz. Mehnat faoliyati jarayonida yoshlar axloqiy jihatdan ham kamol topadi. Axloqiy kamolat o'z navbatida kishining mehnat faoliyatiga ta'sir etadi. Oliy o'quv yurtida ta'lim jarayonida talabalarda axloqiy sifatlari shakllanadi, shuningdek, axloqiy kamolot o'z navbatida ilmiy va professional pedagogik bilimlarni chuqurroq egallashga yordam beradi.

6. Oliy maktabda amalga oshiriladigan ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimining xarakterli xususiyati shundan iboratki, bu yerda axloqiy tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalarini belgilashda va uni tashkil etishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlaridan, umuminsoniy va milliy axloq talablaridan kelib chiqadigan kasb odobi normalariga asoslaniladi.

Ma'naviy - axloqiy tarbiyaning maqsadi, mazmuni unga mos keladigan shakllarda namoyon bo'ladi. Tarbiya tizimi mazmundorlik bilan birga unga mos keladigan tashkiliy shakllarning xilma-xil, estetik ta'sirli, ixcham bo'lishini taqozo qiladi. Ma'lumki, pedagogik faoliyat hamma vaqt bir qolipda ish tutishni yoqtirmaydi. Tarbiyaviy ishning xilma-xil shakllariga yetarli darajada e'tibor bermaslik, bir xil tadbirni hadeb takrorlayverish tarbiyaviy ishning samarasini kamaytiradi, bunday hollarda, hatto tadbirning mazmuni mafkuraviy va ilmiy jihatdan juda qimmatli bo'lsa ham, u talabalarining ongiga, his-tuyg'ulariga juda oz ta'sir etadi. Shuni nazarda tutish lozimki, tarbiyaviy ishning shakllaridan birortasi ham universal bo'lishi, ya'ni hamma holatlar va har qanday sharoitda qo'llanaverishi mumkin emas.

7. Talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning shakllari, usullari uning mazmuni bilan o'zaro ta'sirda bo'lib, kasbiy pedagogik faoliyatning maqsadi va qonuniyatlarini aks ettiradi va oliy o'quv yurtida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaning metodlari va vositalari bilan chambarchas bog'liqdir. Tarbiyaning mazmuni faqat uning shakli tufayligina emas, balki metodlar orqali ham amalga oshiriladi. «Shakl» va «metod» tushunchalari bir xil ma'noni anglatadi deb bo'lmaydi, shuningdek, ularning birini ikkinchisiga qarama-qarshi qo'yish, ular o'rtasidagi birlikni rad etish ham mumkin emas. Tarbiyaning tashkiliy shakllari metodlar va usullar orqali amalga oshiriladi. Tarbiyaning shakl va usullari bevosita o'zaro bir-biriga o'tib turadi, ular ko'pincha, vazifasiga qarab o'zgarib turadi va ularning biri ikkinchisidan, ma'lum darajada, shartli ravishda ajratiladi. Shuning uchun ham ayrim o'quv qo'llanmalarida konferensiya, ekskursiya, amaliy ishlar, ma'ruza, munozara, suhbat kabi tushunchalar ba'zan ish shakli deyilsa, ba'zan metod deb talqin qilinadi.

8. Pedagogik adabiyotlarda tarbiyaning shakl va metodlarini tasnif qilishga mualliflar turlicha yondashdilar. Tarbiyaviy ishlar odatda, tarbiyaning maqsadi va vazifalariga, uning xarakteri va davom etish vaqtiga qarab guruhlariga ajratiladi. Masalan, ommaviy ishlar, to'garak ishlari, individual ishlar. Shuningdek, tarbiyaviy ishlarning barcha shakllarini quyidagi uch guruhga birlashtirish ham mumkin: 1) og'zaki bayon etish shakllari: ma'ruzalar, dokladlar, munozaralar, ma'naviyat soatlari, konferensiyalar, uchra-shuvlar va hokazo; 2) amaliy ishlar: laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, ijtimoiy foydali ishlar, ishlab chiqarish, pedagogik amaliyot, badiiy havaskorlik va ilmiy to'garaklar, sport seksiyalari, ekskursiya kabilar; 3) ko'rsatmali ishlar: muzeylar, ma'naviyat xonalari, ko'rgazma va stentlar, shon-shuhrat xonalari va boshqalar. Tarbiyaviy ishning bu shakllari o'zaro bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi.

9. Tarbiya tizimi tarbiyaviy ishlarning barcha turlarini yuqori darajada samarador bo'lishini talab etadi. Buning

uchun esa quyidagi pedagogik talablarga amal qilish lozim: tarbiyaviy ishning shakli tarbiyaning maqsadi va mazmuniga mos kelishi lozim. Shaklning tarbiyaviy kuchi uning chuqur mazmundorligidadir, lekin mazmun o'ziga mos keladigan yorqin shaklga ega bo'lmasa, u talabalarga kuchli ta'sir o'tkaza olmaydi, tarbiyaviy ishning shakli yoshlarda ilmiy dunyoqarash, axloqiy e'tiqod, fuqarolik burchi va mutaxassislikka xos yuksak professional-axloqiy sifatlarni shakllantirishga maksimal darajada yordam berishi zarur, u yoki bu tarbiyaviy ishning qimmati yoshlarni aktiv faoliyatga ko'proq jalb etib shu tariqa boshqalar bilan aloqa, muomala qilishga qanchalik keng yo'l va imkoniyatlar ochib berishiga ham bog'liq.

Tarbiya metodlari tarbiyachining qo'lida o'ziga xos qurol bo'lib xizmat qiladi. Ular yordamida talabalar ongiga ta'sir etiladi, bo'lajak mutaxassislarning hayot faoliyati yo'naltiriladi va uyushtiriladi.

Pedagogik adabiyotlarda tarbiya metodlari quyidagicha tasnif qilinadi: ishontirish metodi; aqliy xatti-harakatlarni mashq qilish metodi; namuna, ibrat ko'rsatish metodi; rag'batlantirish va jazolash metodlari.

Oliy o'quv yurtlarida tarbiya metodlarini qo'llashning samaradorligi quyidagi pedagogik talablarga rioya qilishga bog'liq: tarbiyaning metodlari shu paytda, shu kursda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak; tarbiya metodlari talabalarning yosh va individual xususiyatlariga, shuningdek, ularning hayotiy tajribasiga mos bo'lishi lozim; tarbiyaviy ish jarayonida tarbiya metodlarini birini ikkinchisidan ajratgan holda emas, balki o'zaro bog'liq holda qo'llash zarur.

10. Har qanday tarbiya tizimining asosiy belgilaridan biri izchillik, ketma-ketlikdir. Oliy maktabda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar tizimi ham ana shu qonuniyatga bo'ysunadi. Bu talab tarbiyaviy ishning mazmunidan kelib chiqadi va tarbiyaga doir ishlarni tartibli, rejali uyushtirishni taqozo qiladi.

Oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladigan barcha tarbiyaviy ishlarni ma'lum bir dasturga binoan amalga oshirish, talabalarning o'quv yurtida ta'lim olish davriga mo'ljallangan tarbiyaviy ishlarning istiqbolli rejasini tuzish zarurligini hayotning o'zi taqozo qilmoqda. Oliy o'quv yurtlarida tarbiya jarayonini yaxshilash uchun har bir talaba, ya'ni bo'lajak mutaxassis egallab olishi zarur bo'lgan kasbiy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashning ilmiy jihatdan asoslangan, puxta o'ylab tuzilgan dasturi kerak.

11. Tarbiya tizimi bir necha tizimchalardan tuziladi. Umumiy tizimning har bir qismi o'zining ichki tizimiga ham ega bo'ladi. Masalan, oliy maktabda talabalarga berilayotgan professional ta'lim ma'lum bir tizim bo'lib, u yoshlarga ijtimoiy-gumanitar, psixologo-pedagogik, ixtisosiy bilimlar va ma'naviy-axloqiy tarbiya berishga xizmat qiladi. Shu bilan birga oliy maktabda o'qitiladigan har bir predmet tuzilishi jihatidan o'zining ichki tizimiga ham ega.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya guruh murabbiylari, jamoat tashkilotlari, talabalar va professor-o'qituvchilar jamoasi ishida ham tizim bo'lishi talab etiladi. Tizim ayrim tarbiyaviy tadbirlar bilan guruh, kurs, fakultet talabalarining faoliyat turlari o'rtasida bog'lanishlar bo'lishini, shuningdek, talabalarga jamoaviy ta'sir o'tkazish bilan individual ishlar o'rtasida ham bog'lanishlar bo'lishini taqozo etadi.

Tizim tushunchasiga barcha tarbiyaviy ishlarni aniq uyushtirish ham kiradi. Tarbiyaviy ishlar tizimi oliy o'quv yurtining butun jamoasi, kasaba uyushmasi, jamg'armalar, kamolot yoshlar tashkilotlarining birgalikdagi kuch-g'ayrat sarflashi natijasida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bu tashkilotlar aniq, yaxshi ishlashi, talabalarga bir xil ta'sir o'tkazishlari zarur.

Shunday qilib, tarbiya tizimi quyidagilarni taqozo qiladi: oliy maktabda ma'naviy-axloqiy tarbiya vazifalarini izchil va muntazam ravishda amalga oshirish; tarbiyaviy ishlarning mazmunini har bir kurs talabalarining kuchiga mos qilib belgilash; tarbiyaviy ishning xilma-xil shakllari, vositalari va usullarini birgalikda, bir-biri bilan bog'liq ravishda qo'llash;

tarbiyaviy ishlarda uzviylik, izchillik va ketma-ketlikka amal qilish; tarbiyaviy ishlarning natijalarini muntazam ravishda hisobga olib, tahlil qilib, baholab borish.

12. Tarbiya tizimi talabani oliy maktabda ta'lim olish yillari davomida deyarli o'zgarmaydi. Faqat uning mazmunigina yangilana boradi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari hamda bu vazifalarni hal etishga yordam beradigan faoliyat turlari, tarbiyaning shakllari, metodlari, turli ichki va tashqi ta'sirlar natijasida shaxsning kamolotga erishish etaplari, darajalari tarbiya tizimining asosiy qismlari hisoblanadi.

Talaba egallab olishi zarur bo'lgan kasbiy, ma'naviy-axloqiy fazilatlar tarbiyaning aniq vazifalari sifatida kun tartibiga qo'yiladi. Tarbiya tizimida ular o'zaro bog'liq bo'lib, yaxlit holda shakllana boradi. Tarbiyachi biror fazilatni o'stirishga asosiy diqqatni qaratgan paytda tarbiyaning maqsadi, vazifasini ham aniqroq qilib belgilaydi, lekin, odatda, pedagogning «biror fazilatni shakllantirish» sohasida amalga oshirgan ishlari shaxsning butun ma'naviy qiyofasini o'zgartirishga xizmat qiladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya sohasida belgilangan vazifalar butun pedagogik jarayonni jonlantiradi, uning ta'sirchanligi va samaradorligini oshiradi.

13. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ma'naviy-axloqiy tarbiya, avvalo, fan asoslarini egallash jarayonida amalga oshiriladi. U yoshlarda kasbiy, axloqiy tasavvurlar, tushunchalar, odatlar, mehnat malakalari va xulqni shakllantirishni, shuningdek, kishining tashqi olamga, jamiyatga, jamoaga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini nazarda tutadi. Tarbiya tizimi talabalarga axloq-odobga doir muntazam, izchil bilimlar berishni talab etadi.

O'quv predmetlarining tarbiyaviy imkoniyatlari ularning mazmunida obyektiv ravishda mavjud. Lekin bu imkoniyatlarni yuzaga chiqarish masalasi pedagogning mahoratiga bog'liq. Oliy o'quv yurtlarining mavjud o'quv dasturlari tarbiyaviy g'oyalarga va uni amalga oshirish uchun aniq materiallarga boydir. Ijtimoiy-gumanitar, ixtisoslik va psixologo-pedagogik fanlarning o'quv dasturlari, o'quv

qo'llanmalari va darsliklarida bo'lajak mutaxassislarni ma'naviy-axloqiy jihatdan o'stirishga yordam beradigan fakt va misollar yetarlicha berilgan. Ularda, ayniqsa, vatanparvarlik va insonparvarlik, mas'uliyat, axloqiy-irodaviy, professional va boshqa sifatlarni o'stirish uchun asos bo'ladigan materiallar mavjud.

Ijtimoiy-gumanitar, pedagogik va ixtisoslik fanlarini o'rganish jarayonida talabalarda ilmiy dunyoqarash shakllanadi. Chuqur insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan ilmiy dunyoqarash bo'lajak mutaxassislarda axloqiy ongini, axloqiy sifatlarni shakllantirish uchun zamin yaratadi. Ilmiy bilimlar g'oyaviy e'tiqodlarning asosidir.

14. Birinchi kurs talabalari ilg'or ideallar, umuminsoniy va milliy axloq to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston tarixi kursini o'rganish jarayonida bilib oladilar. Professor-o'qituvchilar dastur materiallarining mazmuni va shaxsiy ibrat ko'rsatish yo'li bilan yoshlarga mustaqil O'zbekiston davlatiga sadoqat, ijtimoiy burchni anglash, o'z xatti-harakatlari va ishi uchun mas'uliyatni sezish, o'zining va boshqalarning xatti-harakatlarini baholash kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarining shakllanishiga ta'sir o'tkazadilar.

Axloqshunoslik fanini o'rganish talabalarga burch, sharaf, vijdon, baxt singari axloqiy tushunchalarni oydinlashtirish va o'stirishga yordam beradi. Ularning amaliy faoliyatida bu tushunchalar turmushga tatbiq etiladi.

O'quv mashg'ulotlari jarayonida va auditoriyadan tashqari ishlar paytida talabalar guruh, kurs va fakultet jamoasida mavjud bo'lgan munosabatlarning mohiyatini va boshqalarga nisbatan o'zining mas'uliyatini anglaydi. Har bir talabadan jamoat topshiriqlarini bajarish, turar joylarda joriy etilgan ichki tartib-qoidalariga rioya qilish talab etiladi. Jamoada ishlay olish malakasi, o'rtoqlik va do'stlik, boshqalarga yordam berish va o'zaro hamkorlik malakalari hosil bo'ladi. Yoshlarda vatanparvarlik, insonparvarlik, yigitlik g'ururi, qizlik sha'ni, xushmuomalalik va o'zaro hurmat kabi his-tuyg'ular tarbiyalanadi.

15. Ikkinchi va uchinchi kurs talabalarida ta'lim jarayonida umuminsoniy va milliy axloqqa doir bilimlar va birinchi kursda hosil qilingan malakalar takomillashadi. Falsafa, pedagogika nazariyasi va tarixini o'rganish jarayonida talabalar axloqning ilmiy asoslari va normalari haqidagi bilimlarni egallaydilar, maktab o'quvchilariga beriladigan axloqiy tarbiyaning mazmuni va metodlarini bilib oladilar. Ularda o'z-o'zini baholay olish malakasi, o'z-o'zini tarbiyalashga intilish xislati shakllanadi.

Talabalar ayni shaxs va jamoa manfaatlariga zarar yetkazuvchilarga murosasiz bo'lishlari, axloqqa to'g'ri kelmaydigan va jamoaga qarshi xatti-harakatlarni keltirib chiqaradigan sabablarni bilib olishlari va ularning oldini olish uchun kurashishlari kerak. Hosil bo'lgan axloqiy ko'nikma va malakalarni talabalar ishlab chiqarish va pedagogik amaliyot davrida qo'llaydilar.

Tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivojlanishining obyektiv qonunlarini chuqur o'rganish asosida yuqori kurs talabalarida ijtimoiy hodisalarni va o'z xatti-harakatlarini baholay olish malakasi hosil bo'ladi. Psixologiya fanini o'rganish natijasida iroda, xarakter, chidamlilik, botirlik va qahramonlik, qiyinchiliklarni yenga olish kabi ruhiy xislatlarning ilmiy asoslarini tushunib oladilar. Ularda O'zbekiston vatanidan faxrlanish hissi, xalqimiz oldidagi yuksak burchni anglash, o'zining shaxsiy manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg'unlashtira olish malakasi, zarur bo'lganda jasorat ko'rsatishga tayyor turish hissi takomillashadi. Yoshlarda muhabbat tuyg'usi asosida quriladigan oila, oilaviy hayot haqida tasavvurlar hosil bo'ladi, ular bola tarbiyasida ota-onaning burchi va mas'uliyatini tushunib oladilar.

Talabalar maktab o'quvchilarida umuminsoniy va milliy axloqni tarbiyalashga doir o'zlari egallab olgan bilim, ko'nikma va malakalarini pedagogik amaliyot davrida amalda qo'llaydilar.

16. Oliy o'quv yurtida bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi ularda professional-pedagogik

sifatlarini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtlarining yangi o'quv rejalari va dasturlarini professional hamda axloqiy tarbiya nuqtai nazaridan tahlil qilish – ularning bu sohada juda katta imkoniyatlarga ega ekanini ko'rsatdi.

Barcha kurslarda talabalarning tanlagan kasbini egallashga yo'naltirilgan faoliyati, ularda professional bilimlar va malakalar hosil qilishga, shuningdek, huquqiy davlat, demokratik fuqarolik jamiyatida yuksak mavqeini anglab, bo'lajak mutaxassis uchun zarur bo'ladigan axloqiy sifatlarini egallab olishga yordam beradi. Bu vazifani barcha kafedralarning professor-o'qituvchilari va jamoat tashkilotlari maktablar, xalq ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda bajaradilar. Shu maqsadda talabalarning eng yaxshi va tajribali o'qituvchilar bilan, sinf rahbarlari, tarbiyaviy ishlarning tashkilotchilari, xalq maorif organlarining rahbarlari bilan uchrashuvlari muntazam ravishda o'tkazilib turiladi. Talabalar va yosh o'qituvchilarning ilmiy-metodik konferensiyalari tashkil etiladi.

Oliy o'quv yurti talabalariga professional-axloqiy tarbiya berish ishida barcha kafedralarning professor-o'qituvchilari faol ishtirok etishlari lozim. Fakultetda ixtisos fanlardan dars beradigan o'qituvchilar maktab dasturiga tez-tez murojaat etib, talabalar olgan bilimlarni maktabda qaysi fanlarni o'qitishda qo'llash mumkinligiga e'tiborni jalb etadilar. Axloqiy sifatlar nutq va tafakkurni o'stirishga yordam beradigan mavzularda referat va ma'ruzalar yozdirib, ularni seminar va konferensiyalarda tinglab, muhokama qiladilar. Ixtisos fanlari kafedralari talabalar uchun turli maxsus kurs va seminarlar, to'garaklar uyushtiradilar. Bulardan maqsad talabalarga maktabda o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni uyushtirishga doir bilim va malakalarni o'rgatishdan iborat.

Oliy o'quv yurtining talabalari ma'ruzalar, seminar va amaliy mashg'ulotlarda nazariy va metodik bilimlarni egallab oladilar. Shu bilan birga talabalar o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni bajarishga ham bevosita jalb etiladi. Birinchi kurs talabalari maktabdan tashqari muassasalarda, mehribonlik

uyarida o'quvchilar bilan tarbiyaviy tadbirlarni bajaradilar; ikkinchi (uchinchi) kurslarda yozgi oromgohlarda tarbiyachi bo'lib ishlaydilar. Yuqori kurs talabalari maktablarda pedagogik amaliyot davrida o'quv-tarbiya ishlarini bajarish sohasida malaka va ko'nikmalar hosil qiladilar.

17. Talabalarda professional-axloqiy sifatlarni o'stirish birinchi kursdan boshlanadi. Pedagogika fanini o'rganish bunga katta yordam beradi. Talabalar o'qituvchi degan sharaflı kasb haqida, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda uning roli to'g'risida ma'ruzalar tinglaydilar. O'zbekistonda ta'lim tizimi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bilan tanishadilar, ta'lim, tarbiya, ma'lumot kabi tushunchalarni o'rganadilar. Pedagogika kursi bilan bog'liq ravishda maktab va maktabdan tashqi tarbiya muassasalariga borib, ularning faoliyati bilan tanishadilar, o'qituvchilar, maktab rahbarlari bilan uchrashuvlar o'tkaziladi.

Talabalar o'quvchining kun tartibi va maktab gigienasi talablarini bilib oladilar. Mehnat va dam olish tartibiga amal qilish zarurligini o'quvchilarga tushuntiradilar, ularni o'z-o'ziga xizmat qilishga jalb etadilar. Bolalar uchun shu mavzularda yozilgan kitoblarni o'qib, kinofilm va spektakllarni ko'rib, o'quvchilar bilan u haqda suhbatlar o'tkazadilar.

Oliy o'quv yurtinig ikkinchi kursida professional -axloqiy tarbiya falsafa, pedagogika va boshqa fanlarni o'rganish bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Talabalar falsafani o'rganish jarayonida ilmiy dunyoqarash va axloq to'g'risidagi bilimlarni egallab oladilar. Bo'lajak mutaxassislar tarbiya to'g'risidagi ta'limotni, mashhur allomalarning asarlarini, O'zbekiston davlatining maktab haqidagi qonun hujjatlarini, o'rta umumiy ta'lim maktabi nizomini, o'quvchilar uchun xulq qoidalarni o'rganadilar. Natijada, ular umumiy o'rta ta'lim maktablarining faoliyati va bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan jamiyat qurishda uning roli haqida keng tushunchaga ega bo'ladilar.

18. Talabalarda mutaxassisga xos ma'naviy-axloqiy fazilatlarini o'stirish, vaqtli ommabop adabiyotlarni o'qishga qiziqish uyg'otish maqsadida kafedralar, dekanat va jamoat

tashkilotlari xalq ta'limi va axloq - odob masalalariga doir mavzularda munozara va konferensiyalar uyushtiradilar. Talabalar o'zlari egallayotgan mutaxassislikka doir fanlarni chuqur o'rganadilar, kafedra o'qituvchilari bilan birgalikda o'quvchilar olimpiadalarini tashkil etish va o'tkazishda, har xil turnirlar va konkurslarda, fan olimpiadalarida ishtirok etadilar, maktablardagi fan to'garaklariga rahbarlik qiladilar. Talabalar yozgi oromgohda amaliyot o'tashga puxta hozirlik ko'radilar. Pedagogika va psixologiya kafedrasida tarbiyaviy ishlarni olib borish bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etadi. Bu tadbirlar natijasida talaba o'smirlar va yoshlar tashkiloti, kamolot ijtimoiy harakati faoliyatining mazmuni va asosiy yo'nalishlarini bilib oladilar. Bolalar bilan bajariladigan ishlarni rejalashtirish, amalga oshirish va ish natijalarini hisobga olishni o'rganadilar. Tarbiyaviy tadbirlarni tayyorlash va o'tkazish, har turli o'yinlarni uyushtirish metodikasini egallaydilar. Pedagogik kundalik yuritishni, pedagogik amaliyot uchun kerakli hujjatlarni to'ldirishni, psixologo-pedagogik kuzatish materiallarini umumlashtirib, axborot yoki doklad tayyorlashni o'rganadilar.

Uchinchi (to'rtinchi) kurs talabalari o'zlari o'qitadigan fanlardan dars berish metodikasini o'rganadilar, dars o'tish malakasini hosil qiladilar, o'zlari va o'rtoqlari o'tgan darsni tahlil etadilar. Maktab o'qituvchisining ilg'or tajribasini o'rganib, dastur asosida ish rejasini tuzadilar, darslik va boshqa o'quv qurollarini tahlil qiladilar.

19. Bo'lajak mutaxassislar sinf rahbari ishining metodikasini o'rganib oladilar, ayrim o'quvchiga va sinf jamoasiga psixologo-pedagogik tavsifnoma tuzib, shu asosida jamoa oldida turgan vazifalarni belgilaydilar va ma'lum vaqtga mo'ljallangan tarbiyaviy ish rejasini tuzadilar va uni bajarishda qatnashadilar. Darslardan bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan ishlash yo'llarini o'rganib oladilar.

Talabalar fan to'garaklari, foto va kino to'garaklari, badiiy havaskorlik to'garaklari, sport seksiyalarining ishini uyushtiradilar va ularga rahbarlik qiladilar. Oliy o'quv yurtida egallab olingan bilim va ko'nikmalar bu ishda juda qo'l

keladi. Bo'lajak mutaxassislar o'smirlar va yoshlar tashkilotlari ishlariga pedagogik rahbarlik qiladilar. Ota-onalar bilan pedagogik mavzularda suhbat o'tkazish malakasini egallab oladilar. Ular pedagogik amaliyot jarayonida maktabning o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash sohasidagi tajribasi bilan tanishadilar.

Bitiruvchi kursda talabalarning professional ta'limi va axloqiy tarbiyasi takomillashtiriladi. Ular o'quvchilarning umuminsoniy va milliy axloq ruhida tarbiyalash sohasida maktab, oila va jamoatchilik oldida turgan vazifalarni to'la tasavvur etadilar, maktab va oila bu sohada hamkorlik qilishini, bolaga bir xil ta'sir o'tkazish zarurligini bilib oladilar.

Bitiruvchilar o'qituvchi va sinf rahbari sifatida sinfda barcha ta'lim-tarbiya ishlarini bajarishni o'rganib oladilar, sinf jamoasi va ayrim o'quvchilar bilan ishlashni, pedagogik, axloqiy mavzularda doklad yoki ma'ruzalar tayyorlab, o'quvchilar oldida, ota-onalari hamda o'qituvchilar oldida so'zga chiqish malakasiga ega bo'ladilar.

Bitiruvchi kurs talabalari ilg'or pedagogik tajribalarni yangi pedagogik texnologiyalarni ijodiy qo'llay olishni, maktabda bajariladigan metodik ishlar tizimini bilishi lozim. Pedagogik amaliyot davrida ular har bir darsni ilmiy jihatdan yuqori saviyada o'tkazish malakasini va pedagogik mahorat asoslarini egallaydilar. Vaqtli matbuot va pedagogik adabiyotlar ustida mustaqil ishlay olish malakasini hosil qiladilar.

20. Oliy o'quv yurtlarida ta'limning professional yo'nalishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, talabalarning professionaol faoliyati ularda tanlagan kasbiga xos ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Talabalarni tarbiyalash vazifalari umuminsoniy va milliy axloqning mohiyatini anglash, uni qat'iy e'tiqodga aylantirish, professional bilim va malakalar asosida xulq me'yorlarini egallab olish bilan birga, bo'lajak mutaxassisning butun ma'naviy qiyofasini shakllantirishni nazarda tutadi.

Bo'lajak mutaxassislarga mehnat tarbiyasi berishning maqsadi talabalarda mehnatga ijodiy munosabatni qaror toptirish, shaxs va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirib ishlashga intilish, aqliy va jismoniy mehnat madaniyatini hosil qilishdan iborat. Talabalar oliy maktabda ta'lim olayotgan paytlaridayoq o'quvchilarni ijtimoiy foydali va aqliy mehnatini uyushtirish malakasini, bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash yo'llarini o'rganib oladilar.

21. Talabalar mehnati asosan tanlagan kasbini egallab olishga qaratilgan bo'ladi. Professional pedagogik ish yoshlarda maktabning bo'lajak o'qituvchisi uchun zarur ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabalar o'quv jarayonida va auditoriyadan tashqari ishlarda mehnatning inson hayotidagi rolini tushunib oladilar. Fakultetda, guruhda bajariladigan ishlarda faol ishtirok etib, bilimlarni qunt bilan egallaydilar, guruhda, fakultetda, o'quv binosi va turar joylarda navbatchilik qilib, o'quv binosini, auditoriyalarni toza saqlashda qatnashadilar.

Talabalarda o'quv mehnatiga nisbatan mas'uliyat hissi; mustaqil ishlar rejasini tuzish va uni bajarish malakasi hosil bo'ladi. Pedagogika va psixologiya fanlarini o'rganish natijasida talabalar mehnat tarbiyasida maktabning roli to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladilar, bolalarning o'quv ishlari, sinf va maktabdan tashqari mehnat faoliyatining tarbiyaviy ahamiyatini, mehnat tarbiyasi metodlarini bilib oladilar. Talabalar bu sohadagi o'z bilimlarini pedagogik amaliyotda qo'llaydilar.

Oliy maktabning har bir talabasi ijtimoiy foydali mehnatda, sog'lomlashtirish sport lageri va agrouchastkada bajariladigan ishlarda, turar joylar atrofini, o'quv yurti va shahar hududini ko'klamzorlashtirish va obodonlashtirish kabi ishlarni bajarishda qatnashadilar.

Pedagogik amaliyot davrida sinf jamoasi va ayrim o'quvchilarning mehnat tarbiyasiga rahbarlik qilib, ijtimoiy foydali ishlarni rejasini tuzib chiqadilar va o'quvchilar mehnatini bevosita uyushtiradilar. Bolalarning mehnat tarbiyasiga doir ma'ruza va dokladlar tuzib, ota-onalar bilan

suhbatlar o'tkazadilar.

• Tanlagan kasbi bilan bog'liq bo'lgan bunday mehnat jarayonida talabalarda mehnat intizomini buzuvchilarga nisbatan murosasizlik, tejamkorlik hamda mulkka to'g'ri munosabat tarbiyalana boradi. Ijtimoiy foydali mehnat jarayonida intizomlilik, tashkilotchilik, mas'uliyat kabi muhim ma'naviy-axloqiy sifatlar shakllanadi va mustahkamlanadi.

22. Oliy o'quv yurti, professor-o'qituvchilar, ota-onalar, jamoat tashkilotlari—talaba yoshlarning tarbiyachilari faqat shulardangina iborat emas. Tevarak-atrofdagi muhit ham yigit va qizlarning axloqiy tarbiyasiga jiddiy ta'sir etadi. Bu ishda keng jamoatchilik ham katta rol o'ynaydi. Matbuot, radio, televidenie, badiiy adabiyot, kino, teatr, ommaviy sport ishlari va boshqalar yoshlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi.


23. Oliy maktabning o'quv rejalarida tavsiya etilgan fakultativ mashg'ulotlar, maxsus kurs va seminarlar ham bu sohada katta imkoniyatlarga ega. Fakultativ mashg'ulotlar, ayniqsa, mahalliy sharoitni, har bir viloyat, oliy o'quv yurti va fakultetning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda talabalarning bilim saviyasini, professional-axloqiy tayyorgarligini oshirishga imkon beradi.

Talabalar fakultativ mashg'ulotlarda ixtiyoriy ravishda qatnashadilar. Bu bo'sh vaqtdan oqilona foydalanishga, mustaqil ishlash va o'z-o'zini tarbiyalashga imkon beradi. Talabalarning qiziqishlari va intilishlariga, shuningdek, egallayotgan kasbiga mos keladigan fakultativ mashg'ulotlar jarayonida erkin muomala va fikr olmashev uchun qulay imkoniyatlar vujudga keladi. Talabalar u yoki bu masalaga doir o'z fikr-mulohazalarini bayon etadilar, faollik va tashabbuskorlik ko'rsatadilar. Bu bo'lajak mutaxassislarda axloqiy qarashlar va e'tiqodni mustahkamlashga yordam beradi, jamoa bilan shaxs o'rtasida to'g'ri o'zaro munosabatlar vujudga keladi va bu munosabatlar jamoaning har bir a'zosiga ijobiy ta'sir etadi.

Oliy maktabda talabalarning professional qiziqishlari va intilishlari bilan bevosita bog'liq ravishda amalga

oshirilayotgan klub ishlari ma'naviy-axloqiy tarbiyaga doir ishlar tizimida muhim o'rin egallaydi.

Xullas, ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimining barcha qismlari talabalarning xilma-xil faoliyati bilan bevosita bog'liq. Bu faoliyat jarayonida talabalar jamoasida obyektiv axloqiy munosabatlar vujudga keladi. Mashg'ulotlar va faoliyat turlarini bajarish natijasida obyektiv munosabatlar ularning shaxsiy odob muomala munosabatiga aylanadi va shu jarayonda bo'lajak mutaxassislarining ma'naviy-axloqiy fazilatlari kamol topa boradi.



14-rasm. Tarbiyaga tizimli yondashuv.

II. Tarbiyaga texnologik yondashuv

1. Texnologiya – yunoncha so'z bo'lib, «techne» –

san'at, mohirlik, uquv va «logos» – ilm, ta'limot ma'nolarini anglatadi. Texnologiya moddiy ishlab chiqarish – sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda mahsulotlar olish, ularga ishlov berish hamda ularni qayta ishlash usullari tartibga solingan tizim; shu usullarni ishlab chiqish, joriy qilish va takomillashtirish bilan shug'ullanadigan fan. Har bir sohaning o'ziga xos texnologiyasi bo'ladi: kon ishlari texnologiyasi, mashinasozlik, qurilish texnologiyasi va boshqalar.

Masalan, qurilish ishlari texnologiyasi bir qancha operatsiyalar yig'indisidan tashkil topgan: yer ishlari (yerni tekislash, transheyalar qazish); poydevor yotqizish; devor tiklash; tom yopish; elektr, gaz, suv tarmoqlarini o'tkazish; pardozi ishlari va hokazo. Har qaysi operatsiyaning o'ziga xos bajarish usullari bor.

Amalda texnologik jarayonlar qanchalik puxta ishlangan bo'lsa, tavsiya etilayotgan usullar chuqur tajriba va ilmiy yondashuvga asoslangan bo'lsa, tayyorlanadigan mahsulot (avtomobil, bino va boshqalar) shunchalik sifatli bo'ladi. Texnologiyaning fan sifatidagi vazifasi mahsulot tayyorlashning eng zamonaviy usullarini yaratishdan iborat. Fan va texnika rivojlanib borgan sari texnologiyalar ham yangilanib va o'zgartirib turiladi. Har qaysi sohada texnologiyani ishlab chiqish uchun texnologik hujjatlarni ishlab chiqish, tipovoy texnologik jarayonlar, standartlashtirilgan jihozlar, uskunalardan foydalanishning yagona tartibi bo'lishi lozim. (Qarang: O'zbek milliy ensiklopediyasi. 8-jild, Toshkent, 2004, 411-bet).

2. Tarbiyaviy ishlarga **texnologik yondashuv**:


– tarbiya jarayonini o'zaro uzviy bog'liq etaplar, fazalar, amallarga ajratishni;

– tarbiyadan mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;

– mo'ljallangan (loyihalashtirilgan) ishlarning barchasini birdek bajarishni nazarda tutadi.

3. **Pedagogik texnologiya tizimli, texnologik yondashuvlarga** asoslanadi. Tizim (sistema) tushunchasi bo'laklardan tashkil topgan yaxlit bir narsa yoki hodisa, birikma ma'nolarini bildiradi. **Pedagogik tizim** — ta'lim-tarbiya texnologiyasining asosi, zamini hisoblanadi. Pedagogik tizim bir butun, harakatlanuvchi yaxlit ijtimoiy-pedagogik hodisa bo'lib, u, tarbiyalanuvchi (1); ta'lim-tarbiyaning maqsadi (2); ta'lim-tarbiyaning mazmuni (3); ta'lim-tarbiya jarayoni (4), tarbiyachi, texnik va boshqa vositalar (5) va ta'lim-tarbiyaning shakl-usullaridan (6) tuziladi.

4. Ta'lim-tarbiyaning **maqsadi** obyektiv xususiyatiga ega. U har bir jamiyatning moddiy-ma'naviy ehtiyojlaridan kelib chiqadi; ijtimoiy buyurtma sifatida davlat hujjatlarida umumiy tarzda ifodalanadi. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi tizim hosil qiluvchilik xususiyatiga ega. Pedagogik tizimning barcha komponentlari ta'lim-tarbiyaning maqsadiga bog'liq bo'ladi va maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida barkamol shaxsni, yuksak ma'naviy-axloqli, yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassisni tarbiyalash maqsadi ta'lim-tarbiya ishlarining mazmunini belgilaydi. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi va mazmuni tarbiyaviy vazifa shaklida ifodalanadi, aniqlanadi. **Tarbiyaviy jarayon, tarbiyachi yoki tarbiyaning texnik va boshqa vositalari, ta'lim-tarbiyaning shakl-usullari tarbiya texnologiyasi** deb ataladi. Pedagogik amaliyotda tarbiya texnologiyasi yordamida aniq ifodalangan tarbiyaviy vazifani tarbiyalanuvchi o'zlashtirib, egallab oladi. Tarbiyachi boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik rolini bajaradi.



15-rasm. Tarbiyaga texnologik yondashuv.

5. Ayrim amaliyotchi pedagoglar «pedagogik texnologiya» deganda texnologik yondashuvga asoslanmagan ba'zi foydali, samarali usullarni yoki ta'lim-tarbiya jarayonida texnik vositalarni qo'llashni tushunadilar. Vaholangki, pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha, o'ziga xos belgilar va xususiyatlarga ega bo'lgan, tizimli, texnologik yondashuvga asoslanadi. U pedagogikada ijtimoiy-muhandislik tafakkurining mahsuli, texnokratik ilmiy fikr (ong)ning ta'lim-tarbiya sohasidagi loyihasi, ta'lim-tarbiya jarayonining natijasini ma'lum darajada standartlashtirish, takrorlanadigan pedagogik siklga aylantirishdir.

Pedagogikada qayta takrorlanadigan pedagogik sikl (jarayon)ni yaratish oson ish emas. Bunga ta'lim-tarbiya

vazifalarining turli-tumanligi, ta'lim-tarbiya mazmuni va o'quv-biluv materiallarining har xilligi, talaba-tarbiyalanuvchilarning qobiliyatlari, xotira, iroda kabi ruhiy xususiyatlari bir xil emasligi kabi qator faktorlar sabab bo'ladi. Shunga qaramay rivojlangan mamlakatlarda pedagog, psixolog olimlar pedagogik texnologiyani ishlab chiqdilar, ular yaratgan pedagogik texnologiya takrorlanadigan pedagogik sikl bo'lib, ta'lim-tarbiyaviy ishda rejalashtirilgan (loyihalashtirilgan) natijalarni kafolatlaydi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Nima uchun tarbiyaviy ishga tizimli yondashuv zarur?
2. Tarbiyaviy tizim, pedagogik tizim tushunchasi nimani anglatadi?
3. Tarbiyaning maqsadi, mazmuni, vositalari, shakl-usullarining o'zaro munosabatini izohlang.
4. Tarbiyaviy ishlarning shakl, usullari qanday tavsiflanadi?
5. Tarbiya metodlarini qo'llashning samaradorligi nimalarga bog'liq?
6. Ma'naviy-axloqiy fazilatlar shakllanishida fan asoslarini egallashning ahamiyatini izohlang.
7. Pedagogik ixtisosliklar bo'yicha mutaxassislarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
8. Talabalarning tarbiyasiga qanday omillar ta'sir o'tkazadi?
9. Tarbiyaviy ishlarda talabani faoliyati qanday o'rin egallaydi?
10. Tarbiyaga texnologik yondashuv tushunchasi nimani anglatadi?
11. Texnologiya so'zining lug'aviy ma'nosini ayting.

14-bob. **YOSHLARDA ILMIY DUNYOQARASHNI
HOSIL QILISH**

I. Asosiy tushunchalar: ilmiy dunyoqarash, qarash, nuqtai nazar, e'tiqod, ilmiy bilimlar, g'oyalar

II. Mavzuning muhim masalalari:

1. Dunyoqarashning mohiyati, vazifalari.
2. Ilmiy dunyoqarashni hosil qilish yo'llari.

III. Manbalar, adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1997.

2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T.: 1997.

3. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: 2001.

4. Ochilov M. Ilmiy dunyoqarash va uni hosil qilish. «Muallim — qalb me'mori», T.: 2001, 194 — 201- betlar.

IV. Mustaqil o'qish uchun topshiriq

1. Tavsiya etilgan adabiyotlarni o'qing.

I. Dunyoqarashning mohiyati, vazifalari

1. Dunyoqarash — tabiat va jamiyat haqidagi falsafiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, estetik, ilmiy qarashlar va nuqtai nazarlar tizimidir. Dunyoqarashda ijtimoiy turmush aks etadi, u muayyan tarixiy davrda inson erishgan bilim darajasiga va ijtimoiy tuzumga bog'liq. Dunyoqarash inson faoliyati, o'zaro munosabatlari uchun muhim ahamiyatga ega. Dunyoqarash tabiat va jamiyatning umumiy qonuniyatlarini ochib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtiradi yoki aksincha, unga salbiy ta'sir etadi.

2. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi va hukumat qabul qilayotgan me'yoriy hujjatlarda umuminsoniy va milliy

qadriyatlarning ustuvorligi e'lon qilindi. Materialistik dunyoqarash bilan bir qatorda dinga, diniy muassasalar faoliyatiga ruxsat etildi, Vijdon erkinligi to'g'risida qonun qabul qilindi. O'quv yurtlari, maktablar, ijodiy muassasalar partiyalar tasarrufidan xoli deb e'lon qilindi. Inson huquqlari va erkinligi to'g'risidagi xalqaro qonunlar tan olindi.

Bundan xulosa shuki, endilikda bo'lajak mutaxassislar ilmiy bilimlarni o'rganishlari va maktabda bolalarga o'rgatishlari lozim. Ilmiy bilimlar tor sinfiy nuqtai nazaridan talqin etilmasligi, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlar sifatida bayon etilishi kerak. O'quvchilar shu asosda o'zlarida ma'lum bir dunyoqarashni va e'tiqodni erkin shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lsinlar. Biror dunyoqarash yoshlarga zo'rlik bilan qabul qildirilmasligi lozim.

3. Ilmiy dunyoqarash kishiga tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan hodisalarni to'g'ri anglashga imkon beradi. Dunyoqarash voqea, hodisalarni to'g'ri tushunish, xabardor bo'lish, baho berish kabi vazifalarni bajaradi. Shuning uchun ham u shaxsning ma'naviy, mafkuraviy, g'oyaviy-siyosiy, ilmiy, axloqiy va estetik rivojlanishida, ijtimoiy faolligida muhim asos, birlashtiruvchi faktor bo'lib, kishining xulqi, xatti-harakatlarini bir maqsadga yo'naltiradi, o'z g'oyalari va jamiyatning insonparvarlik ideallarini ro'yobga chiqarishda qat'iy bo'lishga da'vat etadi. Shuning uchun ham talabalar, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish o'rta va oliy maktablarda barcha ta'lim-tarbiya ishlarining muhim vazifasi hisoblanadi.

4. **Dunyoqarashning mazmuni.** Dunyoqarash inson shaxsini tavsiflaydigan muhim belgilardan biridir. Bu tushuncha «dunyo» va «qarash» so'zlarining birikuvidan tarkib topgan. Umumiyroq qilib aytganda, u ong shakllaridan biri bo'lib, insonning atrof-olamga, unda o'zining tutgan o'rniga bo'lgan qarashi, nuqtai nazarini anglatadi. Albatta, har bir odamning tevarak-atrofdan, tabiat va jamiyatda sodir

bo'layotgan voqea, hodisalarga nisbatan o'z munosabati, qarashi, fikr-mulohazasi bor. Lekin bu munosabat, qarash, fikr-mulohazalar uning hayot tajribasi, bilim darajasiga, e'tiqodiga qarab har xil bo'ladi. Shu ma'noda dunyoqarash ikkiga, ya'ni kishining turmush sharoitidan kelib chiqadigan, har bir odamning aql-idrokiga asoslangan oddiy dunyoqarashga va ilmiy dunyoqarashga ajratiladi. Shuningdek, dunyoqarashlar to'laligi, kengligi, chuqurligi jihatidan ham farqlanadi.

5. Dunyoqarash ma'lum qarashlar, e'tiqod va ideallarning umumlashgan tizimi bo'lib, u kishining tabiiy va ijtimoiy muhitga munosabatini ifodalaydi. Dunyoqarash kishidagi bilim, tajriba va hissiy kechinmalarning birlashmasi, kishining butun faoliyati va hayotining g'oyaviy yo'nalishini belgilaydi. Dunyoqarashning tarkibiga quyidagilar kiradi: a) ilmiy bilimlar; b) qarashlar, nuqtai nazarlar; d) e'tiqodlar; e) ideallar, orzular. Dunyoqarashning bu tarkibiy qismlari obyektiv (ilmiy bilimlar) va subyektiv (qarash, e'tiqod, ideal) xususiyatga ega.

6. Dunyoqarashning obyektiv xususiyati shundaki, u bilimlar, ilmiy haqiqatlar tizimidan iborat. U tabiat va jamiyat hodisalarining obyektiv jihatlarini anglash, tushunish bilan bog'liq bo'lib, hamma odamlar tomonidan bir xil qabul qilinishi, tushunilishi mumkin. Tabiiyki, ilmiy bilimlarni egallash ilmiy dunyoqarash hosil bo'lishi uchun zamin yaratadi. Lekin shunisi ham borki, ayrim kishilar bilimdon bo'lsalar ham, dunyoqarashi xato bo'lishi mumkin. Demak, bilim o'z-o'zidan kishining dunyoqarashini belgilayvermaydi. Bilim kishida dunyoqarashni shakllantirishi va o'stirishi uchun u, subyektiv ahamiyat (ma'no) kasb etishi, uning nuqtai nazari, qarashi, e'tiqodiga, ideallariga aylanishi lozim.

7. **Qarash** — narsa va hodisalarni tushunish, anglash tizimi bo'lib, kishining tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan

hodisalar haqida fikri, xulosasi, nuqtai nazari, munosabatini bildiradi. Masalan, o'simliklar va hayvonlar haqida ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnik taraqqiyot haqida turli qarashdagi kishilar turlicha fikr-mulohaza bildirishlari mumkin.

Kishining qarashlari dunyoni anglash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning xulqiga, xatti-harakatlariga ta'sir etadi. Lekin kishining qarashlari hamma vaqt ham uning xatti-harakatlarida to'g'ridan-to'g'ri namoyon bo'la-vermaydi. Ba'zan kishining fikri, nuqtai nazari to'g'ri bo'lsa ham, amalda uning teskarisini qilishi mumkin.

8. Dunyoqarashning muhim qismi **e'tiqoddir**. E'tiqod – bu biror g'oyaga qattiq ishonch bo'lib, kishining faoliyati, xulqi va shaxs sifatida rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir o'tkazadi. E'tiqod juda qudratli kuch, e'tiqodli odamni u tanlagan yo'ldan (g'oyadan) qaytarish amri mahol. Shu ma'noda e'tiqodni kishining hayot yo'lini, uning xulqi va xatti-harakatlarini belgilaydigan, puxta o'ylab, anglab olingan, qalbidan chuqur joy olgan mafkuraviy, axloqiy, estetik g'oyalarning birikmasi deyish mumkin. E'tiqod bu shaxsning murakkab aqliy-hissiy kechinmalari va hayot tajribasi asosida hosil bo'ladi. Bu jarayonda orttirilgan bilim (g'oya) kishining qalbiga chuqur o'rnashadi, uning xatti-harakatlari uchun turtki sabab bo'ladi, iroda kuchiga aylanadi. E'tiqod – bu, kishi puxta o'ylab olgan, uning his-tuyg'usiga ta'sir etadigan ruhiy-ma'naviy kuch bo'lib, kishi har qanday sharoitda ham undan voz kechmaydi.

Dunyoqarashning asosiy belgilaridan biri **idealdir**. Ideal bu eng yuksak kamolotni anglash va uning olijanob maqsadga, eng yuksak orzu va tilakka, yashashdan maqsadga aylanishidir.

II. Ilmiy dunyoqarashni hosil qilish yo'llari

1. Talabalar va o'quvchilarda qarash, e'tiqod va ideal-larni hosil qilishga imkon beradigan narsa, bu **g'oyalardir**.

Ilmiy dunyoqarash hosil qilishda talabalar, o'quvchilar o'zlashtiradigan tabiiy, gumanitar va estetik predmetlarga doir bilimlarning muhim ahamiyati bor. Shu predmetlar mazmuniga singdirilgan tabiat, jamiyat va inson ongining rivojlanishi haqidagi g'oyalar bu sohada hal qiluvchi rol o'ynaydi. Demak, har bir bo'lajak mutaxassis bu g'oyalarni yaxshi anglab, tushunib olishi va o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash hosil qilishda undan ustalik bilan foydalanishi lozim.

2. Bu **g'oyalardan eng muhimlari**: olamning moddiyligi va jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonuniyatlari haqida; harakat modda mavjudligining shakli ekanligi haqida; modda bilan ong, ruhning o'zaro munosabati haqida; taraqqiyot qarama-qarshiliklar kurashidan iboratligi to'g'risida; olamni va uning qonuniyatlarini bilib olish mumkinligi; amaliyot haqiqatning asosi va mezoni ekanligi; insonning shakllanishida nasl, tarbiya, muhitning roli haqida; moddiy ishlab chiqarish — jamiyat rivojlanishining asosi ekanligi; tarixda xalq ommasining hal qiluvchi roli; ijtimoiy inqiloblar va ularni harakatga keltiruvchi kuchlar; jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy ongning roli va shakllari; jamiyat, davlat rivojlanishida shaxsning roli va o'rni; hozirgi dunyoning rivojlanishida umuminsoniy va milliy qadriyatlarining ahamiyati haqidagi va boshqa g'oyalar.

3. O'rta va oliy maktabda o'qitiladigan predmetlarning har biri talabalarda ilmiy dunyoqarashni o'stirishga ma'lum darajada ta'sir o'tkazadi. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar ham bu sohada katta imkoniyatlarga ega. Fanlar bo'yicha o'tkaziladigan to'garak mashg'ulotlari, fakultativ mashg'ulotlar, ijtimoiy, mafkuraviy, madaniy-ommaviy tadbirlar; talabalar, o'quvchilarning mehnat faoliyati, badiiy-estetik, ma'naviy-axloqiy, fizkultura — sport faoliyatini uyushtirish bilan bog'liq ishlar ham ularni dunyoqarashga doir bilimlar, g'oyalar bilan qurollantirish manbai bo'lib xizmat qiladi.

4. Ilmiy bilimlarni dunyoqarash va e'tiqodlar tizimiga aylantirishning psixologo-pedagogik texnologiyalari nimadan iborat? Qanaqa didaktik shart-sharoitlar bu muhim tarbiyaviy vazifani hal etishga ko'maklashadi?

Ilmiy dunyoqarash hosil qilishning zamini bilimlarni chuqur va puxta anglashdir. Talabalar va o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni tarbiyalash uchun ilmiy haqiqat, qarashlar va e'tiqodning o'zaro bog'liqligi asos qilib olinishi zarur. Demak, bilim dunyoqarashning negizini tashkil etadi. Olamda, tevarak-atrofdagi sodir bo'layotgan hodisalarga munosabatni bildirish uchun kishi, avvalo, bu hodisa nimaligini bilishi, u haqda atroflicha va to'g'ri tushunchalarga, bilimlarga ega bo'lishi lozim. Shu boisdan talabalarda dunyoqarashni shakllantirish jarayonida avvalo, ularga fan asoslarini, ilmiy bilimlarni chuqur va puxta o'rgatish zarur. Kishining bilimi puxta, kuchli bo'lsa, u faktlarni, hodisalarni chuqur tahlil eta oladi. Talaba ilmiy tushunchalar, qonuniyatlar va g'oyalarning mohiyatini chuqur anglagan bo'lsa, o'z nuqtai nazari va e'tiqodini hosil qilishi uchun keng tarbiyaviy imkoniyat yaratiladi. Talabaning bilimi sayoz, chala-chulpa, rejasiz bo'lsa, dunyoqarashni o'stirishga, tarbiyalashga salbiy ta'sir etadi.

Lekin ilmiy haqiqat, qarash va e'tiqodning o'zaro bog'liq ekanligi haqidagi fikrdan bilim o'z-o'zidan ilmiy dunyoqarashni hosil qiladi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Bilim yuzaki bo'lsa, kishining fikr-mulohazasi va qarashlariga durustroq ta'sir etmasligi ham mumkin. Bilimlar talabaning nuqtai nazari, qarashi va e'tiqodiga ta'sir o'tkazishi va dunyoqarashga aylanishi uchun darslar va darsdan tashqari mashg'ulotlar tizimi aniq tarbiyaviy maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

5. **Bilimlarni yoshlarning qarashlari, e'tiqod va idealiga aylantirish uchun zarur shart-sharoitlar.** O'rta va oliy maktablarda yoshlarga berilayotgan bilimlar ularning qarashi (nuqtai nazari), e'tiqodi va maqsadiga aylanishi uchun ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etishda quyidagilarga e'tibor berish zarur:


– talabalarda dunyoqarashni shakllantirishga imkon yaratadigan nazariy xulosalar, faktlarning barchasi ilmiy jihatdan isbotlangan, mantiqan ishonarli bo‘lishi, biri ikkinchisini rad etmasligi lozim. Buning uchun biror o‘quv materialini bayon etayotganda aniq, ishonchli faktlarga asoslanish va uni chuqur tahlil qilish kerak;

– ishlab chiqarishning o‘sishi bilan ijtimoiy taraqqiyot o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ochib berish ham dunyoqarashni shakllantirish uchun muhimdir;

– shakllanayotgan shaxs o‘zida dunyoqarash hosil qilishi uchun o‘rganilayotgan hodisa, jarayonlarning, sabab-oqibat bog‘lanishlari haqidagi turli nazariyalarni xolisona, ilmiy, to‘g‘ri bayon etish zarur;

– ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘rganilayotgan material, hodisaga qiziqishni uyg‘otish lozim. Talaba savollar berib, tabiat va jamiyatda sodir bo‘layotgan voqealarni chuqurroq anglab, bilib olishga intilsin. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan vujudga kelayotgan qiyinchiliklar, taqchiliklar, uning oqibatida vujudga kelgan narx-navodagi o‘zgarishlarning sabablarini, ularni bartaraf etish yo‘llarini bilib olsin. Bu muammolar, har qancha murakkab, qiyin bo‘lishiga qaramay o‘qituvchi ularni chetlab o‘tishi mumkin emas. Jamiyatda, hayotda uchraydigan ayrim xatolarning sabablarini chuqur tahlil etish, yoshlar bilan ochiq-oydin munozara qilish, ular ikkilanayotgan, shubhalanayotgan savollarga birgalashib javob izlash ta‘lim-tarbiya jarayonining muhim qismi bo‘lib, talabalarda dunyoqarashning shakllanishiga kuchli ta’sir etadi.

6. Bilimlar talabalarning qarashi va e’tiqodiga aylanishi uchun muhim shartlardan yana biri ta‘limning mafkuraviy yo‘nalishidir. Asosiy g‘oyalar ta‘limning mazmunida, dastur va darsliklarda mavjud. Gap – ulardan o‘rinli va mohirona foydalana bilishda. Eng muhimi – dunyoqarash hosil qilish uchun zurur bo‘lgan xulosa, qoidalarni aniqlab, ajratib ko‘rsatish lozim.



16-rasm. Talabalarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish.

7. Yoshlarda dunyoqarashni o‘stirishga imkon beradigan shartlardan yana biri o‘qitish jarayonida tarixiylik tamoyiliga rioya qilishdir. O‘zbekiston tarixi, Markaziy Osiyoda qadimdan yashab kelgan xalqlar, turkiy qavmlar tarixi, madaniy-ma’naviy qadriyatlar yoshlar tarbiyasi uchun bitmas-tuganmas manba va qudratli vositadir. Ta’lim jarayonida tabiat va jamiyatga doir faktlar, hodisalar, voqealar haqida ilmiy haqiqatlarni bilish, murakkab rivojlanish tarixini, bu sohada turli qarashlar o‘rtasidagi kurash tarixini yoritish bu hodisalarning taraqqiyot qonuniyatlarini bilib olishga ko‘maklashadi. Ta’limda tarixiylik prinsipiga amal qilish talabalarda qiziqish uyg‘otadi va turli ilmlarni chuqurroq o‘zlashtirishga imkon yaratadi.

8. Dunyoqarashni tarbiyalash va ilmiy bilimlarni e‘tiqodga aylantirish shartlari qatoriga darslar va auditoriyadan tashqari ishlar jarayonida bo‘lajak mutaxassislarining bilim olish faolligi va mustaqilligini o‘stirish ham kiradi. Talabaga bilimlarni «berish» yoki «singdirish» mumkin emasligi, balki u bilish faoliyati natijasida ilmlarni egallab olishi mumkinligi pedagogik qonuniyatdir. Yoshlarning bilim o‘zlashtirishi ham, tarbiyasi ham ularning faolligiga bog‘liq.

9. Bo‘lajak mutaxassislarda mustaqillik va faollikni, ijodiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish uchun ta’limning har xil usullarini qo‘llash, bilish bilan bilmaslik o‘rtasidagi ziddiyatga e‘tiborni qaratish, o‘qishga va bilim olishga qiziqish va ehtiyojni uyg‘otish lozim. Shuningdek, o‘qitishning xilma-xil noan‘anaviy shakllari va interfaol usullarini qo‘llab, uni muammoli ta’limga aylantirish lozim.

Auditoiyadan tashqari ta’lim-tarbiya ishlari tizimida ham yoshlarning tafakkuri, faolligi va mustaqilligini o‘stirishning imkoniyatlari katta. Suhbatlar, kecha, ertalik, to‘garak mashg‘ulotlari, munozara, uchrashuv, kitobxonlar konferensiyasi kabi tarbiyaviy tadbirlarda yoshlar faol fikr-mulohaza yuritib, munozarada aktiv qatnashishiga, ilmiy tushuncha va fikrlarni o‘zlashtirib olishlariga erishmoq darkor.

NAZORAT UCHUN SAVOLIAR

1. Dunyoqarash tushunchasining ta'rifini ayting.
2. Ilmiy dunyoqarash nimaga asoslanadi, oddiy dunyoqarashdan uning farqi nimada?
3. Dunyoqarashning obyektivligi nimalarga bog'liq?
4. Dunyoqarash va e'tiqodning o'zaro munosabati qanday?
5. Dunyoqarash qanday ilmiy g'oyalar asosida shakllanadi?
6. Ilmiy bilimlar dunyoqarash, e'tiqodga aylanishi uchun qanday shartlarga amal qilish zarur?

15- bob. TALABALAR JAMOASINI SHAKLLANTIRISH

I. Asosiy tushunchalar: jamoa, talabalar jamoasi, boshlang'ich jamoa, umumiy jamoa, jamoaning muhim belgilari, faollar, murabbiy, munosabatlar, faoliyat.

II. Mavzuning muhim masalalari:

1. Talabalar jamoasi haqida umumiy tushuncha.
2. Talabalar jamoasini shakllantirish yo'llari.

III. Manbalar, adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod— O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1997.
2. Oliy ta'lim haqida nizom. Me'yoriy hujjatlar. 1- qism. T.: 1998, 89-93-betlar.
3. Ochilov M. Talabalar jamoasini shakllantirish. «Muallim — qalb me'mori», T.: 2001, 144 — 155- betlar.

IV. Mustaqil o'qish uchun topshiriq

1. Yuqorida ko'rsatilgan adabiyotlarni o'qib matnlashtiring.

I. Talabalar jamoasi haqida umumiy tushuncha

1. Talabalar jamoasi deganda, biror umumiy maqsad yo'lida birlashgan kishilar guruhi, biror vazifani bajarish uchun jamiyat tomonidan maxsus ravishda tashkil etilgan odamlar birlashmasi tushuniladi. Odatda, umumiy va boshlang'ich jamoalarga bo'linadi.

2. A'zolari bir-biri bilan doimiy, bevosita aloqada bo'lgan jamoa **boshlang'ich jamoa** deb ataladi. Boshlang'ich jamoada yigit va qizlar birgalikda bajariladigan faoliyat jarayonida, yagona maqsad uchun bevosita kurashib bir-birlari bilan

ijtimoiy aloqada bo'ladilar. Boshlang'ich jamoa eng yaqin ijtimoiy muhitdir. Oliy' maktabda o'quv guruhi, ilmiy to'g'arak kabilar boshlang'ich jamoa hisoblanadi. Talaba bunday jamoada o'quv ishlari, ilmiy ishlar, ijtimoiy foydali mehnat, jamoat topshiriqlari kabi vazifalarni bevosita bajaradi.

Boshlang'ich jamoada ijtimoiy xulq tajribasi hosil qilinadi, odatlar shakllanadi. Talabalar guruhda har kuni o'zaro aloqada, munosabatda bo'ladilar; har bir talabaning yaxshi yoki yomon barcha qiliqlari o'rtoqlarining ko'z oldida sodir bo'ladi va beixtiyor ravishda ularning xatti-harakatlari, xulqi to'g'risida o'ylashni, bu xatti-harakatlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'lishni, unga baho berishni talab etadi.

3. Fakultet va oliy o'quv yurti jamoasi bir qadar umumiy birlashma bo'lib, **umumiy jamoa** hisoblanadi. Lekin u boshlang'ich jamoalarning mexanik ravishda birlashuvidan iborat emas, balki undan sifat jihatidan farq qiladi. Fakultet va oliy o'quv yurti jamoasida yoshlarning aloqa va bog'lanishlari birmuncha murakkablashgandir. Agar boshlang'ich jamoada kishilar bevosita bog'lanish asosida va birgalikda bajariladigan faoliyat jarayonida aloqada bo'lsalar, birlashsalar, umumiy jamoada esa, avvalo, tashkilotning ish rejasi, prinsiplari, qurilishi tufayli umumiy maqsadni, umumiy vazifalarni bajarish uchun birlashadilar. Fakultet va o'quv yurti jamoasida talabalar bir-birlari bilan bivosita bog'lanadilar va bu bog'lanishlar oliy o'quv yurti faoliyatining tashkiliy va ma'naviy yo'nalishiga bog'liq bo'ladi.

4. O'quv guruhi oliy o'quv yurti jamoasining bir qismi hisoblanadi. Uning samarali ishlashi fakultet va oliy o'quv yurti jamoasida tashkiliy va tarbiyaviy ishlarning qay darajada

uyushtirilganligiga bog'liq. Agar oliy o'quv yurtining faoliyatida yagona tartib-ıntizom, yagona reja mavjud bo'lmasa, ayrim guruhning faoliyati samarali bo'lishi juda qiyin. Umumiy jamoada ishlarning tashkil etilishi boshlang'ich jamoaning faoliyatini belgilaydi, unga ta'sir etadi, chunki boshlang'ich jamoaning faoliyati umumiy jamoa faoliyatining aniq ifodasidir.

Umumiy jamoaning barcha yutuqlari, shuningdek, uning faoliyatidagi ba'zi kamchiliklar boshlang'ich jamoa va uning ayrim a'zolari faoliyatiga ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ham boshlang'ich jamoadagi tarbiyaviy ishlarni yaxshilash uchun jiddiy kirishish umumiy jamoa yaratish sohasidagi ishlarni kuchaytirishni talab etadi. Oliy o'quv yurtidagi barcha ishlarni izchil, rejali, umumiy maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi boshlang'ich jamoa faoliyatining sermazmun bo'lishi uchun zaruriy shartdir. Guruhning ish rejasi har qancha mukammal o'ylab tuzilgan bo'lsa ham, uni amalga oshirish uchun har qancha faol kirishilsa ham, baribir, agar oliy o'quv yurtidagi ishlarning umumiy rejasiga asoslanmagan bo'lsa, kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi.

5. Kishilarni rasmiy ravishda ma'lum guruhga to'plash bilan jamoa hosil bo'lmaydi. Guruhga to'plangan odamlar jamoa tashkil qilishi uchun ular o'rtasida o'zaro mustahkam ma'naviy-ruhiy aloqalar barqaror bo'lishi lozim. Boshqacha aytganda, obyektiv ijtimoiy faoliyat va demokratik boshqaruv asosida guruhdagi kishilarni bir-biriga mahkam birlashtiradigan, ularning xatti-harakatlarini tartibga soladigan va ma'naviy o'sishiga, rivojlanishiga imkon beradigan holat vujudga kelgan taqdiridagina jamoa yaratish mumkin.


Shunday qilib, pedagogika va psixologiya fanlari jamoada quyidagi **belgilar** mavjud bo'lishi lozim, deb hisoblaydi.

Jamoa a'zolari, avvalo, **umumiy maqsad yo'lida** birlashadilar. Jamoaning yagona maqsadi va umumiy intilishlari shaxsiy hamda ijtimoiy qimmatga ega bo'ladi.

Jamoa uchun muhim belgilardan yana biri — **birgalikda faoliyat ko'rsatishdir**. Bunday faoliyat shaxsiy va ijtimoiy foydali maqsadni ko'zda tutadi. Ana shu faoliyat jarayonida jamoa a'zolarida mas'uliyat, talabchanlik, prinsipiiallik, bir-biriga do'stona ko'maklashish, o'zaro bir-biriga itoat etish munosabatlari vujudga keladi. Bu munosabatlar jamoada shaxsning shakllanishi uchun asosiy vosita hisoblanadi.

6. Jamoaning shakllanishi muammosiga doir ilmiy tadqiqot o'tkazgan olimlar unda **ikki xil munosabatlar** mavjudligini ta'kidlaydilar. Birinchisi — **rasmiy**, ya'ni starosta bilan talaba o'rtasidagi munosabatlar va ikkinchisi — **norasmiy** (shaxsiy): yoqtirish, yoqtirmaslik, samimiyat va adovat kabi munosabatlar. Bu xil munosabatlarning ikkalasi ham bir guruhda va shu guruh a'zolari o'rtasida mavjud bo'ladi. Bu munosabatlar bir-biriga ta'sir o'tkazadi. Xizmat vazifasiga oid munosabatlar jamoada yetakchi munosabat hisoblanadi. Lekin jamoa a'zolari o'rtasidagi norasmiy (shaxsiy) munosabatlarni ham e'tiborga olmaslik mumkin emas. Shakllangan jamoada bu munosabatlar bir-biriga mos, uyg'un bo'ladi. Rasmiy va norasmiy munosabatlarning birligi jamoada qulay ma'naviy-ruhiy va axloqiy muhitni vujudga keltiradi, bunday muhit jamoaning va jamoa a'zolarining ma'naviy-axloqiy o'sishiga imkon beradi.

Faollar bo'lmasa tashkilot ham, jamoa ham bo'lmaydi. Pedagogikada jamoa, bu tirik organizmdir va har qanday tirik organizm singari jamoa ham o'z organlariga, a'zolariga ega bo'ladi. Agar a'zolar ishlamasa, tashkilot xarob bo'ladi. Ishchan, obro'li, barcha a'zolarini o'z ketidan ergashtira oladigan kishining, faolning mavjudligi jamoaning shakllanganligini ko'rsatuvchi muhim belgidir.



17-rasm.

7. Jamoada **hamma teng bo'lishi kerak**: saylab qo'yilgan rahbar ham, unga itoat etuvchilar ham teng huquqqa ega bo'lishlari lozim. Jamoaning rahbarlari alohida imtiyozlarga ega bo'lishi mumkin emas, chunki u notekis munosabat, nosog'lom, yomon kayfiyatni hosil qiladi, jamoa a'zolari o'rtasidagi munosabatlar murakkablashadi va jamoaning tarbiyaviy ta'siri kamayadi.

II. Talabalar jamoasini shakllantirish yo'llari

1. Talabalar jamoasi o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki murabbiyning muntazam tarbiyaviy ishlari natijasida

shakllanadi. Boshlang'ich jamoa tuzish guruh a'zolarini o'rganishdan boshlanadi. Bu davrda murabbiy guruhning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot to'playdi, guruhda boshlang'ich jamoaga xos qanday belgilar mavjudligini, guruh a'zolarining shaxsiy nuqtai nazarlarini va guruhdagi munosabatlarda ularning o'rnini, har bir talabani boshqalarga qanday ta'sir o'tkaza olishini aniqlaydi. Olingan ma'lumotlar asosida guruh jamoasini yaratish uchun tarbiyaviy ishlarning rejasini tuzib chiqadi. Bu vazifalarni bajarish uchun har bir talabani shaxsiy xususiyatlarini, shuningdek, talabalar guruhini o'rganish talab etiladi. Guruh murabbiysi har bir talabani shaxsiy xususiyatlarini o'rganishda quyidagilarga e'tibor berishi zarur: talaba to'g'risida umumiy ma'lumot; talabani mayl va qiziqishlari, intilishi; talabani o'qish faoliyati, uning irodasi va xarakteriga xos xususiyatlar; o'qishdan tashqari vaqtini qanday o'tkazishi va nimalar bilan shug'ullanishi kabilar.

Talabalar guruhini o'rganishda quyidagilarga e'tibor berish talab etiladi: guruh to'g'risida umumiy ma'lumot; guruhning ma'naviy-ruhiy tuzilishi; talabalarda tashkilotchilik qobiliyatini rivojlanganlik darajasi; guruhda jamoatchilik fikrining o'sganlik darajasi; guruhning boshqa jamoalar (fakultet, oliy o'quv yurti jamoalari) bilan aloqasi.

Yuqoridagi masalalarni o'rganish asosida murabbiy talabalar va guruh to'g'risida mukammal ma'lumot to'play oladi. Shuni ta'kidlash lozimki, guruh yoki talabani har tomonlama o'rganish ancha murakkab ish. Guruh murabbiysi ta'lim-tarbiya jarayonida vujudga kelgan ayrim masalalarni va muammolarni chuqurroq o'rganishi lozim. Bunday muammo va masalalar turlicha bo'ladi. Masalan, ayrim hollarda guruh a'zolaridan ko'pchiligi yoki bir nechtasi o'qishga, tanlagan kasbni egallashga e'tiborsizlik bilan qaraydi. Ba'zan talabalar o'rtasida, shuningdek, guruh talabalari bilan faollar o'rtasida, talabalar bilan professor-o'qituvchi o'rtasida nizolar chiqishi, guruh a'zolari orasida ayrim odobsizlik hollari uchrab qolishi mumkin. Bunday paytlarda ana shu muammoni vujudga keltirgan sabablarni chuqur o'rganish zarur. Oliy maktablar

tajribasida ahil, inoq talabalar guruhi ko'proq uchrab turadi. Bunday guruhlardagi talabalarning ko'pchiligida jamoaviylik, o'rtoqlik, do'stlik tuyg'ulari ancha rivojlangan bo'ladi. Lekin ana shunday guruhlarda ham boshlang'ich jamoa o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Bunday guruhlariga ham alohida e'tibor berish, guruh jamosini mustahkamlash talab etiladi. Murabbiy va jamoat tashkilotlarining rahbarlari bunday guruhlarning a'zolari oldiga murakkabroq vazifalarni qo'yishlari lozim.

2. Talabalar jamoasi sohasida maxsus tadqiqot o'tkazgan olimlar boshlang'ich jamoani tuzish va mustahkamlash **uch bosqichdan** iborat, deb ko'rsatadilar. Birinchi bosqich — yangi qabul qilingan talabalarning oliy o'quv yurtining an'analari, ichki tartib-qoida va talablarini o'zlashtirib olishlaridan boshlanadi. Oliy maktab hayotining butun tajribasi, ichki tartib-qoidalari, talablari talabalarga professor-o'qituvchilar va jamoat tashkilotlarining rahbarlari orqali o'tadi.

Bu davrda professor-o'qituvchilar va jamoat tashkilotlari rahbarlari yangi qabul qilingan talabalarga oliy o'quv yurtining maqsadi va vazifalarini, shuningdek, talabalarga nisbatan qo'yiladigan talablarni tushuntirishlari lozim. Ular oliy maktabda o'qish malakasi va ko'nikmalarini o'zlashtirib olishda, o'qishdan tashqari bo'sh vaqtni oqilona uyushtirishda ularga ko'mak-lashadilar. Guruhning har bir a'zosidagi xislatlarni aniqlaydilar. Ma'ruzalar, seminar va amaliy mashg'ulotlarga birga tayyorlanishga o'rgatadilar. Murabbiy talabalar orasidan faollar tanlab, jamoani tashkiliy jihatdan rasmiylashtirishda, faollarni sekin-asta obro'li va mohir tashkilotchilar bo'lib yetishishlarida ko'maklashadi.

Talabalarning oliy maktabda olgan dastlabki taassurotlari va orttirgan tajribasi ular ongiga kuchli ta'sir etadi, oliy maktabda ta'lim olish davridagi butun faoliyatida ma'lum iz qoldiradi. Shuning uchun ham boshlang'ich jamoa tuzishning dastlabki davri murabbiy va jamoat tashkilotlarining rahbarlaridan yuksak mas'uliyat va jiddiy ishlashni talab etadi. Ular bu davrda har bir talabani, uning ehtiyojlari,

qiziqish va qobiliyatlarini sinchiklab o'rganadilar. Oliy maktabda aqliy mehnatni uyushtirishning ilmiy asoslarini — ma'ruza tinglash, yozib olish, seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanish, kitob ustida mustaqil ishlash, kun tartibi va gigiena qoidalarga amal qilish kabilarni o'rgatadilar. Shu bilan birga murabbiy va jamoat tashkilotlarining rahbarlari talabalarning moddiy-maishiy turmushi va dam olishini uyushtirishga katta e'tibor beradilar, har bir talabani uning qobiliyatiga mos keladigan jamoat topshiriqlarini bajarishga jalb etadilar.

Birinchi bosqichning oxirlariga kelib talabalar oliy o'quv yurtida ta'lim olishning yo'l-yo'riqlarini, oliy maktabning kun tartibi, an'ana va talablarini o'zlashtirib oladilar. Guruhda ishchan faollar paydo bo'ladi, o'quv ishlari sohasidagi topshiriqlarni bemalol bajara olishga, zavqli yashash va mehnat qilishga ishonch hosil bo'ladi. Bu davrda boshlang'ich jamoa talabalarning o'qishi, mehnati va maishiy turmushini uyushtirishga doir kundalik masalalarni mustaqil ravishda hal qila oladi. Shunday qilib, boshlang'ich jamoa tuzishning dastlabki davri oliy maktab hayotining oddiy talablarini o'rgatishni, jamoani tashkilot sifatida rasmiylashtirishni, jamoaviy turmush sohasida dastlabki tajriba orttirishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqichda faollarni tarbiyalash va o'stirish sohasida ishlar davom ettiriladi. Tanlagan kasbi muammosiga doir masalalar va pedagogik mahoratni egallash yo'llari keng muhokama qilinadi. Murabbiy va jamoat tashkilotlarining rahbarlari barcha talabalarni tashkilotchilik ishlariga jalb etish, berilgan topshiriqlarni ijodiy bajarish, guruhda vujudga kelgan tartib-qoidalarni har bir talabaning barqaror xulqiga aylantirish, an'analar hosil qilish kabi masalalarga alohida e'tibor beradi. Bu bosqichda murabbiy va jamoat tashkilotlari tanlagan kasb bilan bog'liq bo'lgan masalalarni chuqur anglab olishda bo'lajak mutaxassisni shakllantirishga qaratilgan amaliy ishlarni bajarishda, guruhda haqiqiy jamoaviylik munosabatlarini qaror toptirishda talabalarga ko'maklashadilar.

3. Uchinchi bosqichda guruhda ishchan va obro'li faollar mavjud bo'ladi, ular bilan talabalarning birligi, ular orasida do'stona va talabchanlik munosabatlari qaror topadi. Har bir talaba umumiy ishga katta qiziqish bilan qaraydi, birlashib harakat qilishga tayyor turadi, umumiy jamoadagi ishlardan atroflicha xabardor bo'ladi. Bu esa jamoaga guruh va uning har bir a'zosiga taalluqli barcha masalalarni mustaqil ravishda, murabbiyning yordamisiz hal etish imkonini beradi. Boshlang'ich jamoaning oliy o'quv yurti jamoasi bilan aloqasi kuchayadi. Bu davrda guruhning har bir a'zosi oliy maktabdagi jamoaviy turmush tajribasini qat'iy egallab olgan bo'lib, jamoatchilikning fikri va talablarini faol ifodalaydi. Bu, bo'lajak mutaxassisning ilm-fanni egallash, kasbiy va axloqiy jihatdan shakllanishida eng samarali davr hisoblanadi.

4. Oliy maktabda talabalarning boshlang'ich jamoasini shakllantirish obyektiv shart-sharoitlarning mavjudligiga, shuningdek, rahbarlikning, xarakteri va saviyasiga, umumiy jamoaning ish uslubiga ko'p jihatdan bog'liq. Guruhda talabalar jamoasini yaratishda murabbiy katta rol o'ynaydi. Yaxshi va ishchan guruh rahbarini tanlash boshlang'ich jamoa tuzishning muhim shartidir.

Boshlang'ich jamoaning vujudga kelishi va ahilligi ko'p jihatdan murabbiyning ko'zlagan maqsadi va tutgan yo'liga bog'liq. Guruh rahbari ishchan, serg'ayrat, talabalarga ta'sir o'tkaza oladigan, ularning qalbiga yo'l topa biladigan, guruhda vujudga kelgan ayrim murakkab vaziyatlarni ham yumshata oladilar, hazil-mutoyibani ham biladigan kishi bo'lishi lozim. Tund, pismiqli rahbar guruhda boshlang'ich jamoa tuza olmaydi.

Rahbarlik uslubi demokratik asosda bo'lsa, guruhda do'stlik, hamkorlik, xayrixohlik munosabatlari tezroq qaror topadi. Shuning uchun ham murabbiy prinsipiiallik va talabchanlikni talaba shaxsini hurmat qilish bilan qo'shib olib bora bilishi, guruhdagi har bir talabaga nisbatan adolatli va g'amxo'r bo'lishi lozim.

Murabbiyning ishchanlik sifatleri boshlang'ich jamoa yaratishda muhim ahamiyatga ega. Murabbiy o'ziga topshirilgan ishni yaxshi bilish bilan birga jamoaning har bir a'zosiga uning qobiliyatiga yarasha vazifa topshira olishi, boshlangan ishni oxirigacha yetkazadigan bo'lishi ham kerak. Ana shu sifatlarga ega bo'lgan rahbar talabalar orasida obro' qozonadi, guruhda ahil jamoani yarata oladi.

5. Guruh rahbarlariga qo'yiladigan bu talablarning haqqoniyligini tadqiqot natijalari va talabalarining fikr-mulohazalari ham isbotlab turibdi. «Guruhga murabbiy kerakmi va u qanday bo'lishi kerak, guruh rahbaringiz haqidagi fikr-mulohazalaringiz qanday?», – degan savolga pedagogika fakultetining IV kurs talabalari quyidagicha javob qaytardilar? «Guruh rahbarimiz Q.X. yaxshi kishi, ishbilarmon, mohir pedagog. U guruhimizdagi barcha talabalarni besh barmog'idek biladi Q.X. prinsipial, talabchan kishi, u bizlarni o'z kasbdoshi qatorida ko'radi, har birimiz uchun jon kuydiradi. Talabalarining ilmiy konferensiyasi uchun tayyorlangan dokladlarimiz u kishining tashabbusi bilan kafedra majlisida muhokama qilindi. U guruhimizning hayoti va ayrim talabalarining faoliyatiga doir fikr-mulohazalarimizga, takliflarimizga quloq soladi, ularni amalga oshirishda ko'maklashadi. Starostaning tashabbusi, guruh rahbarimizning yordami bilan Samarqand va Buxoro shaharlarida safarda bo'ldik...»

Lekin hamma guruhlariga ham ana shunday ishbilarmon, mohir pedagoglar rahbarlik qilayapti deb ayta olmaymiz. Iqtisodiyot fakultetidagi boshqa bir guruhning talabasi o'z rahbari haqida bunday deb yozadi: «Murabbiy talabalar hayotida katta rol o'ynashini, guruhimizga murabbiy zarurligini tushunamiz. Afsuski, rahbarimiz R. o'zini osmon chog'lab yuradigan kishi. Ayrim odobsiz «erkatoy» talabalar bilan apoq-chapoq, uning biror fikriga e'tiroz bildirgan kishi baloga qoladi.»

6. Guruhda ahil jamoa tuzish uchun murabbiy har bir talabani, uning jamoadagi o'rni va shaxsiy xususiyatlarini kuzatib borishi, faollar bilan hamkorlikda har bir talabaning

jamoaga munosabatini, shuningdek, talabalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turishi lozim. Bu ish, ayniqsa, quyi kurslarda boshlang'ich jamoa shakllanish davrida juda zarur.

Talabalarni to'g'ri tarbiyalash uchun qulay vaziyatni vujudga keltirishda starosta, yoshlar tashkilotchisi va boshqa faollarning roli katta. Ayniqsa, starosta xushmuomala, ulfat, dilkash kishi bo'lishi, guruh a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning eng nozik tomonlarini ham sezishi, payqashi kerak. Guruhdagi ishlarning borishi ko'p jihatdan unga bog'liq. Talabalar orasida bir amallab «qoniqarli» baho olish kayfiyati hukmronlik qiladimi yoki butun o'quv yili davomida jamoaning barcha a'zolari kuch-g'ayrat sarflab, bilim va ixtisoslik sirlarini o'rganadilarmi, bu — starosta, guruh faollariga juda bog'liq. Shuning uchun ham faollar prinsipial, qat'iy e'tiqodli kishilar bo'lishi lozim. Ular konfliktlardan qo'rqmasligi, g'ayratli, ruhi baland, tashabbuskor, boshqalarni o'z ketidan ergashtira oladigan bo'lishi zarur.

7. Boshlang'ich jamoani shakllantirishning muhim vositalaridan biri — guruh a'zolarini aktiv faoliyatga jalb etishdir. Istiqbolga intilish, faoliyat bo'lmasa, jamoa ham bo'lmaydi. Jamoa birgalikda bajariladigan amaliy faoliyat natijasida yaratiladi. Jamoaviy faoliyatda kishilarni his-tuyg'ular, kechinmalar yaqinlashtiradi va birlashtiradi. Birgalikda boshdan kechirilgan taassurotlar yoshlarni ruhiy yaqinlashtiradi. Bu taassurotlar qanchalik xilma-xil va chuqur bo'lsa, ruhiy yaqinlik shunchalik kuchli bo'ladi. Boshqalarning ahvolini tushuna bilish sekin-asta yaqin o'rtoqlaridan keng doiradagi boshqa kishilarga ham ko'chadi.

Birgalikda bajariladigan faoliyatda g'amxo'rlik, sezgirlik, rahmdillik kabi yuksak axloqiy hislar, bir-biriga kuchli qiziqish vujudga keladi, kishilar bir-birini tushunadigan bo'ladi. Insoniy munosabatlarni qadrlay olishni o'rganadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, birgalikda bajarilgan faoliyat natijasida jamoaning shakllanishiga ma'naviy asos bo'ladigan ruhiy sifatlar vujudga keladi. Ruhshunos olimlar ma'naviy-

ruhiy birlikni jamoa a'zolarini birlashtiradigan yetakchi omil deb hisoblaydilar.

Shuningdek, jamoaviy faoliyat jarayonida o'zaro bir-biriga talabchanlik, mas'uliyat, o'zaro yordam ko'rsatish munosabatlari paydo bo'ladi, hamkorlik natijasida kishida o'zining yoki o'rtoqlarining xatti-harakatlaridan qanoat hosil qilish yoki qoniqmaslik tuyg'ulari, o'z xulqiga va o'rtog'ining xulqiga ma'lum bir munosabat vujudga keladi. «Men ishlayapman, sen esa ishlamayapsan. Nega?», «Sen topshiriqni o'z kuching va qobiliyating imkon beradigan darajada bajarmayapsan. Nega?» Agar o'rtog'i orqada qolayotgan bo'lsa, tevarak-atrofdagilar uning ham, o'zlari-ning ham bu ishdan, qo'lga kiritilgan umumiy yutuqdan manfaatdor ekanliklarini bilib, unga astoyidil yordam beradilar. Shu tariqa ish-harakat paytida umumiy talabchanlik, jamoatchilik fikri va o'zaro yordam berish vaziyati vujudga keladi.

8. Har qanday faoliyatda ham jamoaviy munosabatlar, aloqalar paydo bo'lavermaydi, balki faqat jamoa qadrlaydigan, shaxsiy va ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan, guruhning barcha a'zolariga yoki ko'pchilikka ahamiyatli bo'lgan faoliyat jarayonidagina bunday munosabatlar vujudga keladi. Shunday qilib, hamma uchun muhim bo'lgan jamoaviy faoliyatda guruh a'zolari ma'naviy-axloqiy jihatdan birlashadi, ularda do'stlik, o'rtoqlik, hamkorlik kabi sifatlar o'sib rivojlanadi. Ayniqsa, jamoa shakllanayotgan dastlabki davrlarda murabbiy talabalarning ko'pchiligi bajara oladigan shaxsiy va ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan ishlar, topshiriqlar tanlashda guruh faollariga ko'maklashishi lozim. Shu yo'l bilan u guruhning barcha a'zolarini harakatga keltiradi, ularning o'sishiga imkon yaratadi.

Birgalikda bajariladigan ishlar boshlang'ich jamoa tuzishga imkon beradigan muhim vosita bo'libgina qolmasdan, balki jamoani mustahkamlashning ham asosiy yo'lidir. Har xil faoliyat: o'quv, jamoat ishlari, ilmiy tadqiqot, madaniy ommaviy va sport ishlari, ijtimoiy foydali mehnat kabilar jarayonida jamoa shakllanadi.

9. Jamoa **pedagogik ta'sirlar tizimi** natijasida o'sib mustahkamlanadi. Xilma-xil faoliyat turlari guruhni va uni har bir a'zosini turli vaziyatlarga qo'yadi. Faoliyatning bir turida talaba rahbar vazifasini bajarsa, boshqa bir turida esa bo'ysunuvchi rolini o'ynaydi. Faoliyat jarayonida har xil vazifalarni bajarish, jamoa a'zolarini o'rganish uchun o'ziga xos mashq rolini bajaradi, guruhda murakkab bog'lanishlar tizimini vujudga keltiradi.

Xilma - xil faoliyadan, albatta, ishning biron muhimroq turi jamoani va axloqiy munosabatlarni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Talabalar hayotida o'quv faoliyati yetakchilik rolini o'ynaydi. O'quv faoliyati boshlang'ich jamoa tuzish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Oliy o'quv yurtining talabasi uchun asosiy vazifa yaxshi o'qish, tanlagan kasbini mukammal egallashdan iborat. Demak, talabalarni, avvalo, guruhda o'quv ishini to'g'ri uyushtirish, «a'lo» va «yaxshi» o'qish, yuqori reytingni egallash uchun safarbar etish zarur. Shunga erishish lozimki, guruhning har bir a'zosi ma'ruzalar, seminar va amaliy mashg'ulotlarda, o'quv ishinig boshqa turlarida faol qatnashsin. Guruhda va fakultetda o'quv intizomini mustahkamlash uchun har bir talaba kurashishi, barcha talabalarning chuqur bilim olishi, tanlagan kasbini egallashi uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlar yaratilishi lozim. Chunki o'quv faoliyati jamoaviy munosabatlarning vujudga kelishi uchun ham asosiy baza, zamin bo'lib xizmat qiladi. Talabalar faoliyatining boshqa barcha turlari o'quv faoliyatida paydo bo'lgan aloqa va munosabatlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish uchun yordamchi vosita hisoblanadi. O'quv ishi guruhdagi barcha talabalar uchun qiziqarli, zavqli bo'lgan taqdiridagina sog'lom ma'naviy-ruhiy munosabatlarning shakllanishi, mustahkamlanishi uchun omil, samarali vosita bo'la oladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Jamoa tushunchasiga ta'rif bering, jamoaning turlarini ayting.
2. Boshlang'ich jamoa deganda, nima tushuniladi?
3. Umumiy jamoa nima, uning boshlang'ich jamoadan farqini ayting.
4. Umumiy jamoa bilan boshlang'ich jamoa faoliyati o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
5. Jamoa qanday hosil bo'ladi? Jamoaning muhim belgilarini ayting.
6. Jamoadagi munosabat turlarini ayting, faollarning o'rni va ahamiyati nimada?
7. Jamoa a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning xarakteri qanday bo'lishi kerak?
8. Jamoani shakllantirishda murabbiy va jamoatchilik tashkilotlarining roli qanday?
9. Talabalar jamoasini shakllantirishning bosqichlarini, birinchi, ikkinchi, uchinchi bosqichlarda qilinadigan ishlarni ayting.
10. Faoliyat bo'lmasa, jamoa ham bo'lmaydi, degan qoidani izohlang.

16 -bob. OLIY O'QUV YURTIDA TARBIVAVIY ISHLARNI REJALASHTIRISH

I. Asosiy tushunchalar: reja, rejalashtirish, majmuali reja, istiqbolli reja, tarbiyaviy faoliyat, tarbiyaviy tadbirlar, ommaviy va individual tarbiyaviy ishlar, o'z-o'zini tarbiyalash, tarbiyalanganlik darajasi.

II. Mavzuning muhim masalalari:

1. Tarbiyaviy ishlarni istiqbolli rejalashtirish.
2. Tarbiyaviy tadbirlar tizimi.

III. Manbalar, adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1997.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T.: 1997.
3. Ochilov M. Oliy o'quv yurtida tarbiyaviy ishlarni rejalash-tirish. «Muallim – qalb me'mori», T.: 2001, 111–126- betlar.

IV. Mustaqil o'qish uchun topshiriq

1. Yuqorida ko'rsatilgan adabiyotlarni o'qib matnlashtiring.

I. Tarbiyaviy ishlarni istiqbolli rejalashtirish

1. Oliy o'quv yurtida ta'lim-tarbiya ishlarini istiqbolli rejalashtirish tarbiyaning samaradorligini oshiruvchi zarur shartlardan biridir. Uzoq muddatga mo'ljallab tuzilgan reja bo'lmasa, tuzukroq ishlab ham bo'lmaydi. Tarbiyaviy ishlar rejasining asosiy vazifasi ta'lim-tarbiya tadbirlarini ma'lum bir tizimga keltirish, aniq maqsadga yo'naltirish, tarbiya jarayonida izchillik, uzviylik va ketma-ketlikni ta'minlash, o'quv metodik ishlar, ilmiy tadqiqot va tarbiyaviy tadbirlar o'rtasidagi uzilishni bartaraf etish, talabalarni tarbiyalash sohasida ilg'or tajribalarni umumlashtirishdan iborat. Majmuali xarakterdagi istiqbolli reja talabalarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning aniq yo'l va vositalarini ko'rsatadi.

2. Oliy maktabda talaba-yoshlarni yuksak ma'naviy-xloqiy fazilatli mutaxassislar qilib tarbiyalash dasturi va ta'limning barcha o'quv davriga mo'ljallangan tarbiyaviy ishlarining istiqbolli rejasini tuzish odatga aylandi. Ilmiy jihatdan asoslangan istiqbolli reja yoki dastur talabalarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash sohasidagi barcha ishlarining asosiy yo'nalishlarini birlashtiradi, fakultet, kafedra va jamoat tashkilotlarining bo'lajak mutaxassislarni barkamol shaxs qilib shakllantirish sohasidagi faoliyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

3. Istiqbolli reja yoki tarbiyaviy ishlar dasturini ta'limning barcha yillariga mo'ljallab tuzish maqsadga muvofiq. Istiqbolli rejalashtirish oliy maktabda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining butun hajmini, ko'lamini aniq tasavvur etishga, har bir kursda bajariladigan aniq vazifalarni belgilab olishga imkon beradi.

Oliy o'quv yurtida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishga ma'naviyat bo'limi rahbarlik qiladi. Bu vazifa ijtimoiy fan kafedralari, pedagogika va psixologiya kafedralari zimmasiga yuklanadi. Oliy o'quv yurtlarida ilmiy-metodik kengashlar ham, yoshlarni tarbiyalash masalasi bo'yicha tuzilgan komissiyalar ham bu ish bilan shug'ullanadi. Istiqbolli reja yoki dasturni tuzishda barkamol shaxsni tarbiyalash to'g'risida Prezident farmonlari va me'yoriy hujjatlardan kelib chiqadigan xulosalar asos qilib olinadi.

4. Tarbiyaviy ishlarning samarali bo'lishi va istiqbolli rejalashtirish uchun sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazib turish lozim. Sotsiologik tadqiqotlar talabalarining hayoti va faoliyatini o'rganishga, ularning ruhiy dunyosini, ehtiyojlari, qiziqishlari va ideallarini; talabalar hamda o'qituvchilarning vaqt budjetini, tarbiyaning ayrim yo'nalishlari, shakl va usullarining ta'sirchanligini aniqlashga imkon beradi. Masalan, biror kurs talabalarining vaqt budjetini oldindan o'rganmay turib, tarbiyaviy tadbirlarni to'g'ri belgilash qiyin. Chunki mo'ljallangan tadbirlar haddan tashqari ko'p yoki oz bo'lishi mumkin, natijada tarbiyaviy ishda uzviylik tamoyili buziladi. Bu, tarbiyaviy ta'sirlarning samaradorligini pasaytiradi.

5. Istiqbolli reja yoki dasturda ko'rsatilgan tarbiyaviy ishlar oliy maktabda o'quv jarayoni bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lishi zarur. Bu faqat ta'limning mazmuni tarbiyaviy xususiyatiga ega bo'lishidan iborat bo'lmay, shu bilan birga, o'qishdan tashqari vaqtda tarbiyaviy ta'sir o'tkazish shakllari va vositalari ham talabalarga shu davrda berilayotgan ta'limning xususiyatiga bog'liq bo'lishi lozim.

Istiqbolli rejalashtirishning samarali bo'lishi belgilangan ayrim tadbirlarning va umumiy rejaning bajarilishini nazorat qilib borishga ham bog'liq. Odatda, ma'naviyat bo'limi rejaning bajarilishi ustidan umumiy nazoratni olib boradi. Istiqbolli reja yoki dasturda faqat bajaruvchi va tashkilotchilarnigina emas, balki nazorat qilib boruvchilarni ham aniq ko'rsatish maqsadga muvofiq. Chunki nazoratning izchil va ta'sirli bo'lishi rejani bajarishning muhim shartidir.

6. Oliy maktabda talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lajak mutaxassislarda **kasb odobini** shakllantirishdan iborat. Bu tanlagan kasbiga muhabbatni o'stirish, kasb odobiga xos axloqiy tushunchalar, xulqiy normalarni hosil qilishni nazarda tutadi. Masalan, talabalar ongida pedagogik kasb odobini shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar, pedagogika va psixologiya hamda ixtisos fanlari kafedralari muhim rol o'ynaydi. Chunki o'qituvchi odobi pedagogika va psixologiyani, shuningdek, ixtisoslik fanlarini o'rganish natijasida, pedagogik kasbni bevosita amalda egallab olish tufayli shakllanadi.

Pedagogik kasblarni tanlagan talabalar birinchi semestr davomida «o'qituvchilik ixtisosiga kirish»ni o'rganadilar. Bu kursning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: pedagogik kasbning shaxsiy va ijtimoiy qimmati, ahamiyatini, bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan demokratik jamiyatda uning o'rni, vazifalari va xususiyatlarini ochib berish; o'qituvchini pedagogik faoliyatga tayyorlashning tizimi, mazmuni, shakl va metodlarini bayon etish; oliy o'quv yurtida ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etilishini, mustaqil

ishlash metodikasini o'rganishdan iborat. «O'qituvchilik ixtisosiga kirish» kursini o'rganish pedagogik kasbning mohiyatini chuqur anglashga, mustaqil o'qish, ilmiy ishlar, jamoat ishlarida ongli ravishda va faol qatnashishga yordam beradi. Bu fanni o'rganish bo'lajak o'qituvchilarning faoliyati va tafakkurini professional-pedagogik yo'nalishda shakllantirishga, oliy maktabda ta'lim olish sharoitlariga ko'nikish hosil qilishlariga imkon beradi.

7. Ayrim oliy o'quv yurtlarida ikkinchi kursdan boshlab o'qituvchi odobini shakllantirishga yordam beradigan maxsus fanlar o'qitiladi. Masalan, «pedagogik etika» (o'qituvchi odobi)dan fakultativ mashg'ulotlar o'tkaziladi. Unda pedagogik kasbning axloqiy xarakteri, o'qituvchi odobining tushunchalari, norma va qoidalari bayon etiladi. Bu bo'lajak mutaxassislarni ma'naviy-axloqiy jihatdan mukammal shakllantirishga yordam beradi.

Talabalarda o'qituvchi odobini shakllantirish pedagogika va psixologiya hamda ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonida ham amalga oshiriladi. Bu fanlardan o'qitilayotgan mavzularning mazmuni bilan bog'liq ravishda talabalarning e'tibori kasbiy axloq-odob masalalariga jalb etiladi.

8. Istiqbolli rejalarning ba'zilarida oliy o'quv yurtini bitirib maktablarda, o'rta maxsus va kasb-hunar o'quv yurtlarida, korxonalarda ishlayotgan kishilar bilan uchra-shuvlar, ularning professional malakasini oshirishga yordam beradigan boshqa tadbirlar ham mo'ljallanadi. Bu oliy maktabni bitirib chiqqan kishilar bilan muntazam aloqa o'rnatish maqsadiga xizmat qiladi. Bu ish alohida diqqatga sazovordir. Chunki u mutaxassislar tayyorlash sohasida amalga oshirilgan barcha ishlar natijasining samaradorligini aniqlashga, xususan universitetni tamomlab chiqqan yosh o'qituvchilarning axloqiy sifatleri maktablar va xalq ta'limi idoralarining shu kundagi talablariga qay darajada mos kelishini aniqlashga yordam beradi. Oliy o'quv yurtini bitirib

chiqqan kishilar faoliyatiga doir axborotlar oliy o'quv yurtida ta'lim-tarbiya jarayoniga ayrim o'zgarishlar, tuzatishlar kiritishga ham imkon beradi.

9. Talabalarni tarbiyalash sohasidagi ishlarning samarali bo'lishi uchun professor-o'qituvchilar, ishchi va xizmat-chilarni ham mustaqillik g'oyalari, milliy ma'naviyatli qilib tarbiyalab borishni jiddiy rejalashtirish zarur. Ayrim oliy o'quv yurtlari talabalarni tarbiyalashning majmualij rejasibilan bir qatorda oliy o'quv yurtining xodimlari bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlarning istiqbolli rejasini ham tuzib, uni amalga oshiradilar. Bu rejalarda oliy o'quv yurtining barcha xodimlarini ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga doir tadbirlar nazarda tutiladi.

10. Oliy maktablar uchun tuzilayotgan tarbiyaviy ishlar dasturi va istiqbolli rejalarda o'quv yurtining maqsadi, vazifalari, tarbiya prinsiplari bayon etiladi, ular tarbiyaviy ishlarning asosiy yo'nalishlari va mazmunini belgilashga xizmat qiladi. Bir qancha oliy o'quv yurtlarida tuzilgan bunday dastur va istiqbolli rejalarda talabalarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashga imkon beradigan tadbirlar tizimi, faoliyat turlari ko'rsatib berilgan.

11. Pedagogika institutlari, universitetlar, o'rta umumiy ta'lim maktablari uchun yuqori malakali o'qituvchilar tayyorlashga da'vat etilgan. Shuning uchun ham oliy o'quv yurtining asosiy maqsadi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda (1997-yil) belgilangan umumiy o'rta ta'lim maktabining talab va ehtiyojlaridan, asosiy vazifalaridan kelib chiqadi.

Maktab ta'lim-tarbiya ishini O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar talablari bilan bog'lab olib boradi va o'quvchilarga tarbiya berishni umuminsoniy va milliy axloq talablari ruhida amalga oshiradi. Bu muhim vazifani, faqat, atroflicha va puxta tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassisgina amalga oshira oladi. Shuning uchun ham pedagogik ixtisosliklarni egallayotgan talaba-yoshlarga ta'lim-tarbiya

berishning asosiy maqsadi Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'rsatilganidek, ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, o'tmishdan qolgan mafkuraviy sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beradigan raqobatbordosh kadrlarni tayyorlashdan iborat.

12. Kishining barkamol shaxs sifatida rivojlanishi — uning faolligiga bog'liq. Shuning uchun ham oliy maktabda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning mohiyati yigit va qizlarning xilma-xil faoliyatini oqilona uyushtirish va faoliyatning barcha turlarini boshqarishdan iborat. Tarbiyaviy ishlar dasturi va istiqbolli rejalar talabalar faoliyatini uyushtirishga qaratilishi lozim. Talabalar bilan bajariladigan tarbiyaviy ishlar dasturini tuzishda talabalar faoliyatini quyidagi turlarga bo'lish maqsadga muvofiq.

Bilish faoliyati — o'qish va mustaqil bilim egallash. U professor-o'qituvchilar rahbarligida amalga oshiriladi va bu jarayonda talabalar ma'naviy-axloqiy jihatdan ham shakllana boradi.

Ijtimoiy- mafkuraviy faoliyat. Talabalar faoliyatining bu turi milliy va umuminsoniy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni, O'zbekiston davlatining me'yoriy hujjatlarini chuqur o'rganish, ularni targ'ib qilish, turmushga tatbiq etishda faol qatnashishdan iborat.

Mehnat faoliyati. Talabalar bajaradigan kasbiy o'quv-biluv mehnati, ijtimoiy faydali ishlar, unumli mehnat yoshlarda kasbiy malaka va ko'nikmalarni, qobiliyat va xarakterni, boshqa shaxsiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. O'qish va ijtimoiy faydali faoliyat natijasida shaxsning fuqarolik qiyofasi tarbiyalanadi, shaxs va jamiyat manfaati yo'lida xizmat qilish ko'nikmasi hosil bo'ladi, mehnatga va mulkka munosabat hissi rivojlanadi.

Faoliyatning barcha turlarida izchil qatnashish talabaning mustaqilligi va ijtimoiy faolligini oshirishda asos bo'lib

xizmat qiladi, ularda professional-kasbiy sifatlar va axloqiy fazilatlarni o‘stirishga imkon beradi.

II. Tarbiyaviy tadbirlar tizimi

1. Oliy o‘quv yurtida talabalarni tarbiyalashga xizmat qiladigan asosiy tadbirlar tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

Oliy ta’lim muassasasi doirasida o‘tkaziladigan tadbirlar:

– ta’lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishga doir masalalarni muhokama qilishga bag‘ishlangan ilmiy kengashning yig‘ilishlari;

– o‘qishga yangi qabul qilingan yigit va qizlar bilan o‘tkaziladigan talabalikka bag‘ishlov marosimi;

– talabalar yozda bajargan ishlarning yakuniga bag‘ishlab o‘tkaziladigan dam olish kechasi;

– oliy o‘quv yurtining professor-o‘qituvchilari, xizmatchilari va jamoat tashkilotlari ishtirokida o‘tkaziladigan majlislar va konferensiyalar;

– talabalar ilmiy jamiyatining ijtimoiy-gumanitar, psixologo-pedagogik va ixtisoslik fanlari bo‘yicha o‘tkaziladigan ilmiy-nazariy konferensiyalari;

– O‘zbekiston davlatining ichki va tashqi siyosatiga doir, shuningdek, Prezidentimizning hayoti va faoliyati to‘g‘risida, xalqaro ahvol to‘g‘risida, O‘zbekiston fani va ishlab chiqarishining yutuqlari, madaniyat, ma’naviyat, fizkultura va sportga doir ma’ruzalar;

– jamoat tashkilotlarining hisobot-saylov yig‘ilishlari, yoshlar, kasaba tashkiloti faollarining ta’lim-tarbiya masalalariga bag‘ishlab o‘tkazadigan majlisleri;

– talabalar bajaradigan ilmiy ishlar bo‘yicha konkurslar va ko‘rgazmalar tashkil etish;

– ijtimoiy-mafkuraviy masalalarga doir mavzularda ko‘rgazmalar;

– kafedralar yoshlar tashkiloti bilan hamkorlikda o‘tkazadigan tematik kechalar va kitobxonlar konferensiyalari;

- eng yaxshi fakultet uchun konkurs;
- an’anaviy bayram kunlari o‘tkaziladigan sayllarda talabalar, professor-o‘qituvchilar va xizmatchilarning qatnashishi;
- badiiy havaskorlik to‘garaklarining ko‘riklari va san’at festivallari;
- talabalarning ijtimoiy foydali mehnatini uyushtirish, yozgi dam olish oromgohlarida amaliyotga jo‘nab ketayotgan talabalarni tantanali ravishda kuzatib qo‘yish va kutib olish;
- sportning har xil turlari bo‘yicha musobaqalar va ommaviy poygalar o‘tkazish, turistik sayohat, slyotlar uyushtirish;
- baynalmilal do‘stlik klublari, milliy markazlar va boshqa klublar tashkil etish;
- oliy o‘quv yurtining jamoat tashkilotlari o‘tkazadigan vatanparvarlikka doir tadbirlar;
- ko‘ptirajli gazeta va devoriy gazetalarni muntazam chiqarish;
- bitiruvchi kurs talabalari bilan mutaxassislikka bag‘ishlov marosimini tayyorlash va o‘tkazish kabilar.

Fakultet bo‘yicha o‘tkaziladigan tadbirlar:

- guruhlarda jamoat tashkilotlarini saylash, yangi saylangan faollar o‘quvini uyushtirish;
- birinchi kurs talabalarining fakultet rahbarlari va xizmatchilari bilan uchrashuvi;
- yozgi dam olish oromgohlarida o‘tkazilgan pedagogik amaliyot va yozgi ishlarni yakunlash;
- fakultet dekani, kefedra mudirlarining yangi o‘quv yilidagi vazifalar, o‘zlashtirish, intizom masalalari bo‘yicha talabalarning yig‘ilishlarida chiqishlari;
- ijtimoiy fan kafedralari o‘qituvchilarining faollar bilan ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘rganish va talabalar orasida ma’naviy-tarbiyaviy ishlarga bag‘ishlangan qo‘shma yig‘ilishlari;

– ijtimoiy-mafkuraviy mavzularda, shuningdek, fan va texnikaning muhim muammolariga doir, madaniyat va axloqqa doir ma’ruzalar;

– dongdor kishilar bilan, urush va mehnat faxriylari bilan, xizmat ko’rsatgan o’qituvchilar bilan uchrashuvlar, tematik dam olish kechalari;

– kitobxonlar konferensiyalari, badiiy va ilmiy adabiyotlarga doir abzorlar;

– tarixiy kunlarga bag’ishlangan tantanali majlislar va kechalar, fakultetni bitirib chiqqanlar bilan uchrashuvlar o’tkazish;

– fakultetning hayoti, uning tarixini, mutaxassis kadrlar tayyorlash sohasidagi yutuqlari, fakultetdagi ilmiy tadqiqot ishlari yakunlarini aks ettiruvchi ko’rgazmalar va tashviqotning boshqa turlari;

– fakultetning eng yaxshi guruhi uchun tanlov o’tkazish;

– talabalarning eng yaxshi ilmiy ishlari uchun tanlov;

– fakultet bo’yicha faollarning yig’ilishlarini, jamoat tashkilotlarining konferensiyalarini o’tkazish;

– fakultet talabalarining universitet bo’yicha o’tkaziladigan namoyish, miting, konferensiya, uchrashuv kabilarda faol ishtirok etishi;

– guruhlarda ma’naviyatga doir mashg’ulotlar o’tkazish;

– maishiy turmush, jamiyatda o’zini tuta bilish normalari va qoidalari, turar joylarda yashaydigan talabalarining xonalarini toza, ozoda saqlash va davlat – jamoat mulkini asrash sohasidagi mas’uliyati kabi mavzularda suhbatlar o’tkazish;

– fakultetda o’zlashtirish va davomat, o’quv-metodik komissiyalarning faoliyati bo’yicha ko’riklar o’tkazish, o’quv semestri yakunlarini, o’quv intizomini muhokama qilib borish;

– fakultetda talabalar ilmiy jamiyatining ishini yaxshi yo’lga qo’yish;

– fakultetda sport musobaqalari va ommaviy-mudofaa musobaqalarini o‘tkazish;

– badiiy havaskorlik to‘garaklarining ishlarini tashkil etish;

– kinofilm va spektakllarni birgalikda ko‘rib, muhokama qilish, muzeylarga va qadimiy shaharlarga ekskursiyalar;

– jamoat tashkilotlari yo‘li bilan amalga oshiriladigan tadbirlar va boshqalar.

2. Odatda, talabalarni tarbiyalash dasturi va istiqbolli rejalarida har bir kursda bajariladigan tarbiyaviy ishlarning mazmuni batafsil bayon etiladi, tarbiyaning maqsadi, vazifalari, asosiy yo‘nalishlari va tarbiyaviy tadbirlar tizimi oydinlashtiriladi.

Bo‘ljak mutaxassisda ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni samarali shakllantirish uchun, avvalo, birinchi kurs talabalari qisqa vaqt ichida o‘quv ishlarini mustaqil bajarish malakasini egallab olishi, maishiy turmush masalalarini mustaqil ravishda bajarishni, o‘qish, dam olish va madaniy hordiq chiqarishni o‘rganib olishlari, talabalar faoliyatining barcha turlariga muntazam ravishda jalb etilishi zarur. Bu ishlarni tashkil etishda birinchi kurs talabalarining qiziqishlari va qobiliyat, imkoniyatlarini to‘laroq aniqlash va e‘tiborga olish, shuningdek, tanlagan kasbining xarakteridan kelib chiqadigan professional-axloqiy sifatlarni tarbiyalash vazifalarini nazarda tutish lozim.

Birinchi kurs talabalari bilan bajariladigan tarbiyaviy ishlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– har bir talabaning shaxsiy xarakter xususiyatini bevosita o‘rganish va uni tarbiyaviy ishlarni uyushtirishda e‘tiborga olish. Talabaning individual xususiyatini nazarda tutib faoliyatning barcha turlariga sekin-asta va faol jalb etish, o‘z-o‘zini tarbiyalashiga ko‘maklashish;

– guruhda sog‘lom boshlang‘ich jamoani vujudga keltirish;

– oliy maktabda o‘qish va talabalar turar joylarida yashash sharoitlariga tezroq ko‘nikishlari va odatlanishlariga ko‘maklashish, ularning o‘z huquq va burchlarini bilib olishlariga erishish;

– talabalarni o‘quv ishlarini muntazam bajarishga, bibliografiyadan foydalanishga o‘rgatish, o‘quv predmetlarining har bir mavzusini muntazam o‘zlashtirib borishiga erishish, ularda tanlagan kasbi va kelajakdagi amaliy faoliyati to‘g‘risida tushunchalar hosil qilish;

– yigit va qizlarning oliy o‘quv yurtiga kirguncha jamoat ishlari sohasida orttirgan tajribasini o‘rganish va tarbiyaviy ishlarni uyushtirishda uni e‘tiborga olish, talabalarni jamoat ishlariga faol jalb etish.

Birinchi kursda bajariladigan tarbiyaviy ishlar asosan talabalar jamoasini uyushtirish, oliy o‘quv yurti va fakultetning xususiyati, an‘analari bilan tanishtirish, ijtimoiy-gumanitar fanlarni chuqur egallashga qiziqish uyg‘otish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, mustaqil ishlash malakasini hosil qilishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Ikkinchi kursda talabalarning bir qismida oliy o‘quv yurtida ta‘lim olish sharoitlariga ko‘nikish jarayoni davom etadi. Shuning uchun ham ayrim talabalarning oliy maktab sharoitiga to‘la ko‘nikishiga yordam beradigan individual tarbiyaviy ishlarni davom ettirish lozim. Ikkinchi kursda tarbiyaviy ishlar, jumladan, quyidagi vazifalarni bajarishga qaratiladi:

– barcha talabalarning oliy maktabda o‘qish sharoitlariga ko‘nikish jarayonini tugallash, ta‘lim olish vazifalarini mustaqil ravishda bajarish sohasidagi malakalarini mustahkamlash, bilish nazariyasining umumiy metodologiyasini o‘rganish, talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etish;

– ilmiy dunyoqarashning nazariy asoslarini egallash, mamlakatimiz hayotida va xorijda ro‘y berayotgan madaniy va ijtimoiy hodisalarga qiziqish uyg‘otish va ularni mustaqil tahlil qilish malakasini shakllantirish;

– o‘rta umumiy ta‘lim maktablari va o‘rta maxsus, kasb-hunar kollejlarning jamoasi bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish va ayrim o‘quvchilar bilan individual ishlash malakasini hosil qilish.

Tarbiyaviy ishlar dasturi va istiqbol rejalarida yuqoridagi vazifalar va uni amalga oshirish vositalari, tarbiyaviy tadbirlar tizimi belgilab beriladi. Ikkinchi kursda bajariladigan tarbiyaviy ishlarning asosiy maqsadi mustaqillik mafkurasini ijodiy o‘rganish malakasini hosil qilish, targ‘ibotchilik sohasida dastlabki ko‘nikmalarni egallash, barcha ta‘lim-tarbiya ishlarini tanlagan kasbni egallashga yo‘naltirish, mustaqil ishlash malakasini takomillashtirishdan iborat.

3. Uchinchi, to‘rtinchi kurslarda bajariladigan tarbiyaviy ishlar alohida xususiyatga ega. Bu davrda barcha ishlar, ayniqsa, tanlagan kasbni egallash sohasidagi tadbirlar, bo‘lajak mutaxassislarni professional-axloqiy jihatdan tarbiyalashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Uchinchi, to‘rtinchi kurs talabalari bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar tanlagan kasbni egallashga, korxonalar, maktablarda va maktabdan tashqi muassasalarda o‘quv-tarbiyaviy ishlarini uyushtirish malakasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Bitiruvchi kursda ijtimoiy-gumanitar, psixologo-pedagogik va ixtisoslik fanlarini o‘rganish nihoyasiga yetkaziladi, natijada, talabalar kasbiy faoliyatni bajarishga tayyor bo‘lishlari, mamlakatimizda huquqiy demokratik jamiyat qurish qonuniyatlarini, xalqaro iqtisodiy, madaniy aloqa masalalarini tushunib olishlari, ma‘naviy-tarbiyaviy ishlarni uyushtirish tajribasiga ega bo‘lishlari lozim.

4. Talabalar tarbiyasi yaxlit, bir butun jarayondir. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mafkuraviy, aqliy, estetik, huquqiy, ekologik, mehnat tarbiyasidan ajralgan holda emas, balki ular bilan birgalikda amalga oshiriladi. Afsuski, tarbiyaviy ish rejalarida talabalarning tarbiyasi yaxlit jarayon ekanligi yetarli darajada ta'kidlab ko'rsatilmaydi va barkamol inson tarbiyasining ayrim tomonlari haddan ortiq darajada biri ikkinchisidan ajratilgan holda bayon etiladi.

Ayrim hollarda istiqbolli rejalar va dasturlarda tarbiyaning shakl va vositasi degan tushunchalar bir-biridan farq qilinmaydi. Tarbiyaning vositasi shakl tushunchasi bilan teng ma'noda ishlatiladi. Tarbiya vositasi talabalik faoliyatini, bo'lajak mutaxassisni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. Tarbiyaning shakli – tarbiya vositasi va metodlarini biror tadbirda yoki tadbirlar turkumida oydinlashtirishdan iborat. Masalan, talaba bajaradigan ijtimoiy ish- faoliyat turi bo'lib, tarbiyaning vositasi hisoblanadi. Ijtimoiy ishning biror aniq shakli: guruh majlisi, otaliq yordami, shanbalik kabilar tarbiyaviy ishning shakli hisoblanadi. Faoliyat yoki biror tadbir tarbiyaviy - axloqiy mazmunga ega bo'lsa va uni o'tkazayotgan paytda ma'naviy-axloqiy tomoniga diqqat, e'tibor qaratilsagina tarbiyaning bunday shakli va vositasi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning shakli yoki vositasi bo'la oladi.


5. Tarbiyaviy rejalarining ko'pchiligida talabalarni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashga doir ishlarning ommaviy shakllari mufassal bayon etilgan bo'lib, bu sohada talabalar bilan **individual ishlashga** juda kam e'tibor beriladi. Individual ishlar odatda, juda kam rejalashtiriladi. Bu esa mura'abiy – ustoz bilan talaba o'rtasida bevosita aloqalarning kamayishiga olib keladi. Har bir kursda talabalar bilan bajariladigan individual ishlarni puxta o'ylab rejalashtirish maqsadga muvofiq.

6. Tarbiyaviy ishda texnik vosita va kompyuterlardan foydalanish talabalarga o'tkazilayotgan tarbiyaviy ta'sirning samarali bo'lishiga, axborotlarning aniq va emotsional bo'lishiga imkon beradi. Kinofilm, fotosurat, magnit lentasiga yozib olingan nutq kabi vositalardan tarbiyaviy ishlar, tadbirlarda keng foydalanish mumkin. Kinofoto havaskorlikka doir ishlar talabalar jamoasini birlashtiradi, hamkorlik, do'stlik aloqalarini o'rnatish va o'stirishga yordam beradi. Talabalarning ijodiy faolligini oshiradi.

7. Oliy maktabda **o'quv jarayoni** tarbiyaning eng muhim vositasi hisoblanadi. Talabalarning ijtimoiy-gumanitar fanlarni chuqur o'zlashtirishi barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Oliy o'quv yurtida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq, chunki bu fanlar yoshlarda ma'naviy-axloqiy e'tiqodni shakllantirishning metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston tarixi, falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, sotsiologiya, huquqshunoslik, madaniyatshunoslik chuqur axloqiy mazmunga va katta tarbiyaviy kuchga ega. Ijtimoiy-gumanitar fanlar ta'limning nazariy qoidalarini bayon etish bilan birga, yoshlarda huquqiy, demokratik jamiyat kishisining axloqiy ideali to'g'risida tasavvurni shakllantiradi, kishilar ongidagi eskilik sarqitlarini bartaraf etishda yordam beradi.

8. Tarbiyaviy ish rejalarida talabalarni o'z-o'zini tarbiyalashga yordam beradigan ayrim ish shakllari o'z ifodasini topadi. Bunda talabalarning vaqti-vaqti bilan hisobot berishi, tanqid va o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojini o'stirishga yordam beradigan suhbatlar, kechalar va boshqa tadbirlar, ayrim yoshlar faoliyatida uchrab qoladigan axloqqa to'g'ri kelmaydigan xatti-harakatlarni guruhda muhokama qilish kabilar kiradi. Talabaning individual reja asosida

ishlashi ham o‘z-o‘zini tarbiyalashga yordam beradigan vositalardan biridir. Bunday reja talabanning o‘z tashabbusi bilan tuzilishi va uning jamiyat oldidagi hamda o‘zi oldidagi shaxsiy majburiyati bo‘lmog‘i lozim.



18-rasm. Oliy maktabda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish.

9. Talabanning **tarbiyalanganlik darajasini aniqlash** uchun uning professional yo‘nalishi va ma‘naviy-axloqiy qiyofasini ko‘rsatib turuvchi, shuningdek, tanlagan kasbi sohasida ishlashga, uni puxta egallashga ruhiy va amaliy tayyorligini bildiruvchi umumiy ko‘rsatkichlarga asoslanmoq lozim. Talabalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning holatini quyidagi asosiy mezonlar ko‘rsatkichlar yordamida bilib olish mumkin:

– o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida va o‘qishdan tashqari ishlarda talabanning tartib-intizomi, uning o‘quv mashg‘ulotlari va tarbiyaviy tadbirlarda davomati, o‘quv va jamoat ishlari sohasida berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishi;

– talabanning o‘zlashtirish sifati, ilmiy-tadqiqot ishlarida qatnashish darajasi;

– pedagogik, ishlab chiqarish amaliyotining natijalari (maktab, korxonah rahbarlarining tavsifnomasi va amaliyot rahbarlarining xulosalari);

– talabanning o‘quv yurtida va undan tashqari jamoat ishlarida, ijtimoiy foydali mehnatda, ommaviy sport va badiiy havaskorlik ishlarida qatnashuvi;

– talabalar kontingentining saqlanishi (qabul qilingandan bitiruvchi kursgacha);

– oliy maktabni tamomlagach, bitiruvchilarning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlashi, maktabda o‘quvchilarga ta‘lim va tarbiya berish ishining sifati (dastlabki ikki yilning natijalari hisobga olinadi);

– talabanning o‘qishdan tashqari paytdagi xulqi; turar joylarda, foydali mehnatda, ekskursiya va turistik safarlar paytidagi xatti-harakatlari, o‘zini tutishi;

– tasdiqlangan tarbiyaviy ishlar rejasining bajarilishi.

Yuqorida bayon etilgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha ta‘lim-tarbiya ishlarini chuqur va atroflicha tahlil qilish talabalarning tarbiyalanganlik darajasini obyektiv ravishda baholashga imkon beradi, shu bilan birga yoshlarni ma‘naviy-axloqiy jihatdan yanada takomillashtirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlar ko‘lamini belgilash va ularning ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Tarbiyaviy ishlarni istiqbolli rejalashtirish nima uchun zarur?

2. Tarbiyaviy ishlarni majmualiy rejalashtirishning ahamiyatini ayting.

3. Kasb odobini egallashga yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlarning xususiyatini ayting

4. Pedagogik kasblarni egallayotgan talabalar bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlarda nimalarga ko'proq e'tibor beriladi?

5. Tarbiyaviy ishlar oliy maktabda ta'lim tizimi va mazmuni bilan bog'liqligini izohlang.

6. Talabalar tarbiyaviy faoliyatining asosiy turlarini ayting.

7. Oliy maktabda tarbiyaviy tadbirlar tizimi nimalarni o'z ichiga oladi?

8. Birinchi, ikkinchi kurs talabalari bilan bajariladigan tarbiyaviy ishlarning vazifalarini ayting.

9. Yuqori kurslarda bajariladigan tarbiyaviy ishlarning xususiyati nimada?

10. Ommaviy va individual tarbiyaviy ishlar qanday rejalashtiriladi?

11. O'quv jarayoni tarbiyaning eng muhim vositasi ekanligini izohlang.

12. O'z-o'zini tarbiyalashning shakllari va ahamiyatini ayting.

13. Talabalarining tarbiyalanganlik darajasini ko'rsatuvchi mezonlarni ayting.

17-bob. O'Z-O'ZINI TARBIYALASH

I. Asosiy tushunchalar: tarbiyalash, qayta tarbiyalash, o'z- o'zini tarbiyalash, o'z -o'zini tarbiyalash dasturi.

II. Mavzuning muhim masalalari:

1. O'z -o'zini tarbiyalashning ahamiyati.
2. O'z - o'zini tarbiyalash dasturi.

III. Manbalar, adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1997.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T.: 1997.
3. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent, 2001.
4. Ochilov M. O'z-o'zini axloqiy tarbiyalash. «Muallim — qalb me'mori», T.: 2001, 104—110-betlar.

IV. Mustaqil o'qish uchun topshiriq

1. Tavsiya etilgan adabiyotlarni o'qib, matnlashtiring.

I. O'z - o'zini tarbiyalashning ahamiyati

1. Oliy o'quv yurtining talabalarida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalashning samaradorligi ko'p jihatdan bo'lajak mutaxassislarning o'z-o'zini tarbiyalashiga, ijobiy odatlar, yaxshi fazilatlarni o'zida ongli ravishda hosil qila olishiga bog'liq. Shaxsda o'z xuiqini, xatti-harakatlarini tartibga solish odati, ko'nikmasi hosil bo'lsagina ma'naviy-axloqiy tarbiyani to'la amalga oshirish mumkin. Vijdon, mas'uliyat hissi o'sgan bo'lishi, ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash kabilar kishini o'z-o'zini takomillantirishga undovchi kuch hisoblanadi.

Jahon xalqlari tajribasida mashhur pedagoglar tarbiya sohasida erishgan yutuqlarining muhim omillaridan biri — ular tarbiyalanuvchilarning faolligi va mustaqilligini oshirib, yoshlarning o'z-o'zini tarbiyalashi masalasini oqilona uyushtira bilganligidadir. Ular amalga oshirgan tarbiya tizimi

ta'sirchanligining boisi tarbiya jarayonini o'z-o'zini tarbiyalashga rahbarlik qilish jarayoniga aylantira bilganliklaridadir. Tarbiyaning maqsadini tarbiyalanuvchilar oldiga qiyinchiliklarni yengish va kelgusidagi yutuqlarga erishish vazifasi qilib qo'ya bilishdadir. Darhaqiqat, barkamol shaxsni tarbiyalash jarayoni faqat, kishi o'z-o'zini tarbiyalashga faol kirishgan va bu ishni muntazam davom ettirgan taqdirdagina samara berishi mumkin.

2. O'z-o'zini tarbiyalash talabada hosil bo'lgan ma'naviy kamolotning natijasidir. O'z-o'zini tarbiyalash talaba ongining o'sishi, faolligi, ijodkorligi, irodasining yuksak darajada chiniqqanligi natijasida amalga oshiriladi. O'z-o'zini tarbiyalash uchun kishi o'ziga nisbatan talabchan bo'lishi, o'zining kuch va qobiliyatiga ishonishi lozim. O'z-o'zini tarbiyalash ehtiyoji ma'lum shart-sharoitlar va tarbiya ta'sirida hosil bo'ladi. O'z-o'zini tarbiyalash uchun yigit va qizlar o'zining jamiyatda tutgan o'rni va burchini yaxshi tushunib olgan bo'lishi kerak.

O'z-o'zini tarbiyalash natijasida kishida tashqi tarbiyaviy ta'sirlarga ongli munosabat hosil bo'ladi va u o'z-o'zini tarbiyalashning xususiyatiga bog'liq ravishda tarbiyaviy ta'sirni kuchaytirishi yoki kamaytirishi mumkin. Ikkinchi tomondan, talabaning o'z-o'zini tarbiyalashi muhitning va oliy o'quv yurtidagi mavjud tarbiya tizimining ta'siri bilan belgilanadi. Bu yerda tarbiyaning obykti ham, subykti ham talabaning o'zidir.

Talabalarining o'z-o'zini tarbiyalashi bo'lajak mutaxassis-larning ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllanishini davom ettiradi, to'ldiradi, chuqurlashtiradi, barcha tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshiradi.

3. Odatda talabalarining o'z-o'zini tarbiyalashi masalasiga kam e'tibor beriladi. Buning sabablaridan biri o'z-o'zini tarbiyalashning ahamiyatini tushunib yetmaslik, oliy o'quv yurti, fakultet rahbarlari va professor-o'qituvchilar o'z-o'zini tarbiyalash ishining ahamiyatiga yetarli darajada e'tibor bermasligidadir. Shuni nazarda tutish lozimki, universitetning ko'pchilik talabalari – bu O'zbekiston Respublikasi maktab-

larining kelajakdagi o'qituvchisi. Ular maktabda ta'lim-tarbiya ishlarini bajarish bilan birga o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashi sohasidagi ishlarni ham uyushtirishi, tashkil etishi kerak. Shuning uchun ham bo'lajak mutaxassis talabalik chog'idayoq o'z-o'zini tarbiyalash metodikasi bilan qurollanishi zarur. Oliy o'quv yurtining talabalarida o'z bilimlarini takomillashtirishga, mustaqil ishlash, o'qib-o'rganishga intilish xislati mavjud. Ba'zan ana shu imkoniyat, intilish, o'z-o'zini tarbiyalash malakasi, tajribasi kamligi tufayli ro'yobga chiqmay qoladi. Chunonchi oliy maktabning o'quv rejalari talabalarga ma'naviy-axloqiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalashga doir bilim va malakalar berish uchun katta imkoniyatlarga ega. Pedagogikadan «O'qituvchi», «Axloqiy tarbiya» mavzularini o'qitish tajribasi ana shundan dalolat beradi.

4. Talabalarda o'zlarining xatti-harakatlari va xulq-odatlariga tanqidiy va jiddiy qarash, uning oqibatlarini shaxsiy va jamiyat manfaatlarini nuqtai nazaridan baholay olish odatini hosil qilish o'z-o'zini tarbiyalashning muhim bosqichi hisoblanadi. Oliy o'quv yurti talabasini o'rtoqlarining fikrlariga quloq solishga, ularning tanqidiy mulohazalarini hisobga olishga o'rgatish lozim.

O'z-o'zini tarbiyalash ishining samarali bo'lishi uchun, avvalo, talabalarda motiv, ijobiy-axloqiy sifatlar mavjud bo'lishi, yigit va qizlarning faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va xulqi uchun ma'lum tartib o'rnatish talab etiladi. Talabaning o'z-o'zini tarbiyalashi ulardagi ijobiy sifatlarni o'stirish va mavjud bo'lgan ayrim salbiy xislatlarni bartaraf etishdir.

II. O'z-o'zini tarbiyalash dasturi

1. Oliy o'quv yurtiga qabul qilingan talabalar bo'lajak mutaxassislarning mustaqil ishlarini uyushtirish va ularning o'z-o'zini tarbiyalashiga ko'maklashish uchun «Talabalarining o'z-o'zini tarbiyalash dasturi»ni tuzish lozim. Dasturning birinchi qismida bo'lajak mutaxassisning shaxsiy sifatlari ko'rsatiladi. Oliy o'quv yurti talabalar o'qish davrida bu sifatlarni o'zida tarbiyalashlari, kamol toptirishlari lozim.

Ikkinchi qismida faoliyat turlari ko'rsatiladi. Talaba ularni bajarish natijasida o'zida bu zaruriy sifatlarni hosil etadi.

2. Dasturning birinchi qismi quyidagilarni o'z ichiga oladi. Bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan demokratik jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti, shuningdek, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta'limning yangi mazmuniga o'tish – yangi o'quv rejalari va dasturlarining joriy etilishi oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlashning sifatini tubdan yaxshilashni talab etadi, bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy, mafkuraviy va ilmiy saviyasini yanada oshirish psixologo-pedagogik va metodik tayyorgarligini kuchaytirishni taqozo qiladi. O'zbekistonning hozirgi taraqqiyoti sharoitida, masalan, maktablarda mustaqillik mafkurasini, milliy istiqloq g'oyasini chuqur o'zlashtirib olgan, o'zi dars beradigan fanni puxta biladigan, pedagogik mahorat va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini egallagan o'qituvchigina muvaffaqiyatli ishlay olishi mumkin.

O'zbekiston maktabining bo'lajak o'qituvchisi milliy - ma'naviy qadriyatlarni va milliy axloqni egallagan bo'lishi zarur. O'qituvchining kuchi va tarbiyaviy ta'siri, avvalo mustaqillik mafkurasini, milliy istiqloq g'oyasini uning e'tiqodiga aylanganligidir. Oliy o'quv yurtlarida yangi o'quv rejalari va dasturlari joriy etilishi, milliy madaniy qadriyatlarga doir adabiyotlarning ko'plab nashr etilayotganligi, yuqori malakali professor-o'qituvchilarning mavjudligi talaba yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash ishini yuksak darajaga ko'tarishga imkon beradi.

Umumiy ta'lim maktabining o'qituvchisi chuqur ilmiy tayyorgarlikka, keng aqliy bilimlarga ega bo'lishi lozim. Bo'lajak mutaxassislarga berilayotgan bilimlar doirasini tobora kengaytira borish, ixtisoslik fanlariga doir bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish oliy maktabning asosiy vazifasidir. Shu bilan birga yosh mutaxassislar mustaqil o'qib, o'z bilimlarini muntazam oshira borish ko'nikmasini hosil qilishlari zarur.

Bo'lajak mutaxassislar chuqur psixologo-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishlari zarurligini hayotning o'zi

taqozo etmoqda. Bo'lajak o'qituvchi pedagogika fanining nazariyasi va tarixini, didaktikani, tarbiya nazariyasi va metodologiyasini, xususiy metodikalarni, psixologiya va bolalar fiziologiyasini yaxshi bilishi lozim.

Demokratik huquqiy jamiyat shakllana borishi bilan mutaxassislarning ijtimoiy hayotdagi o'rni va roli ham orta boradi. O'qituvchilar jamiyatimizda ilg'or va faol kishilardir. O'zbekiston davlati ijtimoiy-iqtisodiy, mafkura, madaniyat, ta'lim sohalarini tubdan isloh qilish vazifasini hal etishda o'qituvchilarga tayanadi.

Bo'lajak mutaxassisga xos shaxsiy, kasbiy, axloqiy sifatlarni egallash uchun talaba, avvalo, tanlagan kasbining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini anglab olishi, unda pedagoglik kasbiga qiziqish va ishtiyoq bo'lishi zarur. Bu fazilat shaxsning pedagogik yo'nalishini tavsiflaydi.

O'qituvchi shaxsini tavsiflaydigan muhim sifatlardan yana biri pedagogik ishga qobiliyatning mavjudligidir. Pedagogik kuzatuvchanlik, mushohada, muloqot madaniyati, pedagogik takt, tashkilotchilik, kasbiy mahorat, iqtidor kabilar pedagogik ishga qobiliyatning mavjudligini ko'rsatadi.

Huquqiy demokratik jamiyat va pedagogik faoliyatning xarakteridan kelib chiqadigan bu talablar bo'lajak mutaxassis qanday fazilatlarni egallab olishi zarurligini talabalarga yaqqol ko'rsatib beradi. Bo'lajak muallim egallab olishi lozim bo'lgan bu shaxsiy sifatlarning ularning intilishi uchun istiqbol marra, ideal bo'lib xizmat qiladi.

3. Dasturning ikkinchi qismida talaba bajarishi lozim bo'lgan vazifalar, ya'ni faoliyat turlari ko'rsatiladi. Bu topshiriqlarni bajarish jarayonida talaba mutaxassis uchun zarur bo'lgan professional axloqiy fazilatlarni egallab oladi. Unda jumladan, quyidagilar ko'rsatiladi.

Ma'naviy-mafkuraviy ishlar. Mustaqil O'zbekiston davlatining ichki va tashqi siyosatidan xabardor bo'l. Prezidentimizning nutqlari, asarlari, Oliy Majlis qabul qilayotgan qonunlarni, mamlakatimizda nashr etilayotgan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik, shuningdek, ixtisoslikka doir gazeta va jurnallarni o'qib bor. Ijtimoiy-siyosiy va pedagogik

vaqtlı matbuotni: «Xalq so‘zi», «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati», «Ma‘rifat», «Oila va jamiyat» kabi gazetalarni, shuningdek, «Xalq ta‘limi», «Boshlang‘ich ta‘lim», «Oila», «Sog‘lom avlod uchun» va boshqa ta‘lim, tarbiyaga doir jurnallarni muntazam o‘qib borishga odatlan.

O‘quvchilar, talabalar bilan, shuningdek, katta yoshdagi aholi orasida ma‘naviyatga, mafkuraga doir mavzularda suhbatlar o‘tkazishni, gazeta va jurnallarni ovoz chiqarib o‘qish, ijtimoiy-siyosiy mavzularda ma‘ruza matnlari tayyorlash va o‘qishni o‘rganib ol.

Guruhda, shuningdek, maktabda o‘quvchilar orasida va mahallada aholi o‘rtasida targ‘ibotchilik vazifasini bajar. Targ‘ibotchilik malakasi, ko‘nikmalarini puxta egallab ol. Jamoat topshirig‘ini, agar u juda kichik va juda oddiy bo‘lsa ham har kuni muntazam ravishda bajar.

Aqliy mehnat. Aqliy mehnat gigienasini bilib ol va unga amal qil. Tartib bilan ishlashga odatlan. Ma‘ruzalarni tinglash va uni yozib borishga odatlan. Kitob bilan mustaqil ishlashni o‘rganib ol, turli predmetlardan qachon va qanday dars tayyorlashni oldindan rejalashtirib, belgilab qo‘y. Majlislarda va munozaralarda so‘zga chiqish uchun yozma nutq tayyorlashni va nutq so‘zlashni o‘rgan, konferensiyalarda qatnashish uchun doklad va axborotlar tayyorlashni o‘rgan, bunday paytlarda aniq takliflar kiritish va o‘z taklifingni asoslab berishga odatlan. Bibliografiyadan foydalanishni, shuningdek, ta‘lim-tarbiya masalalariga doir mavzularda, ixtisosga doir mavzularda bibliografiya tuzishni o‘rganib ol. O‘qigan kitoblaringni kundalik daftaringa yozib bor, ulardan muhim joylarini ko‘chirib olishga, annotatsiya va taqrizlar yozishga odatlan. Sharq allomalari, Vatanimiz va jahon fani va madaniyatining mashhur arboblari kitob ustida qanday ishlaganliklarini, o‘z asarlarini qanday yaratganliklarini bilib ol. Aqliy mehnatni uyushtirishning ilmiy asoslari haqida tasavvurga ega bo‘l. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan xabardor bo‘l. Kompyuterda ishlashni o‘rgan, kompyuter vositasida kerakli ilmiy axborotlarni yig‘ib bor.

Tashkiliy mehnat. Yosh mutaxassisning, tarbiyachining ishi, avvalo, tashkiliy mehnat ekanligini bilib qo'y. Shuning uchun ham tashkilotchilik va boshqarishning mohiyati hamda prinsiplarini bilib ol. To'g'ri rahbarlik qilish rejalashtirishga, jamoa a'zolarining tashabbuskorligi va faolligiga asoslanadi. Jamoa a'zosi boshqarishni ham, bo'ysunushni ham bilishi kerak. Rahbar ishchan, odobli, obro'li bo'lishi lozim, u har bir ishda boshqalarga ibrat, namuna bo'la olsun, jamoa oldida mas'uliyatni his etsin. Rahbar o'zini jamoaning vakili deb hisoblashi, o'z-o'ziga talabchan bo'lishi, tanqid va o'z-o'zini tanqidni qo'llab-quvvatlashi zarur.

O'zingga va o'rtoqlariga nisbatan talabchan bo'l, buyurishni ham, itoat etishni, bajarishni ham bil, o'rtoqlaringning tanqidiy fikrlariga quloq sol. Sezgir, hushyor bo'l, o'rtog'ing o'qishda, turmushda, jamoat topshiriqlarini bajarishda qanaqa yordamga muhtojligini bilib ol va xushmuomalalik bilan unga ko'maklash. O'rtog'ing faoliyatida sen sezgan kamchilikni to'ppa-to'g'ri uning o'ziga ayt, bu nuqsonni tugatishni talab etishni, majlisda uni tanqid qilishni bil. Kishi bir-biriga qanchalik yaqin bo'lsa, bir-birini shunchalik hurmat etadi, bir-biriga nisbatan shunchalik talabchan bo'ladi, sen bu qoidaga amal qilishga odatlan.

Jamoat topshiriqlarini bajarishda va shaxsiy ishlarda tashabbus ko'rsat. Guruh tashkilotchisining va to'garak rahbarining vazifalari nimalardan iborat ekanligini, yoshlar tashkilotchisining vazifalarini bilib ol. Jamoat topshiriqlarini muntazam bajar. Egallayotgan mutaxassisliging bo'yicha to'garakka rahbarlik qil.

Sinf o'quvchilari bilan bajariladigan tarbiyaviy ishlarning rejasini tuzishni o'rgan, uni bajarishda ishtirok et. Sinfda umumiy majlisni, faollar yig'ilishini tayyorlash va o'tkazishni o'rgan. Axloqqa doir mavzularda suhbat, munozaralar o'tkazishni, kitobxonlar konferensiyasini tayyorlash va o'tkazishni, o'quvchilarni teatr, kinoga, sayrga olib borishni, devoriy gazeta chiqarishni, majlis qarorini yozishni, bajarilgan ishlar haqida hisobot yozishni, ayrim masalalarga

doir ko'rgazma tayyorlashni, jamoat oldida hisob berishni, qabul qilingan qarorga bo'ysunushni bilib ol.

Maishiy mehnat. Uy-ro'zg'or ishlari kursi hajmida maishiy xizmat bajarishni o'rganib ol.

Nafosat tarbiyasi. San'at inson hayotida juda katta rol o'ynaydi. Shaxsni tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalashning muhim vazifasi kishida estetik bilim va madaniyatni oshirishdan iborat. Madaniyat estetik qiziqishlarning kengligi va go'zallikni chuqur his etishda, kishilarning turmushi va mehnatida go'zallikning, nafosatning qaror topishida ifodalanadi.

Mehnat estetikasi. Mehnat qilishga odatlan, hech qachon erishilgan yutuqlar bilan cheklanib qolma. Hamma vaqt ijodiy ishlashga intil. Mehnatni tashkil etishda sen rahbarlik qilayotgan bolalar jamoasi va o'rtoqlaringning faolligi va tashabbuskorligiga tayan. Faqat ijodiy mehnat qilgan kishigina o'z ishida qanoat hosil qilishi mumkinligini unutma.

Chidamli va qat'iyatli bo'l, har doim kun tartibiga binoan ishla. Agar boshlagan ishni tugallash imkoni bo'lsa, uni hech qachon chala qoldirma. Mehnat estetikasi ishni puxta bajarish, tejamkorlik, halollik, kuch-g'ayrat sarflash, ishga ijodiy munosabatda bo'lish kabilarda namoyon bo'lishini esingda tut.

Kishini, kelajagi buyuk Vatanimiz — O'zbekistonning istiqloli, ravnaqi, baxt-saodati yo'lida bajarayotgan halol mehnati uchun qadrlashni o'rgan. Inson o'z mehnati bilan go'zalligini, mehnat insonni ulug'lashini doimo yodda saqla. O'z mehnatingni, faoliyatingni to'g'ri bohohlay olishni o'rgan. O'zingni kamtar tut, erishgan yutuqlaring bilan mag'rurlanib ketma, o'z tajribangni o'rtoqlaring bilan baham ko'r, boshqalarning yutug'idan quvon.

O'zing o'qiydigan auditoriyani, dars tayyorlaydigan joyni toza va tartibli saqlashga odatlan, doskaga va daftarga xatni chiroyli qilib yoz, suratlarni ham chiroyli chiz, doskaga bo'r bilan yozayotganingda qo'lingni, kiyimlaringni iflos qilma, ishni aniq va o'z vaqtida bajar, doimo hushyor bo'l.

Maishiy turmush estetikasi. O‘zing yashaydigan xanani ozoda tutishni, buyumlarni did bilan joy-joyiga qo‘yishni, tartibli saqlashni o‘rgan, bu ishga birga yashaydigan o‘rtoqlaringni ham jalb et. Kiyimni oddiy, ozoda va did bilan kiyishga odatlan. o‘zingga va oila a‘zolaringga mos keladigan kiyimni tanlay bil. Ko‘ylak, kostyum, oyoq kiyimlarini ehtiyotlab kiy, asra, kiyimlarni yuvish, yamash va dazmolashni o‘rgan. Kiyim- kechaklarni taxlab, joy-joyiga qo‘yishga odatlan, ust-bosh kiyimlarini stulning suyanchig‘iga ilib qo‘yish, krovatga tashlash yaramaydi.

Talabalar turur joylarida yashash qoidalariga rioya qil. Muomala madaniyatini o‘rgan, xushmuomala bo‘l.

Ekologik tarbiya. Tevarak-atrofdagi tabiatning go‘zal-ligiga e‘tibor ber va uni asra. Gullar, daraxtlar, o‘simliklarning nomlarini bilib ol. Tabiat manzaralarini aks ettirgan suratlarini tushunish va ulardan zavqlanishni o‘rgan, ayniqsa, O‘zbekiston va jahon rassomlari chizgan suratlar haqida o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkazishga tayyorlan. Tabiat to‘g‘risida o‘quvchilar bilan «Erta bahor», «Tong payti», «Bahorda, yozda, kuzda va qishda tabiat manzarasi» kabi mavzularda suhbatlar o‘tkaz. Yozgi oromgohlarga borish uchun tayyorlanish va oromgohda pedagogik amaliyot o‘tish paytida tabiatni, tabiiy manzaralarni diqqat bilan kuzat, asra.

San‘atning asosiy sohalari. Musiqa san‘atidan xabardor bo‘l. Musiqa inson madaniyatining eng yuksak ko‘rinish-laridan, muhim sohalaridan, ijtimoiy ong, mafkura shakllari-dan biridir. Musiqa hayotni bilib olish va unga ta’sir etish vositasi hisoblanadi. Musiqa badiiy obrazlarining latifligi bilan kishiga zavq va huzur bag‘ishlaydi.

Musiqa asboblari: fortopiano, skripka, bayan, do‘mbra, dutor, rubob, doira, chang, klarnet, violonchel, kontrabas, fleyta, arfa. Instrumental ansambl va orkestrlar.

Ovoz turlari: bas, tenor, soprano, metstso-soprano (o‘rta soprano). Vokal ansambl va xorlar. Musiqaning janrlari, turlari, ifodalash vositalari. Melodiya va jo‘r bo‘lish. Maqom, estrada va xalq qo‘shiqlari, instrumental musiqa. Taronalar, ballada, fantaziya, sonato (har xil temp va xarakterga ega

bo'lgan bir necha qismdan iborat musiqa asari), konsert, opera, balet, simfoniya, kantata (tantali ruhda yozilgan musiqa asari), oratoriya (umumiy xor, yakka ashulachi va orkestr uchun yozilgan musiqali dramatik asar).

Xalq musiqasi va ashulalari.

Mumtoz kompozitorlar ijodi, o'zbek kompozitorlari, hozirgi zamon chet el musiqasidan xabardor bo'l.

Tasviriy san'at. Rassomlik san'ati tasviriy san'atning bir turi, borliqni badiiy obrazlar vositasi bilan aks ettirishning va inson hayotiga ta'sir etishning vositalaridan biri. Rassomlik san'atining turlari: hashamatli suratlar, devorga osib qo'yiladigan suratlar, dekorativ suratlar, bezak suratlar, maxsus dastgohda ishlangan – o'rta katta kattalikdagi rasmlar, miniatyura (juda mayda, nafis va chiroyli qilib ishlangan rasm).

Rassomlik san'atining turlari: tarixiy janr; turmushni, urf-odatlarini tasvirlovchi suratlar, jang manzaralarini tasvirlovchi suratlar; portret janri, animalistik (hayvon rasmini chizish) janri, manzara janri, natyurtmort (jonsiz narsalarning suratini solish) janri.

Rassomlik san'atining texnikasi: moy bo'yoq (sir), akvarel (suvda eritib ishlatiladigan bo'yoq), keramikaga oid, mozaika (naqsh) va boshqalar.

Rassomlik san'atining qisqacha tarixi. O'tmishda yashagan mashhur rassomlar, hozirgi zamon rassomlarini bilib ol. Kartinalarni tushunishni, rasm doskasiga surat chizishni o'rgan.

Teatr. Inson hayotida teatrning ahamiyati va o'rni. Teatr tarixi, teatrning janrlari va turlari, teatrning taniqli arboblari, atoqli artistlarni bil. Pyesa (sahna asari). Pyesa tanlash va spektakl qo'yish. Sahna asari ustida ishlash metodikasi. Maktabda qo'g'irchoq teatri, drama to'garagi. Teatrga borish, spektaklni ko'rish va muhokama qilishni o'rgan.

Kino va televidenie. Ular san'atning keng tarqalgan ommaviy turi, siyosiy va ilmiy tashviqotning, shuningdek, kundalik voqealar haqida axborot olishning muhim vositasi, mafkuraning ta'sirchan qurollaridan biri.

Kino va televidenie tarixi. Kino-telefilmlarning muhim turlari: ilmiy - ommabop filmlar, o'quv filmlari, hujjatli filmlar, badiiy filmlar, O'zbekiston va chet el kino san'atining mashhur vakillarini bilib ol. Kinoteatrlarga borish, kino-telefilmlarni ko'rish va muhokama qilish, o'quvchilarga kino-telefilmlarni ko'rsatish metodikasini o'rgan.


Badiiy ijod. Badiiy tarbiya to'garaklaridan (drama to'garagi, xor to'garagi, raqs to'garagi, rasm to'garagi, amaliy san'at to'garagi) birida qatnash. Badiiy havaskorlik to'garaklarining konsertlarida, «Jonli gazeta»da ishtirok et. Musiqa asboblariidan birida kuy chalishni o'rgan.

Jismoniy faoliyat. Sportning biror turi bilan muntazam shug'ullan va sport razryadiga ega bo'l. Oliy maktabni bitirguncha sport seksiyalaridan birida qatnash. Jismoniy tarbiya va sportning asosiy turlarini bilib ol, sport bilan shug'ullanish malakasiga ega bo'l, sport normalarini topshir.

Fizkultura-sport bo'yicha jamoatchi — instruktorlik qilish uchun kerak bo'ladigan darajada bilim va malakalarni egalla. Sportning muhim turlari bo'yicha o'yinlar, musobaqalar uyushtirishni bilib ol. Har xil yoshdagi kishilar uchun ertalabki gimnastika mashqlari majmuini tuzib chiqishni va unga rahbarlik qilishni o'rgan. Maktab o'quvchilari uchun gimnastika normalarini esingda saqda. O'zbekistonning sport sohasidagi yutuqlarini va jahon rekordlarini bilib qo'y. Gavdani chiniqtirish qoidalarini o'rganib ol va unga muntazam amal qil. Jarohatlangan: zaharlangan, biror joyi singan, yarador bo'lgan, oftob urgan, suvga cho'kkan, hushdan ketgan kishilarga tez yordam ko'rsatish usullarini bilib ol.

Uy-joy, kiyim-kechak, sport anjomlari, sport binolari va boshqalarga qo'yiladigan sanitariya-gigiena qoidalarini bilib ol va ularni bajar. Turistik safarlarda qatnash, turistik yurishning rahbari yoki a'zosi sifatida kechqurunlari palatkada, gulxan yonida, ochiq havoda tunashga odatlan. Gulxanda ovqat pishirishni, notanish joyda kompasga, soatga qarab, yulduzga, mahalliy buyumlarga qarab mo'ljal olishni o'rgan.

Turistik safar rejasini tuzishni, marshrut muddatini belgilashni, kerakli anjomlar, kiyim-kechak, oziq-ovqatlar mo'ljalini bilib ol. O'quvchilarni va talabalarni turistik safarga olib chiquvchi rahbar vazifasini bajarishni o'rgan.



19-rasm.

4. Bu dastur mustaqil ishlarni rejalashtirish va tashkil etish uchun oliy o'quv yurtining talabalariga tavsiya etiladi. Shu asosda har yili guruhda bajariladigan ishlarning rejasi tuzib chiqiladi. Guruhning har bir talabasi ham o'zining qobiliyati va imkoniyatiga qarab bir yillik va semestrga mo'ljallab individual reja tuzib chiqadi. Dastur eng yaxshi guruh uchun tashkil etiladigan musobaqa-konkurs shartlarini tuzib chiqish uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi.

Bunday dastur talabalar egallab olishi lozim bo'lgan ijtimoiy-gumanitar, ixtisoslik, professional-pedagogik bilim va ko'nikmalar, ma'naviy-axloqiy sifatlarni yaxlit holda talabalar ko'z o'ngida gavalantirishga imkon beradi. Shu bilan birga u o'z-o'zini tarbiyalash vazifalarini bir qadar oydinlashtirib, talabani bu vazifalarni, faoliyat turlarini bajarish uchun safarbar etishga xizmat qiladi.

O‘z-o‘zini tarbiyalashning muhim omillaridan biri bo‘lajak mutaxassisning shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlari bilan kasbiy faoliyatning talablari o‘rtasidagi uzilishni bartaraf etish zarurligini anglab, tushunib olishdan iborat. Bunday tushunchaning hosil bo‘lishi har bir yigit, qizda o‘z bilimlarini oshirish ustida mustaqil ishlashga, o‘z-o‘zini tarbiyalashga intilish hissini uyg‘otadi. Ushbu dastur ana shu maqsadlarni amalga oshirishda yordam beradi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. O‘z -o‘zini tarbiyalash nima uchun zarur?
2. O‘z-o‘zini tarbiyalash tushunchasi nimani anglatadi?
3. O‘z-o‘zini tarbiyalashga talabalarning munosabati qanday?
4. O‘z-o‘zini tarbiyalash dasturi necha qismdan iborat va nimalarni o‘z ichiga oladi?

YAKUNIY NAZORAT TESTLARI

1. Oliy maktab pedagogikasining ta'rif:

- A. Pedagogikaning bir tarmog'i
- B. O'quvchilarni tarbiyalash haqidagi fan
- *C. Talabalarni o'qitish va tarbiyalash haqidagi fan
- D. Hamma javoblar to'g'ri

2. Oliy maktab pedagogikasining predmeti:

- A. Ta'lim-tarbiya jarayoni
- B. Oliy maktabda o'qitish
- C. Talabalarni tarbiyalash
- *D. Oliy maktabda ta'lim-tarbiyaning mazmuni, shakl-usullari

3. Oliy maktab pedagogikasining obyekti:

- *A. Professor-o'qituvchi bilan talabalarning hamkorlikdagi faoliyati
- B. Ta'lim-tarbiya tamoyillari
- C. Oliy maktabning talabasi
- D. B, C javoblar to'g'ri

4. «Oliy ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, xarakteri shu jamiyatda mavjud ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan belgilanadi va davlat hujjatlarida ijtimoiy buyurtma sifatida ifodalanadi»:

- A. Oliy maktabning maqsadi
- B. Pedagogik tamoyil
- *C. Oliy maktab pedagogikasining umumiy qonuniyati
- D. Hamma javoblar to'g'ri

5. Oliy ta'limning maqsadi, mazmuni, usullarining birligi:

- A. Pedagogik talab
- B. Oliy ta'limning prinsipi
- C. Didaktik qoida
- * D. Oliy maktab pedagogikasining umumiy qonuniyati

6. Oliy ta'limning pedagogik prinsiplari:

- A. Bilimlarni ongli o'zlashtirish
- B. Talabanning faolligiga tayanib o'qitish
- C. Ta'lim-tarbiyaning yosh xususiyatiga mosligi
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

7. Oliy ta'limning pedagogik prinsiplari:

- A. Izchillik va tizimlilikka rioya qilish
- B. Ta'limning ishlab chiqarish bilan bog'liqligi
- C. Ko'rsatmalilik, texnik vositalardan foydalanish
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

8. Oliy maktab pedagogikasining tadqiqot metodlari:

- A. Manbalar, adabiyotlarni o'rganib tahlil qilish
- B. Ma'lum maqsad bilan kuzatish
- C Sotsiologik metodlar
- * D. A,B,C javoblar to'g'ri

9. Oliy maktab pedagogikasining tadqiqot metodlari:

- A. Pedagogik eksperiment
- B. Reyting metodi
- C Matematik-statistik tahlil
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

10. Oliy maktab pedagogikasining manbalari:

- A. Ta'lim to'g'risidagi qonun, kadrlar tayyorlash milliy dasturi
- B. O'zbekiston Prezidentining asarlari
- C. O'zbekiston Respublikasining me'yoriy hujjatlari
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

11. Oliy maktab pedagogikasining manbalari:

- A. Markaziy Osiyolik allomalar, jahon pedagoglarining mumtoz asarlari
- B. O'zbek xalq pedagogikasi asarlari
- C. Pedagogikaga doir ilmiy asarlar
- * D. A,B,C javoblar to'g'ri

- 12. Oliy maktab pedagogikasining manbalari:**
A. Badiiy-pedagogik asarlar
B. Oliy ta'lim muassasalarining ish tajribasi
C. Avesto, Qur'on, Hadis va boshqa ilmiy adabiyotlar
* D. Hamma javoblar to'g'ri
- 13. O'zbekistonda oliy ta'lim nima asosida isloh etiladi?**
A. Oliy ta'lim haqidagi Nizom asosida
B. Ta'lim to'g'risidagi qonun
C. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi
* D. B,C javoblar to'g'ri
- 14. Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash qayerda amalga oshiriladi?:**
A. Toshkent texnika universiteti
B. Texnikumlar, bilim yurtlarida
* C. Oliy ta'lim muassasalarida
D. Javoblar to'g'ri emas
- 15. Oliy ma'lumotli mutaxassislar qaysi negizda tayyorlanadi?:**
A. Boshlang'ich ta'lim negizida
B. To'qqiz yillik o'rta ta'lim negizida
C. O'n bir yillik maktablar negizida
* D. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida
- 16. Oliy ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplari:**
A. Ta'lim-tarbiyaning insonparvarligi, demokratikligi
B. Ta'limning uzluksizligi
C. Oliy ta'lim dunyoviy xarakterdaligi
* D. Hamma javoblar to'g'ri
- 17. Oliy ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplari:**
A. Oliy ta'lim olish hamma uchun ochiqligi
B. Bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish
C. Davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi

* D. Hamma javoblar to'g'ri

18. O'zbekistonda oliy ta'lim necha bosqichli qilib tashkil etilgan:

A. Bir bosqichli

C. Uch bosqichli

*B. Ikki bosqichli

D. To'rt bosqichli

19. Oliy o'quv yurtiga talabalar qabul qilish nima asosida amalga oshiriladi:

A. Ixtiyoriy asosda

B. Majburiy asosda

*C. Davlat grantlari va shartnoma asosida

D. Javoblar to'g'ri emas

20. Oliy ta'limning asosiy atamalari:

A. Oliy ta'limning mazmuni

B. O'quv rejasi, o'quv fani, o'quv semestri

C. O'quv fani dasturi, o'quv yili

* D. Hamma javoblar to'g'ri

21. Oliy ta'limning asosiy vazifalari:

A. Davlat ta'lim standartlari asosida ta'limni tashkil etish, ta'lim amaliyotiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish

B. Ilg'or texnologiyalar asosida ta'lim-tarbiya usullarini takomillashtirish

C. Talabalarni mustaqillik mafkurasi, milliy istiqloq g'oyasi asosida tarbiyalash

*D. Hamma javoblar to'g'ri

22. Oliy ta'limning asosiy vazifalari:

A. Ta'lim, fan, ishlab chiqarish birlashuvini amaliyotga kiritish

B. Fan, texnika, texnologiyalarni rivojlantirish

C. Ta'lim xizmatlari bozorida raqobatli muhitni yaratish

* D. A,B,C javoblar to'g'ri

23. Oliy ta'limning asosiy vazifalari:

- A. Ta'xischilar, vasiylar, jamoat kuzatuvi nazoratida yangi jamoat boshqaruvini shakllantirish
- B. Rivojlangan mamlakatlar bilan foydali hamkorlik qilish
- C. Talabalarni darsga jalb etish
- * D. A,B javoblar to'g'ri

24. Oliy ta'lim muassasalarining turlari:

- A. Qarshi davlat universiteti
- B. Buxoro texnologiya instituti
- C. Jizzax davlat pedagogika instituti
- * D. Universitet, akademiya, institut

25. Oliy o'quv yurtida ta'lim-tarbiya ishlari nima asosda tashkil etiladi?

- A. Vazirlikning buyrug'i asosida
- B. Rektorning ko'rsatmasi asosida
- * C. Davlatning me'yoriy hujjatlari asosida
- D. Professor-o'qituvchi bilganicha

26. Oliy ta'lim muassasasida o'quv mashg'ulotlarining turlari

- A. Ma'ruza, seminar, maslahat
- B. Mustaqil ish, laboratoriya ishi, amaliyot
- C. Kurs ishi, bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyasi
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

27. Talabalarining fanlarni o'zlashtirishi qanday aniqlanadi?

- A. Savol-javob yo'li bilan
- B. Yozma ish shaklida
- C. Besh balli baholash usulida
- * D. Joriy, oraliq, yakuniy nazorat ko'rsatkichlari asosida

28. Oliy o'quv yurtini bitirish qanday tugallanadi:

- * A. Yakuniy davlat attestatsiyasi bilan

- B. Diplom olish bilan
- C. O'quv rejasini bajarish bilan
- D. Javoblar to'g'ri emas

29. Talabalarining dunyoqarashi qanday shakllantiriladi:

- A. Milliy istiqlol g'oyasi asosida
- B. Milliy, umuminsoniy qadriyatlar asosida
- C. Ta'limning insonparvarlik mazmuni bilan
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

30. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti (OTDTS, asosiy qoidalar) qachon tasdiqlangan?:

- A. Vazirlik qarori bilan 1998-yilda
- B. Xalq ta'limi vazirligi 2000-yilda
- * C. Vazirlar Mahkamasi qarori bilan 2001-yil 16-avgustda
- D. Prezident farmoni bilan 2002-yilda

31. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti nima asosida ishlab chiqilgan?

- A. Ta'lim to'g'risidagi Qonun asosida
- B. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida
- C. Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi prinsiplariga moslab
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

32. OTDTS, asosiy qoidalar nimani belgilaydi?

- A. Ta'lim sifati, mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablarni
- B. Bitiruvchilarning bilim darajasi, malakasiga qo'yiladigan umumiy talablarni
- C. O'quv yuklamasining hajmini, kadrlar sifatini baholash tartibini
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

33. Bakalavriat ta'lim yo'nalishi qaysi majburiy fanlar bloklarini o'zlashtirishni nazarda tutadi?

- A. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar

- B. Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar, qo'shimcha fanlar
- C. Umumkasbiy fanlar, ixtisoslik fanlar
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

34. Bakalavrlar nimaga tayyorlanadi?

- A. Oliy ma'lumotli shaxslar egallashi mumkin bo'lgan lavozimlarda ishlashga
- B. Magistraturada o'qishni davom ettirishga
- C. Qayta tayyorlash tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olishga
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

35. Magistratura qanday ta'lim?

- *A. Aniq mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim
- B. Oliy ta'limning unvoni
- C. To'liq oliy ma'lumot
- D. Javoblar to'g'ri emas

36. Magistratura qaysi fan bloklarini o'zlashtirishni nazarda tutadi?

- A. Umummetodologik fanlar blokini
- B. Mutaxassislik fanlari blokini
- C. Ilmiy faoliyat blokini
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

37. Magistrlar nimaga tayyorlanadi?

- A. Ilmiy tadqiqot, pedagogik va boshqaruv faoliyatiga
- B. Aspiranturada o'qishga
- C. Qo'shimcha kasb ta'limi olishga
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

38. Oliy ta'lim klassifikatori nima?

- A. Oliy ta'lim to'g'risidagi hujjat
- *B. Oliy ta'limning yo'nalishlari va mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxati
- C. Oliy ta'limning turlari
- D. Hamma javoblar to'g'ri

39. Oliy ta'lim klassifikatori qachon tasdiqlagan?

- A. YUNESKO tomonidan 1997-yilda
- B. Oliy ta'lim vazirligi 1998-yilda
- C. Xalq ta'limi vazirligi 2000-yil 18-avgustda
- * D. Vazirlar Mahkamasi 2001-yil 16-avgustda

40. Oliy maktablarning asosiy maqsadi:

- A. Talabalarni o'qitish va tarbiyalash
- B. Oliy ma'lumotli pedagoglar tayyorlash
- C. Oliy ma'lumotli muhandislar tayyorlash
- * D. Talabalarni yuqori malakali, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatli, raqobatbardosh mutaxassislar qilib yetishtirish

41. Oliy maktabning vazifalari:

- A. Talaba yoshlarda barkamol shaxs sifatlarini o'stirish
- B. Ilm-fanni taraqqiy ettirish
- C. Aholi o'rtasida ilmiy bilimlarni tarqatish
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

42. Oliy maktabni boshqarish prinsipi:

- * A. Yakka rahbarlik va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish prinsipi
- B. Kollegiallik prinsipi
- C. Yakka boshchilik prinsipi
- D. Hamma javoblar to'g'ri

43. Homiylar kengashining a'zolari:

- A. Muassis vazirlik vakili
- B. Mahalliy hokimiyat, ishbilarmor doiralari vakillari
- C. Jamoat tashkilotlari vakillari
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

44. Fakultet qayerlarda tuziladi?

- A. Oliy o'quv yurtining o'zida
- B. Korxonalar va muassasalar qoshida ham tuzilishi

mumkin

C. Boshqa shaharda ham tuziladi

* D. A,B javoblar to'g'ri

45. Kafedra nima?

*A. Oliy o'quv yurtida bir yoki bir necha turdosh fanlarni birlashtiruvchi asosiy tarmoq

B. Bir fan o'qituvchilardan tuzilgan bo'g'in

C. Fakultetning tarkibiy qismi

D. Javoblar to'g'ri emas

46. Kafedraning asosiy vazifalari:

A. O'quv mashg'ulotlarini yuksak saviyada o'tkazish

B. O'quv dasturlarini ishlab chiqish

C. Ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish

* D. Hamma javoblar to'g'ri

47. Oliy o'quv yurtining talabasi:

bo'yicha o'qishga qabul qilingan kishi

B. Institutda o'qiyotgan yigit, qiz

C. Oliy ma'lumot olishni istagan yoshlar

D. Javoblar to'g'ri emas

48. Talabani belgilangan huquqlari:

A. Ta'lim muassasasi faoliyatining muhim masalalarini muhokama qilishda qatnashish

B. Kutubxona, kompyuter markazi va boshqa bo'linmalar xizmatidan tekin foydalanish

C. Ilmiy anjumanlarda qatnashish, ilmiy ishlarini chop ettirish

* D. Hamma javoblar to'g'ri

49. Talabalik burchi:

A. Davlat ta'lim standartida belgilangan darajada bilimlarni egallash

B. Ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalariga rioya qilish

C. Jamoat tashkilotlari faoliyatida qatnashish

* D. Hamma javoblar to'g'ri

50. Oliy maktabning professor-o'qituvchilari tarkibi:

A. Professor, dotsent lavozimlari

B. Katta ilmiy xodim

C. Katta o'qituvchi, o'qituvchi, assistent

* D. A,C javoblar to'g'ri

51. Ilmiy darajalar:

A. Fan doktori

B. Fan nomzodi

C. Dotsent, professor

* D. A,B javoblar to'g'ri

52. Ilmiy unvonlar:

A. Fan nomzodi, fan doktori

B. Professor

C. Dotsent, katta ilmiy xodim

* D. B,C javoblar to'g'ri

53. Ilmiy daraja va unvonlarni kim beradi:

A. Oliy ta'lim vazirligi

B. Ixtisoslashgan ilmiy kengashlar

* C. Oliy Attestatsiya komissiyasi

D. Davlat test markazi

54. Professor-o'qituvchilarning burchlari, vazifalari:

A. Belgilangan o'quv yuklamasini bajarish

B. Ilmiy-uslubiy ishlarni bajarish

C. Talabalar bilan tarbiyaviy ishlarni bajarish, muntazam ravishda o'z malakasini oshirish

* D. Hamma javoblar to'g'ri

55. Pedagogik faoliyat nima?

A. O'qituvchining dars o'tishi

B. Talabalar bilan bajariladigan tarbiyaviy ish

C. O'qituvchi va talabaning hamkorligi

* D. Ijtimoiy va shaxsiy qimmatli motivlarga ko'ra ta'lim-

tarbiya maqsadiga yo'naltirilgan, pedagogik natija bilan yakunlanadigan xatti-harakatlar tizimi

56. Professor-o'qituvchi bilan talabaning hamkorlikdagi faoliyati, samimiy munosabatlari:

A. Ta'lim samaradorligini oshiradi

B. Tarbiyaviy ta'sirni kuchaytiradi

C. Ahamiyati uncha katta emas

* D. A,B javoblar to'g'ri

57. Professor-o'qituvchi talabalar bilan muomalada amal qiladigan axloqiy qoidalar

A. Muallimning muomalasi talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirsin

B. Muomalaning xarakteri uchun ma'naviy mas'uliyat o'qituvchi zimmasida

C. Muomala-talabalar xulqini boshqarish vositasi

* D. Hamma javoblar to'g'ri

58. Professor-o'qituvchi talabalar bilan muomalada amal qiladigan axloqiy talablar:

A. Professor-o'qituvchi o'z obro'yini oshiradigan xatti-harakatlarni qilishi kerak

B. O'qituvchining talabi nafaqat rasmiy, balki do'stona xarakterda ham bo'lishi lozim

C. Talabaning xato fikr-mulohazalariga bardoshli bo'lish

* D. A,B,C javoblar to'g'ri

59. Oliy maktabda ta'lim-tarbiya ishlari:

* A. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartini amalga oshirishni ta'minlaydi

B. O'rta ma'lumotli kadrlar tayyorlashga qaratilgan

C. Talabalarga milliylikni singdirishga xizmat qiladi.

D. Javoblar to'g'ri emas

60. Oliy maktabda o'quv semestri:

* A. Talabalar bilim o'zlashtirishi natijalarini yakunlash

bilan tugallanadi

- B. Talabalarni ta'tilga chiqarishga bog'liq
- C. Stipendiya masalasi hal etiladi
- D. Javoblar to'g'ri emas

61. Talabalarni kursdan-kursga o'tkazish:

- A. Dekanning farmoyishi bilan amalga oshiriladi
- B. Kafedraning taqdimoti bilan bajariladi
- C. Qarzlarni topshirish sharti bilan
- * D. Dekanning taqdimotiga binoan rektorning buyrug'i bilan

62. Iste'dodli yoshlarni tanlash:

- A. Oliy ta'lim muassasi talabalari orasidan
- B. Akademik litsey, kollejlarda o'quvchilari orasidan
- C. Konkurslar, test sinovlari tashkil etish yo'li bilan
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

63. Oliy maktabda ta'limning shakl-usullari:

- A. Ma'ruza, amaliy mashg'ulot, maslahat
- B. Seminar, laboratoriya ishi, nazorat ishi
- C. Mustaqil ta'lim, amaliyot
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

64. Ma'ruza nima?

- A. Ta'limning shakl -usullaridan biri
- B. Ma'ruzada qatnashish ixtiyoriy
- C. Ma'ruzada qatnashish majburiy
- * D. A, C javoblar to'g'ri

65. Amaliyot jarayonida talabaning vazifasi:

- A. Amaliyot dasturida ko'zda tutilgan topshiriqlarni bajaradi
- B. Amaliyot obyektining ichki tartib qoidalarini bajaradi
- C. Kundalik yuritadi, amaliyot rahbariga yozma hisobot topshiriladi
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

66. Amaliyot rahbari:

- A. Tajribali professor - o'qituvchilardan tayinlanadi
- B. Zaruriy tayyorgarlik ishlarini bajaradi
- C. Talabalar faoliyatini nazorat qiladi
- * D. A, B, C javoblar to'g'ri

67. O'quv jarayonining muhim vazifalari:

- A. Fan bloklaridagi bilimlarini o'zlashtirish
- B. Bilimlarni anglash, esda saqlash, amaliyotda qo'llash
- C. Talabalardagi tug'ma iqtidor kurtaklarini rivojlantirish
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

68. O'quv jarayonining komponentlari:

- A. Talabada maqsad- motiv mavjudligi
- B. Talabaning o'quv-biluv faoliyati
- C. Bilish-o'zlashtirish faoliyatini boshqarish; ta'limning natijasi
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

69. O'quv jarayonida pedagogik texnologiyani qo'llashning muhim prinsiplari:

- A. Moslik prinsipi
- B. Jadallik prinsipi
- C. Ilmiylik prinsipi
- * D. A, B, C javoblar to'g'ri

70. O'qish motivi nima?

- A. Ta'limning vazifasi
- B. O'qitish tamoyili
- * C. Talabani biror o'quv-biluv vazifasini bajarishga undovchi ichki ruhiy da'vat
- D. Javoblar to'g'ri emas

71. Talabada motiv hosil qilish yo'llari:

- A. O'quv mashg'ulotining qiziqarliligi
- B. Ta'lim mazmuni shaxsiy qimmatli, ahamiyatliligi
- C. Ta'lim kelgusi faoliyat bilan bog'liqligi

* D. Hamma javoblar to'g'ri

72. Talabani o'quv-biluv faoliyatmi:

A. Darslarga muntazam qatnashish

B. Seminarlarga qatnashish

C. Pedagogik amaliyotni o'tash

* D. Shaxsiy va ijtimoiy qimmatni motivga ko'ra ta'limning aniq bir vazifasini bilib olishga yo'naltirilgan xatti-harakatlar tizimi

73. O'quv-biluv faoliyatining turlari:

A. Ma'ruzalarda qatnashish faoliyati

B. Reproduktiv faoliyat

C. Mahsuldor faoliyat

* D, B, C javoblar to'g'ri

74. Talabalar o'quv-biluv faoliyatining bosqichlari:

A. O'quv vazifasini to'la idrok etish

B. O'quv vazifasini anglash, esda saqlash, aytib berish

C. Amaliyotda boshqa o'quv vazifalarini bajarishda qo'llash

* D. Hamma javoblar to'g'ri

75. O'quv jarayoniga texnologik yondashuv:

A. O'quv materialini o'zaro mantiqan bog'liq o'quv bo'laklariga ajratish

B. Natijaga erishish uchun harakatlarni izchil, ketma-ket bajarish

C. Loyihalashtirilgan ishlarning barchasi birdek bajarish

* D. Hamma javoblar to'g'ri

76. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash:

A. Talabalar bilan dars o'tishni osonlashtiradi

B. Vaqtni tejashga imkon beradi

* C. Talabalarning bilim o'zlashtirishini yuqori darajaga ko'taradi

D. Texnik vositalarni talab etadi

77. Masofaviy ta'lim:

- A. Maxsus axborot tizimiga asoslanadi
- B. O'qitishning yangi texnologiyasi
- C. Ta'limning muddati, joyi, vaqtini talabani o'zi belgilaydi
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

78. Masofaviy o'qitish:

- A. Malaka oshirish tizimida qo'l keladi
- B. Boshqa joyga bormasdan bilim olish imkoniyatini yaratadi
- C. Ta'lim xizmatlarini sifatini oshiradi
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

79. Masofaviy ta'limning vositalari:

- A. Elektron darslik, qo'llanmalar
- B. Kompyuter tizimidagi o'quv materiallari
- C. Masofaviy elektron-axborot kutubxonalar
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

80. Multimedia nima?

- A. Ta'limning zamonaviy texnologiyasi
- B. O'zbekistonda multimedia mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi muassasa tashkil etilgan
- C. Multimedia mahsulotlaridan ta'lim tizimida foydalanish tavsiya etilgan
- * D. Hamma javoblari to'g'ri

81. Ta'limning interfaol usuli:

- A. Faoliyatli yondoshuvga asoslanadi
- B. Birgalikdagi harakatlar degan ma'noni anglatadi
- C. Talabalar kichik guruhlariga bo'lib o'qitiladi
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

82. Interfaol usulda mashg'ulot o'tkazganda:

- A. O'qituvchi talabalarni faollikka da'vat etadi
- B. Tayyor bilimlardan emas, axborotlardan ham

foydalaniladi

C. Talabanning fikrlash faoliyati jonlantiriladi

*D. Hamma javoblar to'g'ri

83. Interfaol usulda dars o'tganda:

A. O'quv materialini bir necha o'quv topshiriqlariga ajratiladi

B. Har bir guruhning faoliyat yo'nalishi aniqlanadi, xato fikrlar tanqid qilinmaydi

C. Talabanning faoliyati yo'naltirib, rag'batlantirilib boriladi

*D. Hamma javoblar to'g'ri

84. Interfaol usullar:

A. Aqliy hujum, sinetika

B. Ish tariqasidagi o'yinlar, konkurs

C. Laboratoriya mashg'uloti, ma'ruza

*D. A, B javoblar to'g'ri

85. Talabalarning mustaqil ta'lim olishi:

A. Oliy ta'limga doir me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan

B. Bakalavriatlar mustaqil ta'lim olish malaka va ko'nikmalarini egallashi zarur

C. Magistratura talabasi mustaqil tadqiqotchilik ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak

*D. Hamma javoblar to'g'ri

86. Mustaqil ta'lim nima?

A. Kitob o'qish

B. Ilmiy asarlarni o'qish

*C. O'quv topshiriqlarini mustaqil, ijodiy, yoki o'qituvchining ko'rsatmasiga binoan bajarish

D. Uy vazifasini bajarish

87. Mustaqil ta'limning vazifalari:

*A. U yoki bu fan sohasida ilmiy axborotlarni to'plash

B. Bilimlarni barqaror malaka va ko'nikmalarga

aylantirish

C. Seminar mashg'ulotida qatnashish

D. A,B javoblar to'g'ri

88. Mustaqil ta'lim olishning turlari:

A. Ma'ruza bo'yicha mustaqil ishlar

B. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanish

C. Kurs ishlari, nazorat ishlariga doir topshiriqlar

*D. Hamma javoblar to'g'ri

89. Mustaqil ta'lim olish sohalari:

A. Malakaviy amaliyot bilan bog'liq mustaqil ishlar

B. Maxsus kurs, maxsus seminarlar bo'yicha mustaqil ishlar

C. Bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash bo'yicha mustaqil ishlar

* D. Hamma javoblar to'g'ri

90. Ma'ruzani tinglash va yozib olish:

A. Diqqatni ma'ruzachi bayon qilayotgan masalaga to'plash

B. Muhim g'oyalar, asosiy tushunchalarni yozib borish

C. Ma'ruza paytida jim turish

* D. A,B javoblar to'g'ri

91. Ma'ruzani matnlashtirayotganda:

A. Hoshiya qoldirib yozish

B. Imloga, husnixat qoidalariga rioya qilish

C. Yozuvlarni uyda o'qib chiqib, xatolarni to'g'rilash, to'ldirish

* D. Hamma javoblar to'g'ri

92. Talaba mustaqil ta'lim olishi uchun:

A. Kitoblarni topish va tanlay bilishi

B. Kitob bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak

C. Ustozlar maslahatiga amal qilishi lozim

* D. Hamma javoblar to'g'ri

93. Darslik, ilmiy asarlarni mustaqil o'rganish tartibi:

A. Tavsiya etilgan asar, mavzu oxirigacha o'qib chiqiladi, asarning muallifi, nomi bilib olinadi

B. Asarning annotatsiyasi, mundariyasi o'qib chiqiladi

C. Asosiy matn o'qib chiqiladi, muhim o'rinlari yozib olinadi

*D. Hamma javoblar to'g'ri

94. O'qib chiqilgan asarlarni yozib borish shakllari:

A. Reja shaklida

C. Tezis, sitata shaklida

B. Matn shaklida

* D. Hamma javoblar to'g'ri

95. Oliy ta'lim standartida magistratura ta'limiga

qo'yilgan umumiy malaka talablari:

A. Mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil eta olish

B. Ilmiy axborotlar bilan ishlash ko'nikmasini hosil qilish

C. Ilmiy ijod metodologiyasiga doir bilimlarni egallash

* D. Hamma javoblar to'g'ri

96. Talabalar bajaradigan ilmiy tadqiqot ishlarining vazifalari:

A. Fanlarni o'rganish jarayonida o'quv-tadqiqot ko'nikma, malakalarini o'stirish

B. Ilmiy manbalarni o'rganish, tahlil qilish qobiliyatini o'stirish

C. Ilmiy tadqiqot metodlarini bilib olish

* D. Hamma javoblar to'g'ri

97. Talabalar bajaradigan tadqiqot ishlarini yo'nalishlari:

A. O'quv mashg'ulotlari bilan bog'liq tadqiqot ishlari

B Kafedralarning ilmiy yo'nalishlari bilan bog'liq tadqiqot ishlari

C. Mustaqil bajariladigan ishlar

* D. A, B javoblar to'g'ri

98. Talabalar bilimni baholashning shakl-usullari:

A. Og'zaki baholash

- B. Yozma ishlarni baholash
- C. Test usulida va reyting tizimida baholash
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

99. Og'zaki va yozma baholashning nuqsonlari:

- A. Talabaga qo'yiladigan bahoning subyektivligi
- B. Talaba 3-4 ta savolga javob beradi, baho dasturning mazmunini bilgani uchun qo'yiladi
- C. So'rash va tekshirishga ko'p vaqt ketadi, nazorat uchun kompyuterni ishlatib bo'lmaydi
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

100. Test usulida baholashning nuqsonlari:

- A. Talaba o'z fikrlarini mustaqil ifodlay olmaydi
- B. Talaba to'g'ri deb hisoblagan javobning tanlashi mumkin, o'z javobini bera olmaydi
- C. Talaba shaxsining o'ziga xos xususiyatini ko'rsata olmaydi
- * D. Hamma javoblar to'g'ri

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat va mafkura. — T.: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. — T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Vatan — sajdagoh kabi muqaddasdir — T.: O'zbekiston, 1996. 68—78-betlar.
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. — T.: O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi. — T.: O'zbekiston, 1997.
6. Karimov I.A. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: 1997.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — T.: O'zbekiston, 1997.
8. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. — T.: O'zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. — T.: O'zbekiston, 1999.
10. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. — T.: O'zbekiston, 2000.
11. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. — T.: O'zbekiston, 2001.
12. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. — T.: O'zbekiston, 2002.
13. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l — demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. — T.: O'zbekiston, 2003.
14. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. — T.: O'zbekiston, 2004.
15. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 1992.
16. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi

qonuni. – T.: 1997.

17. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent. 1997

18. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2000.

19. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha me'yoriy hujjatlar. 1,2-qism, – T.: 1999.

20. Davlat oliy o'quv yurtining namunaviy ustavi (1999). Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. – T.: 2001

21. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limning me'yoriy hujjatlari. – T.: 2001.

22. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. 1-qism – T.: 2001.

23. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. 2-qism – T.: 2003.

24. Oliy ta'lim haqida nizom. Me'yoriy hujjatlar, 1-qism, – T.: 1998.

25. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti, asosiy qoidalar. Oliy ta'lim to'plami, – T.: 2001.

26. Oliy ta'limning yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori. Oliy ta'lim to'plami, – T.: 2001.

27. Fakultet to'g'risida nizom (1998). Oliy ta'lim to'plami – T.: 2001.

28. Kafedra to'g'risida nizom (1998). Oliy ta'lim to'plami, – T.: 2001.

29. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida namunaviy nizom (1998). Oliy ta'lim to'plami. – T.: 2001.

30. Oliy o'quv yurtida ta'lim jarayoni va uning xususiyatlari. «Будущий учитель» kitobi, Qarshi, 1983.

31. Zaripov K., Olimov Sh. Dars kuzatish va tahlil qilish – ta'lim, tarbiya sifatini oshirish vositasi. Buxoro, 2003.

32. Ismoilova Z.K. Tarbiyaviy ish metodikasi. – T.: «Istiqloq», 2003

33. Zunnunov A., Mahkamov U. Didaktika. – T.: «Sharq», 2006.

34. Очиллов М. Нравственное формирование будущего учителя. – T.: O'qituvchi, 1979.

35. Ochilov M., G'afforova T. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari. Qarshi, 1990.
36. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. –T.: O'qituvchi, 1997.
37. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, «Nasaf» nashriyoti, 2000.
38. Ochilov M. Muallim - qalb me'mori. Saylanma. – T.: O'qituvchi, 2001.
39. Ochilov S. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. – T.: «O'qituvchi», 1995.
40. Mavlonova R., va boshqalar. Pedagogika –T.: «O'qituvchi», 2001.
41. Педагогика высшей школы. Воронеж, 1989.
42. Pedagoglik kasbining fidoyilari. Samarqand, 2003.
43. Фарберман Б.Л. Прогрессивные педагогические технологии. Ташкент, 1999.
44. Ta'lim-tarbiya mazmunini zamonaviylashtirish. Ilmiy to'plam. Qarshi, «Nasaf» nashriyoti, 1997.
45. Universitetda pedagogik kadrlar tayyorlash. Ilmiy to'plam. Qarshi, «Nasaf» nashriyoti, 1998.
46. Yuzlikayev F.R. Интенсификация дидактической подготовки будущего учителя в педагогическом институте. – T.: «Fan», 1995
47. O'qituvchilik ixtisosiga kirish kursiga metodik ko'rsatmalar. – T.: 1980.
48. Choriyev A. Pedagogika va adabiyot: o'zaro bog'liqlik metodologiyasi. Qarshi, 2003.
49. G'afforova T. va boshqalar. Ta'limning ilg'or texnologiyalari. Qarshi. 2002.
50. Hoshimova M.K. Axloqiy tarbiyaning biologik asoslari. – T.: «O'qituvchi», 2004.

MUNDARJA

Muqaddima.....	3
I qism. OLIY TA'LIM DIDAKTIKASI	
1-bob. Oliy maktab pedagogikasiga kirish.....	5
2-bob. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limning maqsadi, vazifalari.....	12
3- bob. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti.....	17
4- bob. Oliy ta'lim muassasasi.....	27
5- bob. Oliy maktabning talabasi va professor-o'qituvchisi.....	36
6- bob. Oliy maktabda ta'lim ishlarini tashkil etish.....	52
7- bob. Oliy maktabning o'quv jarayoni.....	60
8- bob. Ta'limning ilg'or texnologiyalari va interfaol usullari.....	73
9- bob. Talabalarning mustaqil ta'lim olishi.....	87
10- bob. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari.....	99
11- bob. Talabaning bilim o'zlashtirishini nazorat qilish, baholash.....	116
II qism. OLIY MAKTABDA TARBIYAVIY ISHLAR NAZARIYASI VA METODOLOGIYASI	
12- bob. Talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayoni.....	134
13- bob. Oliy o'quv yurtida tarbiyaviy ishlarga yaxlit, tizimli, texnologik yondashuv.....	163
14- bob. Yoshlarda ilmiy dunyoqarashni hosil qilish.....	184
15- bob. Talabalar jamoasini shakllantirish.....	194
16- bob. Oliy o'quv yurtida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish.....	208
17- bob. O'z-o'zini tarbiyalash.....	225
Yakuniy nazorat testlari	238
Foydalanilgan adabiyotlar.....	257

СО Д Е Р Ж А Н И Е

Предисловие.....	3
Часть первая. ДИДАКТИКА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ	
<i>Глава I.</i> Введение в педагогику высшей школы.....	5
<i>Глава II.</i> Цель и задачи реформы высшего образования а Республике Узбекистан	12
<i>Глава III.</i> Государственный образовательный стандарт высшего образования	17
<i>Глава IV.</i> Высшее образовательное учреждение	27
<i>Глава V.</i> Студент и преподаватель высшего учебного заведения.....	36
<i>Глава VI.</i> Организация учебной работы в высшей школе.....	52
<i>Глава VII.</i> Учебный процесс в высшей школе	60
<i>Глава VIII.</i> Прогрессивные педагогические технологии и интерактивные методы обучения.....	73
<i>Глава IX.</i> Самостоятельная работа студентов.....	87
<i>Глава X.</i> Учебно – исследовательская и научно-исследо- вательская работа студентов	99
<i>Глава XI.</i> Контроль и оценка качеством усвоения знаний студентами.....	116
Часть вторая. ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ	
<i>Глава XII.</i> Процесс духовно- нравственного воспитания студентов	134
<i>Глава XIII.</i> Целостный, системный и технологический подход к воспитательной работе в высшем учебном заведении	163
<i>Глава XIV.</i> Развитие мировоззрения у студентов	184
<i>Глава XV.</i> Формирование студенческого коллектива в высшей школе.....	194
<i>Глава XVI.</i> Планирование воспитательной работы в вузе.....	208
<i>Глава XVII.</i> Организация самовоспитания студентов....	225
Педагогические тесты для контроля и оценки знания студентов.....	238
Использованная литература.....	257

THE MAINTENANCE

The foreword	3
Part I. DIDACTICS OF HIGHER EDUCATION	
<i>Chapter I.</i> Introduction in pedagogics of the higher school	5
<i>Chapter II.</i> The purpose and problems of reform of higher education in the Republic of Uzbekistan	12
<i>Chapter III.</i> The state educational standard of Higher education	17
<i>Chapter IV.</i> The Higher educational establishment	27
<i>Chapter V.</i> The student and the teacher of a higher educational institution	36
<i>Chapter VI.</i> The organization of study work in the higher school	52
<i>Chapter VII.</i> Educational process in the higher school	60
<i>Chapter VIII.</i> Progressive pedagogical technologies and interactive methods of training	73
<i>Chapter IX.</i> Independent work of students	87
<i>Chapter X.</i> Educational research and scientific work of students	99
<i>Chapter XI.</i> The control and a grading quality of mastering knowledge of students	116
Part II. THE THEORY AND THE TECHNIQUE OF TRAINING WORKS IN THE HIGHER SCHOOL	
<i>Chapter XII.</i> The process of spiritually - moral training of students	134
<i>Chapter XIII.</i> The complete, systematic and technological approach to the training work in a higher educational institution.....	163
<i>Chapter XIV.</i> The development of outlook in students	184
<i>Chapter XV.</i> The formation of students' collective in the high school.....	194
<i>Chapter XVI.</i> Planning of educational work in high school	208
<i>Chapter XVII.</i> The organization of self-education of students	225
Pedagogical tests for the control and grading of knowledge of students	238
Sources and the literature	257

Malla OCHILOV, Nigora Mallayevna OCHILOVA

OLIY MAKTAB PEDAGOGIKASI

Toshkent — «ALQACHI» — 2008

Muharrir: **M.Mirkomilov**
Tex.muharrir: **A.Moydinov**
Musahhah: **M.Hayitova**
Kom.sahifalovchi: **G.Arifxo‘jayeva**

Bosishga ruhsat etildi 10.06.08 yil. Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$.
«Times New Roman» garniturasi. Ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 19,5. Nashr bosma tabog‘i 19,0. Tiraji 2000.
Buyurtma №

«ALOQACHI matbaa Markazi» bosmaxonasida chop etildi.
700000, Toshkent sh., A.Temur ko‘chasi, 108-uy.